

MUQADDIMA

Hurmatli mijoz,

Yangi KIA avtomobilingizni tanlaganingiz uchun rahmat.

Global avtomobil ishlab chiqaruvchisi sifatida o'z e'tiborini favqulodda qiymatga ega yuqori sifatli avtomobillarni yaratishga Kia siz kutganingizdan ham yuqori bo'lgan mijozlarga xizmat ko'rsatish amaliyotini taqdim etishga intiladi.

Bu Foydalanuvchi qo'llanmasi sizdagi modelning barcha variantlari uchun amal qiladi va barcha parametrlar, xususiyatlar hamda mavjud jihozlar, shuningdek, texnik xizmat ko'rsatish ehtiyojlarini tasvirlaydi. Shu sababli, bu qo'llanmada avtomobilingiz uchun sotib olinmagan ixtiyoriy jihozlar, mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlari yoki mintaqangizda mavjud bo'lmagan xususiyat va funksiyalar ham tasvirlanishi mumkin. O'zingiz va keyingi haydovchilar ma'lumot olish maqsadida ishlatishi uchun bu qo'llanmani doim avtomobilda saqlang.

Vakolatli Kia dilerlik markazlari zavodda o'qitilgan texnik mutaxassislar, tavsiya etilgan maxsus xizmat ko'rsatish vositalari va avtomobilingizdan foydalanish paytida mashinangizga texnik xizmat ko'rsatishda yordam berish uchun haqiqiy Kia zaxira qismlarini taqdim etadi.

Bu Foydalanuvchi qo'llanmasidagi barcha ma'lumotlar nashr etilgan davr uchun to'g'ri ma'lumotlarni o'zida jamlaydi. Biroq Kia o'z mahsulotlarini takomillashtirishda davom etar ekan, kompaniya bu qo'llanma yoki o'z avtomobillariga istalgan vaqtda ogohlantirishsiz va hech qanday majburiyatlarsiz o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida saqlaydi.

Ehtiyotkorlik bilan haydang va Kia avtomobilingizdan zavqlaning!

© 2025 Kia Corporation

Barcha huquqlar himoyalangan. Kia korporatsiyasi yozma roziligisiz qo'llanmani to'liq yoki qisman ko'paytirish yoki tarjima qilish mumkin emas.

Koreyada chop etilgan

Qo'llanmadan foydalanish tartibi

Biz avtomobilingizni haydashdan maksimal zavq olishingizga yordam berishni xohlaymiz. Mazkur Foydalanuvchi qo'llanmasi sizga turlicha yordam berishi mumkin.

Bu qo'llanmani to'liq o'qib chiqishingiz qattiq tavsiya etiladi. O'lim yoki tan jarohati ehtimolini kamaytirish uchun bu qo'llanmadagi OGOHLANTIRISH va DIQQAT bo'limlarini o'qib chiqishingiz shart.

Avtomobildan qanday zavqlanishni eng yaxshi usulda tushuntirish uchun mazkur qo'llanmadagi matnlar tasvirlar bilan to'ldirilgan. Qo'llanmani o'qish orqali xususiyatlar, xavfsizlikka oid muhim ma'lumotlar va turli yo'l shariotlarida avtomobil boshqarish bo'yicha maslahatlar bilan tanishasiz.

Bu qo'llanmaning umumiy maketi mundarijada berilgan. Muayyan soha yoki mavzuni qidirishda indeksdan foydalaning, unda qo'llanmadagi barcha ma'lumotlarning alifbo tartibidagi ro'yxati mavjud.

Boblar: Bu qo'llanma to'qqizta bob va bitta ilovadan tashkil topgan. Har bir bob qisqa mundarija bilan boshlanadi va sizga kerakli axborot biror bobda bor yoki yo'qligini bir qarashda bilib olishingiz mumkin.

Bu qo'llanmada turli OGOHLANTIRISH, DIQQAT chaqiruvi va ESLATMALARNI uchratasiz. Bu OGOHLANTIRISHLAR shaxsiy xavfsizligingiz darajasini oshirish uchun tayyorlangan. Bunday OGOHLANTIRISH, DIQQAT va ESLATMALARDAGI BARCHA tartib-qoidalar va tavsiyalarni diqqat bilan o'qib chiqib, ularga rioya qilishingiz kerak.

OGOHLANTIRISH

OGOHLANTIRISH belgisi agar ogohlantirishga e'tibor berilmasa, shikastlanish, jiddiy tan jarohati yoki o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan holatni bildiradi.

DIQQAT

DIQQAT, agar bu diqqatga chorlovga e'tibor berilmasa, avtomobilingizga shikast yetkazilishi mumkin bo'lgan holatni bildiradi.

ESLATMA

ESLATMA qiziqarli yoki foydali axborot berilayotganini anglatadi.

Mundarija

Kirish	①
Avtomobilingiz haqida qisqacha ma'lumot	②
Avtomobilingizning xavfsizlik funksiyalari	③
Avtomobilingiz funksiyalari	④
Avtomobilni boshqarish	⑤
Haydovchiga yordam tizimi	⑥
Favqulodda holatlarda nima qilish kerak	⑦
Texnik xizmat	⑧
Texnik tavsif va iste'molchi uchun axborot	⑨
Qisqartma	Ⓐ
Indeks	Ⓛ

Yonilg'i talablari	1-2
Avtomobilga o'zgartirish kiritish	1-4
Avtomobilni chiniqtirish jarayoni	1-5
Avtomobilni to'xtash yoki to'xtatish paytida kuyish xavfi.....	1-5

Kirish

Yonilg'i talablari

Qo'rg'oshinsiz

Yevropa uchun

Yangi Kia avtomobilingiz faqat OMT (Oktan miqdori bo'yicha tadqiqot) 95/AKI (antidetonsiya indeksi) 91 yoki undan yuqori qo'rg'oshinsiz yonilg'idan foydalanishga mo'ljallangan.

Siz OMT 91~94/AKI 87~90 oktanli qo'rg'oshinsiz benzindan foydalanishingiz mumkin, ammo bu avtomobil unumdorligi biroz pasayishiga olib kelishi mumkin. (Metanol aralashgan yonilg'idan foydalanmang.)

Yevropadan tashqari

Yangi Kia avtomobilingiz faqat OMT (Oktan miqdori bo'yicha tadqiqot) 91/AKI (antidetonsiya indeksi) 87 yoki undan yuqori qo'rg'oshinsiz yonilg'idan foydalanishga mo'ljallangan. (Metanol aralashgan yonilg'idan foydalanmang.)

Yangi avtomobilingiz qo'rg'oshinsiz yonilg'i bilan maksimal samaradorlikka erishish, shuningdek, chiqindi gazlar emissiyasi va o't oldirish svechasi ifloslanishini kamaytirishga mo'ljallangan.

⚠️ DIQQAT

Aslo qo'rg'oshinli yonilg'idan foydalanmang. Qo'rg'oshinli yonilg'idan foydalanish katalitik konverterga zarar yetkazadi va dvigatelni boshqarish tizimining kislorod sensorini shikastlaydi va emissiya nazoratiga ta'sir qiladi.

Hech qachon yonilg'i bakiga belgilanganidan boshqa yonilg'i tizimini tozalash vositalarini solmang. (Kia batafsil ma'lumot olish uchun vakolatli Kia dileri/

xizmat hamkoriga murojaat qilishni tavsiya qiladi.)

⚠️ OGOHLANTIRISH

- Yonilg'i quyish paytida shlang avtomatik ravishda o'chganidan keyin yana quymang.
- Avariya yuz berganda yonilg'i to'kilmasligi uchun har doim yonilg'i baki qopqog'i mahkam yopilganini tekshiring.

Qo'rg'oshinli (mavjud bo'lsa)

Ba'zi mamlakatlarda avtomobilingiz qo'rg'oshinli benzindan foydalanishga mo'ljallangan.

Qo'rg'oshinli benzin ishlatmoqchi bo'lganingizda, Kia vakolatli dileriga murojaat qilishingizni tavsiya qilamiz.

Qo'rg'oshinli benzinning oktan darajasi qo'rg'oshinsizi bilan bir xil.

Alkogol va metanolli benzin

Qo'rg'oshinli yoki qo'rg'oshinsiz benzin bilan birga yoki uning o'rniga gazoxol – benzin va etanol aralashmasi (don spirti deb ham ataladi) va tarkibida metanol bo'lgan benzin yoki gazoxol (yog'och spirti deb ham ataladi) sotilmoqda.

Tarkibida 10% dan ortiq etanol bo'lgan gazoxoldan foydalanmang va tarkibida metanol bo'lgan benzin yoki gazoxoldan foydalanmang. Bu yonilg'ilar haydashda muammolarga olib kelishi va yonilg'i tizimi, dvigatelni boshqarish tizimi va emissiya nazorati tizimiga zarar yetkazishi mumkin.

Haydash qobiliyatida muammolar yuzaga kelsa, har qanday turdagi gazoxoldan foydalanishni to'xtating.

Avtomobilning shikastlanishi yoki haydash qobiliyatiga aloqador muammolar, agar ular quyidagilardan foydalanish natijasida yuzaga kelsa, ishlab chiqaruvchining kafolati bilan qoplanmasligi mumkin:

1. Tarkibida 10% dan ortiq etanol bo'lgan gazaxol.
2. Tarkibida metanol bo'lgan benzin yoki gazaxol.
3. Qo'rg'oshinli yonilg'i yoki qo'rg'oshinli gazaxol.

* ESLATMA

Tarkibida metanol bo'lgan gazaxoldan aslo foydalanmang. Haydash qobiliyatini buzadigan har qanday gazoxol mahsulotidan foydalanishni to'xtating.

Boshqa yonilg'ilar

Quyidagi yonilg'ilardan foydalanish

- Tarkibida silikon (Si) bo'lgan yonilg'i,
- Tarkibida MMT (metilsiklopentadienil marganets trikarbonil), marganets bo'lgan yonilg'i,
- Tarkibida ferrosin (Fe) bo'lgan yonilg'i va
- Tarkibida boshqa metall qo'shimchalar bo'lgan yonilg'ilar,

avtomobil va dvigatelning shikastlanishiga yoki tiqilib qolishi, noto'g'ri yonishi, yomon tezlashishi, dvigatelning to'xtab qolishi, katalizatorning erishi, anormal korroziya, qisqarishi va boshqalarga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, Nosozlik indikator lampasi (MIL) yonishi mumkin.

* ESLATMA

Yangi avtomobil uchun cheklangan kafolat ushbu yonilg'i turlaridan foydalanish natijasida yuzaga kelgan

yonilg'i tizimining shikastlanishi yoki ishlashga oid muammolarni qamrab olmaydi.

MTBE ishlatish

Kia avtomobilingizda tarkibida 15,0% ortiq (vaznida kislorod kontenti 2,7%) MTBE (Metil uchinchi darajali butil efir) bo'lgan yonilg'idan foydalanmaslikni tavsiya qiladi. Tarkibida 15,0% ortiq (vaznida kislorod kontenti 2,7%) MTBE bo'lgan yonilg'i avtomobilning samaradorlik darajasini pasaytiradi va bug'li tiqilishlar yoki ishga tushishning qiyinlashuviga sabab bo'ladi.

* ESLATMA

Yangi avtomobil uchun cheklangan kafolat tarkibida metanol bo'lgan yonilg'i yoki tarkibida 15,0% ortiq (vaznida kislorod kontenti 2,7%) MTBE (Metil uchinchi darajali butil efir) bo'lgan yonilg'idan foydalanish natijasida yuzaga kelgan yonilg'i tizimining shikastlanishi yoki ishlashga oid muammolarni qamrab olmaydi.

Metanol ishlatmang

Avtomobilingizda tarkibida metanol (metil spirti) bo'lgan yonilg'i turlaridan foydalanmasligingiz kerak. Bu turdagi yonilg'i avtomobil samaradorligini pasaytirishi va yonilg'i tizimi, dvigatel tizimi va emissiya nazorati tizimi komponentlariga shikast yetkazishi mumkin.

Yonilg'i qo'shimchalari

Kia sizga OMT (Oktan miqdori bo'yicha tadqiqot) 95/AKI (antidetonsiya indeksi) 91 yoki undan yuqori (Yevropa uchun) yoki OMT (Oktan miqdori bo'yicha

tadqiqot) 91/AKI (antidetonatsiya indeksi) 87 yoki undan yuqori (Yevropadan tashqari) qo'rg'oshinsiz benzindan foydalanishni tavsiya qiladi.

Sifati yaxshi benzin, jumladan, yonilg'i qo'shimchalaridan muntazam foydalanmaydigan va dvigatelni ishga tushirishga oid muammolarga duch keladigan yoki dvigateli silliq ishlamaydigan mijozlar motor moyini almashtirish vaqtida yonilg'i bakiga bir butilka qo'shimcha qo'shishi kerak.

Qo'shimchalar va ulardan qanday foydalanish haqidagi axborotni ixtisoslashgan ustaxonadan olishingiz mumkin. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

Mashinani chet elda boshqarish

Agar avtomobilingizni boshqa mamlakatda haydamoqchi bo'lsangiz:

- Ro'yxatdan o'tish va sug'urtaga oid barcha tartib-qoidalarga rioya qiling.
- Maqbul yonilg'i mavjud ekanini aniqlang.

Avtomobilga o'zgartirish kiritish

Bu avtomobilga o'zgartirishlar kiritilmasligi kerak. Avtomobilingizni o'zgartirish uning ishlashi, xavfsizligi yoki chidamliligiga ta'sir qilishi va hatto hukumatning xavfsizlik va chiqindilarni chiqarish qoidalarini buzishi mumkin.

Bundan tashqari, har qanday o'zgartirish natijasida yuzaga keladigan zarar yoki ishlash muammolari kafolat ostida qolmasligi mumkin.

- Ruxsatsiz elektron qurilmalardan foydalansangiz, bu avtomobil noto'g'ri ishlashiga, simlar shikastlanishiga, batareya quvvatlanmasligi va yong'inga olib kelishi mumkin. Xavfsizligingiz uchun ruxsatsiz elektron qurilmalardan foydalanmang.

Avtomobilni chiniqtirish jarayoni

Dastlabki 1000 km (600 mil) masofada bir nechta oddiy ehtiyot choralariga rioya qilish orqali avtomobilingiz samaradorligi, tejamkorligi va xizmat muddatini uzaytirishingiz mumkin.

- Dvigatelni zo'riqtirmang.
- Haydash vaqtida dvigatel tezligini (ayl/daq yoki bir daqiqada aylanishlar soni) 3000 ayl/daq doirasida saqlang.
- Uzoq vaqt davomida bir xil tezlikda harakatlanmang, yo tezlashing, yo sekinlashing. Dvigatelni tegishli tarzda moslashtirish uchun dvigatel tezligini o'zgartirib turish kerak.
- Tormozlarni to'g'ri joylashtirish uchun, favqulodda vaziyatlardan tashqari hollarda, qattiq to'xtashdan saqlaning.
- Haydashda dastlabki 2000 km (1200 mil) masofa bosib o'tilmaguncha avtomobilga tirkama ulab tortmang.
- Yonilg'i tejamkorligi va dvigatel samaradorligi avtomobilning moslashish jarayoniga qarab farq qilishi mumkin va ular 6000 km (4000 mil) dan keyin barabarorlashadi. Yangi dvigatellar avtomobilning moslashuv davrida ko'proq moy sarf qilishi mumkin.

Avtomobilni to'xtash yoki to'xtatish paytida kuyish xavfi



OGOHLANTIRISH

- Avtomobilni barglar, qog'oz, moy va shinalar kabi yonadigan narsalar yaqiniga parkovka qilmang yoki to'xtatmang. Is gazi chiqarish tizimi yaqinida joylashgan bunday narsalar yong'in xavfiga aylanishi mumkin.
- Dvigatel yuqori tezlikda ishlamay qolganda, avtomobilning orqa tomoni devorga tegsa, chiqindi gazining isishi rangning o'zgarishi yoki yong'iniga olib kelishi mumkin. Avtomobilning orqa qismi va devor o'rtasida yetarli bo'sh joy qoldiring.
- Dvigatel ishlayotganda yoki dvigatel o'chirilgach, is gazi chiqarish/katalitik tizimlarga tegmaslikka ishonch hosil qiling. Tizimlar juda issiq bo'lgani uchun kuyish xavfi mavjud.


Avtomobilingiz haqida qisqacha ma'lumot

Tashqi ko'rinishi	2-2
Salonga umumiy nazar	2-4
Asboblar paneli haqida ma'lumot	2-6
Motor bo'lmasi	2-8

Avtomobilingiz haqida qisqacha ma'lumot

Tashqi ko'rinishi


Old ko'rinish



* Avtomobilning haqiqiy shakli bu illustratsiyagidan farq qilishi mumkin.

1. Kapot	4-38
2. Old oyna tozalagich cho'tkalari	4-87,8-26
3. Old ko'rinish kamerasi	6-5
4. Panoramali lyuk	4-43
5. Oynalar	4-34
6. Orqa tomonni ko'rish uchun tashqi ko'zgu	4-51
7. Keng old tomonni ko'rish kamerasi	6-5
8. Old radar	6-5
9. Old tomon ultratovush datchiklari	6-102
10. Old fara	4-79,8-52
11. G'ildirak va shina	8-31,9-8

Orqa tomonni ko'rish



OGL3014002

* Avtomobilning haqiqiy shakli bu illustratsiyagidan farq qilishi mumkin.

1. Eshiklar	4-14
2. Yonilg'i quyish tuynugi	4-40
3. Antenna	4-126
4. Yuqoriga o'rnatilgan to'xtash lampasi	8-54
5. Yukxona	4-23,4-25
6. Orqani keng ko'rsatuvchi kamera	6-83
7. Orqa aralash lampa	8-54
8. Orqa ultratovush datchigi	6-102,6-114
9. Orqaga yurish lampasi	8-54

Salonga umumiy nazar




OGL3014003_2

* Avtomobilning haqiqiy shakli bu illustratsiyagidan farq qilishi mumkin.

- | | |
|---|------|
| 1. Elektr oynani qulflash tugmasi | 4-36 |
| Bolalar xavfsizligini ta'minlash uchun elektron quvvatni qulflash tugmasi | 4-19 |
| 2. Elektr oynani ko'targich kaliti | 4-35 |
| 3. Markaziy eshikni qulflash/ochish tugmasi | 4-16 |
| 4. Tashqi tomondan orqani ko'rish ko'zgusini boshqarish kaliti | 4-52 |
| 5. Tashqi tomondan orqani ko'rish ko'zgusini buklash kaliti | 4-52 |
| 6. EPB kaliti | 5-18 |
| 7. Elektron yukxonasini ochish/yopish tugmasi | 4-27 |
| 8. ESC OFF tugmasi | 5-26 |
| 9. Ichki eshik tutqichi | 4-16 |
| 10. Integratsiyalashgan xotira tizimi | 4-21 |
| 11. Kapotni ochish dastagi | 4-38 |
| 12. Asboblarni saqlagich paneli | 8-45 |

13.Rul chambaragini egish/teleskopik dastagi	4-47
14.Rul chambaragi	4-46
15.O'rindiq	3-3

Asboblar paneli haqida ma'lumot



OGL3014005_2

* Avtomobilning haqiqiy shakli bu illustratsiyagidan farq qilishi mumkin.


- | | |
|---|-----------|
| 1. Chiroq boshqaruvi/Burilish signallari dastagi | 4-79 |
| 2. Haydash yordami tugmasi | 6-65,6-79 |
| 3. Haydash rejimidagi integratsiyalangan boshqaruv tizimi tugmasi | 5-33 |
| 4. Signal | 4-50 |
| 5. Asboblar klasteri | 4-55 |
| 6. Haydovchi uchun old xavfsizlik yostiqchasi | 3-39 |
| 7. Ovozli masofadan boshqarish tugmasi | |
| "Avtomobil ko'ngilochar axborot tizimi tezkor ma'lumotnomasi"ga qarang. | |
| 8. Oynatozalagich va yuvgich boshqaruvi dastagi | 4-87 |
| 9. ENGINE START/STOP tugmasi | 5-5 |
| 10. Axborot-ko'ngilochar/Iqlim nazorati tizimi | 4-46 |
| 11. Avariya ishorasi uchquni kaliti | 7-3 |
| 12. Axborot-hordiq tizimi | |

“Avtomobil ko'ngilochar axborot tizimi tezkor ma'lumotnomasi”ga qarang.

13.Bo'lmacha	4-114
14.Yo'lovchi xavfsizlik yostiqchasi	3-39
15.Simsiz zuvvatlash tizimi	4-121
16.Barmoq izini autentifikatsiya qilish tizimi	4-118
17.Markaziy konsoldagi saqlash bo'limasi	4-112
18.AUTO HOLD tugmasi	5-22
19.Parkovka/Ko'rish tugmasi	6-83,6-87
20.Parkovka xavfsizligi tugmasi	6-102,6-107
21.Old o'rindiqni isitish tugmasi	4-117,4-118
22.Rul chamberagini isitish tugmasi	4-48
23.UV-C sterilizatori	4-113
24.O'rindiqni shamollatish tugmasi	4-117,4-118
25.USB quvvatlagich	4-119

Motor bo'limasi

Smartstream G3.5 GDi



OGL3074030

* Avtomobildagi haqiqiy dvigatel bo'limasi bu illustratsiyadagidan farq qilishi mumkin.

1. Dvigatel sovitish suyuqligi idishi	8-19
2. Motor moyi baki qopqog'i	8-17
3. Tormoz suyuqligi idishi	8-22
4. Manfiy batareya klemmasi	7-6,8-28
5. Old oynatozalagich suyuqligi idishi	8-23
6. Motor moyini o'lchash tayoqchasi	8-17
7. Musbat batareya klemmasi	7-6,8-28
8. Havo tozalagich	8-24
9. Saqlagich qutisi	8-48

Avtomobilingizning xavfsizlik funksiyalari


O'rindiq	3-3
• Axborot-hordiq tizimi	3-4
• O'rindiq charmining xususiyati	3-6
• Elektr o'rindig'i uchun oldingi o'rindiqni sozlash.....	3-6
• O'rindiq suyanchig'i cho'ntagi.....	3-10
• Orqa o'rindiqni sozlash	3-10
• Bosh suyanchiq (old o'rindiq uchun).....	3-11
• Bosh suyanchiq (orqa o'rindiq uchun).....	3-13
Xavfsizlik kamarlari	3-14
• Xavfsizlik kamarining ushlab qolish tizimi.....	3-14
• Xavfsizlik kamari bo'yicha ehtiyot choralar	3-21
• Xavfsizlik kamarlari holatiga qarash.....	3-23
Bolalarni mahkamlash tizimi (CRS)	3-24
• Bolalarni mahkamlash tizimini (CRS) ishlatish	3-25
• Bolalarni mahkamlash tizimini (CRS) tanlash	3-25
• Bolalarni mahkamlash tizimini (CRS) o'rnatish.....	3-26
• Bolalarni mahkamlash tizimini tizza/yelka kamari bilan mahkamlash.....	3-27
Bolalar uchun ISOFIX mahkamlash moslamasi va qo'shimcha bolalar o'rindig'i yuqori kamari (ISOFIX mahkamlash moslamasi tizimi)	3-28
• Bolalarni mahkamlash tizimini "ISOFIX Anchorage System" bilan mahkamlash.....	3-29
• Bolalarni mahkamlash tizimini qo'shimcha bolalar o'rindig'i yuqori kamari bilan mahkamlash	3-30
• Har bir o'rindiq holatini kamar va ISOFIX bilan bolalarni mahkamlash tizimi BMT qoidalariga mos ravishda o'rnatish bo'yicha muvofiqligi (Avtomobil foydalanuvchilari va CRS ishlab chiqaruvchilari uchun ma'lumot).....	3-31
Xavfsizlik yostiqlashi - qo'shimcha cheklov tizimi	3-33
• Xavfsizlik yostiqlashi tizimi qanday ishlaydi?	3-34

Avtomobilingizning xavfsizlik funksiyalari

- xavfsizlik yostiqchasi ogohlantirishi va indikator 3-36
- SRS komponentlari va funksiyalari 3-37
- Haydovchi va yo'lovchi uchun old xavfsizlik yostiqchasi 3-39
- Yon xavfsizlik yostiqchasi va old markaziy xavfsizlik yostiqchasi ... 3-41
- Parda xavfsizlik yostiqchasi 3-43
- Xavfsizlik yostiqchasi to'qnashuv datchiklari 3-45
- Nega mendagi xavfsizlik yostiqchasi to'qnashuv vaqtida ochilmadi?
(Xavfsizlik yostiqchasi ochiladigan va ochilmaydigan holatlar) 3-46
- SRS parvarishi 3-49
- Qo'shimcha ehtiyot choralari 3-49
- Xavfsizlik yostiqchalari bilan jihozlangan avtomobilingizga jihoz
qo'shish yoki xavfsizlik yostiqchalari bilan jihozlangan
avtomobilingizni modifikatsiya qilish 3-50
- Xavfsizlik yostiqchasi ogohlantirish yorlig'i 3-51

Avtomobilingizning xavfsizlik funksiyalari

O'rindiqlar



OGL3024001L_3

* Avtomobildagi amaldagi funksiya tasvirdagidan farq qilishi mumkin.

Old o'rindiqlar

- 1 O'rindiqlarni qulay cho'zish*
- 2 Yostiq uzaytmasi/Yostiqni qo'llab-quvvatlash*
- 3 O'rindiq yostig'i qiyaligi
- 4 Oldinga va orqaga
- 5 O'rindiq yostig'i balandligi
- 6 O'rindiq suyanchig'i burchagi
- 7 O'rindiq tirsakqo'ygichi*
- 8 Bel tirgagi*
- 9 O'rindiqlarni buklaydigan kaliti


10 Bosh suyanchig'i

Orqa o'rindiqlar

- 11 Tirsakqo'ygich
 - 12 Bosh suyanchig'i
- *jihozlangan bo'lsa

Axborot-hordiq tizimi

Axborot-ko'ngilochar tizim ekranidagi Sozlamalar menyusidan "Sozlash → Avtomobil → O'rindiqlar" bandini tanlab, turli qulaylik funksiyalaridan foydalanishingiz mumkin.



1 Avtomobil

2 O'rindiqlar

- O'rindiqlik holatini o'zgartirish haqida ogohlantirish: O'rindiqlikni o'zgartirish haqida batafsil ma'lumot va o'rindiqlik joyi harakatlanganda tasvir ko'rsatiladi.
- O'rindiqlik holatini eslab qolish
 - Haydovchi o'rindiqlikdan oson foydalanish: O'rindiqlikning masofasi (Oddiy/Uzaytirilgan/O'chiq) haydovchi avtomobilga o'tirganda yoki chiqib ketganda avtomatik harakatlanadi.
- Harakatga moslashuvchan o'rindiqlik
 - O'rindiqlikni qulay cho'zish: O'rindiqlikni qulay cho'zish uchun haydash intensivligi va ish vaqti tanlanishi mumkin.
 - Qulay o'tirish yordami: O'rindiqlik haydovchining bir soatlik haydashdan keyin turishiga yordam berish uchun sozlangan.
 - Smart tayanch: Haydovchi o'rindiqlik SPORT rejimi tanlanganda yoki yuqori tezlikda harakatlanayotganda ko'tariladi.

Batafsil ma'lumot uchun alohida taqdim etilgan qo'llanmaga qarang.

⚠ OGOHLANTIRISH

Bo'sh holdagi predmetlar

Haydovchining oyoq ostidagi bo'sh holdagi predmetlar oyoq pedallari ishlashiga xalaqit berishi va avtohalokatga olib kelishi mumkin. Old o'rindiqlik ostiga hech nima qo'ymang.

⚠ OGOHLANTIRISH

O'rindiqlikni tik holatga keltirish

O'rindiqlikni tik holatiga qaytarganingizda, o'rindiqlikni ushlab turib, uni sekin asl holatiga qaytaring va o'rindiqlikda boshqa yo'lovchilar yo'qligiga ishonch hosil qiling. Agar o'rindiqlik suyanchig'ini ushlab turmay joyiga qaytarilsa o'rindiqlik suyanchig'i oldinga siljib ketishi mumkin va natijada o'rindiqlik suyanchig'i urulishi sababli bexosdan jarohat olish mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH

Haydovchining yo'lovchilar uchun javobgarligi

Old o'rindiqlik suyanchig'i tushirilgan avtomobilni haydash halokat ro'y berganda halokatli jarohatga sabab bo'lishi mumkin.



Halokat paytida old o'rindiqlik suyanchig'i tushirilgan bo'lsa, yo'lovchining bo'ksasi xavfsizlik kamarining past qismiga sirpanib ketadi va himoyalangan qorin qismga katta kuch bilan ta'sir qiladi. Ichki

organlarga jiddiy va halokatli jarohat yetishi mumkin. Haydovchi yo'lovchidan avtomobil harakatlanayotganida o'rindiқ suyanchig'ini tik holatda tutishini so'rashi kerak.

⚠ OGOHLANTIRISH

O'rindiқ va yo'lovchi o'rtasidagi ishqalanishni kamaytiradigan yostiqchalardan foydalanmang. Avtohalokat yoki qo'qqisdan to'xtash vaqtida yo'lovchining bo'ksasi xavfsizlik kamarining pastki qismiga sirpanishi mumkin. Xavfsizlik kamari to'g'ri ishlamasligi sababli ichki organlarga jiddiy yoki halokatli jarohatlar yetishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH

Haydovchi o'rindiғi

- Avtomobil harakatlanayotgan vaqtda aslo o'rindiқni sozlashga urinmang. Bu nazorat yo'qolishiga va avtohalokatga olib kelishi, natijada o'lim, jiddiy jarohat yoki mashinaga zarar yetishiga sabab bo'lishi mumkin.
- O'rindiқ suyanchig'ining normal holatiga hech nima xalaqit bermasligi kerak. O'rindiқ suyanchig'i orqasida yoki o'rindiқ suyanchig'ining qulflanishiga xalaqit beradigan buyumlarni saqlash to'satdan to'xtash yoki avariyaда jiddiy yoki halokatli jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin.
- Avtomobilni doim o'rindiқ suyanchig'i tik holatda va xavfsizlik kamarining pastki qismi bo'ksaga jipslangan va past taqilgan holda haydang va mining. Bu avtohalokat yuz berganida sizni himoya qiladigan eng yaxshi holat.
- Xavfsizlik yostiqchasidan keraksiz va balki o'gir jarohat olmaslik uchun avtomobilni qulay boshqargan holda

doim ruldan imkon qadar uzoqroq o'tiring. Ko'kragingiz ruldan kamida 250 mm (10 dyum) masofada bo'lishi tavsiya etiladi.

⚠ OGOHLANTIRISH

O'rindiқ sozlanganidan keyin uning o'z joyiga xavfsiz mahkamlanganini qulfni ochish dastagidan foydalanmay o'rindiқni oldinga va orqaga harakatlantirib tekshiring. Haydovchi o'rindiғining to'satdan va kutilmaganda harakatlanishi avtomobil nazoratini yo'qotish natijasida avtohalokatga olib kelishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Xavfsizlik kamarlarini taqqan holda o'rindiқni sozlamang. O'rindiқ yostig'ini oldinga siljitish qorin bo'shlig'iga kuchli bosim olib kelishi mumkin.
- O'rindiқ harakatlanayotganida o'rindiқ mexanizmidagi qo'lingiz yoki boshqa predmetlar qisilib qolmasligi uchun juda ehtiyotkor bo'ling.
- Yondirgichni (zajigalkani) polga yoki o'rindiқqa qo'ymang. O'rindiқni boshqarayotganingizda yondirgich (zajigalka)dan gaz chiqishi va yong'inga sabab bo'lishi mumkin.
- O'rqa o'rindiқda yo'lovchilar bo'lsa, old o'rindiқ holatini sozlashda ehtiyot bo'ling.
- O'rindiqlar ostida yoki o'rindiқ va uzatmalar dastagi orasida qolib ketgan kichik buyumlarni olishda juda ehtiyot bo'ling. O'rindiqlar mexanizmining o'tkir qirralari qo'lingizni kesib olishi yoki shikastlashi mumkin.

O'rindiқ charmining xususiyati (mavjud bo'lsa)

- Avtomobil o'rindiqlarimizda sun'iy va tabiiy charm uyg'unligidan foydalanilgan. Tabiiy charm hayvonning tashqi terisidan olingan va foydalanish uchun maxsus qayta ishlovdan o'tkazilgan. Tabiiy mahsulot bo'lgani sababli har bir qism qalinligi yoki zichligi bilan farqlanadi. Harorat va namlikka qarab burishgan joylar paydo bo'lishi mumkin.
- O'rindiқ g'ilofi yo'lovchilarga qulaylik yaratish uchun cho'ziluvchan materialdan ishlangan.
- Tanaga tegib turadigan qismlari egik va yon tayanch tomonlarining yuqori ekani haydash vaqtida qulaylik va barqarorlikni ta'minlaydi.

⚠ DIQQAT

- Foydalanish tufayli yuzaga kelgan burishgan yoki sidirilgan joylar uchun kafolat amal qilmaydi.
- Metal aksessuarli kamarlar, zamoklar yoki orqa cho'ntakdagi tugmalar o'rindiқ matosiga zarar yetkazishi mumkin.
- O'rindiқning ho'l bo'lmasligini nazorat qiling. Bu charmni o'zgartirishi mumkin.
- Jinsilar yoki oqartirsa bo'ladigan kiyimlar o'rindiқ qoplama matosini ifloslantirishi mumkin.

Elektr o'rindiқ'i uchun oldingi o'rindiқni sozlash

O'rindiқ yostig'i tashqarisida joylashgan nazorat kalitlari yordamida haydovchi o'rindiқ'ini sozlash mumkin. Haydashdan oldin, rulni, pedallarni va asboblarni panelidagi tugmalarni osongina

boshqarish uchun o'rindiқni to'g'ri holatga keltiring.

⚠ OGOHLANTIRISH

Elektr o'rindiқ'i o't olish o'chirilgan holatda ishlaydi.

Shuning uchun bolalarni hech qachon mashinada qarovsiz qoldirmaslik kerak.

⚠ DIQQAT

- Elektr o'rindiқ'i elektron motor tomonidan boshqariladi. Sozlash tugallangach, ishlashni to'xtating. Avtomobilning haddan tashqari ko'p haydalishi elektr jihozlariga zarar yetkazishi mumkin.
- Ishlayotgan vaqtda elektr o'rindiқ'i katta miqdorda elektr energiyasi iste'mol qiladi. Zuvvatlash tizimida keraksiz quvvat oqib ketishining oldini olish uchun dvigatel ishlamayotgan vaqtda elektr o'rindiқni kerak bo'lgandan uzoqroqqa sozlamang.
- Bir vaqtning o'zida ikkita yoki undan ortiq quvvat o'rindiqlarini boshqarish kalitlarini ishlatmang. Bu elektr o'rindiқ motori yoki elektr komponentining noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.


Oldinga va orqaga harakatlantirish



O'rindiqli oldinga va orqaga harakatlantirish uchun:

1. o'rindiqli kerakli holatga o'tkazish uchun boshqaruv kalitini oldinga yoki orqaga suring.
2. O'rindiqli kerakli holatga kelgach, kalitni bo'shating.


O'rindiqli suyanchig'ini tushirish



O'rindiqli suyanchig'ini tushirish uchun:

1. O'rindiqli kerakli burchakka o'tkazish uchun boshqaruv kalitini oldinga yoki orqaga suring.
2. O'rindiqli kerakli holatga kelgach, kalitni bo'shating.

O'rindiqli yostig'ining egilishi va balandligini o'zgartirish



O'rindiqli balandligini o'zgartirish uchun:

1. O'rindiqli yostig'ini (1) ko'tarish uchun boshqaruv kalitining old qismini yuqoriga torting yoki tushirish uchun pastga bosing.

O'rindiqli yostig'ini (2) ko'tarish uchun boshqaruv kalitining orqa qismini yuqoriga torting yoki tushirish uchun pastga bosing.


2. O'rindiqli kerakli holatga kelgach, kalitni bo'shating.

Tirsakqo'ygich tayanchini sozlash (mavjud bo'lsa)

A turi



B turi



Tirsakqo'ygich tayanchini sozlash uchun:

1. Tayanchni oshirish uchun kalitning old qismini (1) yoki tayanchni kamaytirish

uchun kalitning orqa qismini (2) bosib.

2. Tayanchni ko'tarish uchun kalitning yuqori qismini (3) yoki tayanchni tushirish uchun kalitning pastki qismini (4) bosib.
3. Istalgan holatga kelgach, kalitni qo'yib yuboring.

Haydovchi o'rindig'i suyanchig'ini sozlash (mavjud bo'lsa)



O'rindiқ suyanchig'ini sozlash uchun:

1. Sozlash kalitini soat yo'nalishi bo'yicha aylantiring, o'rindiқ suyanchilari ichkariga qarab sozlanadi.
2. Kalitni soat miliga teskari burang, o'rindiқ suyanchig'i tashqariga qarab o'rnatiladi.
3. Tayanchni maksimal darajaga ko'tarish uchun tugmani 8 soniya davomida bosib turing. Shundan keyin kalitni bosib tursangiz ham, balandlik o'zgarmaydi. Kalitni qo'yib yuboring.

Haydovchi o'rindig'i uchun yostiқ uzaytmasini sozlash (mavjud bo'lsa)



1. Yostiқ uzaytmani ko'tarish uchun boshqaruv kalitini oldinga, tushirish uchun esa orqaga suring.
2. Yostiқ uzaytmasi kerakli holatga yetgach, kalitni qo'yib yuboring.

Haydovchi o'rindig'i uchun yostiқ tayanchi (mavjud bo'lsa)



Yostiқ tayanchini ko'tarish uchun kalitni yuqoriga, tushirish uchun esa pastga suring.

Old yo'lovchi o'rindig'ini boshqarish (mavjud bo'lsa)



Orqa o'rindiqdagi yo'lovchi old yo'lovchi o'rindig'ini boshqarish uchun tugmalardan foydalanishi mumkin.

Oldinga yoki orqaga surish:

- Old yo'lovchi o'rindig'ini oldinga surish uchun (1) tugmani bosish. Old yo'lovchi o'rindig'ini orqaga surish uchun (2) tugmani bosish.

Burchakni sozlash:

- Old yo'lovchi o'rindig'ini oldinga egish uchun (3) tugmani bosish. Old yo'lovchi o'rindig'ini orqaga egish uchun (4) tugmani bosish.

Haydovchi o'rindig'i uchun Ergo-Motion o'rindig'i (mavjud bo'lsa)



1 Avtomobil

2 O'rindiqlar

Haydovchi uchun qo'shimcha funksiyalarni tanlash va sozlash uchun axborot-ko'ngilochar tizimning Sozlamalar menyusidan "Ergo-Motion Seat" bandini tanlang.

⚠ OGOHLANTIRISH

Har bir funktsiyani ishlatishdan oldin, mashina to'xtab turganda funksiyalarni sinab ko'ring.

O'rindiqlarni qulay cho'zish



Qulay cho'zish bu – haydovchining tos suyagi va pastki orqa qismini haydash tufayli charchoqni yo'qotishga yordam beradigan funksiya.

Ish paytida tugmani 1 soniya yoki undan ko'proq bosib, qulay cho'zish funksiyasini o'chirish mumkin.

Bu tugmani har bosganingizda quyidagi tartibda rejimni tanlashingiz yoki funksiyani o'chirib qo'yishingiz mumkin.

- Tos bo'shlig'ini cho'zish: Yostiq qismi harakat qiladi, tos suyagining chap va o'ng harakatiga yordam beradi.
- Belni cho'zish: O'rindiqlarning orqa qismi harakatlanib, pastki orqa tomonning oldinga va orqaga harakatlanishiga yordam beradi.
- Butun tanani cho'zish: Yostiq va o'rindiqlar ketma-ket harakatlanib, butun tanaga charchoqni kamaytirishga yordam beradi.
- O'CHIQ Qulay cho'zishni o'chiradi.

Qulay cho'zish ishlayotgan paytida o'rindiqlarni sozlash kaliti (yostiq tayanchi,

bel tayanchi, tayanch sozlagichi) bosilsa, ishlashdan to'xtaydi.

Shuningdek, axborot-ko'ngilochar tizim ekranidagi Sozlamalar menyusidan ishlash intensivligi va ishlash vaqtini o'zgartirishingiz mumkin.

- Intensivlik: O'rindiqlar → Ergo-Motion o'rindig'i → Qulay cho'zish → Kuchli/Oddiy
- Vaqt: O'rindiqlar → Ergo-Motion o'rindig'i → Qulay cho'zish → Ishlash vaqti → Uzoq (20 daq)/Oddiy (15 daq)/Qisqa (10 daq)

Smart qulay o'tirish yordami

Bir soatlik haydashdan so'ng, Qomatni tiklash yordami haydovchining qomatiga yordam berish uchun haydovchi o'rindig'ining tos suyagi va orqa qismini avtomatik sozlaydi.

O'rindiqlar sozlash tugmasi (yostiq tayanchi, bel tayanchi, tayanch sozlagichi) bosilsa yoki qomatni tiklash yordami funksiyasi ishlayotgan vaqtda tegishli funksiya yoqilgan bo'lsa, funksiya sozlash amalga oshirilgach, taxminan 1 soat o'tgach faollashadi.

Qomatni tiklash yordami funksiyasini faollashtirish yoki o'chirish uchun axborot-ko'ngilochar tizim ekranidagi Sozlamalar menyusidan "Sozlash → Avtomobil sozlamalari → O'rindiqlar → Ergo-Motion Seat → Smart qomatni tiklash yordami" bandini tanlang.

Smart tayanch

Avtomobil tezligi 130 km/soat (80 mil/st) dan oshganda haydovchi o'rindig'i tayanchi kuchayadi va avtomobil tezligi 110 km/soat (70 mil/st) dan past bo'lsa, tayanch bekor qilinadi.

Haydovchi o'rindig'ining tayanchi ko'tariladi va SPORT rejimi tanlanganda o'rindiqlar yostig'i dastlabki holatiga o'tadi. Smart tayanch funksiyasini faollashtirish yoki o'chirish uchun axborot-ko'ngilochar tizim ekranidagi Sozlamalar menyusidan "Sozlash → Avtomobil sozlamalari → O'rindiqlar → Ergo-Motion Seat → Smart tayanch" bandini tanlang.

O'rindiqlar suyanchig'i cho'ntagi (mavjud bo'lsa)

O'rindiqlar suyanchig'i cho'ntagi old yo'lovchi va haydovchi o'rindiqlari orqa tomonida joylashgan.



⚠ OGOHLANTIRISH

O'rindiqlar suyanchig'i cho'ntagi

O'rindiqlar suyanchig'i cho'ntaklariga og'ir yoki o'tkir narsalarni solmang. Baxtsiz hodisa vaqtida ular cho'ntakdan chiqib ketib, yo'lovchilarni jarohatlashi mumkin.

Orqa o'rindiqlar sozlash

Tirsakqo'ygich



Tirsakqo'ygichdan foydalanish uchun o'rindiqlar suyanchig'idan oldinga torting.

Uzun/ingichka yuklarni tashish



Yopiq holatda yukxonaga to'g'ri joylashmaydigan uzun/ingichka yuklarni (chang'i, chavgonlar va h.k.) joylash uchun qo'shimcha yuk joyi taqdim etiladi.

1. Tirsakqo'ygichni pastga torting.
2. Bo'shatish dastagini pastga surganda, qopqoqni pastga torting.

⚠ OGOHLANTIRISH

Avariya vaqtida avtomobil ichida sochilib ketmasligi va yo'lovchilarga jarohat yetkazmasligini ta'minlash uchun yuklar doim mahkamlanishi kerak. Buyumlarni orqa o'rindiqlarga qo'ymang, chunki ularni to'g'ri mahkamlashning iloji yo'q va avariya vaqtida old yo'lovchilarga urilishi mumkin.

⚠ DIQQAT

- Dvigatel o'chirilganiga ishonch hosil qiling, avtomobil P (parkovka) holatiga o'tkazilgan va har safar yuk ortish yoki tushirishda to'xtash tormozi qo'yilgan. Agar o'zgartirish tugmasi beixtiyor boshqa joyga o'tkazilsa, avtomobil harakatlanishi mumkin.
- Orqa yo'lovchi o'rindiqlari orqali yuk ortilganda, yuk haydash paytida harakatlanmasligi uchun uning to'g'ri mahkamlanganiga ishonch hosil qiling.

* ESLATMA

- Avtomobil ichki qismiga zarar yetkazmaslik uchun orqa yo'lovchi

o'rindiqlari orqali yuk ortishda ehtiyot bo'ling.

- Orqa o'rindiqlar va yukxona o'rtasida joylashgan tirsakqo'ygich va panel pastga tushganda, tirsakqo'ygichni orqaga qaytarishdan oldin panelni orqaga qo'ying. Aks holda, panel va tirsakqo'ygich tutqichlari bir-biriga xalaqit berishi va shikastlanishi mumkin.

Orqa o'rindiqlar audio pult (mavjud bo'lsa)



Ovozni orqa o'rindiqlar tirsakqo'ygichidan boshqarish mumkin.

Bosh suyanchiq (old o'rindiqlar uchun)

Yo'lovchi xavfsizligi va qulayligi uchun haydovchi va old yo'lovchi o'rindiqlari bosh suyanchiq bilan jihozlangan.



Bosh suyanchiq nafaqat haydovchi va old yo'lovchini qulaylik bilan ta'minlaydi, balki avariya vaqtida bosh va bo'yin sohalarini himoya qilishga yordam beradi.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Avtohalokat vaqtida maksimal xavfsizlikni ta'minlash uchun bosh suyanchiq o'rtasi yo'lovchi

boshining og'irlik markazi balandligi bilan bir xil tarzda sozlanishi kerak. Odatda, ko'pchilik odamlar boshining og'irlik markazi ko'zlarining yuqori qismi bilan bir xil balandlikda joylashadi. Shuningdek, boshsuyanchiqni imkon qadar boshingizga yaqinroq qilib moslang. Shu sababli, tanani o'rindiқ suyanchig'idan masofada ushlab turadigan boshsuyanchiqdan foydalanish tavsiya etilmaydi.



- Avtomobilni boshsuyanchiqlar olib tashlangan yoki teskari qo'yilgan holatda boshqarmang, chunki avariya yuz bergan taqdirda yo'lovchilar jiddiy jarohat olishlari mumkin. Boshsuyanchiqlar to'g'ri sozlangan bo'lsa, bo'yinni jarohatlanishdan himoya qilishi mumkin.
- Haydovchi o'rindiқidagi boshsuyanchiq holatini avtomobil harakatlanayotgan paytda sozlamang.

Balandlikni yuqoriga va pastga sozlash



Boshsuyanchiqni ko'tarish uchun:

1. Kerakli holatga ko'taring (1).

2. Boshsuyanchiqni tushirish uchun boshsuyanchiq tirtagidagi qulfni bo'shatish tugmasini bosib va qo'yib yuboring (2).
3. Boshsuyanchiqni istalgan holatga tushirib (3).

⚠ OGOHLANTIRISH

Yo'lovchilarni to'g'ri himoya qilish uchun boshsuyanchiqni sozlagandan keyin u joyida qulflanganiga ishonch hosil qiling.

⚠ DIQQAT

Agar boshsuyanchiq va o'rindiқ yostig'i ko'tarilgan holda o'rindiқ suyanchig'ini oldinga tushirsangiz, boshsuyanchiq soyaboncha yoki avtomobilning boshqa qismlariga tegib qolishi mumkin.



Boshsuyanchiqni olib tashlash/ qayta o'rnatish uchun:



Boshsuyanchiqni olib tashlash uchun:

1. Tushirish dastagi yoki tugma (1) yordamida o'rindiqlar suvanchig'ini tushiring (2).
2. Boshsuvaranchiqni imkon qadar ko'taring.
3. Boshsuvaranchiqni tortib turib (4) qulfini bo'shatish tugmasini bosib (3).
4. Olib tashlash tartibiga teskari tartibda o'rnatib.

⚠ OGOHLANTIRISH

Boshsuvaranchiq olingan holda o'rindiqlarda hech kim haydashiga aslo yo'l qo'ymang.

⚠ OGOHLANTIRISH

Boshsuvaranchiqni qayta o'rnatish va to'g'ri sozlaganingizdan keyin doim joyida qulflanganiga ishonch hosil qiling.

Boshsuvaranchiq (orqa o'rindiqlar uchun)

Orqa o'rindiqlar(lar) barcha o'tirish holatlarida yo'lovchilar xavfsizligi va qulayligini ta'minlaydigan boshsuvaranchiq bilan jihozlangan.



Boshsuvaranchiq yo'lovchilarni nafaqat qulaylik bilan ta'minlaydi, balki avariya yuz bergan taqdirda bosh va bo'yinni himoya qilishga yordam beradi.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Avtohalokat vaqtida maksimal xavfsizlikni ta'minlash uchun boshsuvaranchiq o'rtasi yo'lovchi boshining og'irlik markazi balandligi bilan bir xil tarzda sozlanishi kerak.

Odatda, ko'pchilik odamlar boshining og'irlik markazi ko'zlarining yuqori qismi bilan bir xil balandlikda joylashadi. Shuningdek, boshsuvaranchiqni imkon qadar boshingizga yaqinroq qilib moslang. Shu sababli, tanani o'rindiqlar suvanchig'idan masofada ushlab turadigan boshsuvaranchiqdan foydalanish tavsiya etilmaydi.

- Avtomobilni boshsuvaranchiq olib tashlangan yoki teskari qo'yilgan holatda boshqarmang. Avariya yuz bergan taqdirda yo'lovchi jiddiy jarohat olishi mumkin. Agar suvanchiq to'g'ri sozlangan bo'lsa, boshsuvaranchiq bo'yinni og'ir jarohatlardan himoya qilishi mumkin.
- Agar orqa o'rindiqlarda yo'lovchi bo'lmasa, boshsuvaranchiq balandligini eng quyi holatga tushirib qo'ying. Orqa o'rindiqlardagi boshsuvaranchiq orqa tomon ko'rinishini cheklashi mumkin.

Balandlikni yuqoriga va pastga sozlash



- Boshsuvaranchiqni ko'tarish uchun uni kerakli holatgacha yuqoriga torting (1).
- Boshsuvaranchiqni pastga tushirish uchun boshsuvaranchiq tirtagidagi bo'shatish tugmasini (2) bosib turib, boshsuvaranchiqni kerakli holatga tushiring (3).

- ⚠ OGOHLANTIRISH**

Yo'lovchilarni to'g'ri himoya qilish uchun boshsuyanchiqni sozlagandan keyin u joyida gulflanganiga ishonch hosil qiling.

Xavfsizlik kamarlari tananing suyak tuzilmasiga tayanadigan qilib ishlab chiqilgan va tos qismi, ko'krak va yelkalarining old qismi bo'ylab pastroq tagilishi kerak.

Xavfsizlik kamarining ushlab qolish tizimi

⚠ OGOHLANTIRISH

- Ushlab qolish tizimining maksimal himoyasi uchun xavfsizlik kamarlari avtomobil harakatlangan vaqtda doim taqilishi kerak.
- Xavfsizlik kamarlari o'rindiq suyanchig'i tik holatida eng samarali hisoblanadi.
- 13 yosh va undan kichik bolalar orqqa o'rindiqda kamarlari to'g'ri taqilgan holda bo'lishlari kerak. Bolalarga old yo'lovchi o'rindig'ida minishlariga hech qachon yo'l qo'ymang. Agar 13 yoshdan katta bola old o'rindiqda o'tiradigan bo'lsa uning kamari to'g'ri taqilishi kerak va o'rindiq imkon qadar orqaga surilishi kerak.
- Yelka kamarini hech qachon qo'l ostingizdan yoki orqa tomondan taqmang. Noto'g'ri taqilgan yelka kamari avariya vaqtida jiddiy jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin. Yelka kamari yelkangiz o'rtasidan o'mrov suyagi bo'ylab taqilishi kerak.
- Xavfsizlik kamarini hech qachon mo'tri narsalar ustidan taqmang. To'satdan to'xtash yoki zarba holatida xavfsizlik kamari unga zarar yetkazishi mumkin.
- Buralib qolgan xavfsizlik kamarini taqmaslikka harakat qiling. Buralib qolgan xavfsizlik kamari o'z vazifasini bajara olmaydi. Avariya vaqtda hatto sizni kesib olishi mumkin. Kamar tasmasi to'g'ri va eshilib qolmaganiga ishonch hosil qiling.

- Kamar tasmasi va moslamalariga zarar yetkazmang. Agar kamar tasmasi yoki moslamasi shikastlangan bo'lsa ularni almashtiring.

⚠ OGOHLANTIRISH

Xavfsizlik kamarlari tananing suyak tuzilmasiga tayanadigan qilib ishlab chiqilgan va sharoitga qarab, tos qismi, ko'krak va yelkalarining old qismi bo'ylab pastroq taqilishi kerak; kamarning bel qismini qorin sohasiga taqishdan tiyilish lozim.

Xavfsizlik kamari ular ishlab chiqilgan himoyani ta'minlashi uchun qulaylik darajasida imkon qadar mahkam taqilishi kerak.

Bo'sh taqilgan kamar foydalanuvchining himoyasini sezilarli darajada kamaytiradi.

To'rga bo'yoq, moy va kimyoviy moddalar, ayniqsa batareya kislotasi tushishidan himoya qilish kerak.

Yumshoq sovun va suv bilan ehtiyotkorlik bilan yuvish mumkin. Agar to'r yirtilsa, ifloslansa yoki shikastlansa uni almashtirish kerak. Jiddiy avariya dan keyin majmuaga zarar ko'rinmasa ham majmuani to'liq almashtirish muhim.

Tasmalar buralib qolgan holda kamarni taqish mumkin emas. Har bir kamar majmuasi bitta yo'lovchi tomonidan foydalanishi kerak; yo'lovchi tizzasida o'tirgan bola ustidan kamar taqish xavfli hisoblanadi.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Foydalanuvchi xavfsizlik kamarini sozlash moslamalarining bo'shlikni bartaraf etishiga yoki xavfsizlik kamari majmuasining bo'shlikni bartaraf etish uchun sozlanishiga to'sqinlik qiladigan

hech qanday o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritmasligi kerak.

- Xavfsizlik kamarini taqishda boshqa o'rindiqning tasma qulfiga kamarni taqmang. Bu juda xavfli va xavfsizlik kamari sizni to'g'ri himoya qila olmasligi mumkin.
- Haydash vaqtida xavfsizlik kamarini qayta-qayta taqib yechmang. Bu nazorat yo'qolishiga va avtohalokatga olib kelishi, natijada o'lim, jiddiy jarohat yoki mashinaga zarar yetishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Xavfsizlik kamarini taqishda xavfsizlik kamari qattiq yoki oson sinadigan buyumlar ustidan taqmaslikka ishonch hosil qiling.
- Tasma qulfida hech nima yo'qligiga ishonch hosil qiling. Xavfsizlik kamari yaxshi mahkamlanmasligi mumkin.

Xavfsizlik kamari bo'yicha ogohlantirish



Xavfsizlik kamari ogohlantirish chirog'i va ogohlantirish signali quyidagi vaziyatlarda ishga tushadi.

Haydovchining xavfsizlik kamari bo'yicha ogohlantirish

- Haydovchi xavfsizlik kamari taqilgan bo'lishidan qat'i nazar, ogohlantirish chirog'i har safar ENGINE START/STOP tugmasi YONIQ holatga bosilganda taxminan 6 soniya yonib turadi. Agar haydovchining xavfsizlik kamari taqilmagan bo'lsa ogohlantirish chirog'i

haydovchining xavfsizlik kamari taqilmaguncha YONIQ turadi.


- Agar haydovchi xavfsizlik kamarini taqmasdan haydashni boshlasangiz, 20 km/soatdan past tezlikda haydasangiz yoki to'xtasangiz ogohlantirish chirog'i yonadi. 20 km/soat yoki undan tez haydasangiz ogohlantirish chirog'i o'chib yonadi va ogohlantirish signali taxminan 100 soniya chalinadi.
- Haydovchining xavfsizlik kamari haydash vaqtida yechilgan bo'lsa, tezlik 20 km/soatdan past bo'lganda ogohlantirish chirog'i yonadi. Tezlik 20 km/soat yoki undan tez bo'lsa ogohlantirish chirog'i o'chib yonadi va ogohlantirish signali taxminan 100 soniya chalinadi.

Old yo'lovchining xavfsizlik kamari bo'yicha ogohlantirish (mavjud bo'lsa)

- Haydovchi xavfsizlik kamari taqilganidan qat'i nazar, ogohlantirish chirog'i har safar ENGINE START/STOP tugmasi YONIQ holatga bosilganda taxminan 6 soniya yonib turadi. Agar yo'lovchining xavfsizlik kamari taqilmagan bo'lsa ogohlantirish chirog'i yo'lovchining xavfsizlik kamari taqilmaguncha YONIQ turadi.
- Agar yo'lovchi xavfsizlik kamarini taqmasdan haydashni boshlasangiz, 20 km/soatdan past tezlikda haydasangiz yoki to'xtasangiz, ogohlantirish chirog'i yonadi. 20 km/soat yoki undan tez haydasangiz ogohlantirish chirog'i o'chib yonadi va ogohlantirish signali taxminan 100 soniya chalinadi.
- Yo'lovchining xavfsizlik kamari haydash vaqtida yechilsa tezlik 20 km/soatdan past bo'lganda ogohlantirish chirog'i yonadi. Tezlik 20 km/soat yoki undan

tez bo'lsa ogohlantirish chirog'i o'chib yonadi va ogohlantirish signali taxminan 100 soniya chalinadi.

Orqa yo'lovchining xavfsizlik kamari bo'yicha ogohlantirish (mavjud bo'lsa)



* (1) Chap tomon, (2) Markaz, (3) O'ng tomon

- Orqa o'rindiq yo'lovchisiga eslatma sifatida, xavfsizlik kamari taqilganligidan qat'i nazar, har safar o't oldirish tizimi tugmasini yoqqaningizda orqa o'rindiq yo'lovchisining xavfsizlik kamari ogohlantiruvchi chirog'i taxminan 6 soniya yonadi.
- Agar yondirish yoqilganda xavfsizlik kamari taqilmagan bo'lsa, xavfsizlik kamari ogohlantiruvchi chirog'i taxminan 70 soniya yonadi.
- Agar xavfsizlik kamarini taqmasdan harakatni boshlasangiz yoki 20 km/soatdan past tezlikda harakatlanayotganda xavfsizlik kamarini yechsangiz, tegishli ogohlantiruvchi chiroq taxminan 70 soniya davomida yonishda davom etadi.
- Agar xavfsizlik kamarini taqmasdan harakatlanishda davom etsangiz yoki 20 km/soatdan yuqori tezlikda harakatlanayotganda xavfsizlik kamarini yechsangiz, xavfsizlik kamari ogohlantiruvchi signali taxminan 35 soniya davomida chalinadi va tegishli ogohlantiruvchi chiroq miltillaydi.

- Agar orqa eshik 10 km/soatdan past tezlikda ochilgan yoki yopilgan bo'lsa, 20 km/soatdan yuqori tezlikda harakatlanganda ham ogohlantiruvchi chiroq va tovushi ishlamaydi.

⚠ OGOHLANTIRISH

Noto'g'ri holatda minish old o'rindiq xavfsizlik kamari ogohlantirish tizimiga salbiy ta'sir qiladi. Haydovchi yo'lovchiga ushbu qo'llanmada ko'rsatilganidek to'g'ri holatda o'tirishni tayinlashi muhim.

Xavfsizlik kamarlari - favqulodda qulflash tortqichli 3 nuqtali tizim

Xavfsizlik kamarini taqish



- Xavfsizlik kamaringizni taqish uchun uni tortqichdan oling va metal tilchani (1) tasma qulfiga (2) kiriting. Tilcha qulfga mahkamlanganida "klik" ovozi chiqadi.

Xavfsizlik kamarining tizza qismi bo'ksa bo'ylab yaxshi mahkamlanadigan holda qo'lda sozlanganidan keyin avtomatik tarzda kerakli uzunlikda sozlanadi. Agar siz oldinga sekin va oson egilsangiz kamar cho'ziladi va harakatlanishingizga imkon beradi. Agar to'satdan to'xtash yoki zarba sodir bo'lsa kamar o'z joyida qulflanadi. Agar oldinga juda tez egilsangiz ham u qulflanadi.

*** ESLATMA**

Agar xavfsizlik kamarini tortqichdan chiqara olmasangiz kamarni mahkam torting va qo'yib yuboring. Bundan so'ng kamarni oson chiqara olasiz.

⚠ OGOHLANTIRISH

Agar kamarning tizza qismini belingizda emas bo'ksangiz bo'ylab imkon qadar past va mahkam joylashtirishingiz kerak. Agar kamarning tizza qismi juda yuqori, belingizda joylashsa avariya holatida jarohatlanish imkonini oshiradi. Ikkala qo'lingiz ham kamar ostida yoki uning ustida bo'lmasligi kerak. Buning o'rniga xuddi suratga ko'rsatilganidek, ulardan biri kamar ustida va boshqa uning ostida bo'lishi kerak.

Hech qachon xavfsizlik kamarini eshik yaqinidagi qo'lingiz ostidan o'tkazmang.

Xavfsizlik kamarini yechish



- Qulf to'qasidagi (2) yechish tugmasini (1) bosing.

Qulfdan yechilganidan keyin avtomatik tarzda tortqichga qaytib tushishi kerak.

Agar bunday bo'lmasa, kamar buralib qolmaganini tekshiring va yana urinib ko'ring.

Yelka kamarining balandligini sozlash (old o'rindiq uchun)

Maksimal qulaylik va xavfsizlik uchun yelka kamari ankeri balandligini 4 ta pozitsiyadan biriga moslashingiz mumkin.



Xavfsizlik kamari balandligi bo'yingizga juda yaqin bo'lmali kerak. Siz eng xavfsiz himoyaga ega bo'lmaysiz. Yelka qismini shunday sozlash kerakki, u ko'kragingiz bo'ylab va yelkangiz o'rtasida bo'yingizga emas, balki eshik yonida joylashgan bo'lishi kerak.

Xavfsizlik kamarining ankeri balandligini sozlash uchun balandlik sozlagichini mos joyga tushiring yoki ko'taring.

- Balandlik sozlagichini ko'tarish uchun uni yuqoriga torting (1).
- Uni tushirish uchun balandlik sozlagichini (2) bosib, pastga (3) bosing.

Ankerni joyiga mahkamlash uchun tugmani qo'yib yuboring. Balandlik sozlagichi joyiga tushganiga ishonch hosil qilish uchun siljitib ko'ring.

Noto'g'ri taqilgan yelka kamari avariya vaqtida jiddiy jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Yelka kamarining ankeri tegishli balandlikda qulflanganiga ishonch hosil qiling. Hech qachon yelka kamarini bo'yin yoki yuzingizga qo'ymang.
- Baxtsiz hodisadan keyin xavfsizlik kamarlarini almashtirmaslik xavfsizlik kamarlarini shikastlangan holda qoldirishi mumkin, bu esa tan jarohati yoki o'limga olib keluvchi boshqa to'qnashuvda himoyani ta'minlamaydi. Baxtsiz hodisa sodir bo'lgandan keyin

xavfsizlik kamarlarini imkon qadar tezroq almashtiring.

Orqa xavfsizlik kamarini taqish

Xavfsizlik kamari to'g'ri taqilishi uchun har bir o'rindiqli yostiqchasidagi tasma qulfiga mahkamlanishi kerak.



- 1 O'ng tomondagi orqa xavfsizlik kamari taqilish qulfi
- 2 Orqa markaziy xavfsizlik kamari taqilish qulfi
- 3 Chap tomondagi orqa xavfsizlik kamari taqilish qulfi

⚠ OGOHLANTIRISH

Orqa xavfsizlik kamarlarini taqishdan oldin, lo'kidon xavfsizlik kamari to'qasiga mos kelishiga ishonch hosil qiling. Chap yoki o'ng xavfsizlik kamarini markaziy qisqichga majburan qadash noto'g'ri taqish ssenariysiga olib kelishi mumkin, bu sizni baxtsiz hodisadan himoya qilmaydi.

Orqa markaziy xavfsizlik kamaridan foydalanganda "CENTER" deb belgilangan to'qadan foydalanish kerak.



Orqa xavfsizlik kamarini taxlash

Orqa o'rindiqlar kamari to'qalari ishlatilmaganda orqa o'rindiqlar suyanichig'i va yostiq o'rtasidagi cho'ntakda saqlanishi mumkin.



1. Xavfsizlik kamari tasmasini orqa xavfsizlik kamarining yo'llari orqali o'tkazing. Bu kamarlarning o'rindiqlar orqasida yoki ostida qolib ketishidan saqlanishga yordam beradi.
2. Xavfsizlik kamarini o'rnatgach, kamar tasmasini yuqoriga tortib torting.

⚠️ DIQQAT

Xavfsizlik kamarini taqish uchun tortib olayotganda, xavfsizlik kamari boshi yo'lidan chiqib ketmasligi uchun kamar tilchasini xavfsizlik kamarining yo'lidan asta-sekin tortib olish kerak.

Orqa o'rindiqlarni ko'tarish to'qasi



Orqa o'rindiqlar xavfsizlik kamari to'qasini yostiq ostiga joylash mumkin, bu uni xavfsiz saqlaydi va halaqit bermasligi uchun chetga olib qo'yadi.

*** ESLATMA**

Yoritilgan xavfsizlik kamarlari to'qalari orqa yo'lovchilar uchun qorong'ida yoki

tunda xavfsizlik kamarini taqishni osonlashtiradi. U orqa o'rindiqlar tashqi tomoniga tatbiq qilinadi va xavfsizlik kamarini mahkamlanguncha yonib turadi.



Xavfsizlik kamari tortqichi



Avtomobilingiz haydovchi va old yo'lovchining Oldindan tortuvchi xavfsizlik kamarlari (1) bilan jihozlangan.

Xavfsizlik kamari tortqichlarining maqsadi ma'lum turdagi to'qnashuvlarda yo'lovchining tanasiga mahkam taqilishini ta'minlashdir.

Xavfsizlik kamari tortqichlari to'qnashuv yetarli darajada kuchli avariylarda ishga tushishi mumkin.

Avtomobil to'satdan to'xtaganida yoki yo'lovchi juda tez egilishga harakat qilsa xavfsizlik kamari tortqichi joyida qulflanadi. Ayrim old tomondan to'qnashuvlarda xavfsizlik kamari tortqichi ishga tushadi va xavfsizlik kamarini yo'lovchining tanasiga yanada mahkam yopishadi.

Xavfsizlik kamari tortqichi ishga tushganida tizim haydovchi yoki yo'lovchining xavfsizlik kamarida ortiqcha taranglikni payqasa, tortqich ichidagi yuklamani cheklovchi datchik mos

xavfsizlik kamariga tushayotgan bosimni biroz kamaytiradi. (jihozlangan bo'lsa)


⚠ OGOHLANTIRISH

O'z xavfsizligingizni ta'minlash uchun kamar tasmasi bo'sh emasligiga yoki buralib qolmaganiga ishonch hosil qiling va doim o'rindiqlarda to'g'ri o'tiring.

*** ESLATMA**

Agar avtomobil yon yoki parda xavfsizlik yostiqlashi bilan jihozlangan bo'lsa, xavfsizlik kamari tortqichi nafaqat old tomondan to'qnashuvlarda balki yon tomondan to'qnashuvlarda ham ishga tushadi.

Xavfsizlik kamari tortqichi tizimi asosan quyidagi komponentlardan iborat. Ularning joylashuvi illustratsiyada ko'rsatilgan:



- 1 SRS xavfsizlik yostiqlashi haqida ogohlantirish chirog'i
- 2 Old tortqichi oldindan taranglatkichini yig'ish
- 3 SRS nazorat moduli

⚠ OGOHLANTIRISH

Xavfsizlik kamari tortqichi maksimal darajada manfaatli bo'lishi uchun:

1. Xavfsizlik kamari to'g'ri ishlashi va to'g'ri holatda sozlanishi kerak. Bu qo'llanmada keltirilgan avtomobilingiz yo'lovchilarining xavfsizlik funksiyalari, jumladan, xavfsizlik kamari va yostiqlashlari haqidagi barcha muhim

ma'lumotlar va ogohlantirishlarni o'qib chiqing va ularga rioya qiling.

2. O'zingiz va yo'lovchilaringiz doim xavfsizlik kamarlarini to'g'ri taqqaningizga ishonch hosil qiling.

*** ESLATMA**

- Xavfsizlik kamari tortqichlari ishga tushganda baland tovush va mayda chang chiqishi mumkin, u yo'lovchi bo'lmasida xuddi tutun kabi ko'rinishi mumkin. Bu normal ishlash holati va xavfli emas.
- Xavfsiz bo'lsa ham yengil chang terining qichishishiga olib kelishi mumkin va uzoq vaqt davomida undan nafas olib bo'lmaydi. Xavfsizlik kamari tortqichi ishga tushgan avtohalokatdan keyin terining ochiq joyini yaxshilab yuvib tashlang.
- SRS xavfsizlik yostiqlashini ishga tushiradigan datchiklar xavfsizlik kamari tortqichiga ulangani sababli ENGINE START/STOP tugmasi "ON" holatiga o'tkazilganda SRS xavfsizlik yostiqlashi ogohlantirish chirog'i asboblarda panelida taxminan 6 soniya davomida yonadi va keyin o'chishi kerak.

⚠ DIQQAT

Agar xavfsizlik kamari tortqichi to'g'ri ishlamayotgan bo'lsa, SRS xavfsizlik yostiqlashi ogohlantirish chirog'i SRS xavfsizlik yostiqlashida nosozlik bo'lmasa ham yonadi. Agar SRS xavfsizlik yostiqlashi ogohlantirish chirog'i ENGINE START/STOP tugmasi YONIQLASH holatida ham yonmasa yoki taxminan 6 soniyadan keyin ham o'chmasa yoki avtomobil harakatlanayotganida ham ko'rinsa, tizimni ixtisoslashgan ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat

hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Xavfsizlik kamari tortqichi tizimi faqat bir marta ishga tushish uchun mo'ljallangan. Ishga tushganidan keyin xavfsizlik kamari tortqichini almashtirish kerak. Avariya vaqtida taqilganidan keyin istalgan turdagi barcha xavfsizlik kamarlari doim almashtirilishi kerak.
- Xavfsizlik kamari tortqichi moslama mexanizmlari ishga tushgan vaqtda qiziydi. Ishga tushganidan keyin xavfsizlik kamari tortqichi qismlariga bir necha daqiqa davomida tegmang.
- Xavfsizlik kamari tortqichini o'zingiz tekshirishga yoki almashtirishga urinmang. Tizimni ixtisoslashgan ustaxonaga tekshirishga olib boring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.
- Xavfsizlik kamari tortqichiga biror ko'rinishda xizmat ko'rsatishga yoki ta'mirlashga urinmang.
- Xavfsizlik kamari tortqichi moslamasidan noto'g'ri foydalanish va xavfsizlik kamari tortqichlariga zarba yetkazmaslik, o'zgartirmaslik, tekshirmaslik, almashtirmaslik, xizmat ko'rsatmaslik yoki ta'mirlamaslik haqidagi ogohlantirishlarga amal qilmaslik uning noto'g'ri ishlashga yoki beixtiyor ishga tushishga va jiddiy jarohatlanishga olib kelishi mumkin.
- Avtomobilni haydaganda yoki minganda doim xavfsizlik kamarini taqing.
- Agar avtomobil yoki xavfsizlik kamari tortqichi tashlab yuborish kerak bo'lsa, ixtisoslashgan ustaxonaga murojaat qiling. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat

hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

- Avtomobil old tomonida kuzovni ta'mirlash xavfsizlik kamari tortqichi tizimini shikastlashi mumkin. Shuning uchun tizimga ixtisoslashgan ustaxonada xizmat ko'rsatilishi uchun olib boring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

Xavfsizlik kamari bo'yicha ehtiyot choralar

⚠ OGOHLANTIRISH

Avtomobilning barcha yo'lovchilari doim xavfsizlik kamarlarini taqishlari kerak. Xavfsizlik kamarlari va yosh bolalarni mahkamlash moslamalari avariya yoki to'satdan to'xtash vaziyatlarida jiddiy yoki halokatli jarohatlar xavfini kamaytiradi. Xavfsizlik kamarisiz yo'lovchilar xavfsizlik yostiqchasi ishga tushidigan joyga juda yaqin kelib qolishlari, ichki tuzilmasiga urilishlari yoki avtomobildan uchib chiqishlari mumkin. To'g'ri taqilgan xavfsizlik kamarlari bunday xatarlarni kamaytiradi.

Ushbu qo'llanmadagi xavfsizlik kamarlari, yostiqchalari va yo'lovchi o'rindiqlari haqidagi ehtiyot choralarga doim amal qiling.

Chaqaloq yoki yosh bola

Mamlakatingizdagi maxsus talablardan xabardor bo'lishingiz kerak. Yosh bola va/ yoki chaqaloq o'rindiqlari to'g'ri joylashtirilishi va orqa o'rindiqqa o'rnatilishi kerak.

Bunday mahkamlash moslamalaridan foydalanish haqida batafsil ma'lumot olish

uchun quyida qarang "Bolalarni mahkamlash tizimi (CRS)", 3-24-sahifa.

⚠ OGOHLANTIRISH

Avtomobilingizdagi har bir yo'lovchiga, jumladan chaqaloqlar va yosh bolalarga har vaqt xavfsizlik kamari taqilgan bo'lishi kerak. Avtomobilga o'tirganingizda hech qachon yosh bolani qo'lingizda yoki tizzangizda olib ketmang. Zarba vaqtida yuzaga keladigan halokatli zarbalar tufayli yosh bola qo'lingizdan chiqib ketishi va salonga urilishi mumkin. Doim farzandingiz bo'yi va vazniga mos bolalarni mahkamlash moslamasidan foydalaning.

*** ESLATMA**

Mamlakatingiz xavfsizlik standartlari talablariga javob beradigan bolalarni mahkamlash moslamasi tizimi orqa o'rindiqda to'g'ri o'rnatilganida yosh bolalar avariya jarohatlaridan eng yaxshi holatda himoyalanaadi. Har qanday bolalarni mahkamlash moslamasini sotib olishdan avval, u mamlakatingiz xavfsizlik standartlariga javob beruvchi sertifikatga ega ekaniga ishonch hosil qiling. Mahkamlash moslamasi farzandingiz bo'yi va vazniga mos bo'lishi kerak. Bu ma'lumotlarni moslama yorlig'ida izlang. Qarang: "Bolalarni mahkamlash tizimi (CRS)", 3-24-sahifa.

Katta bolalar

Bolalarni mahkamlash moslamasi uchun kattalik qiladigan bolalar doim orqa o'rindiqda o'tirishi va mavjud tizza/yelka kamarlaridan foydalanishi kerak. Tizza qismi mahkamlanishi va bo'ksada imkon qadar past darajada yopishib turishi kerak. Kamarning mos kelishini vaqti-vaqti

bilan tekshirib turing. Bolaning qimirlashi kamarni joyidan chiqarib yuborishi mumkin. Agar yosh bolalarga orqa o'rindiqda to'g'ri mahkamlash tizimi taqilgan bo'lsa, avariya vaqtida yosh bolalar eng himoyalangan holatda bo'ladi. Agar katta bola (13 yoshdan katta) old o'rindiqda o'tirishi kerak bo'lsa, uni mavjud tizza/yelka kamari bilan mahkamlash va o'rindiqni eng uzoq holatga keltirish zarur. 13 yosh va undan kichik bolalar orqa o'rindiqda xavfsiz mahkamlanishlari kerak. 13 yosh va undan kichik bolalarni HECH QACHON old o'rindiqqa o'tqizmang. Orqaga qaragan bolalar o'rindig'ini HECH QACHON avtomobilning old o'rindig'iga joylamang.

Agar yelka kamari bolaning bo'yni yoki yuziga biroz tegib tursa, uni avtomobilning markaziga yaqinroq joylashtirishga urinib ko'ring. Agar shu holatda ham yelka kamari uning yuzi yoki bo'yniga tegsa bolalarni mahkamlash moslamasiga qaytarilishi kerak.

⚠ OGOHLANTIRISH

Yosh bolalardagi yelka kamari

- Avtomobil harakatlanayotganida yelka kamari yosh bolaning bo'yni yoki yuziga tegib qolishiga aslo yo'l qo'ymang.
- Agar yosh bolalarda xavfsizlik kamarlari to'g'ri taqilmasa va sozlanmasa, o'lim yoki jiddiy jarohat xavfi mavjud bo'ladi.

Homilador ayollar

Avtohalokat vaqtida jarohat olish xatarini kamaytirish maqsadida homilador ayollar xavfsizlik kamarini taqishlari tavsiya qilinadi. Xavfsizlik kamaridan foydalanilganda tizza kamari qorinda emas, balki bo'ksada imkon qadar past va mahkam joylashishi kerak. Alohida

tavsiyalar uchun shifokor bilan maslahatlashing.

OGOHLANTIRISH

Homilador ayollar

Homilador ayollar xavfsizlik kamarining tizza qismini zarba vaqtida homilaga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan homila joylashgan qorin qismi ustidan yoki qorinning tepa qismidan hech qachon taqmasliklari kerak.

Jarohatlangan shaxs

Jarohatlangan shaxs olib ketilayotganida xavfsizlik kamaridan foydalanish zarur. Zaruriyat mavjud holatlar bo'yicha tavsiyalarni olish uchun shifokor bilan maslahatlashing.

Har bir shaxs uchun alohida kamar

Hech qachon ikki kishi (jumladan yosh bolalar) bitta kamardan foydalanishga urinmasligi kerak. Bu avariya yuz bergan taqdirda jarohatlarning og'irligini kuchaytirishi mumkin.

Yotib olmang

Avtohalokat vaqtida jarohatlarni kamaytirish va xavfsizlik kamari tizimining maksimal samaradorligiga erish maqsadida avtomobil harakatlanayotganida barcha yo'lovchilar o'tirgan bo'lishi va old o'rindiqlar tik holatda bo'lishi zarur. Agar yo'lovchi yotib olgan bo'lsa yoki old o'rindiq tushirilgan holatda bo'lsa, xavfsizlik kamari to'g'ri himoya bilan ta'minlay olmaydi.

OGOHLANTIRISH

Mashinani o'rindiq suyanchig'i tushirilgan holatda haydash avariya yoki to'satdan to'xtash holatlarida halokatli jarohat olish

ehtimolini oshiradi. Xavfsizlik tizimi (xavfsizlik kamarlari va yostiqchalari) himoyasi o'rindiqlarni tushirish natijasida ancha kamayadi. To'g'ri ishlashi uchun xavfsizlik kamarlari bo'ksa va ko'krak sohasiga yopishib turishi kerak. O'rindiq suyanchig'i qancha ko'p tushirilgan bo'lsa, yo'lovchining bo'ksasi tizza kamarining ostiga tushishi ehtimoli ortadi, bu ichki organlarga jiddiy jarohat yetkazishi yoki yo'lovchining bo'yni yelka kamariga taqalib qolishi mumkin. Haydovchi va yo'lovchilar o'rindiqlarida imkon qadar orqaroq o'tirishi, kamarlarni to'g'ri taqish, o'rindiq suyanchig'i esa tik holatida bo'lishi kerak.

Xavfsizlik kamarlari holatiga qarash

Xavfsizlik kamari tizimi hech qachon qismlarga ajratilmasligi yoki o'zgartirilmasligi kerak. Shu bilan birga xavfsizlik kamarlari va kamar moslamalari o'rindiq ilgaklari, eshiklar yoki boshqa yo'l bilan shikastlanmasligiga ishonch hosil qilish kerak.

OGOHLANTIRISH

- Orqa o'rindiqda kamar tasmasi yoki tasma qulfi ushlanib qolmasligi yoki siqilib qolmasligiga ishonch hosil qiling. To'ri yoki tasma qulfiga zarar yetgan xavfsizlik kamari yetarli darajada kuchli bo'lmaydi va avariya yoki to'satdan to'xtash vaqtida ishga tushmasligi mumkin, jiddiy jarohatga sabab bo'lishi mumkin. Agar to'r yoki tasma qulfi shikastlangan bo'lsa ularni darhol almashtiring.
- Quyoshli kunda yopiq mashina ichida xavfsizlik kamari qizib ketishi mumkin. Ular chaqaloqlar va yosh bolalarni kuydirishi mumkin.

Davriy tekshirishlar

Xavfsizlik kamarlari har qanday eskirish yoki shikastlanganlik uchun vaqti-vaqti bilan tekshirib turilishi kerak. Har qanday eskirgan qismlarni imkon qadar tezroq almashtirish kerak.

Kamarlarni toza va quruq saqlang

Xavfsizlik kamarlari toza va quruq saqlanishi kerak. Agar kamarlar ifloslansa, ular yumshoq sovun eritmasi va iliq suv bilan yuvilishi kerak. Oqartiruvchi suyuqliklar, bo'yoq, kuchli yuvish vositalari yoki abraziv moddalardan foydalanmaslik kerak, chunki ular matoga zarar yetkazishi va zaiflashi mumkin.

Xavfsizlik kamarlarini qachon almashtirish kerak

Agar avtomobil avtohalokatga uchragan bo'lsa foydalanilgan xavfsizlik kamari moslamasi yoki moslamalari almashtirilishi kerak. Hech qanday shikastlanish alomatlari ko'rinmasa ham almashtirilishi kerak. Bu holatda ixtisoslashgan ustaxonada tizimni almashtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkori bilan maslahatlashishni tavsiya qiladi.

Bolalarni mahkamlash tizimi (CRS)

Bizning tavsiyalarimiz: Bolalar doim orqa o'rindiqda bo'lishi kerak

OGOHLANTIRISH

Avtomobilda bolalarni doim to'g'ri mahkamlang. Barcha yoshdagi bolalar orqa o'rindiqda minganlarida himoyalanganroq bo'lishadi. Yo'lovchi xavfsizlik yostiqlichasi faolsizlantirilmagunicha orqaga qaragan bolalarni mahkamlash tizimini old yo'lovchi o'rindig'iga joylashtirmang.

13 yoshdan kichik bolalar doim orqa o'rindiqda bo'lishlari kerak va avtohalokat, to'satdan to'xtash yoki to'satdan amalga oshiriladigan manyovrlarda olinadigan jarohatlarni kamaytirish uchun doim to'g'ri mahkamlanishlari kerak.

Avtohalokat statistikalariga ko'ra, bolalar old o'rindiqdan ko'ra orqa o'rindiqda kamarlari to'g'ri taqilganida himoyalanganroq bo'lishadi. Bolalarni mahkamlash tizimi uchun katta bo'lgan bolalar mavjud xavfsizlik kamarlaridan foydalanishlari kerak.

Ko'plab mamlakatlarda bolalarning tasdiqlangan bolalarni mahkamlash tizimlarida safar qilishini talab qiladigan qoidalar amal qiladi.

Bolalarni mahkamlash tizimi o'rniga xavfsizlik kamarlaridan foydalanishga ruxsat beradigan yosh yoki bo'y/vazn cheklovlarini tartibga soluvchi qonunlar turli mamlakatlarda farq qiladi, shu sababli siz o'z mamlakatingiz va safar qilayotgan joyingizdagi muayyan talablardan xabardor bo'lishingiz kerak.

Bolalarni mahkamlash tizimi avtomobil o'rindig'iga to'g'ri o'rnatilishi kerak. Har doim mamlakatingiz talablariga javob beradigan, sotuvda mavjud bo'lgan bolalarni mahkamlash tizimidan foydalaning.

Bolalarni mahkamlash tizimini (CRS) ishlatish

Chaqaloqlar va yosh bolalar avtomobil o'rindig'iga to'g'ri mahkamlangan orqaga qaragan yoki oldinga qaragan mos CRSda mahkamlanishi kerak. Bolalarni mahkamlash tizimining ishlab chiqaruvchisi tomonidan taqdim etilgan o'rnatish va foydalanish bo'yicha qo'llanmani o'qib chiqing va unga amal qiling.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Bolalarni mahkamlash tizimini o'rnatish va foydalanish bo'yicha ishlab chiqaruvchining qo'llanmasiga doim amal qiling.
- Farzandingizni bolalarni mahkamlash tizimida doim to'g'ri mahkamlang.
- O'rindiq suyanchig'iga osiladigan chaqaloq tashuvchi moslama yoki bolalar uchun xavfsiz o'rindiqdan foydalanmang, u avtohalokat vaqtida zarur himoya bilan ta'minlanmasligi mumkin.
- Avtohalokatdan keyin tizimni ixtisoslashgan ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/ xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

Bolalarni mahkamlash tizimini (CRS) tanlash

Farzandingiz uchun bolalarni mahkamlash tizimini tanlashda, quyidagilarni doim bajaring:

- Bolalarni mahkamlash tizimi mamlakatingizning amaldagi xavfsizlik standartlariga javob beruvchi sertifikatga ega ekaniga ishonch hosil qiling.
Bolalarni mahkamlash tizimi faqat ECE-R44, ECE-R129 yoki aloqador qoidalar talablariga mos ravishda tasdiqlangan bo'lsa o'rnatilishi mumkin.
- Farzandingizning bo'yi va vazniga qarab bolalarni mahkamlash tizimini tanlang. Bu ma'lumot odatda zarur yorliq yoki qo'llanmada bo'ladi.
- Foydalaniladigan avtomobil o'rindig'iga mos keladigan bolalarni mahkamlash tizimini tanlang.
Bolalarni mahkamlash tizimi avtomobilning o'rindig'iga mos kelishini tekshirish uchun quyidagiga qarang "Har bir o'rindiq holatini kamar va ISOFIX bilan bolalarni mahkamlash tizimi BMT qoidalariga mos ravishda o'rnatish bo'yicha muvofiqligi (Avtomobil foydalanuvchilari va CRS ishlab chiqaruvchilari uchun ma'lumot)", 3-31-sahifa.
- Bolalarni mahkamlash tizimi bilan birga taqdim etilgan o'rnatish va foydalanish bo'yicha ogohlantirish va qo'llanmani o'qib chiqing va unga amal qiling.

bolalarni mahkamlash tizimi turlari

Bolalarni mahkamlash tizimining uchta asosiy turi mavjud:

- Orqaga qaragan CRS
- Oldinga qaragan CRS
- Qo'shimcha o'rindiq-yostiqli

Ular bolaning yoshi, bo'yi va vazniga qarab tasniflanadi.

Orqaga qaragan bolalarni mahkamlash tizimi



Orqaga qaragan bolalarni mahkamlash tizimi bolaning beliga Kamarlar tizimi bolani joyida ushlab turadi va avtohalokat vaqtida bolalarni mahkamlash tizimida o'tirib qolishini, nozik bo'yin va umurtqa pog'onasiga nisbatan bosimni kamaytirishni ta'minlaydi.

Bir yoshdan kichik barcha bolalar doim orqaga qaragan mahkamlash tizimida bo'lishlari kerak. Orqaga qaragan bolalarni mahkamlash tizimlarining turli xili mavjud: faqat chaqaloqlarga moslashtirilgan bolalarni mahkamlash tizimidan faqat orqaga qaragan holatda foydalanish kerak. Ortga qaragan o'zgartiriladigan va 3 tadan 1 ta bolalarni mahkamlash tizimlar odatda bo'y va vazn bo'yicha yuqori cheklolarga ega, bu sizga uzoq muddat davomida bolani orqaga qaragan holda mahkamlash imkonini beradi.

Bolalarni mahkamlash tizimlari ishlab chiqaruvchisi tomonidan ruxsat etilgan bo'y va vazn chegaralariga mos kelguncha, orqaga qaragan bolalarni mahkamlash tizimlarini ishlatishda davom eting.

Oldinga qaragan bolalarni mahkamlash tizimi

Oldinga qaragan bolalarni mahkamlash tizimi kamarlar yordamida bolaning tanasini ushlab turishni ta'minlaydi. Bolalarni bolalarni mahkamlash tizimi

ishlab chiqaruvchisi tomonidan ruxsat etilgan eng yuqori bo'y yoki vazn chegarasiga yetgunga qadar kamarli, oldinga qaragan bolalarni mahkamlash tizimida saqlang.

Farzandingiz oldinga qaragan bolalarni mahkamlash tizimi uchun kattarganidan keyin qo'shimcha o'rindiq-yostiq uchun tayyor bo'ladi.

Qo'shimcha o'rindiq-yostiqlar

Qo'shimcha o'rindiq-yostiq avtomobil xavfsizlik kamari tizimi mos kelishini ta'minlash uchun ishlab chiqarilgan. Qo'shimcha o'rindiq-yostiq xavfsizlik kamarini farzandingiz tanasining kuchli qismlari ustidan to'g'ri taqilishini ta'minlaydi. Farzandingiz xavfsizlik kamarini to'g'ri taqishlari uchun katta bo'lgunga qadar qo'shimcha o'rindiq-yostiqdand foydalaning.

Xavfsizlik kamari to'g'ri taqilishi uchun tizza kamari qorin ustida emas sonning yuqori qismida qulay joylashtirilishi kerak. Yelka kamari bo'yin yoki yuz meas, balki yelka va ko'krak bo'ylab qulay joylashishi kerak. 13 yoshdan kichik bolalar doim avtohalokat, to'satdan to'xtash yoki to'satdan amalga oshiriladigan manyovrlarda olinadigan jarohat xavfini kamaytirish uchun doim to'g'ri mahkamlanishlari kerak.

Bolalarni mahkamlash tizimini (CRS) o'rnatish

⚠ OGOHLANTIRISH

Bolalarni mahkamlash tizimini o'rnatishdan avval doim:

Bolalarni mahkamlash tizimining ishlab chiqaruvchisi tomonidan taqdim etilgan qo'llanmani o'qib chiqing va unga amal qiling.

Barcha ogohlantirishlar va yo'riqnomalarga amal qilmaslik avtohalokat yuz bergan holda JIDDIY JAROHAT yoki O'LIMGA sababchi bo'lishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH

Agar avtomobilning bosh suyanchig'i bolalarni mahkamlash tizimini o'rnatishga xalaqit bersa, mos o'rindiqning bosh suyanchig'i qayta sozlanishi kerak yoki umuman olib tashlanishi kerak.

Farzandingizga mos keladigan bolalarni mahkamlash tizimini tanlaganingizdan va bolalarni mahkamlash tizimi o'tirish holatiga to'g'ri kelishini tekshirganingizdan keyin, uni o'rnatish uchun umumiy uchta bosqich mavjud:

- **Bolalarni mahkamlash tizimini avtomobilga to'g'ri mahkamlang.**
Barcha bolalarni mahkamlash tizimlari avtomobilga tizza kamari yoki tizza/yelka kamarining tizza qismi bilan yoki ISOFIX yuqori kamari va/yoki ISOFIX mahkamlash moslamasi va/yoki tayanch tutqich bilan mahkamlanishi kerak.
- **Bolalarni mahkamlash tizimining mustahkam mahkamlanganiga ishonch hosil qiling.** Bolalarni mahkamlash tizimini avtomobilga o'rnatgach, uning o'rindiqqa mahkam o'rnatilganiga ishonch hosil qilish uchun o'rindiqni oldinga va yon tomonga suring va torting. Xavfsizlik kamarlari bilan mahkamlangan bolalarni mahkamlash tizimi imkon qadar mustahkam o'rnatilishi kerak. Biroq biroz uyoqdan-buyoqqa qimirlash kutilishi mumkin. Bolalarni mahkamlash tizimini o'rnatayotganda, avtomobil o'rindig'i va o'rindiqlarini

(yuqoriga va pastga, oldinga va orqaga) sozlang, shunda bolangiz Bolalarni mahkamlash tizimiga qulay tarzda joylashadi.


- **Bolani bolalarni mahkamlash tizimiga mahkamlang.** Bolani Bolalarni mahkamlash tizimi ishlab chiqaruvchisi ko'rsatmalariga muvofiq bolalarni mahkamlash tizimiga to'g'ri bog'langaniga ishonch hosil qiling.

⚠ DIQQAT

Yopiq avtomobildagi bolalarni mahkamlash tizimi juda qizib ketishi mumkin. Kuyishning oldini olish uchun bolangizni Bolalarni mahkamlash tizimiga o'rnatishdan oldin o'tiradigan joy va to'qalarni tekshiring.

Bolalarni mahkamlash tizimini tizza/yelka kamari bilan mahkamlash

ISOFIX tizimidan foydalanilmaganda barcha bolalarni mahkamlash tizimlari orqa o'rindiqqa tizza/yelka kamarining tizza qismi bilan mahkamlanishi kerak.



Bolalarni mahkamlash tizimini orqa o'rindiqda o'rnatish uchun quyidagilarni bajaring:

1. Bolalarni mahkamlash tizimini orqa o'rindiqqa joylang va tizza/yelka kamarini bolalarni mahkamlash tizimi ustudan aylantiring yoki undan o'tkazing, bolalarni mahkamlash tizimi ishlab chiqaruvchisi qo'llanmasiga rioya qiling.

Xavfsizlik kamari tasmasi buralib qolmaganiga ishonch hosil qiling.

2. Tizza/yelka kamari ilgagini tasma qulfiga taqing. "Chertish" tovushi chiqishiga e'tibor bering. Chiqarish tugmasini favqulodda vaziyat vaqtida yechish oson bo'ladigan tarzda joylashtiring.
3. Yelka kamarini tortqichga qaytarayotganda bolalarni mahkamlash tizimi ustiga bosib, xavfsizlik kamaridan iloji boricha bo'shlikni bartaraf eting.
4. Xavfsizlik kamari mahkam ekaniga ishonch hosil qilish uchun bolalarni mahkamlash tizimini bosing va torting.

Agar Bolalarni mahkamlash tizimingiz ishlab chiqaruvchisi tizza/yelka kamariga ega ustki bog'lovchidan foydalanishni tavsiya qilsa, bu bobning "Bolalarni mahkamlash tizimi o'rindig'ini "Top-tether anchorage" tizimi bilan mahkamlash" bo'limiga qarang.

Bolalarni mahkamlash tizimini yechish uchun tasma qulfidagi yechish tugmasini bosing keyin tizza/yelka kamarini Bolalarni mahkamlash tizimidan tortib chiqaring va xavfsizlik kamari to'liq chiqarib oling.

Bolalar uchun ISOFIX mahkamlash moslamasi va qo'shimcha bolalar o'rindig'i yuqori kamari (ISOFIX mahkamlash moslamasi tizimi)

ISOFIX tizimi avtomobil harakatlangan vaqtda va avtohalokatda bolalarni mahkamlash tizimini ushlaydi. Tizim bolalarni mahkamlash tizimi o'rnatilishini osonlashtirish va bolalarni mahkamlash tizimini noto'g'ri o'rnatish ehtimolini kamaytirish uchun ishlab chiqilgan. ISOFIX tizimi avtomobildagi langarlar va bolalarni mahkamlash tizimidagi biriktirmalardan foydalanadi. ISOFIX tizimi orqa o'rindiqqa bolalarni mahkamlash tizimini o'rnatishda xavfsizlik kamarlaridan foydalanish zaruratini bartaraf etadi.

ISOFIX mahkamlash moslamalari avtomobilga o'rnatilgan metal ilgaklardan iborat. Har bir ISOFIX o'tirish joyi uchun ikkita pastki langar bo'lib, ular bolalarni mahkamlash tizimining pastki biriktirmasi uchun xizmat qiladi.

Avtomobilingizda ISOFIX tizimidan foydalanish uchun ISOFIX biriktirmasi mavjud bolalarni mahkamlash tizimiga ega bo'lishingiz kerak.


Bolalarni mahkamlash tizimi ishlab chiqaruvchisi bolalarni mahkamlash tizimini ISOFIX ilgaklari uchun biriktirmalardan qanday foydalanish bo'yicha qo'llanma bilan ta'minlaydi.

Orqa yon o'rindiqlarning chap va o'ng tomonida ISOFIX ilgaklari o'rnatilgan. Ularning joylashuvi illyustratsiyada ko'rsatilgan.



⚠ OGOHLANTIRISH

ISOFIX ilgaklaridan foydalangan holda bolalarni mahkamlash tizimini orqa markaziy o'rindiqqa o'rnatishga urinmang. Bu o'rindiq uchun ISOFIX ilgaklari mavjud emas. Yon o'rindiqlarning ilgaklaridan orqa markaziy o'rindiqda CRS o'rnatish uchun foydalanish ilgaklarga shikast yetkazishi mumkin.



1 ISOFIX langar holati indikatori

2 ISOFIX langari

ISOFIX ilgaklari orqa yon o'rindiqlarning chap va o'ng tomonida o'rindiq suyanchig'i va o'rindiq yostig'i orasida joylashgan, ular belgi bilan ko'rsatilgan.

Bolalarni mahkamlash tizimini "ISOFIX Anchorage System" bilan mahkamlash

Orqa yon o'rindiqlarda ISOFIX bilan mos bolalarni mahkamlash tizimini o'rnatish uchun:

1. ISOFIX ilgaklaridan xavfsizlik kamari tasma qulfini uzoqroq saqlang.
2. Bolalarni mahkamlash tizimi va ISOFIX ilgaklarining mahkamlanishiga xalaqit berishi mumkin bo'lgan boshqa buyumlarni ilgaklardan uzoqroq olib qo'yin.
3. Bolalarni mahkamlash tizimini avtomobil o'rindig'iga joylang, keyin bolalarni mahkamlash tizimi ishlab chiqaruvchisi tomonidan taqdim etilgan qo'llanmaga ko'ra o'rindiqni ISOFIX ilgaklariga biriktiring.
4. Bolalarni mahkamlash tizimidagi ISOFIX biriktirmalarini ISOFIX ilgaklariga to'g'ri o'rnatish uchun bolalarni mahkamlash tizimi ishlab chiqaruvchisining qo'llanmasiga rioya qiling.


⚠ OGOHLANTIRISH

ISOFIX tizimidan foydalanayotganda quyidagi ehtiyot choralarga rioya qiling:

- Bolalarni mahkamlash tizimining barcha o'rnatish yo'riqnomalarni o'qib chiqing va ularga rioya qiling.
- Yosh bola tortilmagan xavfsizlik kamarlarini ushlab olmasligi uchun barcha orqa xavfsizlik kamarlarini taqib qo'ying va xavfsizlik kamarlarini bolaning orqa tomoniga olib qo'ying. Agar yelka kamari bolalarning bo'yni atrofida o'ralib qolsa va xavfsizlik kamari tortilsa bola bo'g'ilib qolishi mumkin.
- Bitta ilgakka hech qachon birdan ortiq bolalarni mahkamlash tizimini biriktirmang. Bu langar yoki biriktirma bo'shab qolishi yoki sinishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Avtahalokatdan keyin ISOFIX (i-Size) tizimni tekshirtirish uchun dilerga murojaat qiling. Avtahalokat ISOFIX

tizimiga shikast yetkazishi va u bolalarni mahkamlash tizimini to'g'ri ushlamasligi mumkin.

Bolalarni mahkamlash tizimini qo'shimcha bolalar o'rindig'i yuqori kamari bilan mahkamlash



Bolalarni mahkamlovchi ilgak ushlagichlari paket o'rami tagida joylashgan.



mahkamlash tizimi ishlab chiqaruvchisi ko'rsatmalariga muvofiq torting.

⚠ OGOHLANTIRISH

Ilgakli tasmani o'rnatayotganda quyidagi ehtiyot choralarga rioya qiling:

- Bolalarni mahkamlash tizimining barcha o'rnatish yo'riqnomalarni o'qib chiqing va ularga rioya qiling.
- Bitta ISOFIX qo'shimcha bolalar o'rindig'i yuqori kamariga hech qachon birdan ortiq bolalarni mahkamlash tizimini biriktirmang. Bu ilgak yoki biriktirma bo'shab qolishi yoki sinishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Ilgakli tasmani to'g'ri ilgakli tasma langaridan boshqa narsaga biriktirmang. Boshqa narsaga biriktirilsa u to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Bolalarni mahkamlash tizimining ilgaklari faqat to'g'ri o'rnatilgan bolalarni mahkamlash tizimidan tushadigan vaznga bardosh berishga mo'ljallangan.

Hech qanday vaziyatda ular kattalar xavfsizlik kamarlari yoki boshqa buyumlar yoki jihozlarni avtomobilga mahkamlash uchun ishlatilmasligi kerak.

1. Bolalarni mahkamlash tizimining o'rindiqlik tasmasini o'rindiqlik suyanichig'i ustidan o'tkazing.
Rostlanuvchan boshsuyanichqli avtomobillar uchun bog'lovchi tasmani boshsuyanich o'stiga va boshsuyanich ustunlari orasiga o'tkazing, aks holda bog'lovchi tasmani o'rindiqlikning yuqori qismidan o'tkazing.
2. Yuqori ilgakli tasmani yuqori ilgakka ulang, keyin bolalarni mahkamlash tizimini o'rindiqlikqa mahkam bog'lash uchun yuqori ilgakli tasmani bolalarni

Har bir o'rindiqli holatini kamar va ISOFIX bilan bolalarni mahkamlash tizimi BMT qoidalariga mos ravishda o'rnatish bo'yicha muvofiqligi (Avtomobil foydalanuvchilari va CRS ishlab chiqaruvchilari uchun ma'lumot)

- Ha: Belgilangan CRS toifasini o'rnatish uchun mos
- Yo'q: Belgilangan CRS toifasini o'rnatish uchun mos emas
- "-": Aniq emas
- Jadval LHD avtomobilga asoslangan. Old yo'lovchi o'rindig'idan tashqari, jadval RHD avtomobili uchun amal qiladi. RHD avtomobili old yo'lovchi o'rindig'i uchun, 3-raqamli o'rindiqli uchun ma'lumotdan foydalaning.

F: Oldinga qaragan
R: Orqaga qaragan


CRS turkumlari		O'rindiqli						
		1	2	3		4	5	6
				Xavfsizlik yostiqli chasi ON (YONIQ)	Xavfsizlik yostiqli chasi OFF (O'CHIQ)			
Universal kamarli CRS	Barcha ommaviy guruhlar	-	-	Yo'q	Ha*1 (F, R)	Ha*2 (F, R)	Ha*3 (F, R)	Ha*2 (F, R)
i-Size CRS	ISOFIX CRF: F2,F2X,R1,R2	-	-	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q
Balanchak (ISOFIX yon tomonga qaragan CRS)	ISOFIX CRF: L1,L2	-	-	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q
ISOFIX chaqaloq* uchun CRS (*: ISOFIX chaqaloq CRS)	ISOFIX CRF: R1	-	-	Yo'q	Yo'q	Ha (R)	Yo'q	Ha (R)
ISOFIX go'daklar uchun CRS - kichik	ISOFIX CRF: F2,F2X, R2, R2X	-	-	Yo'q	Yo'q	Ha (F, R)	Yo'q	Ha (F, R)
ISOFIX go'daklar uchun CRS - katta* (*: qo'shimcha o'rindiqli-yostiqli emas)	ISOFIX CRF: F3, R3	-	-	Yo'q	Yo'q	Ha (F, R)	Yo'q	Ha (F, R)
Bolalar o'rindig'i - eni qisqartirilgan	ISO CRF: B2	-	-	Yo'q	Yo'q	Ha	Yo'q	Ha
Bolalar o'rindig'i - eni butun	ISO CRF: B3	-	-	Yo'q	Yo'q	Ha	Yo'q	Ha

- * 1: Universal CRS moslamasini 1-qatordagi yo'lovchi o'rindiqlariga o'rnatish uchun o'rindiqlining orqa tomoni eng tik holatda sozlanishi kerak.
- * 2: Universal CRS moslamasini 2-qator tashqi o'tirish joylariga o'rnatish uchun 1-qator o'rindiqli oldinga qarab to'g'ri sozlanishi kerak.
- * 3: Hech qachon CRS moslamasini tayanch oyog'i bilan 2-qatorning markaziy o'tirish joyiga o'rnatmang.
- * Agar avtomobil bosh suyanchig'i bolalarni mahkamlash tizimini o'rnatishga xalaqit bersa, mos o'rindiqli bosh suyanchig'i qayta sozlanishi kerak yoki umuman olib tashlanishi kerak.
- * Yo'lovchi xavfsizlik yostiqli chasi o'chirilmaguncha orqaga qaragan bolalarni mahkamlash tizimini old yo'lovchi o'rindiqli ga joylashtirmang.



O'rindiq raqami	Avtomobil holati
1	Old chap
2	Old markaz
3	Old o'ng
4	2-qator chap
5	2-qator markaz
6	2-qator o'ng

Xavfsizlik yostiqchasi - qo'shimcha cheklov tizimi



OGL3024024L

* Avtomobildagi haqiqiy xavfsizlik yostiqchalari rasmdagidan farq qilishi mumkin.

- 1 Yo'lovchi uchun old xavfsizlik yostiqchasi
- 2 Old markaziy yon xavfsizlik yostiqchasi
- 3 Haydovchi uchun old xavfsizlik yostiqchasi
- 4 Haydovchi uchun tizza xavfsizlik yostiqchasi
- 5 Yon xavfsizlik yostiqchasi
- 6 Parda xavfsizlik yostiqchasi

OGOHLANTIRISH

- Hatto xavfsizlik yostiqlashi bor avtomobillarda ham to'qnashuv yoki aksar ag'darilish holatlarida shikastlanish xavfi va jiddiyligini kamaytirish uchun siz va yo'lovchilaringiz doim mavjud xavfsizlik kamarlarini taqishingiz kerak.
- SRS va xavfsizlik kamari tortqichlari tarkibida portlovchi kimyoviy moddalar mavjud.
Avtomobil SRS va xavfsizlik kamari tortqichlarini olib tashlamay qirtishlab tozalanadigan bo'lsa, yong'in yuzaga kelishi mumkin. Avtomobilni tozalashdan oldin ixtisoslashgan ustaxonaga murojaat qiling. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.
- SRS qismlari va simlarini suv yoki har qanday suyuqlik tegishidan ehtiyot qiling. Agar SRS komponentlari suv yoki suyuqliklar ta'sirida ishdan chiqsa, bu yong'inga yoki jiddiy shikastlanishga olib kelishi mumkin.

Xavfsizlik yostiqlashi tizimi qanday ishlaydi?

- Xavfsizlik yostiqlashi faqat ENGINE START/STOP tugmasi ON holatida yoki o't oldirgich o'chirilgach, taxminan 3 daqiqa ichida faollashadi (zaruratga qarab, ochiladi).
- Yo'lovchilarni jiddiy jismoniy jarohatdan himoya qilish uchun jiddiy old tomondan yoki yon tomondan (agar yon tomon xavfsizlik yostiqlashi yoki parda xavfsizlik yostiqlashi bilan jihozlangan bo'lsa) zarba holatida darhol ochiladi.
- Xavfsizlik yostiqlashi ochiladigan ma'lum tezlik yo'q.

Umuman olganda, xavfsizlik yostiqlashi avariyaning og'irligi va uning yo'nalishiga asosanib ochilishga mo'ljallangan. Bu ikki omil datchiklar elektron ishga tushish/ ochilish signalini yuborishi-yubormasligini aniqlaydi.

- Xavfsizlik yostiqlashining ishga tushishi bir qancha omillarga, jumladan, avtomobil tezligi, zarba burchaklari, shuningdek to'qnashuv paytida avtomobillar yoki obyektlarning zichligi va qattiqligiga bog'liq bo'ladi. Aniqlovchi omillar yuqorida tilga olingan omillar bilan cheklanmaydi.
- Old xavfsizlik yostiqlashi bir lahzada to'liq shishadi va puchayadi.
Avariya paytida xavfsizlik yostiqlashining shishayotganini ko'rish deyarli imkonsiz. To'qnashuvdan keyin katta ehtimol bilan siz dami chiqqan xavfsizlik yostiqlashini saqlash bo'lmalaridan osilib turgan holatda ko'rasiz.
- Jiddiy to'qnashuv vaqtida himoyani ta'minlash uchun xavfsizlik yostiqlashi tez shishishi kerak. Xavfsizlik yostiqlashining ochilish tezligi to'qnashuv sodir bo'ladigan juda qisqa vaqtning hamda yo'lovchi ushbu qismlarga urilishidan oldin yo'lovchi va avtomobil tuzilmalariga xavfsizlik yostiqlashini joylashtirish zaruratining natijasidir. Bunday ochilish tezligi kuchli to'qnashuvda jiddiy yoki hayot uchun xavfli jarohatlar olish xavfini kamaytiradi va shu tariqa xavfsizlik yostiqlashi tuzilmasining zaruriy qismi hisoblanadi.
- Shunga qaramay, xavfsizlik yostiqlashining ochilishi jarohatlarga, jumladan yuzning shilinishi, suyaklarning lay yeyishi yoki sinishiga olib kelishi mumkin, sababi tez shishish

natijasida xavfsizlik yostiqchalarini katta kuch bilan kengayadi.

- **Rul chamberagi xavfsizlik yostiqchasiga urilish halokatli jarohatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar ham mavjud, ayniqsa yo'lovchi rulga haddan tashqari yaqin o'tirgan bo'lsa.**

⚠ OGOHLANTIRISH

- To'qnashuv chog'ida xavfsizlik yostiqchalarining ishga tushishi natijasida kelib chiqadigan jiddiy jarohatlar yoki o'lim holatlarining oldini olish uchun haydovchi rul chamberagi xavfsizlik yostiqchasidan imkon qadar uzoqroqda o'tirishi kerak. Old yo'lovchi har doim o'z o'rindig'ini imkon qadar orqaroq surib, o'rindiqqa suyanib o'tirishi kerak.
- To'qnashuv sodir bo'lganida xavfsizlik yostiqchasi bir zumda ochiladi, yo'lovchilar noto'g'ri holatda bo'lsa, xavfsizlik yostiqchasining ochilish zarbidan jarohat olishlari mumkin.
- Xavfsizlik yostiqchasining ochilishi jarohatlarga, shu jumladan yuz yoki tananing shilinishi, oyna siniqlaridan yoki kuyishdan jarohatlanishga olib kelishi mumkin.

Shovqin va tutun

Xavfsizlik yostiqchalari kuchli shovqin bilan ochiladi va avtomobil ichidagi havoga tutun va chang chiqaradi. Bu normal holat bo'lib, xavfsizlik yostiqchasi nasosining ishga tushishi sababli ro'y beradi. Xavfsizlik yostiqchasi havoga to'lgach, ko'kragingizning xavfsizlik kamariga va xavfsizlik yostiqchasiga tegishi, shuningdek, dimog'ingizga tutun va chang kirishi natijasida nafas olishda sezilarli noqulaylik his qilishingiz mumkin.

Noqulaylikni kamaytirish hamda tutun

va changning davomli ta'sirining oldini olish uchun zarbadan keyin eshik va/ yoki oynalaringizni imkon qadar tezroq oching.

Tutun va cnahg zaharli bo'lmasa-da, terida (ko'z, burun, tomoq va boshqalarda) qichishish keltirib chiqarishi mumkin. Agar shunday holat yuz bersa, darhol sovuq suv bilan yuvib, chayib tashlang va agar alomatlar yo'qolmasa, shifokor bilan maslahatlashing.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Xavfsizlik yostiqchalari ochilganida rul chamberagi va/yoki asboblar paneli va/ yoki old va orqa eshiklar tepasida joylashgan tom relsining ikki tomonidagi xavfsizlik yostiqchalari bilan bog'liq qismlar juda issiq bo'ladi. Jarohatdan saqlanish uchun xavfsizlik yostiqchalari ochilgach, darhol xavfsizlik yostiqchasi saqlash joylarining ichki komponentlariga tegmang.
- Asboblar paneli, oynalar, tirgaklar va tom relslari kabi xavfsizlik yostiqchalari ochiladigan joylarga hech qanday aksessuarlar o'rnatmang yoki qo'ymang. Agar yo'lovchining xavfsizlik yostiqchasi ochilsa bunday buyumlar xatarli bo'lib jarohat yetkazishi mumkin.

Bolalarni mahkamlash tizimi uchun old yo'lovchi xavfsizlik yostiqchasi ogohlantirish yorlig'i

A turi



B turi



⚠ OGOHLANTIRISH

Yo'lovchi xavfsizlik yostiqlashi faolsizlantirilmagunicha orqaga qaragan bolalarni mahkamlash moslamasini old yo'lovchi o'rindig'iga joylashtirmang. Yo'lovchi tomondagi xavfsizlik yostiqlashi orqaga qaragan bolalarni mahkamlash moslamasiga zarba berib bolani o'ldirishi mumkin.

Shu bilan birga, oldga qaragan bolalarni mahkamlash moslamasini old yo'lovchi o'rindig'iga joylamaslikni ham maslahat beramiz. Agar old yo'lovchi xavfsizlik yostiqlashi ochilsa, bolaga jiddiy yoki halokatli jarohatlar yetkazishi mumkin.

Batafsil ma'lumot uchun qarang: "Bolalarni mahkamlash tizimi (CRS)", 3-24-sahifa. (mavjud bo'lsa)

⚠ OGOHLANTIRISH

- Oldida FAOL XAVFSIZLIK YOSTIQCHASI bilan himoyalangan o'rindiqda HECH QACHON orqaga qaragan bolalarni mahkamlash tizimidan foydalanmang. BOLA uchun O'LIM yoki jiddiy jarohatlar xavfi mavjud.
- Kuchli xavf! Oldida xavfsizlik yostiqlashi bilan himoyalangan o'rindiqda orqaga qaragan bolalarni mahkamlash moslamasidan foydalanmang.
- Bolalar yon va/yoki parda xavfsizlik yostiqlashlari bilan jihozlangan avtomobilning orqa yon o'rindiqlarida o'tirgan bo'lsa, bolalarni mahkamlash

tizimini albatta eshikdan imkon qadar uzoqroqqa o'rnatib va bolalarni mahkamlash tizimini tegishli holatda ishonchli mahkamlang.

Yon va/yoki parda xavfsizlik yostiqlashlarining havoga to'lishi chaqaloq yoki bolaning jiddiy shikastlanishiga yoki o'limiga sababchi bo'lishi mumkin.

xavfsizlik yostiqlashi ogohlantirishi va indikatori

Xavfsizlik yostiqlashi ogohlantirish chirog'i

Asboblari panelidagi xavfsizlik yostiqlashining ogohlantirish chirog'idan maqsad, xavfsizlik yostiqlashi bilan bog'liq ehtimoliy muammo – Qo'shimcha cheklov tizimi (SRS) haqida sizni ogohlantirishdir.




ENGINE START/STOP tugmasi yoqilganida ogohlantirish chirog'i taxminan 6 soniya yonib turishi, keyin o'chishi kerak.

Quyidagi hollarda tizimni tekshiring:

- O't oldirish tizimi ON (YONIQ) holatida chiroq qisqa muddatga yonmayotgan bo'lsa.
- Chiroq taxminan 6 soniya yonib turganidan keyin yoniq holatda qolayotgan bo'lsa.
- Chiroq avtomobil harakatlanayotganida yoniq turgan bo'lsa.
- Chiroq ENGINE START/STOP tugmasi ON (YONIQ) holatida bo'lganida miltillayotgan bo'lsa.

SRS komponentlari va funksiyalari



* SRS komponentlarining haqiqiy holati rasmdagidan farq qilishi mumkin.

SRS quyidagi komponentlardan tarkib topgan:

- 1 Old zarba datchiklari
- 2 Yo'lovchining old xavfsizlik yostiqchasi moduli
- 3 SRS boshqaruv moduli (SRSCM) / aylanish sensori
- 4 Yon bosim datchiklari*
- 5 Xavfsizlik kamari tortqichi qo'shimcha qismlari
- 6 Old yon tomon xavfsizlik yostiqchasi modullari
- 7 Yon zarba datchiklari
- 8 Xavfsizlik parda modullari
- 9 Orqa yon tomon xavfsizlik yostiqchasi modullari
- 10 Haydovchi tizzasi xavfsizlik yostiqchasi moduli
- 11 Xavfsizlik yostiqchasi ogohlantirish chirog'i
- 12 Haydovchi uchun old xavfsizlik yostiqchasi moduli
- 13 Haydovchi markaziy yon tomon xavfsizlik yostiqchasi moduli

* : jihozlangan bo'lsa

Old, deyarli old yoki yondan zarba xavfsizlik yostiqchasi ochilishi yoki xavfsizlik kamari tortqichi ishga tushishi zarur yoki yo'qligini aniqlash uchun ENGINE START/STOP tugmasi yoniqligida SRSCM uzluksiz barcha elementlarni kuzatib boradi.

Asboblار panelidagi SRS xavfsizlik yostiqchasi ogohlantirish chirog'i ENGINE START/STOP tugmasi yoniq holatiga keltirilgach, 6 soniya yonadi, bundan keyin xavfsizlik yostiqchasi ogohlantirish chirog'i o'chishi kerak.

⚠ OGOHLANTIRISH

Agar quyidagi vaziyatlardan biri ro'y bersa, bu SRS ishlamasligini bildiradi. Bunday holda, tizimni ixtisoslashgan ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

- O't oldirish tizimi ON (YONIQ) holatida chiroq qisqa muddatga yonmayotgan bo'lsa.
- Chiroq taxminan 6 soniya yonib turganidan keyin yoniq holatda qolayotgan bo'lsa.
- Chiroq avtomobil harakatlanayotganida yoniq turgan bo'lsa.
- Chiroq ENGINE START/STOP tugmasi ON (YONIQ) holatida bo'lganida millitlayotgan bo'lsa.

Haydovchi uchun old xavfsizlik yostiqchasi (1)



Xavfsizlik yostiqchasi modullari rul chambaragi markazida hamda old yo'lovchining bo'lmacha tepasidagi panelda joylashgan. SRSCM avtomobilning old qismiga yetarlicha kuchli zarbani aniqlasa avtomatik tarzda old xavfsizlik yostiqchalari ishga tushadi.

Haydovchi uchun old xavfsizlik yostiqchasi (2)



Ishga tushirilganidan keyin bevosita g'íloflardagi yirtilish choklari xavfsizlik yostiqchalari ochilishi natijasida paydo bo'lgan bosim tufayli ajraladi. G'íloflarning yanada kuchliroq ochilishi xavfsizlik yostiqchalari to'liq ochilishiga olib keladi.

Haydovchi uchun old xavfsizlik yostiqchasi (3)



To'liq ochilgan xavfsizlik yostiqchasi bilan birga to'g'ri taqilgan xavfsizlik kamari haydovchi yoki yo'lovchining oldinga harakatini sekinlashtiradi, bu bilan bosh va ko'krakka bo'ladigan jarohat ehtimolligini kamaytiradi.

To'liq ochilganidan keyin xavfsizlik yostiqchasining dami darhol chiqishni boshlaydi, bu haydovchiga old tomonni ko'rishga, rulni yoki boshqa boshqaruv elementlarini nazorat qilish imkonini yaratadi.

Yo'lovchi uchun old xavfsizlik yostiqchasi



⚠ OGOHLANTIRISH

- Yo'lovchi xavfsizlik yostiqchasi mavjud avtomobilda old yo'lovchi bo'lmachasi tepasidagi panelga hech qanday aksessuarlarni (ichimlik saqlagich, CD saqlagich, stiker va h. k.) joylamang. Agar yo'lovchining xavfsizlik yostiqchasi ochilsa bunday buyumlar xatarli bo'lib jarohat yetkazishi mumkin.
- Avtomobilga suyuq havo spreyni o'rnatangiz uni asboblarni klasteri yaqinida yoki asboblarni paneli yuzasida joylashtirmang. Yo'lovchining xavfsizlik yostiqchasi ochilsa bunday buyumlar xatarli bo'lib jarohat yetkazishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Xavfsizlik yostiqchasi ochilganida baland tovush chiqishi va mashina ichida yengil chang paydo bo'lishi mumkin. Bu odatiy holat va xatarli emas - xavfsizlik yostiqchasi ana shunday kukun ichida qadoqlangan. Xavfsizlik yostiqchasi ochilganda chiquvchi chang teri va ko'zda qichishga, ayrimlarda esa astma kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Xavfsizlik yostiqchasi ishg tushgan avtohalokatdan keyin chang tekkan joyni sovuq suv va yumshoq sovun bilan yaxshilab yuvib tashlang.
- SRS faqat Dvigatelni ishga tushirish/ to'xtatish tugmasi ON holatida

bo'lganda va avtomobil o'chirilgandan keyin taxminan 3 minut ichida ishlashi mumkin. Agar SRS xavfsizlik yostiqlari ogohlantirish chirog'i yonmasa yoki ENGINE START/STOP tugmasi yoniq holatida yoki dvigatel ishga tushirilgach, 6 soniyada yonib turgandan keyin o'chmasa, mashinani haydab ketayotganda yonsa, SRS to'g'ri ishlamayotgan bo'ladi. Bunday holda, tizimni ixtisoslashgan ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/ xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

- Saqlagichni almashtirish yoki batareya klemmasini uzishdan oldin ENGINE START/STOP tugmasini o'chiring. ENGINE START/STOP tugmasi ON (YONIQ) holatda bo'lganida xavfsizlik yostiqlariga aloqador saqlagich(lar)ni aslo olib tashlamang yoki almashtirmang. Bu ogohlantirishga amal qilmaslik SRS xavfsizlik yostiqlari ogohlantirish chirog'i yonishiga sabab bo'ladi.

Haydovchi va yo'lovchi uchun old xavfsizlik yostiqlari

Haydovchi uchun old xavfsizlik yostiqlari



Haydovchi uchun tizza xavfsizlik yostiqlari



Yo'lovchi uchun old xavfsizlik yostiqlari



Avtomobilingiz haydovchi va yo'lovchi o'rindiqlarida qo'shimcha himoya tizimi (xavfsizlik yostiqlari) va tizza/yelka kamarlari bilan jihozlangan.

Tizimning mavjudligi rul kamaragidagi xavfsizlik yostiqlari qopqog'iga, ruldan pastda joylashgan haydovchi tizzasi uchun mo'ljallangan panel qopqog'iga va qo'lqop qutisi ustidagi yo'lovchi tomonidagi old panel yostig'iga o'yib yozilgan "AIR BAG" so'zlari bilan ko'rsatilgan.

SRS tizimi rul kamaragi markazidagi yostiqlar qoplamalari ostiga, rul ustuni ostidagi tizza paneli va qo'lqop qutisi ustidagi yo'lovchi tomonidagi old panelga o'rnatilgan xavfsizlik yostiqlaridan iborat.

SRS maqsadi avtomobil haydovchisi va/ yoki old yo'lovchini old tomonga kelib tushadigan yetarli darajada kuchli bo'lgan zarba vaziyatida xavfsizlik kamari taqdim etadigan himoyadan tashqari qo'shimcha himoya bilan taminlash.

⚠ OGOHLANTIRISH

Haydovchi qo'llari rul chambaragida soatning 9:00 va 3:00 holatida turishi kerak. Yo'lovchi qo'llari son ustida qo'yilishi kerak.

⚠ OGOHLANTIRISH

Har safarda, har doim va hamma uchun xavfsizlik kamarlari va bolalarni mahkamlash moslamasidan foydalaning! Xavfsizlik yostiqchalari yetarli kuch bilan ko'z ochib yumguncha ochiladi. Xavfsizlik kamarlari yo'lovchilar xavfsizlik yostiqchalaridan maksimal darajada foyda ko'rishlari uchun ularni to'g'ri holatda tutib turadi. Xavfsizlik yostiqchalari bo'lgan taqdirda ham, xavfsizlik yostiqchalari ochilgan vaqtda xavfsizlik kamarlari noto'g'ri taqilgan va taqilmagan yo'lovchilar jiddiy jarohatlanishlari mumkin. Bu qo'llanmadagi xavfsizlik kamarlari, yostiqchalari va yo'lovchi xavfsizligi haqidagi ehtiyot choralarga doim amal qiling.

Jiddiy yoki jarohatli shikastlanish vaziyati ehtimolini kamaytirish uchun va himoya tizimingizdan maksimal darajada manfaat ko'rish uchun:

- Hech qachon bolani old o'rindiqqa bola o'rindig'i yoki qo'shimcha o'rindiq-yostiqqa o'tirg'izmang.
- Orqa o'rindiqda bolalarning kamarini doim taqing. Avtomobilda minish uchun har qanday yoshdagi bolalarga eng xavfsiz joy.
- Old va yon xavfsizlik yostiqchalari old o'rindiqda noto'g'ri o'tirgan yo'lovchilarga jarohat yetkazishi mumkin.
- O'rindiqlaringizni avtomobilni nazorat qila oladigan tarzda xavfsizlik

yostiqlaridan imkon qadar orqaga suring.

- Siz va yo'lovchilaringiz hech qachon xavfsizlik yostiqlariga yaqin o'tirmasligi yoki unga suyanmasligi kerak. Noto'g'ri holatda o'tirgan haydovchilar va yo'lovchilar ochilgan xavfsizlik yostiqlaridan jiddiy jarohat olishlari mumkin.
- Hech qachon eshik yoki uzatmalar dastagiga suyanmang - doim to'g'ri o'tiring.
- Rul chambaragi, asboblar paneli va old yo'lovchi bo'lmachasi ustidagi panel xavfsizlik yostiqlari modullari ustiga yoki yaqiniga hech qanday buyumlar qo'yilmasligi kerak, chunki agar xavfsizlik yostiqlari ochiladigan darajada jiddiy zarbalarda bunday buyumlar jarohat yetkazishi mumkin.
- SRS tizimining SRS simlari yoki boshqa komponentlarini buzmay yoki uzmay. Bunday qilish xavfsizlik yostiqlarining kutilmaganda ochilishi yoki SRS buzilishi sababli jiddiy jarohatlarga olib kelishi mumkin.
- SRS xavfsizlik yostiqlari ogohlantirish chirog'i avtomobil harakatlanayotganida yonib qolgan bo'lsa, tizimni ixtisoslashgan ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.
- Xavfsizlik yostiqlaridan faqat bir marta foydalanish mumkin - ixtisoslashgan ustaxonada tizimni almashtiring.
Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.
- SRS old xavfsizlik yostiqlarini faqat zarba yetarli darajada kuchli bo'lganda ochish uchun mo'ljallangan. Shu bilan birga, xavfsizlik yostiqlari faqat bir

marta ishga tushadi. Xavfsizlik kamarlari doim taqib yurilishi kerak.

- Old xavfsizlik yostiqchalari yon, orqa tomondan zarbalarda yoki ag'darilish bilan bog'liq avariyalarda ishga tushish uchun mo'ljallanmagan. Shu bilan birga, old xavfsizlik yostiqchalari ochilish chegarasidan past vaziyatlarda ochilmaydi.
- Bolalarni mahkamlash tizimi hech qachon old o'rindiqqa joylashtirilishi kerak emas. Chaqaloq yoki yosh bola avariya vaqtida xavfsizlik yostiqchasi ochilishi natijasida jiddiy jarohat olishi yoki o'lishi mumkin.
- 13 yosh va undan kichik bolalar orqa o'rindiqda kamarlari to'g'ri taqilgan holda bo'lishlari kerak. Bolalarga old yo'lovchi o'rindig'ida minishlariga hech qachon yo'l qo'ymang. Agar 13 yoshdan katta bola old o'rindiqda o'tiradigan bo'lsa uning kamari to'g'ri taqilishi kerak va o'rindiq imkon qadar orqaga surilishi kerak.
- Avariya yuz beradigan vaziyatda jiddiy jarohat yoki o'lim holati xavfini kamaytirish uchun o'rindiqlarida xavfsizlik yostiqchalari bor yoki yo'q bo'lgan taqdirda ham, maksimal darajadagi himoya uchun har qanday avariya holatlarida barcha yo'lovchilar, jumladan haydovchi ham doim xavfsizlik kamarlarini taqishi kerak. Avtomobil harakatlanayotganida xavfsizlik yostiqchalariga zaruratsiz yaqin o'tirmang yoki suyanmang.
- Avariya vaziyatida noto'g'ri yoki joyidan siljigan holatda o'tirish jiddiy yoki halokatli jarohatga sabab bo'lishi mumkin. Barcha yo'lovchilar avtomobil to'xtamagunicha va ENGINE START/ STOP tugmasi o'chirilmagunicha o'rindiq suyanchig'i tik holatida to'g'ri, xavfsizlik kamarlari o'rindiq yostiqchasi

markazida taqilgan holatda, oyoqlari qulay darajada cho'zilgan va polga tegib turgan tarzda o'tirishi kerak.

- SRS xavfsizlik yostiqchasi tizimi avariya holatida juda tez ochilishi kerak. Agar xavfsizlik kamari taqilmagani sababli yo'lovchi joyidan siljisa xavfsizlik yostiqchasi yo'lovchiga kuch bilan urilishi va unga jiddiy yoki halokatli jarohat yetkazishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH

Hech qanday predmetlarni mahkamlamaslik

Rul chambaragi, asboblar paneli, old oyna va tortma ustidagi old yo'lovchi panelidagi xavfsizlik yostiqchasi modullari ustiga yoki yaqiniga hech qanday narsa (masalan, favqulodda to'shak qopqog'i, uyali telefon tutqichi, stakan tutqichi, atir yoki stikerlar) qo'ymaslik kerak. Agar avtomobil xavfsizlik yostiqchalari ochilishiga olib keladigan darajada kuchli halokatga uchrasa, bunday buyumlar zarar yetkazishi mumkin. Xavfsizlik yostiqchasi ustiga yoki xavfsizlik yostiqchasi va o'rtangizda hech qanday buyum joylamang.

Yon xavfsizlik yostiqchasi va old markaziy xavfsizlik yostiqchasi

Avtomobilingiz old va orqa o'rindig'ining har biri yon xavfsizlik yostiqchalari bilan jihozlangan.

Old o'rindiqlar



Orqa o'rindiqlar



OGL3024054



OGL3024010

* Avtomobildagi haqiqiy xavfsizlik yostiqlari rasmdagidan farq qilishi mumkin.

Xavfsizlik yostiqlarining maqsadi avtomobil haydovchisi va/yoki old va orqa yo'lovchini xavfsizlik kamari taqdim etadigan himoyadan tashqari qo'shimcha himoya bilan ta'minlashdir.



OGL3024014



OGL3024011

* Avtomobildagi haqiqiy xavfsizlik yostiqlari rasmdagidan farq qilishi mumkin.

Yon xavfsizlik yostiqlari va old markaziy yon xavfsizlik yostiqlari faqat ma'lum yon ta'sirli to'qnashuvlar paytida, avariyaning jiddiyligiga qarab ochilish uchun mo'ljallangan. Yon xavfsizlik

yostiqlari va markaziy yon tomon xavfsizlik yostiqlari hamma tomondan zarba hollatlarida ochilish uchun mo'ljallangan.

⚠ OGOHLANTIRISH

Yo'lovchilar yon va/yoki parda xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan o'rindiqlarda o'tirganida boshi yoki tanasi bilan yon eshiklarga suyanishiga, qo'llarini eshiklarga qo'yishiga, qo'llarini oynadan chiqarishiga yoki eshiklar va yo'lovchilar orasiga buyum joylashiga yo'l qo'ymang.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Yon xavfsizlik yostiqlari va old markaziy yon tomon xavfsizlik yostiqlari haydovchi va yo'lovchi xavfsizlik kamari tizimlari uchun qo'shimcha bo'lib, ularning o'rnini bosmaydi. Shu sababli, avtomobil harakatlanganida xavfsizlik kamarlaringiz doim taqilishi kerak. Xavfsizlik yostiqlari faqat avtomobil yo'lovchilariga sezilarli jarohat yetkazishi mumkin bo'lgan ayrim yon tomon zarbalarida ishg'a tushadi.
- Yon xavfsizlik yostiqlari tizimi maksimal himoya qilishi uchun va yon xavfsizlik yostiqlari ochilishidan jarohat olmaslik uchun ikkala old yo'lovchi xavfsizlik kamarlari taqilgan to'g'ri holatda o'tirishi kerak.
- O'rindiqlar uchun qo'shimcha g'illolardan foydalanmang.
- O'rindiq g'illolaridan foydalanish tizim samaradorligini kamaytirishi yoki uning oldini olishi mumkin.
- Yon xavfsizlik yostiqlari kutilmaganda ochilishi va bu tan jarohatlariga olib kelishining oldini olish uchun ENGINE START/STOP tugmasi yoqilganda va avtomobil o'chirilgach, taxminan 3

daqiqa ichida yon tomondan zarba datchigiga ta'sir qilishdan saqlanib.

Agar bolalar avtomobil harakatlanayotganda tasodifan orqa eshiklarni ochsa, ular yiqilib tushib qolishi va og'ir jarohatlanishi yoki halok bo'lishi mumkin. Bolalar orqa eshiklarni ichkaridan ochishlariga yo'l qo'ymaslik uchun, bolalar avtomobilda bo'lganlarida orqa eshikning xavfsizlik qulflaridan foydalanish kerak.

Bolalar xavfsizligi elektron qulfi tizimi (mavjud bo'lsa)



Bolalar xavfsizligi elektron qulfi tugmasini bossangiz va indikator yonsa, orqadagi yo'lovchilar orqa eshikni avtomobil ichidan ocholmaydi.

Bolalar xavfsizligi elektron qulfi tizimini bekor qilish uchun bolalar xavfsizligi elektron qulfi tizimi kalitini yana bir marta bosing, so'ng indikator o'chadi.

Xavfsiz chiqish yordami (SEA) tizimi bolalar xavfsizligi elektron qulfi tizimi faollashtirilganida va klasterda SEA tizimi

tanlanganida ishlaydi. Biroq, SEA bolalar xavfsizligi elektron qulfi tizimini avtomatik ravishda faollashtirmaydi.


Dvigatelni ishga tushirish/to'xtatish tugmasi ON holatida bo'lganida va dvigatel o'chirilgandan keyin taxminan 3 daqiqa davomida bolalar xavfsizligi elektron qulfi tizimi doim yoniq bo'ladi.

Agar avtomobilingiz bolalar xavfsizligi elektron qulfi tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, qo'lda boshqariladigan bolalar xavfsizligini ta'minlovchi orqa eshik qulflari bo'lmaydi.

Bolalar xavfsizligi elektron qulfi tizimi yoqilgan bo'lsa, orqa yo'lovchi ham orqa oynani ocholmaydi yoki yopa olmaydi. Tafsilotlar uchun qarang: "Oynalar", 4-34-sahifa.

⚠ DIQQAT

Bolalar xavfsizligi elektron qulfi tizimining tugmasi bosilganida bolalar xavfsizligi elektron qulfi ishlamasa, xabar ko'rsatiladi va signal eshitaladi.



A: Bolalar xavfsizlik qulfining xatosi


Bu holat yuz bersa, tizimni professional ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

Orqa o'rindiqlarda yo'lovchi borligi haqida ogohlantirish (ROA) tizimi

Orqa o'rindiqlarda yo'lovchi borligi haqida ogohlantirish (ROA) avtomobilda orqa yo'lovchi qoldirilgan holda transport

vositasidan chiqib ketishning oldini olishga yordam beradi.

- Orqa eshikni ochib-yopib, dvigatelni o'chirgandan so'ng old eshikni ochganingizda, klasterda ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.



A: Orqa o'rindiqlarda yo'lovchilar va buyumlar bor-yo'qligini tekshiring

Axborot-ko'ngilochar tizimida **Sozlash → Avtomobil → Qulaylik → Orqa o'rindiqda yo'lovchi borligi haqida ogohlantirish** bandini tanlab Orqa o'rindiqda yo'lovchi borligi haqidagi ogohlantirishni faollashtirishingiz yoki o'chirishingiz mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH

Orqa o'rindiqda yo'lovchilar borligi haqida ogohlantirish (ROA) tizimi aslida orqa o'rindiqdagi buyumlarni yoki odamlarni aniqlamaydi. Orqa eshikning ochilishi va yopilishi tarixidan foydalanib, tizim haydovchiga orqa o'rindiqda nimadir bo'lishi mumkinligi haqida xabar beradi.

⚠ DIQQAT

Orqa o'rindiqda yo'lovchilar borligi haqida ogohlantirish (ROA) tizimi orqa eshikning ochilishi va yopilishi tarixidan foydalanadi. Haydovchi dvigatelni odatiy tarzda o'chirgach, mashinadan chiqib, masofadan kalitsiz kirish orqali eshikni masofadan qulflaganidan so'ng tarix qayta tiklanadi. Shunday qilib, orqa eshik qayta ochilmasa ham, ROA tizimi ogohlantirishi paydo bo'lishi mumkin.

Misol uchun, ROA tizimi ogohlantirishi paydo bo'lganidan so'ng, agar haydovchi eshikni qulflamasa va mashinan yana haydasa, ogohlantirish paydo bo'lishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH

Elektr tizimi buzilgan bo'lsa, eshikni qulflash tizimi ishlamasligi mumkin. Shunga ko'ra, favqulodda vaziyat yuzaga kelgunga qadar yo'lovchi bolalarga avtomobil eshigini qo'lda qanday ochishni o'rgating. Shu tariqa ular favqulodda vaziyat yuzaga kelganida eshikni qo'lda ochishlari mumkin bo'ladi.

Integratsiyalashgan xotira tizimi (mavjud bo'lsa)

Integratsiyalashgan xotira tizimi oddiy tugmalar yordamida quyidagi xotira sozlamalarini saqlash va qayta chaqirish uchun taqdim etiladi.



- Haydovchi o'rindig'ining holati
- Orqani ko'rsatuvchi tashqi ko'zgu holati
- Rul chambaragining holati (mavjud bo'lsa)
- Old oynadagi displey (HUD)

⚠ OGOHLANTIRISH

Avtomobil harakatlanayotganda hech qachon integratsiyalashgan xotira tizimini ishlatishga urinmang.

Bu nazorat yo'qolishiga va avtohalokatga olib kelishi, natijada o'lim, jiddiy jarohat yoki mashinaga zarar yetishiga sabab bo'lishi mumkin.

* ESLATMA

- Agar batareya uzilgan bo'lsa, xotira sozlamalari o'chiriladi.
- Integratsiyalashgan xotira tizimi to'g'ri ishlamasa, tizimni malakali ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/ xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

Xotira holatini saqlash

1. DVIGATEL START/STOP tugmasi ACC yoki ON holatida bo'lsa.
2. Haydovchi o'rindig'i, tashqi orqani ko'rish ko'zgusi, rul chambaragi va old

oynadagi displey balandligini kerakli holatga sozlang.

3. SET tugmasini bosing. Tizim bir marta tovushli signal berib, LCD displeyda "Sozlamalarni saqlash uchun tugmani bosing" degan xabarni chiqaradi.
4. Xotira tugmalaridan birini (1 yoki 2) 4 soniya ichida bosing. Xotira muvaffaqiyatli saqlanganidan keyin tizim ikki marta signal beradi.
5. LCD displeyda "1 (yoki 2) sozlamalar saqlandi" yozuvi paydo bo'ladi.

Xotira holatini eslash

1. DVIGATEL START/STOP tugmasi ACC yoki ON holatida bo'lsa.
2. Kerakli xotira tugmasini (1 yoki 2) bosing. Tizim bir marta tovushli signal chiqaradi, so'ng haydovchi o'rindig'ining holati, tashqi orqani ko'rish ko'zgusining holati, rul chambaragining holati va old oynada ko'rinuvchi displey balandligi avtomatik ravishda saqlangan holatga moslashadi.
3. LCD displeyda "1 (yoki 2) sozlamasi qo'llanildi" yozuvi paydo bo'ladi.
 - "1" xotira holatini eslashda SET yoki 1 tugmasini bosish vaqtinchalik xotira holatini sozlashni to'xtatadi. 2 tugmasi bosilsa, "2" xotira holati esga olinadi.
 - "2" xotira holatini esga olishda SET yoki 2 tugmalarini bosish eslangan xotira holatini sozlashni vaqtincha to'xtatadi. 1 tugmasi bosilsa, "1" xotira holati esga olinadi.
 - Saqlangan holatlarni esga olishda haydovchi o'rindig'i, tashqi orqani ko'rish ko'zgusi, rul chambaragining holati yoki old oynadagi displey balandligini boshqarish tugmalaridan birini bosish ushbu komponentning harakatini to'xtatishga va boshqaruv

tugmasi bosilgan tomonga harakatlanishiga olib keladi.

Integratsiyalangan xotira tizimini asliga qaytarish

Agar integratsiyalangan xotira tizimi to'g'ri ishlamasa, tizimni quyidagicha initsializatsiya qiling.

Qanday qilib initsializatsiya qilinadi:

1. Avtomobilni to'xtatish va o't oldirish tugmasi bilan yoki DVGATEL START/STOP tugmasini ON holatiga, uzatmani esa P (Parkovka) holatiga qo'yib, haydovchi eshigini oching.
2. Haydovchi o'rindig'ini iloji boricha oldinga torting va haydovchi o'rindig'ini oldinga/orqaga sozlash va suyanchini yotqizish (tushirish) tugmalari yordamida o'rindiq suyanchig'ini iloji boricha tik holatga kelitiring.
3. SET tugmasi va o'rindiqni oldinga siljitish tugmasini bir vaqtning o'zida 2 soniya bosib turing.

Initsializatsiya jarayonida:

1. Initsializatsiya tovushli signal bilan boshlanadi.
2. O'rindiq va o'rindiq suyanchig'i avtomatik ravishda orqaga siljiydi. Tizim ishlayotgan vaqtda signal tovushi davom etadi.
3. O'rindiq va o'rindiq suyanchig'i signal tovushi bilan markazga kelganidan keyin initsializatsiya tugallanadi. Biroq, quyidagi holatlar yuzaga kelsa, initsializatsiya jarayoni ham, tovushli signal ham to'xtaydi.
 - Integratsiyalangan xotira tizimi tugmasini bosganda
 - Haydovchi o'rindig'ining balandligini sozlash tugmasini bosganda
 - Uzatma P (Parkovka) holatidan boshqa holatga o'tganda

- Avtomobil tezligi 3 km/soat (1,8 mil/soat) dan past bo'lganida.
- Haydovchi eshigi yopilganda

Oson kirish funksiyasi

Tizim haydovchi o'rindig'ini quyidagi tarzda avtomatik siljitadi:

Smart kalit tizimisiz

- O't oldirish kaliti olib tashlanganida va haydovchi eshigi ochilganida u haydovchi o'rindig'ini orqaga siljitadi.
- U o't oldirish kaliti yoki DVGATEL START/STOP tugmasi ACC yoki ON holatida bo'lganida haydovchi o'rindig'ini oldinga suradi.

Aqlli kalit bilan

- Dvigatelni ishga tushirish/to'xtatish tugmasi OFF holatida va haydovchi eshigi ochilganda u haydovchi o'rindig'ini orqaga siljitadi.
- Avtomobil yoqilganida yoki haydovchi eshigi sizdagi smart kalit bilan yopilganida u haydovchi o'rindig'ini oldinga siljitadi.

Oson kirish funksiyasini axborot-ko'ngilochar tizimidagi Sozlamalar rejimidan faollashtirishingiz yoki o'chirishingiz mumkin. Batafsil ma'lumot olish uchun alohida taqdim etilgan axborot-ko'ngilochar tizim qo'llanmasiga qarang.

Yukxona

⚠ OGOHLANTIRISH

Chiqindi gazlar tutuni

Mashinani yukxonasi ochiq holda haydasangiz, avtomobilingizga xavfli chiqindi gazlar kirishi, bu esa avtomobildagi yo'lovchilarining jiddiy jarohatlanishi yoki o'limiga olib kelishi mumkin.


Yukxona eshigi ochiq holda haydash kerak bo'lsa, ventilyatsiya teshiklari va barcha oynalarni ochiq tuting, shunda avtomobilga tashqaridan qo'shimcha havo kiradi.

⚠ OGOHLANTIRISH

Orqa yukxona maydoni

Yo'lovchilar hech qachon mahkamlash anjomlari bo'lmagan orqa yukxonaga minmasligi kerak. Baxtsiz hodisa yoki to'satdan to'xtash holatlarida shikastlanmaslik uchun yo'lovchilar doimo tegishli mahkamlash anjomlaridan foydalanishlari kerak.

Yukxonani ochish



- Barcha eshiklar smart kalit yoki markaziy eshik qulfi tugmasi bilan

qulflangan yoki qulfdan ochilganda yukxona eshigi ham qulflanadi yoki qulfdan ochiladi.

- Uzatgichdagi yukxonani ochish tugmasi yoki aqlli tugma taxminan 1 soniya davomida bosilsagina yukxona qulfdan chiqariladi.
- Agar qulf ochilsa, yukxonani dastagini bosib, yuqoriga tortish orqali ochish mumkin.
- Yukxona eshigi ochilib, keyin yopilgach, yukxona avtomatik ravishda qulflanadi. (Barcha eshiklar qulflanishi kerak.)

* ESLATMA

Sovuq va nam iqlim sharoitida eshik qulfi va eshik mexanizmlari muzlama sharoitlar tufayli to'g'ri ishlamasligi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH

Yukxona eshigi yuqoriga ko'tariladi. Yukxonani ochayotganda avtomobil orqasida hech qanday narsa yoki odamlar yo'qligiga ishonch hosil qiling.

⚠ DIQQAT

Avtomobilni haydashdan oldin yukxonani yopganingizga ishonch hosil qiling. Yukxona haydashdan oldin yopilmagan bo'lsa, yukxona eshigining gazli ko'targichlari va biriktiruvchi moslamalari shikastlanishi mumkin.

Yukxonani yopish

Yukxonani yopish uchun yukxona eshigini pastga tushiring va mahkam bosing. Yukxona mahkam yopilganiga ishonch hosil qiling.

⚠ OGOHLANTIRISH

Yukxonani yopishdan oldin qo'llaringiz, oyoqlaringiz va tanangizning boshqa qismlari tashqarida ekanligiga ishonch hosil qiling.

⚠ OGOHLANTIRISH

Chiqindi gazlar tutuni

Avtomobil harakatlanayotganda yukxona qopqog'i har doim to'liq yopiq holatda bo'lishi kerak. Agar u ochiq yoki biroz ochiq qolsa, zaharli chiqindi gazlar mashina ichiga kirishi va jiddiy kasallik yoki o'limga olib kelishi mumkin.

⚠ DIQQAT

Yukxonani yopayotganda yukxona eshigi lo'kidoni va ushlagichi yonida hech narsa yo'qligiga ishonch hosil qiling. Aks holda yukxona eshigi lo'kidoniga zarar yetishi mumkin.

Yukxonani favqulodda xavfsiz qulfdan bo'shatish


• Yukxona ichida



Avtomobilingiz yukxonaning pastki qismida joylashgan favqulodda yukxona eshigini qulfdan bo'shatish

dastagi bilan jihozlangan. Biror kishi yukxonada beixtiyor qulflanib qolsa, dastakni strelka yo'nalishida harakatlantirgan holda yukxonani qopqog'ini itarib, yukxonani ochish mumkin.

• Avtomobil ichida



Batareya quvvatsizlanganda yoki transport vositasida muammo yuzaga kelganda elektr yuritmalı yukxonani qo'lda ochish uchun quyidagi amallarni bajaring:

1. Orqa o'rindiq ostidagi tros qopqog'ini (1) mexanik kalit yordamida yechib oling.
2. Kabel halqasini (2) oxirigacha torting. Elektr yuritmalı yukxona qulfdan chiqariladi.
3. Ochish uchun yukxona qopqog'ini bosing.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Siz va yo'lovchilaringiz ushbu transport vositasida yukxonani favqulodda bo'shatish dastagi joylashgan joyini va yukxonada tasodifan qulflanib qolsangiz, yukxonani qanday ochishni bilishingiz kerak.
- HECH QACHON hech kimga avtomobil yukxonasini band qilishga izn bermang.

- Bo'shatish dastagidan faqat favqulodda vaziyatlarda foydalaning.

* ESLATMA

Qopqoqni yechayotganda qirib olishdan yoki yo'qotib qo'yishdan ehtiyot bo'ling.

* AXBOROT

Kabel qattiq mahkamlangan, shuning uchun uni tortib olish qiyin bo'lishi mumkin. Shuning uchun, favqulodda bo'shatishda halqani tortib olish uchun buragich kabi asboddan foydalaning.

Yukxona elektr yuritmasi (mavjud bo'lsa)

Yukxona elektr yuritmasining ishlash shartlari

Elektr yuritmalı yukxona avtomobil tezligi 3 km/soat (1,8 mil/soat) dan past bo'lganida ishlaydi.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Hech qachon bolalar yoki hayvonlarni avtomobilingizda qarovsiz qoldirmang. Bolalar elektr yuritmalı yukxona eshigini ishlatishi mumkin. Bu bilan ular o'zlari yoki boshqalarni shikastlashi va avtomobilga zarar yetkazishi mumkin.
- Elektr yuritmalı yukxona yoki aqlli yukxonani ishlatishdan oldin yukxona atrofida odamlar yoki narsalar yo'qligiga va yetarli joy mavjudligiga ishonch hosil qiling. Yukxona eshigining tegib ketishi natijasida jiddiy jarohat olinishi, transport vositasining shikastlanishi yoki atrofdagi narsalar (masalan, devorlar, shiftlar, transport vositalari va boshqalar) shikastlanishi mumkin.
- Elektr yuritmalı yukxonani ishlatishdan oldin yukxona atrofida hech qanday odam yoki narsalar yo'qligiga ishonch hosil qiling. Avtotransportdan yuk ortish yoki tushirishdan oldin yukxona to'liq ochilgunicha va to'xtagunicha kuting.
- Avtomobil harakatlanayotganda yukxona eshikchasini har doim to'liq yopiq holda saqlang. Agar u ochiq yoki biroz ochiq qolsa, uglerod oksidi (CO) bo'lgan zaharli chiqindi gazlar avtomobil ichiga kirib, jiddiy kasallik yoki o'limga olib kelishi mumkin.
- Yukxona quyidagi holatlarda ochilmasligi yoki yopilmasligi va

yukxona atrofidagi odamlarga beixtiyor shikast yetkazishi mumkin:

- Yukxona ustida juda ko'p qor bo'lsa.
- Yukxona ustida og'ir narsa bo'lsa, masalan, velosiped tirgagi, narvon va boshqalar.

Yukxona ustidan qor yoki og'ir narsalarni olib tashlamasdan yukxonani ochmang.

* ESLATMA

- Elektr yuritmalı yukxonani qo'lda yopmang yoki ochmang. Bu elektr yuritmalı yukxonaning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Batareya quvvatsizlanganida yoki uzilganida elektr yuritmalı yukxonani qo'lda yopish yoki ochish kerak bo'lsa, ortiqcha kuch ishlatmang.
- Dvigatel ishlamayotgan vaqtda elektr yuritmalı yukxonani doimiy ravishda 10 martadan ortiq ishlatmang. Batareyaning quvvatsizlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun elektr yuritmalı yukxonadan qayta-qayta foydalaniladigan bo'lsa, bu ishni dvigatel ishlayotganida qilish lozim.
- Yukxonani uzoq vaqtga ochiq qoldirmang. Bu batareyani quvvatsizlantirishi mumkin.
- Elektr yuritmalı yukxonaning biron bir qismini o'zingiz o'zgartirmang yoki ta'mirlamang. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.
- Quyidagi sharoitlarda elektr yuritmalı yukxonani ishlatmang. Elektr yuritmalı yukxonai to'g'ri ishlamasligi mumkin.
 - Avtomobilni tekshirish yoki shinani almashtirish uchun avtomobilning bir tomoni ko'tarilganda

- Nishablik kabi notekis yo'lda parkovka qilinganda va hokazo.

- Avtomatik avtomobil yuvish shaxobchasidan foydalanish oldidan yukxonani to'liq yoping va markaziy eshikni qulflash tugmasi yordamida barcha eshiklarni va yukxonani qulflang.
- Ochish/yopish tugmasi tarafdin elektr yuritmalı yukxonaga to'g'ridan-to'g'ri yuqori bosimli suv purkamang. Yukxona beixtiyor ochilib ketishi mumkin.

* AXBOROT

- Sovuq va nam iqlim sharoitida elektr yuritmalı yukxonani ochish tugmasi muzlash sharoitlari tufayli to'g'ri ishlamasligi mumkin. Agar shunday bo'lsa, tashqi elektr yuritmalı yukxonani ochish/yopish tugmasidan foydalanish oldidan muzni olib tashlang yoki aqlli kalit yoki asboblari panelidagi elektr yuritmalı yukxonani ochish/yopish tugmasidan foydalaning.
- Aqlli kalitni yukxonada qoldirib, yukxonani yopsangiz, taxminan 5 soniya davomida ogohlantirish tovushi eshutiladi. Agar bu sodir bo'lsa, yukxonaning tashqi tomonidagi elektr yuritmalı yukxonani ochish tugmasini bosib, yukxonani oching.
- Qiyalik bor joyda ehtiyot bo'ling, chunki yukxona qopqog'i to'liq ochilguniga qadar to'xtatilganda biroq pastga tushishi mumkin.

Elektr yuritmalı yukxonani ishlashi

Elektr yuritmalı yukxonani ochish/yopish tugmasi (aqlli kalit)



Yukxona yopiqligida, elektr yuritmalı yukxonani ochish/yopish tugmasini 1 soniya bosib turing. Yukxona ogohlantirish tovushi bilan ochiladi.

Yukxona ochilayotganda, elektr yuritmalı yukxonaning ishlashini to'xtatish uchun tugmani bosing. Yukxona ochilganda, yukxonani yopish uchun elektr yuritmalı yukxonani ochish/yopish tugmasini bosing va ushlab turing. Yukxona yopilganda tugmani qo'yib yuborsangiz, elektr yuritmalı yukxonaning ishlashi 5 soniya davomida ogohlantirish tovushi bilan to'xtaydi.

Bundan tashqari, agar aqlli kalit avtomobildan ishlash oralig'ida (taxminan 10 m) bo'lmasa, yukxonaning ishlashi 5 soniya davomida ogohlantirish tovushi bilan to'xtaydi.

Elektr yuritmalı yukxonani ochish/yopish tugmasi (Asboblar paneli)



Yukxona yopiqligida, elektr yuritmalı yukxonani ochish/yopish tugmasini 1 soniya bosib turing. Elektr yuritmalı

yukxona ogohlantirish tovushi bilan ochiladi. Yukxona ochilayotganda, elektr yuritmalı yukxonaning ishlashini to'xtatish uchun tugmani bosing.

Yukxona ochilganda, elektr yuritmalı yukxonani yopish uchun yukxonani ochish/yopish tugmasini bosing va ushlab turing. Yukxona yopilganda tugmani qo'yib yuborsangiz, elektr yuritmalı yukxonaning ishlashi to'xtaydi.

Elektr yuritmalı yukxonani ochish tugmasi (Elektr yuritmalı yukxona tashqarisida)



Yukxona yopilganda, yukxonani ochish uchun elektr yuritmalı yukxonani ochish tugmasini bosing. Avtomobil qulflangan bo'lsa, qo'lingizdagi aqlli kalit bilan elektr yuritmalı yukxonani ochish tugmasini bosing.

Yukxona ochilayotganda, elektr yuritmalı yukxonaning ishlashini to'xtatish uchun tugmani bosing.

Elektr yuritmalı yukxonani yopish tugmasi (Elektr yuritmalı yukxona ichida)



Elektr yuritmalı yukxonani yopish tugmasini bosing. Yukxona avtomatik ravishda yopiladi. Yukxona

yopilayotganda, elektr yuritmalı yukxonaning ishlashini to'xtatish uchun tugmani bosıng.

Elektr yuritmalı yukxonani qulflash tugmasi (elektr yuritmalı yukxonaning ichida)



Smart kalitni ushlab turgan holatda elektr yuritmalı yukxonani qulflash tugmasini bosıng. Elektr yuritmalı yukxona avtomatik ravishda yopiladi va qulflanadi. Yukxona yopiladi va qulflanadi, barcha eshiklar esa faqat dvigatel o'chirilganida qulflanadi.

Elektr yuritmalı yukxonani qo'ldan avtomatik rejimga o'tkazish

Yukxona ochilganda qo'lingiz bilan ko'proq kuch ishlatsangiz, elektr yuritmalı yukxona tizimi yo'nalishni aniqlaydi va avtomatik ravishda yopiladi yoki ochiladi.

- Yukxona ko'tarilganida elektr yuritmalı yukxonai to'liq ochiladi
- Yukxona tushirilganida elektr yuritmalı yukxona to'liq yopiladi

*** AXBOROT**

Yukxona ma'lum bir balandlikdan ochilmasa, elektr yuritmalı yukxonai to'g'ri ishlamasligi mumkin.

Avtomatik ortga qaytish

Elektr yuritmalı yukxona ishlayotganda, agar yukxona biron bir to'siqni sezsa, yukxona to'xtaydi yoki to'liq ochiladi. Avtomatik ortga qaytish funksiyasi

quyidagi holatlarda to'g'ri ishlamasligi yoki kutilmaganda ishlab ketishi mumkin:

- Agar aniqlangan qarshilik ma'lum darajadan past bo'lsa yoki yukxona qulflangan holatga yaqin joyda deyarli to'liq yopilgan bo'lsa, avtomatik teskari xususiyat qarshilikni aniqlamasligi mumkin.
- Avtomatik ortga qaytish funksiyasi hech qanday to'siqsiz kuchli zarba qo'llanilsa ishlab ketishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH

Avtomatik ortga qaytish funksiyasi ishlayotganini tekshirish uchun hech qachon biror obyekt yoki tanangizning biror qismini elektr yuritmalı yukxona yo'liga ataylab qo'ymang. Jiddiy shikastlanish yoki avtomobil yoki obyektga zarar yetkazilishi mumkin.

*** AXBOROT**

Avtomatik ortga qaytish funksiyasi yukxonani ochish yoki yopishga urinayotganda ikki martadan ortiq ishlasa, elektr yuritmalı yukxona ishlamay to'xtab qolishi mumkin. Agar bu sodir bo'lsa, yukxonani ehtiyotkorlik bilan qo'lda oching yoki yoping va 30 soniyadan so'ng elektr yuritmalı yukxonani avtomatik ravishda qayta ishga tushirishga harakat qiling.

Elektr yuritmalı yukxona sozlamalari

elektr yuritmalı yukxonaning ochilish balandligi

elektr yuritmalı yukxonaning ochilish balandligini sozlash uchun ma'lumot-ko'ngilochar tizimida **"Sozlash →**

Avtomobil → Eshik/Yukxona → Elektr

yuritmal yukxonaning ochilish balandligi” bandini tanlang.

Axborot-ko'ngilochar tizim yangilanishlardan keyin o'zgarishi mumkin. Tizim sozlamalari haqida batafsil ma'lumot olish uchun axborot-ko'ngilochar tizim veb-qo'llanmasiga qarang.

elektr yuritmal yukxonani qayta sozlash

Ba'zi hollarda elektr yuritmal yukxona sozlamasini asliga qaytarish talab etilishi mumkin. Elektr yuritmal yukxona sozlamasini asliga qaytarish talab qilinishi mumkin bo'lgan ba'zi holatlarga quyidagilar kiradi:

- 12 voltli batareyani quvvatlash kerak bo'lganda
 - 12 voltli batareya olib tashlangan yoki almashtirilganidan keyin qayta o'rnatilsa
 - Tegishli saqlagich olib tashlangan yoki almashtirilganidan keyin qayta o'rnatilganda
1. Dvigatel o'chirilgan yoki ishlayotganida, uzatmani P (parkovka) holatiga qo'ying.
 2. Elektr yuritmal yukxonani yopuvchi ichki tugmani bosgan holda elektr yuritmal yukxonani ochish tashqi tugmasini 3 soniyadan ko'proq bosib turing. Tovushli signal eshutiladi.
 3. Yukxonani qo'lingiz bilan sekin yoping.
 4. Elektr yuritmal yukxonani ochuvchi tashqi tugmani bosing. Yukxona tovushli signal bilan ochiladi.

Qayta sozlashni yakunlash uchun yukxona to'liq ochilishini kuting. Yukxona to'liq ochilguniga qadar to'xtab qolsa, qayta sozlash yakunlanmaydi.

* ESLATMA

Agar yuqoridagi tartibdan keyin elektr yuritmal yukxona to'g'ri ishlamasa, tizimni professional ustaxona tomonidan tekshiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.


Yukxonani favqulodda xavfsiz qulfdan bo'shatish

• Yukxona ichida



Avtomobilingiz yukxonaning pastki qismida joylashgan favqulodda yukxona eshigini qulfdan bo'shatish dastagi bilan jihozlangan. Biror kishi yukxonada beixtiyor qulflanib qolsa, dastakni strelka yo'nalishida harakatlantirgan holda yukxonani qopqog'ini itarib, yukxonani ochish mumkin.

• Avtomobil ichida



Batareya quvvatsizlanganda yoki transport vositasida muammo yuzaga

kelganda elektr yuritmalı yukxonani qo'lda ochish uchun quyidagi amallarni bajaring:

1. Orqa o'rindiqlar ostidagi tros qopqog'ini (1) mexanik kalit yordamida yechib oling.
2. Kabel halqasini (2) oxirigacha torting. Elektr yuritmalı yukxona qulfdan chiqariladi.
3. Ochish uchun yukxona qopqog'ini bosing.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Siz va yo'lovchilaringiz ushbu transport vositasida yukxonani favqulodda bo'shatish dastagi joylashgan joyini va yukxonada tasodifan qulflanib qolsangiz, yukxonani qanday ochishni bilishingiz kerak.
- HECH QACHON hech kimga avtomobil yukxonasini band qilishga izn bermang.
- Bo'shatish dastagidan faqat favqulodda vaziyatlarda foydalaning.

* ESLATMA

Qopqoqni yechayotganda qirib olishdan yoki yo'qotib qo'yishdan ehtiyot bo'ling.

* AXBOROT

Kabel qattiq mahkamlangan, shuning uchun uni tortib olish qiyin bo'lishi mumkin. Shuning uchun, favqulodda bo'shatishda halqani tortib olish uchun buragich kabi asboddan foydalaning.

Avtomatik ochiladigan aqlli yukxona (mavjud bo'lsa)

Smart kalit bilan jihozlangan transport vositasida yukxonani avtomatik ochiladigan aqlli yukxona tizimi yordamida ochish mumkin.



Avtomatik ochiladigan aqlli yukxonadan qanday foydalaniladi

Yukxona quyida keltirilgan barcha shartlarga javob beradigan teginishsiz faollashtirish bilan ochilishi mumkin.

- 15 soniyadan keyin barcha eshiklar yopilganda va qulflanganda
- Aniqlash hududida 3 soniyadan ko'proq joylashtirilganida.

* ESLATMA

Avtomatik ochiladigan aqlli yukxona quyidagi hollarda ishlamaydi:

- Aqlli kalit eshiklar yopilgan va qulflanganidan keyin 15 soniya ichida aniqlanganida va doimiy ravishda aniqlanganida.
- Aqlli kalit eshiklar yopilgan va qulflanganidan keyin 15 soniya ichida va old eshik tutqichlaridan 1,5 m masofada aniqlanganida. (Salomlashuv chirog'i bilan jihozlangan avtomobillar uchun)
- Eshik qulflanmagan yoki yopilmagan bo'lsa.
- Smart kalit avtomobilda bo'lsa.

1. Sozlash

Avtomatik ochiladigan aqlli yukxonani faollashtirish uchun Foydalanuvchi sozlamalari rejimiga o'ting va LCD displeyda Aqlli yukxonani tanlang. Tafsilotlar uchun qarang: "LCD displey", 4-70-sahifa. Agar avtomobilingiz qo'shimcha navigatsiya bilan jihozlangan bo'lsa, alohida taqdim etilgan axborot-ko'ngilochar tizim qo'llanmasiga qarang.

2. Aniqlash va ogohlantirish



Agar siz qo'lingizda aqlli kalit bilan (avtomobil 50–100 sm (28–40 duym) orqaroqda) bo'lsangiz, avariya ishorasi chiroqlari miltillaydi va tovushli signal sizga aqlli kalit aniqlangani va yukxona ochilgani haqida xabar beradi.

* ESLATMA

Yukxona ochilishini istamasangiz, aniqlash hududiga yaqin kelmang. Agar siz aniqlash hududga beixtiyor kirgan bo'lsangiz va avariya ishorasi chiroqlari va tovushli signal ishlay boshlasa, aqlli kalit bilan aniqlash hududidan chiqing. Yukxona yopiqligicha qoladi.

3. Avtomatik ochilish



Avariya ishorasi chiroqlari miltillab, 6 marta tovushli signal eshitaladi, so'ng yukxona ochiladi.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Avtomobilni haydashdan oldin yukxonani yopganningizga ishonch hosil qiling.
- Yukxonani ochish yoki yopishdan oldin yukxona atrofida odamlar yoki narsalar yo'qligiga ishonch hosil qiling.
- Yukxonani qiyalikda ochayotganda yukxonadagi narsalar tashqariga chiqib ketmasligiga ishonch hosil qiling. Bu jiddiy shikastlanishga olib kelishi mumkin.
- Avtomobilingizni yuvayotganda avtomatik ochiladigan aqlli yukxona funksiyasini o'chirib qo'yganingizga ishonch hosil qiling. Aks holda, yukxona beixtiyor ochilib ketishi mumkin.
- Kalit bolalar qo'li yetmaydigan joyda saqlanishi kerak. Bolalar avtomobilning orqa tomonida o'ynab yurganida avtomatik ochiladigan aqlli yukxonani beixtiyor ochib yuborishi mumkin.

Smart kalit yordamida avtomatik ochiladigan aqlli yukxona funksiyasini o'chirish



- 1 Eshik qulfi
- 2 Eshik qulfini ochish
- 3 Yukxonani ochish

Aniqlash va ogohlantirish bosqichida aqlli kalitning istalgan tugmasini bossangiz,

Avtomatik ochiladigan aqlli yukxona funksiyasi o'chadi.

Favqulodda vaziyatlarda Avtomatik ochiladigan aqlli yukxona funksiyasini qanday o'chirishni bilib oling.

* ESLATMA

- Eshik qulfini ochish tugmasini (2) bossangiz, Avtomatik ochiladigan aqlli yukxona vaqtinchalik o'chiriladi. Ammo, 30 soniya davomida hech qanday eshikni ochmasangiz, Avtomatik ochiladigan aqlli yukxona funksiyasi yana faollashadi.
- Yukxonani ochish tugmasini (3) 1 soniyadan ko'proq bosib tursangiz, yukxona ochiladi.
- Avtomatik ochiladigan aqlli yukxona funksiyasi Aniqlash va ogohlantirish bosqichida bo'lmaganida eshikni qulflash tugmasini (1) yoki yukxonani ochish tugmasini (3) bossangiz, Avtomatik ochiladigan aqlli yukxona funksiyasi o'chirilmaydi.
- Avtomatik ochiladigan aqlli yukxona funksiyasini aqlli kalitni bosib o'chirgan bo'lsangiz va eshikni ochgan bo'lsangiz, barcha eshiklarni yopish va qulflash orqali Avtomatik ochiladigan aqlli yukxona funksiyasini yana yoqish mumkin.

Aniqlash maydoni




- Agar aqlli kalit yukxonadan 50–100 sm (28–40 duym) masofada aniqlansa, avtomatik ochiladigan aqlli yukxona xush kelibsiz ogohlantirishi bilan ishlaydi.
- Aniqlash va ogohlantirish bosqichida aqlli kalit aniqlash hududidan tashqarida bo'lsa, ogohlantirish darhol to'xtaydi.
- Quyidagilardan biri sodir bo'lsa, avtomatik ochiladigan aqlli yukxona ishlamaydi:
 - Smart kalit radiostansiya yoki aeroport kabi radio uzatgichga yaqin joylashgan bo'lsa, bu uzatgichning normal ishlashiga xalaqit berishi mumkin.
 - Smart kalit mobil ikki tomonlama radio tizimi yoki uyali telefon yonida joylashgan bo'lsa.
 - Boshqa avtomobilning smart kaliti avtomobilingizga yaqin joyda ishlatilayotgan bo'lsa.
- Aniqlash diapazoni quyidagi hollarda kichrayishi yoki kattalashishi mumkin:
 - Shinaning bir tomoni shinani almashtirish yoki avtomobilni tekshirish uchun ko'tariladi.

- Avtomobil qiyalik, asfaltlanmagan yo'lga va hokazo joylarga qiya holatda qo'yilgan bo'lsa.

Oynalar

Ushbu avtomobilning eshiklari tugma bilan boshqarilishi mumkin bo'lgan elektr oynalar bilan jihozlangan.



OGL3034026_4

- 1 Elektr oyna ko'targich qulfi
- 2 Orqa eshik (chap) elektr oynasining tugmasi
- 3 Haydovchi eshigining elektr oynasi tugmasi
- 4 Orqa eshik (o'ng) elektr oynasining tugmasi
- 5 Old yo'lovchi eshigining elektr oynasi tugmasi

Elektr oynalarning ishlashi uchun ENGINE START/STOP tugmasi ON holatida bo'lishi kerak.

Har bir eshikda eshik oynasini boshqaradigan elektr oyna tugmasi mavjud. Haydovchi tomonda orqa yo'lovchi oynalarning ishlashini bloklab qo'yadigan elektr oyna bloklash tugmasi mavjud. Elektr oynalar ENGINE START/STOP tugmasi ACC holatiga buralganidan so'ng taxminan 3 daqiqa davomida ishlashi mumkin. Biroq, agar old eshiklar ochilsa, elektr oynalar 3 daqiqa davomida ham ishlay olmaydi.

Haydovchi eshigida avtomobildagi barcha oynalarni boshqaradigan bosh elektr oyna tugmasi mavjud.

Agar oynani predmetlar tomonidan bloklanganligi sababli yopish mumkin bo'lmasa, predmetni olib tashlang va oynani yoping.

* ESLATMA

Sovuq va nam iqlim sharoitida elektr oynalar muzlash sharoitlari tufayli to'g'ri ishlamasligi mumkin.

* ESLATMA

Orqa oynalarni pastga tushirib yoki lyuk (agar mavjud bo'lsa) ochiq (yoki qisman ochiq holatda) haydash paytida avtomobilingizda shamol yoki pulsatsiya shovqini chiqishi mumkin. Bu shovqin oddiy hodisa bo'lib, uni quyidagi harakatlar orqali kamaytirish yoki yo'q qilish mumkin. Agar shovqin orqa oynalardan biri yoki ikkalasi pastga tushganda paydo bo'lsa, ikkala old oynani ham taxminan bir dyuymga qisman pastga tushiring. Agar lyuk ochilganda shovqin paydo bo'lsa, lyuk ochilish o'lchamini biroz kamaytiring.

⚠ OGOHLANTIRISH

Deraza maydoniga hech qanday aksessuarlar o'rnatmang. Bu shovqindan himoyaga ta'sir qilishi mumkin.

Oynani ochish va yopish

Elektr oyna tugmasi yordamida oynalarni ochishingiz va yopishingiz mumkin.



- A turi: 1
- B turi: – Oynani avtomatik yuqoriga/pastga tushirish (agar jihozlangan bo'lsa) 1, 2

Oynani ochish yoki yopish uchun tegishli tugmaning old qismini birinchi fiksatsiya holatiga (1) bosing yoki yuqoriga torting.

Elektr oyna tugmachasini bir lahza ikkinchi fiksatsiya holatiga (2) bosish yoki tepaga tortib, tugma qo'yib yuborilganda ham oynani butunlay tushiradi yoki ko'taradi. Oyna ishlayotgan vaqtda oynani kerakli holatda to'xtatish uchun tugmani yuqoriga torting yoki pastga bosing va qo'yib yuboring.

Elektr oyna ko'targich sozlamalarini asliga qaytarish uchun

Elektr oyna normal ishlamasa, avtomatik elektr oyna tizimini quyidagi tarzda tiklash kerak:

1. ENGINE START/STOP tugmasini ON holatiga o'zgartiring.
2. Oynani yoping va oyna to'liq yopilgandan so'ng kamida 1 soniya davomida elektr oyna tugmasini yuqoriga ko'tarishda davom eting.

Avtomatik ortga qaytish (mavjud bo'lsa)

Agar oynaning yuqoriga qarab harakatlanishi biror narsa yoki tananing bir qismi qisilib qolishi natijasida to'silsa, oyna bu qarshilikni aniqlaydi va yuqoriga harakatlanishni to'xtatadi. Keyin oyna qisilib qolgan predmetni olib tashlash uchun taxminan 30 sm (11,8 dyuym) pastga tushadi.

Elektr oyna tugmasi uzluksiz yuqoriga tortilganda oyna qarshilikni aniqlasa, oyna yuqoriga qarab harakatlanishni to'xtatadi va keyin taxminan 2,5 sm (1 dyuym) pastga tushadi.

Va agar oynani avtomatik ortga qaytarish funksiyasi orqali oyna tushirilgandan so'ng 5 soniya ichida elektr oyna tugmasi yana uzluksiz yuqoriga tortilsa, avtomatik oynani ortga qaytarish funksiyasi ishlamaydi.

*** ESLATMA**

Oynaning avtomatik ortga qaytarish funksiya faqat tugmani to'liq tortib "avtomatik ko'tarish" funksiyasidan foydalanilganda faol bo'ladi. Avtomatik ortga qaytarish funksiyasi oynani elektr oyna tugmachasining yarimga yopish holatidan foydalanib ko'tarilsa, ishlamaydi.

⚠ OGOHLANTIRISH

Har qanday oynani ko'tarishdan oldin jarohatlar yoki avtomobilga shikast yetkazmaslik uchun har doim oyna yo'lida to'siqlar yo'qligini tekshiring. Agar oyna shishasi va yuqori oyna kanali o'rtasida diametri 4 mm (0,16 duym) dan kam bo'lgan buyum qisilib qolsa, avtomatik ortga qaytarish funksiyasi qarshilikni aniqlamasligi mumkin va to'xtamaydi hamda yo'nalishni ortga o'zgartirmaydi.

⚠ OGOHLANTIRISH

Elektr oyna tizimini asl sozlamaga o'rnatishda avtomatik ortga qaytarish funksiyasi faollashmaydi.

Jarohat yoki avtomobil shikastlanishidan saqlanish uchun oynalarni yopishdan oldin tana qismlari yoki boshqa narsalar oyna yo'lidan tashqarida ekanligiga ishonch hosil qiling.

Elektr oynani qulflash tugmasi

Haydovchi elektr oynani qulflash tugmasini qulflash holatiga (bosilgan holatga) bosib, orqa yo'lovchilar eshiklaridagi elektr oyna tugmalarini faolsizlab qo'yishi mumkin.



OGL3034014

Elektr oynani qulflash tugmasi bosilganda:

- Haydovchining bosh boshqaruv tugmasi barcha yo'lovchilarning elektr oynalarini boshqarishi mumkin.
- Old yo'lovchining boshqaruv tugmasi old yo'lovchining elektr oynasini boshqarishi mumkin.
- Orqa yo'lovchilar boshqaruv tugmasi orqa yo'lovchining elektr oynasini boshqara olmaydi.
- * Elektr oyna ko'targichni qulflash tugmasi ishlayotgan bo'lsa (indikator yonadi), orqadagi yo'lovchi orqa eshikni ocholmaydi (agar bolalar xavfsizligi elektron qulfi tizimi bilan jihozlangan bo'lsa). Tafsilotlar uchun qarang: "Bolalar xavfsizligi elektron qulfi tizimi (mavjud bo'lsa)", 4-19-sahifa.

⚠️ DIQQAT

- Elektr oynalar tizimiga mumkin bo'lgan zararni oldini olish uchun bir vaqtning o'zida ikkita yoki undan ko'p oynani ochmang yoki yopmang. Bu muhofazalagich uzoq xizmat qilishini ham ta'minlaydi.
- Hech qachon haydovchi eshigidagi bosh tugmani va alohida eshik oynasi tugmasini bir vaqtning o'zida qarama-qarshi yo'nalishda ishlatishga urinmang. Agar bunday qilinsa, oyna to'xtaydi va uni ochib yoki yopib bo'lmaydi.

⚠️ OGOHLANTIRISH

Oynalar

- Dvigatel ishlayotganida HECH QACHON kalitlarni avtomobilingizda nazoratsiz bolalar bilan qoldirmang.
- HECH QACHON bolani avtomobilda qarovsiz qoldirmang. Hatto juda yosh bolalar ham beixtiyor avtomobilni harakatga keltirishi, oynalarda qisilib qolishi yoki o'zlariga yoki boshqalarga shikast yetkazishi mumkin.
- Oynani yopishdan oldin barcha qo'llar, boshlar va boshqa to'siqlar oyna yo'lida emasligiga ishonch hosil qilish uchun har doim ikki marta tekshiring.
- Bolalarning elektr oynalar bilan o'ynashiga yo'l qo'ymang. Haydovchi eshigining elektr oynasini qulflash tugmachasini LOCK (bosilgan) holatida saqlang. Bolaning beixtiyor oynani ishlatishi natijasida JIDDIY JAROHATLAR yuzaga kelishi mumkin.
- Avtomobil harakatlanayotganda boshingizni yoki oyoq-qo'lingizni oynadan tashqariga chiqazmang.

Masofadan oynani yopish/ochish tizimi



1 Eshikni qulflash tugmasi

2 Eshik qulfini ochish tugmasi

Dvigatel o'chigligida ham oynaning harakatini boshqarishingiz mumkin.

- Eshikni qulflash tugmasini (1) 3 soniyadan ko'proq bosib turing. Eshikni qulflash tugmasini (1) bosib tursangiz, eshiklar qulflangandan keyin oyna yuqoriga ko'tariladi. Eshikni qulflash tugmasini (1) qo'yib yuborsangiz, oyna harakati to'xtaydi.
- Eshik qulfini ochish tugmasini (2) 3 soniyadan ko'proq bosib turing. Eshik qulfini ochish tugmasini (2) bosib tursangiz, eshiklar qulfdan ochilganidan keyin oyna pastga siljiydi. Eshik qulfini ochish tugmasini (2) qo'yib yuborsangiz, oyna harakati to'xtaydi.

Sozlash → Avtomobil → Eshik →

Oynani masofadan boshqarish bandini tanlab, masofaviy oynani yopish/ochish tizimini faollashtirishingiz yoki o'chirishingiz mumkin.

* Oynani masofadan ochish uchun oynani avtomatik ko'tarish/tushirish funksiyasi qo'llanilishi kerak.

⚠️ DIQQAT

- Masofadan oynani yopish/ochish funksiyasi ish paytida avtomobilingizdan uzoqlashganda to'satdan to'xtab qolishi mumkin. Oyna

harakatini kuzatib turganda, avtomobilingizdan yaqin joyda turing.

- Oyna harakati ma'lum kuch ishlatib to'xtatilsa, oynalardan biri ishlamay qolishi mumkin.
Biroq, boshqa oynalar ishlashda davom etadi.
Shunday qilib, barcha oynalar yopiq ekanligiga ishonch hosil qilishingiz kerak.
- Oynani masofadan ochish funksiyasidan foydalanganda ehtiyot bo'ling, chunki eshiklar qulfdan chiqariladi.

* ESLATMA

Oynani masofadan boshqarish funksiyasi avtomatik oyna ko'targich tizimi bilan jihozlangan oynada ishlaydi.

* AXBOROT

Axborot-ko'ngilochar tizimi dasturiy ta'minot yangilanganidan keyin o'zgarishi mumkin. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun axborot-ko'ngilochar tizimda taqdim etilgan qo'llanma va tezkor ma'lumotnomaga qarang.

Kapot

Kapot dvigatel bo'linmasi uchun qopqoq bo'lib xizmat qiladi.

Dvigatel bo'linmasida texnik xizmat ko'rsatish kerak bo'lsa yoki bo'lmaga bir qarash kerak bo'lsa, kapotni oching.

Kapotni ochish

1. Kapotni ochish uchun bo'shatish dastagini torting. Kapot sal otilib ochilishi kerak.



⚠ OGOHLANTIRISH


Kapotni dvigatelni o'chirgandan so'ng, avtomobil tekis yuzada, uzatmalar dastagi P (Parkovka) holatiga o'tkazilganida va to'xtab turish tormozi ishlayotganida oching.

2. Avtomobilning old qismiga o'ting, kapotni biroq ko'taring, ikkinchi kapotni bo'shatish dastagini (1) yuqoriga suring va kapotni ko'taring.



Kapot ochiqligi haqida ogohlantirish

Kapot ochilganda LCD displeyda kapot haqida ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.



Avtomobil kapoti ochiq holatda 3 km/soat (2 mil/soat) yoki undan yuqori tezlikda harakatlanayotganda ogohlantirish ovozi signali ishlaydi.

Kapotni yopish

1. Kapotni yopishdan oldin quyidagilarni tekshiring:
 - Dvigatel bo'linmasidagi barcha idish qopqoqlari to'g'ri o'rnatilgan bo'lishi kerak.
 - Dvigatel bo'linmasidan qo'lqop, latta yoki boshqa yonuvchan materiallarni olib tashlash kerak.
2. Kapotni yarmigacha tushiring va joyiga mahkam o'rnatishini uchun pastga bosing.



3. Kapotning to'g'ri mahkamganligini tekshiring.
 - Agar kapotni ko'tarish mumkin bo'lsa, u to'g'ri mahkamlanmagan.
 - Uni yana oching va biroz ko'proq kuch bilan yoping.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Kapotni yopishdan oldin kapot hoshiyasidagi barcha to'siqlar olib tashlanganligiga ishonch hosil qiling. Kapotni kapot hoshiyasida qolib ketgan to'siqlar bilan yopish kapot shikastlanishiga yoki jiddiy jarohatlarga olib kelishi mumkin.
- Dvigatel bo'linmasida qo'lqop, latta yoki boshqa yonuvchan materiallarni qoldirmang. Bunday qilish issiqlikdan kelib chiqadigan yong'inga olib kelishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Haydashdan oldin kapotning mahkam yopilganligiga ishonch hosil qilish uchun har doim ikki marta tekshiring. Agar u mahkamlanmagan bo'lsa, kapot avtomobil harakatlanayotganda ochilib, ko'rishning butunlay yo'qolishiga olib kelishi mumkin, bu esa avariya olib kelishi mumkin.
- Kapot ko'tarilgan holida avtomobilni harakatlantirmang. Ko'rinish to'siladi va kapot tushib ketishi yoki shikastlanishi mumkin.

Yonilg'i quyish tuynugi

Avtomobilning yonilg'i quyish tuynugi avtomobil tashqarisidan qo'l bilan ochilishi va yopilishi kerak.

Yonilg'i to'ldirish qopqog'ini ochish yonilg'i to'ldirish

1. Dvigatelni o'chiring.
2. Barcha eshiklar qulfdan chiqarilganligiga ishonch hosil qiling.
3. Yonilg'i baki eshikchasining orqa markaziy chetini bosing.



4. Yonilg'i baki eshikchasini (1) to'liq ochish uchun torting.



5. Yonilg'i baki qopqog'ini (2) olib tashlash uchun uni soat miliga teskari burang. Bak ichidagi bosim tenglashganida, vishillagan tovush eshitiladi.
6. Qopqoqni yonilg'i baki eshikchasiga qo'ying.

* ESLATMA

Haydovchi eshigi qulfdan chiqarilganida yonilg'i baki eshikchasi qulfdan chiqariladi. Yonilg'i quyish tuynugini ochish uchun:

- Aqlli kalitingizdagi qulfni ochish tugmasini bosing.

- Haydovchi eshigining tirsak qo'ygichidagi markaziy eshik qulfini ochish tugmasini bosing.
- Haydovchi eshigidagi ichki tutqichni tashqariga torting.

Yonilg'i baki eshikchasi barcha eshiklar qulflanganda qulflanadi.

Yonilg'i baki eshikchasini qulflash

- Aqlli kalitingizdagi qulflash tugmasini bosing.
 - Haydovchi eshigining tirsak qo'ygichidagi markaziy eshikni qulflash tugmasini bosing.
- * Avtomobil tezligi 15 km/soat (9,3 mil/soat) dan oshganda barcha eshiklar avtomatik ravishda qulflanadi. Avtomobil tezligi 15 km/soat (9,3 mil/soat) dan oshganda yonilg'i bakining eshikchasi ham avtomatik ravishda qulflanadi.

⚠ OGOHLANTIRISH

Yoqilg'i quyishdan oldin, avtomobilingiz uchun qaysi turdagi yoqilg'i ishlatilishi kerakligini tekshiring.

Agar dizel yoqilg'isini benzinli dvigatelli avtomobilga yoki benzinni dizel yoqilg'isida ishlaydigan avtomobilga solsangiz, bu yoqilg'i tizimiga ta'sir qilishi va avtomobilga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

* ESLATMA

Agar yonilg'i to'ldirish tuynugi atrofida muz hosil bo'lgani bois u ochilmasa, muzni sindirish va tuynukni ochish uchun ozgina tuynukni yengil uring yoki bosing. Tuynukni qirmang. Agar kerak bo'lsa, tuynuk atrofiga tasdiqlangan muz erituvchi suyuqlik seping (radiator antifrizdan foydalanmang) yoki

avtomobilni iliq joyga olib borib, muzning erishini kuting.

Yonilg'i baki eshikchasini yopish

1. Qopqoqni o'rnatish uchun uni soat mili yo'nalishi bo'yicha qirsillab yopilguniga qadar burang.
2. Yonilg'i baki eshikchasi orqa markaziy chetini bosib yoping.

* ESLATMA

Yonilg'i baki eshikchasini qulflash uchun yonilg'i baki eshikchasi to'liq yopilganida avtomobil eshigini LOCK holatiga o'tkazing.

Yonilg'i baki eshikchasi to'liq yopilmagan bo'lsa, yonilg'i baki eshikchasi qulflanmaydi.

⚠️ DIQQAT

Avtomobil yuvilayotganida (masalan, yuqori bosimli yuvish mashinasi, avtomatik yuvish mashinasi va boshqalar) eshikni LOCK holatida saqlang.

⚠️ OGOHLANTIRISH

Benzin oson alangalanuvchi va portlovchi modda hisoblanadi. Ushbu ogohlantirishlarga rioya qilmaslik JIDDIY JAROHAT yoki O'LIMGA sabab bo'lishi mumkin:

- Yoqilg'i quyish shoxobchasidagi barcha ogohlantirishlarni o'qing va ularga rioya qiling.
- Yoqilg'i quyishdan oldin, agar mavjud bo'lsa, yoqilg'i quyish shoxobchasida Favqulodda benzin oqimini berkitish joyiga e'tibor bering.
- Yoqilg'i quyish pistoletini qo'lga olishdan oldin, avtomobilning boshqa metall qismiga yalang qo'l bilan tegib, potentsial xavfli statik elektr tokini

bartaraf qilish va u joy yonilg'i baki og'zi, pistolet yoki boshqa gaz manbalaridan xavfsiz masofada bo'lishi kerak.

- Yoqilg'i quyish paytida uyali telefonlardan foydalanmang. Uyali telefonlardan chiqadigan elektr toki va/ yoki elektron shovqinlar yoqilg'i bug'larini alangalatishi va yong'inga olib kelishi mumkin.
- Yoqilg'i quyishni boshlaganingizdan keyin mashinaga qaytmang. Statik elektr ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan har qanday narsa yoki matoga tegish, ishqalash yoki sirpanish orqali sizda statik elektr to'planishi mumkin. Statik elektr chiqishi yonilg'i bug'larini alangalatib, yong'inga olib kelishi mumkin. Avtomobilga qayta kirishingiz kerak bo'lsa, yonilg'i bakining og'zi, pistolet yoki boshqa benzin manbasidan uzoqda, avtomobilning metall qismiga yalang qo'l bilan tegib potentsial xavfli statik elektr tokini yana bir bor yo'qotishingiz kerak.
- Yoqilg'i quyayotganda har doim uzatmani P (Parkovka) holatiga o'tkazing, to'xtab turish tormozini o'rnatib va Dvigatelni ishga tushirish/ to'xtatish tugmasini LOCK/OFF holatiga qo'ying.
- Dvigatel bilan bog'liq elektr komponentlar tomonidan ishlab chiqarilgan uchqunlar yoqilg'i bug'larini yoqishi va bu yong'inga olib kelishi mumkin.
- Tasdiqlangan portativ yonilg'i idishidan foydalanganda, yonilg'i quyishdan oldin idishni yerga qo'yishni unutmang. Idishdagi statik elektr tokining chiqishi yonilg'i bug'larini yoqishi va yong'inga olib kelishi mumkin. Yoqilg'i quyish boshlanganidan tugaguniga qadar avtomobilni yalang qo'l bilan ushlab turish kerak.

- Benzinni tashish va saqlash uchun mo'ljallangan faqat tasdiqlangan portativ plastik yonilg'i idishlaridan foydalaning.
- Yoqilg'i quyish shoxobchasida, ayniqsa yonilg'i quyish paytida gugurt yoki zanjigalkadan foydalanmang va sigareta chekmang yoki yoqilgan sigaretni avtomobilingizda qoldirmang.
- Avtomobil bakiga ortiqcha yonilg'i quymang yoki to'ldirib yubormang, bu benzin to'kilishiga sabab bo'ladi.
- Yoqilg'i quyish paytida yong'in sodir bo'lsa, avtomobil arofini tark eting va darhol yoqilg'i quyish shoxobchasi operatoriga murojaat qiling va keyin mahalliy o't o'chirish bo'limiga murojaat qiling. Ular taqdim etgan har qanday xavfsizlik ko'rsatmalariga rioya qiling.
- Agar bosim ostida yoqilg'i shlangdan otilib chiqsa, u kiyimingizni yoki teringizga tegishi mumkin va bu bilan sizni u yong'in va kuyish xavfiga duchor qiladi. Yonilg'i baki qopqog'ini har doim ehtiyotkorlik bilan va sekin oching. Bak qopqog'idan yonilg'i chiqarayotgan bo'lsa yoki siz xishshillagan ovozni eshitsangiz, qopqoqni to'liq ochib olishdan oldin yuqoridagi vaziyat to'xtaguncha kuting.
- Avariya yuz berganda yonilg'i to'kilmasligi uchun har doim yonilg'i baki qopqog'i mahkam yopilganini tekshiring.

* ESLATMA

Avtomobilingizga yonilg'i quyish quyidagilarga muvofiq ekaniga ishonch hosil qiling "Yonilg'i talablari", 1-2-sahifa.

* ESLATMA

- Avtomobilning tashqi yuzasiga yoqilg'ini to'kmang. Bo'yalgan yuzalarga to'kilgan har qanday yoqilg'i bo'yoqqa zarar yetkazishi mumkin.
- Yonilg'i baki qopqog'ini almashtirish kerak bo'lsa, faqat asl Kia ehtiyot qismlari yoki avtomobilingiz standartiga teng bo'lgan qismlardan foydalaning. Noto'g'ri yonilg'i baki qopqog'i yonilg'i tizimi yoki chiqindi gazlarni nazorat qilish tizimining jiddiy nosozligiga olib kelishi mumkin.

Panoramali lyuk (mavjud bo'lsa)

Agar avtomobilingiz lyuk bilan jihozlangan bo'lsa, lyukni yuqoridagi konsolda joylashgan lyukni boshqarish dastagi yordamida surishingiz yoki qiyalatishingiz mumkin.



Lyukni faqat ENGINE START/STOP tugmasi ON yoki START holatida bo'lganida ishlatish mumkin.

ENGINE START/STOP tugmasi ACC yoki LOCK/OFF holatida bo'lganidan keyin lyuk taxminan 3 daqiqa davomida ishlashi mumkin. Biroq, agar old eshik ochiq bo'lsa, lyukni hatto 3 daqiqa ichida ham ochib bo'lmaydi.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Lyukni faqat avtomobil to'xtab turganida ishlating. Lyukni haydash paytida ishlatsangiz, u haydashga xalaqit berishi va baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin.
- Avtomobilni qisqa vaqtga tark etsangiz ham, bolalarning lyukni ishlatishiga yo'l qo'ymaslik uchun avtomobilni o'chiring va kalitni o'zingiz bilan oling.
- Avtomobil tomida o'tirmang Avtomobil tomiga o'tirish yoki og'ir buyumlarni qo'yish lyukni shikastlashi mumkin.

* ESLATMA

Avtomobilga tom yuk panjaralari o'rnatilganda yoki tomda yuk bo'lganda lyukni ishlatmang.

Elektr soyaboncha



Bevosita lyuk oynasidan tushadigan quyosh nurini to'sish uchun elektr soyabondan foydalaning.

- Lyuk tugmasini oldinga yoki orqaga birinchi fiksatsiya holatiga suring, elektr soyaboncha avtomatik surilib ochiladi.
- Lyuk tugmasini birinchi fiksatsiya holatiga oldinga suring, elektr soyaboncha avtomatik ravishda yopiladi. Biroq, agar lyuk oynasi ochiq bo'lsa, oyna birinchi bo'lib yopiladi.

Elektr soyabonchani to'xtatish uchun lyuk tugmasini istalgan tomonga suring.

* ESLATMA

Quyosh soyaboni pardasini qo'l bilan tortmang yoki itarmang, chunki bunday harakat elektr soyabonga zarar yetkazishi yoki uning nosoz bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin.

* ESLATMA

Elektr soyaboncha ustida materialning xususiyat tufayli burishgan joylar hosil bo'ladi, bu normal holatdir.

Qiya ochish/yopish



- Lyuk tugmachasini yuqoriga suring, lyuk oynasi qiya ochiladi. Biroq, agar elektr soyaboncha yopiq bo'lsa, birinchi navbatda soyaboncha ochiladi.
- Lyuk oynasi qiya ochilganda lyuk tugmachasini tepaga yoki oldinga suring, lyuk oynasi avtomatik tarzda yopiladi.

Istalgan nuqtaga kelganda lyukning harakatini to'xtatish uchun lyuk tugmasini istalgan tomonga suring.

Surib ochish/yopish



- Lyuk tugmasini orqaga birinchi fiksatsiya holatiga suring, lyuk oynasi ochiladi. Biroq, agar elektr soyaboncha yopiq holatda bo'lsa, birinchi navbatda elektr soyaboncha ochiladi.

Lyuk tugmasini oldinga birinchi fiksatsiya holatiga suring, lyuk oynasi yopiladi. Biroq, agar lyuk oynasi yopiq holatda bo'lsa, elektr soyaboncha yopiladi.

- Lyuk tugmasini oldinga yoki orqaga ikkinchi fiksatsiya holatiga suring, elektr soyaboncha ham, lyuk oynasi ham yopiladi yoki ochiladi.

Istalgan nuqtaga kelganda lyukning harakatini to'xtatish uchun lyuk tugmasini istalgan tomonga suring.

Avtomatik ortga qaytish



Agar elektr soyaboncha yoki lyuk oynasi avtomatik tarzda yopilayotganda biron bir to'siqni sezsa, u surilish yo'nalishini teskari tomonga o'zgartiradi va ma'lum bir holatga kelib to'xtaydi.

Surilayotgan elektr soyaboncha va lyuk oynasi o'rtasida yupqa yoki yumshoq predmet qisilib qolsa, avtomatik orqaga qaytarish funksiyasi ishlamasligi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Lyukni ishlatishdan oldin bosh, qo'llar yoki boshqa tana a'zolari yoki buyumlari lyuk yo'lida emasligiga ishonch hosil qiling. Tana qismlari yoki buyumlar qisilib qolishi va bu jarohatlar yoki avtomobil shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Avtomatik orqaga qaytish funksiyasini sinab ko'rish uchun hech qachon tana a'zolaridan ataylab foydalanmang. Elektr soyaboncha yoki lyuk oynasi teskari yo'nalishda harakatlanishi mumkin, ammo jarohat olish ehtimoli mavjud.

* ESLATMA

- Lyuk to'liq ochilgan, yopilgan yoki qiyalangandan keyin lyuk tugmachasini bosishni davom ettirmang. Lyuk motori shikastlanishi mumkin.
- Surib ochish/yopish, qiya ochish/yopish va h.k. kabi uzluksiz harakatlar lyuk motori yoki lyuk tizimining nosoz ishlashiga olib kelishi mumkin.

- Muntazam ravishda lyuk relsida to'plangan changlarni tozalab tashlang.
- Lyuk va tom paneli o'rtasida to'plangan chang shovqin chiqarishi mumkin. Lyukni oching va toza mato yordamida changni muntazam tozalang.
- Harorat muzlash darajasidan past bo'lganda yoki lyuk qor yoki muz bilan qoplangan bo'lsa, lyukni ochishga urinmang. Lyuk to'g'ri ishlamasligi va qattiq kuch bilan ochilsa, sinishi mumkin.
- Yomg'irdan yoki avtomobilni yuvgandan keyin darhol ochmang yoki lyuk oynasi ochiq holida haydamang. Suv avtomobilning salon qismiga kirishi mumkin.
- Haydash paytida yukni lyukdan tashqariga chiqarmang. Avtomobil to'satdan to'xtasa, avtomobil shikastlanishi mumkin.

 - AWD qulfi rejimi nam yo'lida, qorli yo'llarda va/yoki yo'lsiz joylarda haydash quvvatini oshirish uchun mo'ljallangan.

*** ESLATMA****AWD qulfi rejimi**

Quruq asfaltlangan yo'llarda yoki avtomagistrallarda AWD QULFLASH rejimidan foydalanmang, chunki u shovqin, tebranish yoki AWD bilan bog'liq qismlarga zarar yetkazishi mumkin.

* Tafsilotlar uchun qarang: "SNOW (QOR) rejimi (AWD uchun)", 5-35-sahifa.

LCD displey

LCD displey rejimlarini boshqaruv tugmalari yordamida o'zgartirish mumkin.

LCD displeyni boshqarish

O'zgartirish	Nazorat	Harakat
Rejim (1) 	Qisqa bosish	Ko'rish rejimlarini o'zgartirish
Yuqoriga/ pastga (2) 	Qisqa aylanish	Xizmat ma'lumotlarini qidirish

O'zgartirish	Nazorat	Harakat
OK (ishga tushirish) (2)	Qisqa bosish	Qo'shimcha funksiyalarni ishlatish
	Davomli bosish	Menyu axborotini asliga tiklash

LCD display rejimlari

Ko'rish	Tavsif
Haydash yordami ko'rinishi	Haydovchiga yordam tizimi bilan bog'liq ma'lumotlarni ko'rsatadi
Navigatsiya ko'rinishi	Navigatsiya tizimi bilan bog'liq ma'lumotlarni ko'rsatadi
Xizmat ma'lumotlari ko'rinishi	Haydash, ogohlantirish va boshqalar bilan bog'liq ma'lumotlarni ko'rsatadi.

Yoqilg'i tejamkorligi



A: Joriy sayohat

1 O'rtacha yoqilg'i tejamkorligi

2 Tezkor yonilg'i tejamkorligi

O'rtacha yoqilg'i tejamkorligi

- O'rtacha yoqilg'i tejash oxirgi o'rtacha yoqilg'i tejamkorligi qayta o'rnatilgandan beri bosib o'tilgan jami masofa va yoqilg'i sarfi asosida hisoblanadi.
- Yoqilg'i tejamkorligi diapazoni: 0~99,9 L/100km, km/L yoki MPG
- O'rtacha yoqilg'i tejashni qo'lda va avtomatik ravishda qayta o'rnatish mumkin.

* ESLATMA

DVIGATEL START/STOP tugmasi ON holatiga o'rnatilgandan keyin avtomobil 10 soniya yoki 300 metrdan (0,19 mil) ko'proq harakat qilmasa, aniqroq

hisoblash uchun o'rtacha Yonilg'i tejash ko'rsatilmaydi.

Tezkor yonilg'i tejamkorligi

- Ushbu rejim avtomobil tezligi 8 km/soat (5 mi/soat) dan ortiq bo'lsa, so'nggi 1 soniya ichidagi tezkor yonilg'i tejamkorligini ko'rsatadi.
- Yoqilg'i tejamkorligi diapazoni: 0~30 L/100km, km/L yoki 0~50 MPG


Haydash yordami ko'rinishi



Ushbu rejim quyidagilarning holatini ko'rsatadi:

- Qator xavfsizligi tizimi (mavjud bo'lsa)
- Aqlli kruiz boshqaruvi (mavjud bo'lsa)
- Qator bo'ylab yurishda yordam (mavjud bo'lsa)
- * Batafsil ma'lumot uchun har bir tizim ma'lumotlariga qarang: "Avtomobilni boshqarish", 5-3-sahifa.


Navigatsiya ko'rinishi



Ushbu rejim navigatsiya holatini ko'rsatadi.

Xizmat ma'lumotlari ko'rinishi

Shinalardagi past bosim haqida ogohlantirish displeyi



Shinalardagi bosim bilan bog'liq ma'lumotlar.

* Batafsil ma'lumot uchun har bir tizim ma'lumotlariga qarang: "Shina bosimi nazorati tizimi (TPMS)", 7-10-sahifa.

Haydash ma'lumotlari displeyi

Ushbu displeyda har bir o't oldirish siklida bir safar masofasi (1), o'rtacha yoqilg'i samaradorligi (2) va umumiy haydash vaqti (3) ko'rsatiladi.



A: Joriy sayohat

1 Sayohat

2 Taymer

3 O'rtacha

- Yoqilg'i samaradorligi avtomobil 300 metrdan ortiq masofani bosib o'tgandan keyin hisoblanadi.
- Dvigatel o'chirilgandan keyin haydovchi eshigi ochilgan bo'lsa yoki dvigatel qayta ishga tushirilgandan keyin 3 daqiqa o'tsa, Haydash ma'lumotlari qayta o'rnatiladi.

- Dvigatel ishlayotgan bo'lsa, avtomobil harakatlanmayotgan bo'lsa ham, ma'lumot to'planadi.

Oxirgi yonilg'i quyishdan keyingi ma'lumot

Ushbu displeyda yo'l masofasi, o'rtacha yonilg'i samaradorligi va yonilg'i quyishdan keyingi tezkor yonilg'i samaradorligi (yoki umumiy haydash vaqti) ko'rsatilgan.



A: Yonilg'i quyilgandan beri

1 Sayohat


2 Taymer

3 O'rtacha

- Yonilg'i quyilganidan keyingi ma'lumotlar avtomobil 300 metrdan (0,19 mil) ortiq masoventilyatori bosib o'tgandan keyin hisoblanadi.
- Yonilg'i quyilganidan keyingi ma'lumotlar ko'rsatilganidan keyin "OK" tugmasini 1 soniyadan ko'proq bosib tursangiz, ma'lumotlar asliga qaytariladi.
- Yonilg'i quyishdan keyin haydash paytida ma'lumotlar avtomatik ravishda qayta tiklanadi.
- Dvigatel ishlayotgan bo'lsa, avtomobil harakatlanmayotgan bo'lsa ham, ma'lumot to'planadi.

Yig'ilgan haydash ma'lumotlari rejimi

Ushbu displeyda to'plangan safar masofasi (1), o'rtacha yoqilg'i samaradorligi (2) va jami haydash vaqti (3) ko'rsatiladi.



A: **Oxirgi qayta o'rnatishdan beri**

1 Sayohat

2 Taymer

3 O'rtacha

- Yig'ilgan ma'lumotlar avtomobil 300 metrdan ortiq masofani bosib o'tgandan keyin hisoblanadi.
- Agar siz "OK" tugmasini 1 soniyadan ko'proq vaqt davomida bossangiz, yig'ilgan ma'lumotlar ko'rsatilgandan so'ng, ma'lumotlar qayta o'rnatiladi.
- Dvigatel ishlayotgan bo'lsa, avtomobil harakatlanmayotgan bo'lsa ham, ma'lumot to'planadi.

Asosiy ogohlantirish rejimi ⚠



Ushbu rejim sizga quyidagi holatlar haqida xabar beradi:

- Haydovchiga yordam tizimining nosozligi, cheklovi yoki radar/kameraning to'silib qolgani (mavjud bo'lsa)


- LED old faraning nosozligi
- Lampaning nosozligi
- TPMS nosozligi, shinalardagi past bosim va boshqalar.

Bu vaqtda asosiy ogohlantirish belgisi (⚠) paydo bo'ladi. Agar ogohlantirish holati bartaraf etilsa, asosiy ogohlantirish chirog'i o'chadi va asosiy ogohlantirish ikonachasi yo'qoladi.

Boshqa ko'rish rejimlari

Xizmat ko'rsatish rejimi

Ushbu rejim sizga rejalashtirilgan xizmat ko'rsatish ma'lumotlarini eslatadi.



A: **Xizmat ko'rsatishgacha**

Xizmat ko'rsatishgacha

U rejalashtirilgan texnik xizmat ko'rsatishgacha qolgan vaqtni hisoblab chiqadi va ko'rsatadi (masofa yoki kunlarda).

Agar qolgan masofa yoki vaqt 1500 km (900 mil) yoki 30 kunga yetsa, DVIGATEL START/STOP tugmasi ON holatiga har safar o'rnatilganda bir necha soniya davomida "Xizmat ko'rsatishgacha" xabari ko'rsatiladi.

Xizmat ko'rsatish talab qilinadi

Agar siz mashinangizga allaqachon displeyda ko'rsatilgan xizmat ko'rsatish oraliqiga muvofiq xizmat ko'rsatmagan bo'lsangiz, DVIGATEL START/STOP tugmasi ON holatiga har safar o'rnatilganda bir necha soniya davomida "Xizmat ko'rsatish talab etiladi" xabari ko'rsatiladi.

Xizmat ko'rsatish oralig'ini oldin siz kiritgan masofa va kunlarga qaytarish uchun:

- OK tugmasini (Qayta o'rnatish) 1 soniyadan ko'proq vaqt davomida bosib.

* ESLATMA

Agar quyidagi shartlardan biri yuzaga kelsa, masofa va kunlar noto'g'ri bo'lishi mumkin.

- Batareya kabeli uzilgan bo'lsa.
- Batareya zaryadsizlangan bo'lsa.

Haydovchiga yordam sozlamalari (axborot-ko'ngilochar tizimi)



Haydovchiga yordam funksiyasini o'rnatish uchun axborot-ko'ngilochar tizim ekranida **Sozlash** → **Avtomobil** → **Haydovchiga yordam** bandini tanlang.


- **Haydovchiga yordam**
 - Haydash qulayligi
 - Haydovchi diqqatini tortish ogohlantiruvchi (DAW)
 - Ogohlantirish usuli
 - Haydash xavfsizligi
 - Parkovka xavfsizligi

* AXBOROT

Axborot-ko'ngilochar tizimi dasturiy ta'minot yangilanganidan keyin o'zgarishi mumkin. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun axborot-ko'ngilochar tizimda taqdim etilgan qo'llanma va tezkor ma'lumotnomaga qarang.

LCD displey xabarlari

Eshik, kapot, yukxona, lyuk ochiq



OGL3034138L

- Ushbu ogohlantirish qaysi eshik, kapot, yukxona eshigi yoki lyuk ochiq ekanligini ko'rsatadi.

Chiroqlar rejimi



OGL3034136L

A: Chiroqlar

Ushbu indikator yorug'lik boshqaruvi yordamida qaysi tashqi chiroq tanlanganligini ko'rsatadi.

Panel LCD displeyidagi Foydalanuvchi sozlamalari rejimidan Oyna tozalagich/Chiroqlar displeyi funksiyasini faollashtirishingiz yoki o'chirishingiz mumkin.

Oyna tozalagich rejimi




OGL3034137L

A: Old tozalagichlar

Bu indikator oyna tozalagich boshqaruv elementi yordamida qaysi tozalash tezligi tanlanganligini ko'rsatadi.

Panel LCD displeyidagi Foydalanuvchi sozlamalari rejimidan Oyna tozalagich/Chiroqlar displeyi funksiyasini faollashtirishingiz yoki o'chirishingiz mumkin.

Dvigatel haddan tashqari qizib ketgan



OGL3034135L

A: Motor qizib ketdi

- Bu ogohlantirish xabari dvigatelni sovitish suyuqligi harorati 120 °C (248 °F) dan yuqori bo'lganida paydo bo'ladi. Bu dvigatel haddan tashqari qizib ketgan va shikastlanishi mumkinligini anglatadi.
- * Avtomobilingiz haddan tashqari qizib ketgan bo'lsa, qarang: "Dvigatel haddan ortiq qizib ketsa", 7-8-sahifa.

Batareya quvvati kam (smart kalit tizimi uchun)

- ENGINE START/STOP tugmasi OFF holatiga o'tganda smart kalitning batareyasi quvatsizlangan bo'lsa, ushbu ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.

Chambarakni aylantirgan holda START tugmasini bosing (smart kalit tizimi uchun)

- ENGINE START/STOP tugmasi bosilganda rul odatiy tarzda qulfdan ochilmasa, bu ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.
- Bu rulni o'ngga va chapga aylantirganda ENGINE START/STOP tugmasini bosishingiz kerakligini anglatadi.

Rul chambaragi qulflanmagan (smart kalit tizimi uchun)

- ENGINE START/STOP tugmasi OFF holatiga o'tganda rul chambaragi qulflanmasa, bu ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.

Rul qulfi tizimini tekshiring (smart kalit tizimi uchun)

- ENGINE START/STOP tugmasi OFF holatiga o'tganda rul odatiy tarzda qulflanmasa, bu ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.

Kalit avtomobilda emas (smart kalit tizimi uchun)

- ENGINE START/STOP tugmasini bosganingizda smart kalit avtomobilda bo'lmasa, ushbu ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.
- Bu smart kalit har doim yoningizda bo'lishi kerakligini anglatadi.

Kalit aniqlanmadi (smart kalit tizimi uchun)

- ENGINE START/STOP tugmasini bosganingizda smart kalit aniqlanmasa, ushbu ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.

Dvigatelni ishga tushirish uchun P yoki N holatga o'tkazing (smart kalit tizimi uchun)

- Agar siz dvigatelni uzatmalar dastagi P (Parkovka) yoki N (neytral) holatida bo'lmagan holida ishga tushirmoqchi bo'lsangiz, ushbu ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.

Dvigatelni ishga tushirish uchun tormoz pedalini bosing (smart kalit tizimi uchun)

- ENGINE START/STOP tugmasi tormoz pedalini bosmasdan tugmani ikki marta bosish orqali ACC holatiga o'zgartirilsa, ushbu ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.
- Bu dvigatelni ishga tushirish uchun tormoz pedalini bosish kerakligini anglatadi.

Tashqi elektr qurilmalari tufayli batareya zaryadsizlanishi

Avtomobilni parkovka qilish vaqtida videoregistrator kabi ruxsatsiz elektr qurilmalarni o'rnatish oqibatida hosil bo'lgan ortiqcha tok tufayli batareyaning o'z-o'zidan zaryadsizlanayotganini aniqlashi mumkin.

Agar tashqi elektr jihozlari olib tashlanganidan keyin ham ogohlantirish davom etsa, avtomobilingizni professional ustaxonada tekshirib ko'ring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga murojaat qilishni tavsiya qiladi.

START tugmasini yana bosing (smart kalit tizimi uchun)

- ENGINE START/STOP tugmasi tizimida muammo yuzaga kelganda ENGINE START/STOP tugmasidan foydalana

olmasangiz, ushbu ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.

- Bu ENGINE START/STOP tugmasini yana bir marta bosish orqali dvigatelni ishga tushirishingiz mumkinligini anglatadi.
- ENGINE START/STOP tugmasini har bosganingizda ogohlantirish paydo bo'lsa, avtomobilni professional ustaxonada tekshirib ko'ring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

START tugmasini kalit bilan bosing (smart kalit tizimi uchun)

- "Kalit aniqlanmadi" ogohlantirish xabari aks etgan vaqtda Dvigatelni ishga tushirish/STOP tugmasini bossangiz, ushbu ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.
- Bu vaqtda immobilayzer indikator chirog'i miltillaydi.

Faol havo qopqog'i tizimini tekshirish

Bu ogohlantirish xabari quyidagi holatlarda chiqadi:

- Aktuator klapani nosozligi mavjud.
- Havo klapanini boshqaruvchi aktuatorida xatolik yuz berdi.
- Havo klapani ochilmaydi.

Yuqoridagi barcha holatlar bartaraf etilganda, ogohlantirish yo'qoladi.

Old oynadagi display (HUD) (mavjud bo'lsa)

Old oynadagi display asboblari paneli va navigatsiya tizimidagi ayrim ma'lumotlar soyasini HUD ekranida aks ettiradigan shaffof displeydir.



- Old oynadagi display tasviri quyidagi holatlarda HUD ekranida ko'rinmasligi mumkin:
 - O'tirish holati noto'g'ri bo'lsa.
 - Qutblangan quyoshdan himoya ko'zoynaklarini taqish.
 - Old oynadagi display qopqog'i ustiga biror narsa qo'yilgan bo'lsa.
 - Ho'l yo'lda haydash.
 - Avtomobil ichkarisi yetarlicha yoritilmagan bo'lsa.
 - Avtomobilga tashqaridan yorug'lik tushayotgan bo'lsa.
 - Ko'rish qobiliyatiga mos kelmaydigan ko'zoynak taqish.
- Old oynadagi display tasviri qoniqarsiz bo'lsa, klasterda old oynadagi display balandligi, burilishi va yoritilganligini sozlang.
- Old oynadagi displeyni tekshirish yoki ta'mirlash kerak bo'lsa, avtomobilni professional ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.


⚠ OGOHLANTIRISH

Old oynadagi display

Old oynadagi display shtorkasiga hech qanday aksessuarlar joylashtirmang. U

Old oynadagi display ustiga tushishi va unga zarar yetkazishi mumkin.

Old oynadagi display axboroti



1. Burilishlarni ko'rsatuvchi navigatsiya axboroti (mavjud bo'lsa)
2. Yo'l harakati haqida ma'lumot
3. Qator xavfsizligi ma'lumoti (agar mavjud bo'lsa) (mavjud bo'lsa)
4. Qator bo'ylab yurishda yordam ma'lumoti (mavjud bo'lsa)
5. Smart kruiz boshqaruvi (SCC) avtomobil masofasi haqida ma'lumot (mavjud bo'lsa)
6. Atrofdagi avtomobil haqida ma'lumot (mavjud bo'lsa)
7. Ko'rinmas hudud xavfsizligi haqidagi ma'lumot (agar mavjud bo'lsa)
8. Spidometr haqida ma'lumot
9. Smart kruiz boshqaruvi (SCC) belgilangan tezlik axboroti (mavjud bo'lsa)

* ESLATMA

Yo'l belgilari va burilishlarni ko'rsatuvchi navigatsiya ma'lumotidan mintaqaga qarab foydalanish mumkin.

Old oynadagi display sozlamalari

LCD displayda old oynadagi display sozlamalarini quyidagicha o'zgartirishingiz mumkin.

1. Display balandligi
2. Aylanish
3. Yorqinlik
4. Kontent tanlash

* Tafsilotlar uchun qarang: "LCD display", 4-70-sahifa.

Yoritish

Ushbu avtomobil uning saloni va tashqarisini yoritish uchun turli xil chiroqlar bilan jihozlangan.

⚠️ DIQQAT

Batareya zaryadsizlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun dvigatel ishlamayotgan vaqtda old fara va ichki chiroqlarni uzoq vaqt yoniq qoldirmang.

Batareya quvvatini tejash funksiyasi

Ushbu funksiyaning maqsadi, agar chiroqlar yoniq holatda qolsa, batareya zaryadsizlanishini oldini olishdir. Dvigatel o'chgan va haydovchi eshigi ochilgandan so'ng tizim avtomatik ravishda parkovka chiroqlarini o'chiradi.

- Biroq, dvigatel o'chirilgandan so'ng chiroq tugmasi ishlatilsa, haydovchi tomon eshigi ochilganda ham gabarit chiroqlar yoniq qoladi.
- Agar kerak bo'lsa, lampalarni yoniq qoldirish uchun, dvigatel o'chirilgandan so'ng, rul ustunidagi old fara tugmasi yordamida gabarit lampalarni o'chiring va yana yoqing.

Old fara eskort funksiyasi

Dvigatelni ishga tushirish/to'xtatish tugmasini faralar ON holatida ACC yoki OFF holatiga bossangiz, faralar taxminan 5 daqiqa yoniq qoladi. Biroq, agar haydovchi eshigi ochilib yopilsa, old faralar 15 soniyadan keyin o'chadi.

Old faralarni smart kalitdagi qulflash tugmasini ikki marta bosish yoki chiroq tugmasini old fara yoki Avtomatik yoritish holatidan o'chirish holatiga o'tkazish orqali o'chirish mumkin.

* ESLATMA

Agar haydovchi transport vositasidan haydovchi eshigidan boshqa eshik orqali chiqsa, batareyani tejash funksiyasi ishlamaydi va faralarni kechiktirish funksiyasi avtomatik ravishda o'chmaydi. Bu batareyaning quvvatsizlanishiga olib kelishi mumkin. Batareyaning quvvatsizlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun avtomobildan chiqishdan oldin faralarni qo'lda fara tugmasidan o'chiring.

Kunduzi yoqiladigan qo'shimcha fara (DRL)

Kunduzi yoqiladigan qo'shimcha fara (DRL) kunduzi boshqalarga avtomobilingizning old qismini ko'rishni osonlashtirishi mumkin.

DRL turli xil haydash sharoitlarida foydali bo'lishi mumkin va u ayniqsa tong otgandan keyin va quyosh botishidan oldin foydalidir.

DRL quyidagi hollarda tegishli lampani o'chiradi:

- Old fara yoqilgan bo'lganda.
- Avtomobil o'chirilgan bo'lganda.
- To'xtab turish tormozini tortish.

Yoritish boshqaruvi

Chiroq tugmasi old fara va gabarit chiroq holatiga ega.

A turi



B turi



OCV041086L

Chiroqlarni ishlatish uchun boshqaruv dastagining uchidagi tugmani quyidagi holatlardan biriga burang:

- 1 OFF(O) holati
- 2 Avtomatik yoritish holati
- 3 Gabarit va orqa chiroq
- 4 Old fara holati (yaqinni yorituvchi)

Gabarit va orqa chiroq



OCL4M034092

Chiroq tugmasi gabarit chiroq holatida bo'lganda, old gabarit chiroq, orqa chiroq, raqam belgisi chirog'i yonadi.

Old chiroq (yaqinni yorituvchi chiroq)



OCL4M034093

Chiroq tugmasi old fara holatida bo'lsa, old chiroq (yaqinni yorituvchi chiroq), orqa chiroq, davlat raqam belgisi chirog'i yonadi.

* ESLATMA

Old faralarni yoqish uchun ENGINE START/STOP tugmasi ON holatida bo'lishi kerak.

Avtomatik yoritish



OCL4M034010

Chiroq tugmasi AVTOMATIK yoritish holatida bo'lsa, orqa chiroqlar va old faralar avtomobil tashqarisidagi yorug'lik holatiga qarab avtomatik ravishda yonadi yoki o'chadi.

⚠ DIQQAT

- Asboblarda joylashgan datchik (1) ustiga hech qachon hech narsa qo'ymang, chunki bu avtomatik yoritish funksiyasini yaxshiroq boshqarishni ta'minlaydi.
- Sensorni oyna tozalash suyuqligi yordamida tozalamang, bu tozalovchi sensorning ishlashiga xalaqit beradigan yorug'lik plyonkasini qoldirishi mumkin.
- Agar avtomobilingiz old oynasida oyna qoraytirilgan yoki boshqa turdagi metall qoplama bo'lsa, Avtomatik yoritish funksiyasi to'g'ri ishlamasligi mumkin.

Uzoqni yorituvchi chiroqni ishlatish



Uzoqni yorituvchi old chiroqni yoqish uchun:

- Dastakni o'zingizdan oldinga itaring. Dastak asl holatiga qaytadi. Uzoqni yorituvchi chiroq yoqilganda, uzoqni yoritish indikator yonadi.

OGOHLANTIRISH

Boshqa transport vositalari mavjud bo'lganda uzoqni yorituvchi chiroqlarni ishlatmang. Uzoqni yorituvchi chiroqlarni ishlatish boshqa haydovchining ko'rishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Old faralarni miltillash uchun:

- Dastakni o'zingizga torting.



Bo'shatilganda normal holatiga qaytadi. Ushbu miltillatish funksiyasidan foydalanish uchun fara tugmasi yoqilgan bo'lishi shart emas.

Burilish signali va qatorni o'zgartirish signal chiroqlarini ishlatish



Burilish signal chiroqlarini ishlatish uchun ENGINE START/STOP tugmasi ON holatida bo'lishi kerak.

Burilish signal chiroqlarini yoqish uchun:

- Dastakni yuqoriga yoki pastga itaring (1).

Asboblardagi yashil strelkali indikator qaysi burilish signali chirog'i ishlayotganligini ko'rsatadi.

Burilish tugagandan so'ng ular o'z-o'zidan boshlang'ich holatga qaytadi. Agar burilishdan keyin indikator yonib o'chishda davom etsa, qo'l bilan dastakni OFF holatiga qaytaring.

qatorni o'zgartirish haqida signal berish uchun:

- Burilish signal chirog'ining dastagini biroz itaring va uni (2) holatida ushlab turing.

Dastak qo'yib yuborilganda OFF holatiga qaytadi.

Agar indikator yonib tursa va miltillamas yoki nosoz ravishda miltillasa, burilish signali chirog'ining lampalaridan biri kuygan bo'lishi mumkin va almashtirishni talab qiladi.

Bir bosish bilan qatorni o'zgartirish funksiyasi

Bir bosish bilan qatorni o'zgartirish funksiyasini faollashtirish uchun burilish signali dastagini biroz itaring va keyin uni

qo'yib yuboring. Qatorni o'zgartirish signallari 3, 5 yoki 7 marta miltillaydi.

“Chiroqlar → Bir bosish bilan burilish signali”ni tanlash orqali bir bosish bilan burilish signali funksiyasini yoqishingiz yoki o'chirishingiz yoki miltillashlar sonini (3, 5 yoki 7) tanlashingiz mumkin.

* ESLATMA

Agar indikatorning miltillashi nosoz darajada tez yoki sekin bo'lsa, lampochkasi kuygan yoki elektr zanjirlar ulanishi yomon bo'lishi mumkin.

Orqa tumanga qarshi chiroqni ishlatish (mavjud bo'lsa)



Orqa tumanga qarshi chiroqlarni yoqish uchun, old fara yoqilganda, orqa tumanga qarshi chiroq tugmachasini (1) yoqilgan holatga burang.

Orqa tumanga qarshi chiroqlarni o'chirish uchun:

- Orqa tumanga qarshi chiroq tugmasini yana yoqilgan holatiga burang.

Uzoqni yoritishda yordam (HBA) (mavjud bo'lsa)



Uzoqni yoritishda yordam - bu aniqlangan transport vositalarining yorqinligi va

muayyan yo'l sharoitlariga qarab faralar diapazonini (uzoq va past nur o'rtasida almashinadi) avtomatik ravishda sozlaydigan funksiya.

Aniqllovchi datchik

Old kamera



Oldni ko'rish kamerasi haydash paytida atrofdagi yorug'lik va yorqinlikni aniqlash uchun aniqllovchi sensor sifatida ishlatiladi. Aniqllovchi datchikning batafsil joylashuvi haqida ma'lumot uchun yuqoridagi rasmga qarang.

⚠️ DIQQAT

Uzoqni yoritishda yordam funksiyasining optimal ishlashini ta'minlash uchun oldni ko'rish kamerasini har doim yaxshi holatda saqlang.

Oldni ko'rish kamerasiga oid ehtiyot choralar haqida batafsil ma'lumot olish uchun qarang: "Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami (FCA) (Datchiklar majmuasi) (mavjud bo'lsa)", 6-5-sahifa.

Uzoqni yoritish yordamini sozlash



1 Avtomobil

2 Chiroqlar

Dvigatelni ishga tushirish/to'xtatish tugmasi ON holatida bo'lgan holda, uzoqni yoritishda yordam funksiyasini yoqish uchun Sozlamalar menyusidan "Chiroqlar → Uzoqni yoritishda yordam (yoki HBA (Uzoqni yoritishda yordam))"ni tanlang.

OGOHLANTIRISH

Xavfsizligingiz uchun avtomobilni xavfsiz joyga qo'yganingizdan so'ng sozlamalarni o'zgartiring.

Uzoqni yoritish yordamining ishlashi

- Sozlamalar menyusida "Uzoqni yoritish yordami" tanlanganidan so'ng, uzoqni yoritish yordami quyidagi tartibni bajarish orqali ishlaydi.
 - Old fara tugmasini AVTO holatiga qo'ying va fara dastagini asboblari klasteri tomon itaring. Uzoqni yoritish yordamchisi () indikator chirog'i panelda yonadi va tizim yoqiladi.
 - Funksiya yoqilganda, avtomobil tezligi 30 km/soat (20 milya) dan oshganda uzoqni yorituvchi fara yonadi. Uzoqni yorituvchi faralar yoqilganida panelda uzoqni yoritish () indikator chirog'i yonadi. Avtomobil tezligi 20 km/soat (12 milya) dan past bo'lsa, uzoqni yorituvchi fara yonmaydi. Klasterda uzoqni yoritish yordamchisi () indikator oq rangda ko'rinadi.
- Uzoqni yoritish yordami ishlayotganda, fara tutqichi yoki kaliti ishlatilsa, funksiya quyidagicha ishlaydi:
 - Agar uzoqni yorituvchi faralar o'chirilganda old faralar dastagi siz tomon tortilsa, uzoqni yorituvchi

faralalar yonadi. Old fara dastagini qo'yib yuborganingizda, uzoqni yoritish yordamchisi yana yoqiladi.


- Agar uzoqni yorituvchi faralar yoqilganda old faralar dastasi o'zingiz tomon tortilsa, yaqinni yorituvchi faralar yonadi va uzoqni yoritish yordamchisi bekor qilinadi.
- Chiroq tugmachasini asboblari paneli tomon itarsangiz, uzoqni yoritish yoqiladi va uzoqni yoritish yordamchisi bo'shatiladi.
- Agar old fara tugmasi AUTO holatidan boshqa holatga (old fara/ gabarit/o'chirilgan) o'rnatilsa, uzoqni yoritish yordamchisi o'chadi va tegishli mos chiroq yonadi.
- Uzoqni yoritish yordamchisi ishlayotganida, quyidagi shartlardan biri yuzaga kelsa, uzoqni yoritish yaqinni yoritishga o'tadi:
 - Qarshidan kelayotgan avtomobilning old farasi aniqlanganida.
 - Oldindagi avtomobilning orqa chiroqi aniqlanganida.
 - Mototsikl yoki velosipedning farasi yoki orqa chirog'i aniqlanganida.
 - Atrofdagi yorug'lik yetarlicha yorqin bo'lsa va uzoqni yoritish talab qilinmaganida.
 - Ko'cha chiroqlari yoki boshqa chiroqlar aniqlanganida.

ESLATMA

- Asboblari panelining texnik xususiyatlariga yoki mavzuga qarab, tasvirlar yoki ranglar boshqacha ko'rsatilishi mumkin.

Uzoqni yoritish yordamining noto'g'ri ishlashi va cheklovlari

Uzoqni yoritish yordamining nosoz ishlashi



A : Haydovchiga yordam tizimini tekshiring

Uzoqni yoritish yordami to'g'ri ishlamasa, klasterda ogohlantirish xabari paydo bo'ladi va ogohlantirish chirog'i (⚠) yonadi. Hech qanday o'zgarish bo'lmasa, avtomashinangizni vakolatli Kia dileri/ xizmat hamkorida ko'rikdan o'tkazishingizni tavsiya qilamiz.

Uzoqni yoritish yordamining cheklovlari

- Lampa shikastlangani yoki ko'zdan yashirin bo'lgani va h.k.lar tufayli avtomobildan kelayotgan yorug'lik aniqlanmasa.
- Avtomobil farasi chang, qor yoki suv bilan qoplangan bo'lsa.
- Avtomobil faralari o'chiq, ammo tumanga qarshi chiroqlar yoniq bo'lsa va hokazo.
- Transport vositasining chirog'ida shakli o'xshash bo'lgan chiroq mavjud bo'lsa.
- Faralar shikastlangan yoki to'g'ri ta'mirlanmagan bo'lsa.
- Faralar to'g'ri yo'naltirilmagan bo'lsa.
- Tor egri yo'lda, dag'al yo'lda, tepaga yoki pastga tushish yo'lida haydaganda.
- Oldindagi avtomobil chorrahada yoki egri yo'lda qisman ko'rinadigan holatda bo'lsa.

- Oldinda svetofor, nur qaytaruvchi belgi, miltillovchi belgi yoki ko'zgu bo'lsa.
- Oldinda vaqtinchalik reflektor yoki miltillovchi (qurilish maydoni) mavjud bo'lsa.
- Yo'l sharoiti yomon bo'lsa, masalan ho'l, muz yoki qor bilan qoplangan bo'lsa.
- Avtomobil to'satdan egri chiziqdan paydo bo'lsa.
- Avtomobil shinasi bo'shagani tufayli og'ib qolgan yoki tortib ketilayotgan bo'lsa.
- Chiqindi gaz, tutun, tuman, qor va boshqalar tufayli transport vositasidan yorug'lik aniqlanmasa.

* ESLATMA

Old ko'rish kamerasiga oid cheklovlar haqida batafsil ma'lumot olish uchun qarang "Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami (FCA) (Datchiklar majmuasi) (mavjud bo'lsa)", 6-5-sahifa.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Ba'zan uzoqni yoritish yordamchisi to'g'ri ishlamasligi mumkin. Bu funktsiya faqat sizning qulayligingiz uchundir. Xavfsiz haydash amaliyoti uchun haydovchi javobgar – xavfsizligingiz uchun doimo yo'l sharoitlarini tekshiring.
- Uzoqni yoritish yordamchisi normal ishlamasa, fara pozitsiyasini uzoq va yaqinni yoritish o'rtasida qo'lda o'zgartiring.

Fara tekislanishini sozlash

U old fara nuri yo'nalishini yo'lovchilar soniga va yukxonadagi yuk og'irligiga qarab avtomatik tarzda sozlaydi. Shuningdek, u old faralar yorug'ligini turli sharoitlarga moslab sozlaydi.

⚠️ DIQQAT


Agar avtomobiliingiz yo'lovchilar holatiga moslab orqaga og'dirilgan yoki fara nuri juda baland yoki juda pastga tushayotgan holatida ham u to'g'ri ishlamayotgan bo'lsa, tizimni professional ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

Simlarni mustaqil ravishda tekshirish yoki almashtirishga urinmang.

Aqlli old yoritish tizimi (IFS) (mavjud bo'lsa)

Aqlli old yoritish tizimi haydovchiga tunda haydash paytida uzoqni yoritish bilan aniq ko'rinishni ta'minlaydi.

Tizim sozlamalari



1 Chiroqlar

2 Aqlli uzoqni yoritish chiroqlari

3 60 km/soatdan tezroq (37 mil/soat)

4 40 km/soatdan tezroq (25 mil/soat)

5 20 km/soatdan tezroq (12 mil/soat)

6 O'chiq

Aqlli old yoritish tizimini yoqish uchun avtomobil POWER ON yoki DRIVE READY holatida bo'lganida **Sozlash → Avtomobil → Chiroqlar → Aqlli uzoqni yoritish chiroqlari** bandini tanlang va tizimni o'chirish uchun tanlovni bekor qiling.

⚠️ OGOHLANTIRISH

Xavfsizligingiz uchun avtomobilni xavfsiz joyga qo'yganingizdan so'ng sozlamalarni o'zgartiring.

Tizimni ishlatish

Displayi va boshqaruvi




Aqlli old yoritish tizimi quyidagi tartibda ishlaydi.

- Fara tugmasini AVTO holatiga qo'ying va fara dastagini asboblar paneli tomonga qaring. Klasterda aqlli old yoritish tizimining (IFS) indikator yonadi va tizim yoqiladi.
- Tizim yoqilganda, aqlli old yoritish tizimi axborot-ko'ngilochar tizimida belgilangan tezlik bo'yicha ishlaydi. Dastlabki tizim avtomobil tezligi 40 km/soat (25 milya) dan oshganda ishlashga o'rnatiladi.
- Oldni ko'rish kamerasi tomonidan qarshidan kelayotgan transport vositasi yoki oldindagi avtomobil aniqlansa, uzoqni yorituvchi LED chiroq qisman o'chadi.
- Agar aqlli old yoritish tizimi yuqori (taxminan 100 km/soatdan (60 mil/soat) yuqori) tezlikda harakatlanayotganda qarshidan yaqinlashib kelayotgan transport vositasini yoki oldindagi transport vositasini aniqlasa, haydovchi tomondagi old fara o'chadi va faqat

yo'lovchi tomondagi old fara tizim tomonidan boshqariladi.


Tizim nosozliklari va cheklovlari

Tizim nosozliklari



A: Aqlli old yoritish tizimini (IFS) tekshiring

Aqlli old yoritish tizimi to'g'ri ishlamasa, ogohlantirish xabari klasterda bir necha soniya davomida yonadi. Xabar yo'qolgandan so'ng, **AFS** ogohlantirish chiroqlari yonadi. Hech qanday o'zgarish bo'lmasa, avtomashinangizni vakolatli Kia dileri/xizmat hamkorida ko'rikdan o'tkazishingizni tavsiya qilamiz.



A: Aqlli old yoritish tizimi (IFS) o'chirilgan. Kamera xiralashgan

Old ko'rish kamerasi kir, qor yoki qoldiq bilan qoplangan bo'lsa, aqlli old yoritish tizimi vaqtincha to'g'ri ishlamasligi mumkin. Bu vaqtda klasterda ogohlantirish xabari paydo bo'ladi. Bunday kir, qor yoki qoldiqlar tozalanganida tizim normal ishlaydi. Aqlli old yoritish tizimi avtomobil yoqilgandan keyin biron bir narsa yoki transport vositasi aniqlanmaydigan hududda (masalan, ochiq joylarda) to'g'ri ishlamasligi mumkin.

Bundan tashqari, klasterda ogohlantirish xabari ko'rinmasa ham, tizim to'g'ri ishlamasligi mumkin.

Tizimning cheklovlari

Aqlli old yoritish tizimi quyidagi holatlarda to'g'ri ishlamasligi mumkin.

- Chiroq shikastlangani yoki ko'zdan yashirin bo'lgani va h.k.lar tufayli kelayotgan yoki old tomondan kelayotgan avtomobil yorug'ligi aniqlanmasa.
- Qarshidan kelayotgan yoki oldinda ketayotgan avtomobilning farasi chang, qor yoki suv bilan qoplangan bo'lsa.
- Transport vositasining chirog'ida shakli o'xshash bo'lgan chiroq mavjud bo'lsa.
- Qarshidan kelayotgan yoki oldinda ketayotgan avtomobilning faralari o'chiq, lekin tumanga qarshi chiroqlari yoniq bo'lsa.
- Faralar shikastlangan yoki to'g'ri ta'mirlanmagan bo'lsa.
- Faralar to'g'ri yo'naltirilmagan bo'lsa.
- Tor egri yo'lda, dag'al yo'lda, tepaga yoki pastga tushish yo'lida haydaganda.
- Oldindagi avtomobil chorrahada yoki egri yo'lda qisman ko'rinadigan holatda bo'lsa.
- Oldinda svetofor, nur qaytaruvchi belgi, miltillovchi belgi yoki ko'zgu bo'lsa.
- Oldinda vaqtinchalik reflektor yoki miltillovchi (qurilish maydoni) mavjud bo'lsa.
- Yo'l sharoiti yomon bo'lsa, masalan ho'l, muz yoki qor bilan qoplangan bo'lsa.
- Avtomobil to'satdan egri chiziqdan paydo bo'lsa.
- Avtomobil shinasi bo'shagani tufayli og'ib qolgan yoki tortib ketilayotgan bo'lsa.

- Ko'cha chiroqlari ko'p yoki atrofdagi yorug'lik yorqin bo'lsa.
- Chiqindi gaz, tutun, tuman, qor va boshqalar tufayli qarshidan kelayotgan yoki old tomonda ketayotgan transport vositasidan yorug'lik aniqlanmasa.
- Old oyna begona moddalar bilan qoplangan bo'lsa.

Oyna tozalagich va yuvgichlar

Oyna tozalagich va yuvgichlar old oyna va orqa oynadagi begona jismlarni tozalab tashlaydi va ko'rish imkoniyatini saqlashga yordam beradi.

A turi



B turi



1 Oyna tozalagich tezligini boshqarish

- TUMAN (1x): Bitta artish
- O'CHIQ (0): O'chiq
- AVTO: Tozalashni avtomatik boshqarish
- LO (1): Tozalagich tezligi past
- HI (2): Tozalagich tezligi yuqori

2 Avtomatik artib tozalash vaqtini sozlash

3 Qisqa artishlar bilan yuvish

Old oyna tozalagichlari

Dvigatelni ishga tushirish/to'xtatish tugmasi ON holatida quyidagi tarzda ishlang.

- TUMAN (1x): Bitta tozalash sikli uchun dastakni shu holatga suring va qo'yib yuboring. Agar dastak shu holatda ushlab turilgan bo'lsa, tozalagichlar uzluksiz ishlaydi.

- O'CHIQ (0): Oyna tozalagich ishlamaydi
- LO (1): Oddiy tozalash tezligi
- HI (2): Tez tozalash tezligi

* ESLATMA

Agar old oynada qor yoki muz to'planib qolgan bo'lsa, to'g'ri ishlashini ta'minlash uchun oyna tozalagichlarini ishlatishdan oldin oynani taxminan 10 daqiqa davomida yoki qor va/yoki muz tozalanmaguncha kuting. Agar oyna tozalagich va yuvgichni ishlatishdan oldin qor va/yoki muzni olib tashlamasangiz, bu oyna tozalagich va yuvgich funksiyasiga zarar yetkazishi mumkin.

* AXBOROT

Tozalagichlarni qorli yo'llarda harakatlanayotganda ishlatsangiz, old oynangizda qor to'planishi tufayli tozalagichlar to'xtab qolishi mumkin. Bu normal holat va nosozlik emas, chunki bu xavfsizlik funksiyalaridan biri bo'lib, avtohalokatlarning oldini olish va tozalagich motorining zo'riqishi natijasida tozalagichni shikastlanishdan saqlaydi. Tozalagichlar to'xtab qolsa, ularni ishlatishdan oldin old oynaning yuqori yoki pastki qismida to'plangan qorni olib tashlang.

Avtomatik boshqaruv

A turi



B turi



Old oynaning yuqori qismida joylashgan yomg'ir sensori (1) yog'ingarchilik miqdorini sezadi va kerakli vaqt oralig'ida tozalash siklini boshqaradi. Yomg'ir qancha ko'p yog'sa, tozalagich shuncha tez ishlaydi. Yomg'ir to'xtaganda, tozalagich ham to'xtaydi.

Tezlik sozlamasini o'zgartirish uchun tezlikni boshqarish tugmasini burang.

Dvigatelni ishga tushirish/to'xtatish tugmasi ON holatida tozalagich tugmasi AVTO rejimiga qo'yilsa, o'chirgich tizimni o'z-o'zini tekshirish uchun bir marta ishlaydi. Tozalagich ishlatilmayotganida uni OFF holatiga qo'ying.

⚠ DIQQAT

Dvigatelni ishga tushirish/to'xtatish tugmasi ON holatida va old oyna tozalagichi tugmasi AVTO rejimiga o'rnatilganida, qo'llar yoki tananing boshqa qismlari shikastlanmasligi uchun quyidagi holatlarda ehtiyot bo'ling:

- Yomg'ir sensori tomonga qaragan old oynaning yuqori qismiga tegmang.
- Old oynaning yuqori qismini nam yoki nam mato bilan artmang.
- Old oyna shishasiga bosim qo'llamang.

⚠ DIQQAT

- Avtomobilni yuvayotganda, oyna tozalagich avtomatik ishga tushishining oldini olish uchun oyna tozalagich tugmasini OFF holatiga qo'ying.

Agar dastak AUTO rejimiga qo'yilgan bo'lsa avtomobil yuvilayotgan vaqtda oyna tozalagich ishga tushishi va shikastlanishi mumkin.

- Yo'lovchi tomonidagi old oyna oynasining yuqori qismidagi sensor qoplamasini olib tashlamang. Tizim qismlari shikastlanishi mumkin va bu avtomobilingiz kafolati bilan qamrab olinmasligi mumkin.
- Avtomobilni qishda ishga tushirayotganda, tozalagich tugmasini OFF holatiga qo'ying. Aks holda, tozalagichlar ishlab ketishi va muz oyna tozalagich cho'tkalariga zarar yetkazishi mumkin. Shisha tozalagichlarni ishlatishdan oldin har doim barcha qor va muzlarni olib tashlang va old oynadagi muzni eriting.
- Old oynani tonirovka qilishda old oynaning yuqori qismi markazida joylashgan sensorga har qanday suyuqlik tushishidan ehtiyot bo'ling. Bu tegishli qismlarga zarar yetkazishi mumkin.

Old oyna yuvgichlarini ishlatish

A turi



B turi



1. Oyna tozalagich tezligini boshqarish tugmachasini In OFF holatiga o'tkazing.
2. Old oynaga oyna yuvish vositasini purkash va oyna tozalagichlarni 1-3 siklda ishlatish uchun richagni ohista o'zingizga torting. Old oyna iflos bo'lsa, bu funksiyadan foydalaning. Sepish va artish amali richagni qo'yib yubormaguningizcha davom etadi.

Agar yuvgich ishlamasa, oyna yuvish vositasi sathini tekshiring. Suyuqlik sathi yetarli bo'lmasa, yuvgich idishiga abraziv bo'lmagan old oyna yuvish vositasini qo'shishingiz kerak bo'ladi.

Bak og'zi yo'lovchi tomonidagi motor bo'linmasining old qismida joylashgan.

⚠ DIQQAT

Yuvish nasosining shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun suyuqlik baki bo'sh bo'lganda yuvgichni ishlatmang.

⚠ OGOHLANTIRISH

Old oynani muzdan eritish qurilmasi bilan isitmasdan turib yuvgichni muzlama haroratda ishlatmang; yuvish suyuqligi old oynada muzlab qolishi va ko'rishni yomonlashtirishi mumkin.

⚠ DIQQAT

- Oyna tozalagich yoki old oynaning shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun old oyna quruq bo'lsa, tozalagichlarni ishlatmang.
- Oyna tozalagich cho'tkalari shikastlanmasligi uchun ular ustida yoki yonida benzin, kerosin, bo'yoq suyultirgich yoki boshqa erituvchilardan foydalanmang.
- Oyna tozalagich cho'tkalari va boshqa qismlarga shikast yetkazmaslik uchun

- oyna tozalagichlarni qo'lda harakatlantirmang.
- Oyna tozalagich va yuvish funksiyasiga zarar yetkazilishining oldini olish uchun qish mavsumida yoki sovuq havoda muzlashdan saqlaydigan oyna yuvish vositalaridan foydalaning.

- Yuvgich idishidagi yuvish suyuqligi muzlab qolgan bo'lsa.
- Tashqi harorat sensori ishlamayotgan bo'lsa.

Isitiladigan yuvgich forsunkalari (mavjud bo'lsa)

Yuvgich forsunkalarini qizidirsh funksiyasi sovuq havoda yuvgich forsunkalaridagi muzni eritadi.

DVIGATEL START/STOP tugmasi ON holatida bo'lsa yoki dvigatel ishlab turgan bo'lsa, yuvgich forsunkalarini qizidirsh funksiyasi quyidagi holatlarda avtomatik yoqiladi va o'chadi:

- Tashqi harorat 5 °C dan past bo'lganda yoqiladi, 10 °C dan yuqori bo'lsa o'chadi.
- O't oldirish kaliti ON holatida bo'lganda, oyna yuvish suyuqligining muzni eritish tezligi dvigatel ishlayotgan vaqtga qaraganda sekinroq bo'lishi mumkin.
- O't oldirish tizimi ON holatida bo'lganida, taxminan 20 daqiqa ishlaganidan so'ng, tizim batareya quvvatsizlanishining oldini olish uchun avtomatik ravishda o'chadi.
- Dvigatel ishlagandan so'ng, yuvish suyuqligi taxminan 5-10 daqiqadan so'ng muzni eritadi.
- Dvigatel ish haroratida ishga tushirilgan bo'lsa, isitiladigan isitiladigan yuvgich forsunkalari taxminan 20 daqiqadan keyin ham ON holatida qoladi.

* ESLATMA

Bu sharoitda isitiladigan yuvgich forsunkalari to'g'ri ishlamasligi mumkin:

Xush kelibsiz tizimi (mavjud bo'lsa)

Xush kelibsiz tizimi haydovchi avtomobilga yaqinlashganda yoki undan chiqqanda atrofni yoki salonni yorituvchi funksiyadir.

Eshik tutqichi chirog'i (mavjud bo'lsa)

Barcha eshiklar (va yukxona) yopiq va qulflanganda, agar quyidagilardan biri bajarilsa, eshik tutqichi chirog'i taxminan 15 soniya davomida yonadi.

- Smart kalitda eshik qulfini ochish tugmasi bosilganda.
- Tashqi eshik tutqichining tugmasi bosilganda.
- Avtomashinaga aqlli kalit bilan yaqinlashganda.

Tashqi chiroqlar (mavjud bo'lsa)

Yoritish tugmasi yoqilganda (AVTO holati faqat tunda ishlaydi) va barcha eshiklar yopilgan va qulflanganda tashqi chiroqlar taxminan 15 soniya davomida yonadi.

Smart kalitning eshikni ochish tugmasi bosiladi (agar eshik qulfini ochish funksiyasi faollashsa).

- Axborot-ko'ngilochar tizim ekranida
Sozlash → Avtomobil → Chiroqlar → Salomlashuv oynasi/chirog'i bandini tanlang.

Old fara (lampa) eskort funksiyasi

Avtomobil o'chirilgandan keyin old faralar (va/yoki orqa chiroqlar) taxminan 5 daqiqa yoniq qoladi. Biroq, agar haydovchi eshigi ochilib yopilsa, old faralar 15 soniyadan keyin o'chadi.

Old faralarni smart kalitdagi qulflash tugmasini ikki marta bosish yoki chiroq

tugmachasini old fara yoki Avtomatik yoritish holatidan o'chirish holatiga o'tkazish orqali o'chirish mumkin.

Salon chirog'i

Salon chirog'i tugmasi DOOR holatida va barcha eshiklar (va yukxona eshigi) qulflangan va yopiq bo'lsa, quyidagi holatlar ro'y berganda, salon chirog'i 30 soniya davomida yonadi:

- Smart kalit tizimi bilan
 - Smart kalitda eshik qulfini ochish tugmasi bosilganda.
 - Tashqi eshik tutqichining tugmasi bosilganda.

Bu vaqtda, agar siz eshikni qulflash tugmasini bossangiz, lampalar darhol o'chadi.

Dinamik salomlashuv chirog'i



OGL3074014

Bu xususiyat haydovchi avtomobilni qulfdan chiqarganida ma'lum vaqt davomida avtomobil chiroqlarini dinamik tarzda namoyish etib, uning estetik jozibasini oshiradi.

Barcha eshiklar (va yukxona) yopilganda va qulflanganda, dinamik salomlashuv chirog'i taxminan 2 soniya davomida yonadi.

- Aqlli kalitning eshik qulfini ochish tugmasi bosilgan bo'lsa (agar old faralarning o'chish taymeri faollashtirilgan bo'lsa).
- Axborot-ko'ngilochar tizim ekranida **Sozlash → Avtomobil → Chiroqlar → old faralarning o'chish** taymerini tanlang.

Salon chiroqlari

Ushbu avtomobil salon qismni yoritish uchun avtomobil bo'ylab chiroqlar bilan jihozlangan.

⚠️ DIQQAT

Dvigatel ishlamayotgan vaqtda salon chiroqlardan uzoq vaqt foydalanmang. Batareya zaryadsizlanishiga olib kelishi mumkin.

⚠️ OGOHLANTIRISH

Qorong'ida haydashda salon chiroqlaridan foydalanmang. Ko'rish imkoniyatini salon chiroqlari to'sib qo'yilganligi sababli baxtsiz hodisalar yuz berishi mumkin.

Avtomatik o'chirish funksiyasi

Agar chiroqlar ON holatida bo'lsa, ENGINE START/STOP tugmasi o'chirilgandan so'ng taxminan 20 daqiqadan so'ng salon chiroqlar avtomatik ravishda o'chadi.

Avtomobilingiz o'g'irlikdan himoya signalizatsiya tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, tizim ishga tushgandan so'ng taxminan 5 soniyadan so'ng salon chiroqlari avtomatik ravishda o'chadi.

Xarita chirog'i



OGL3041423L

- Xarita chirog'ini yoqish uchun linzani (1) bosong.
Xarita chirog'ini o'chirish uchun linzani (1) yana bosong.
-  (2): ESHIK rejimi
 - Eshik ochilganda xarita chirog'i va salon chirog'i yonadi. Chiroqlar taxminan 30 soniyadan keyin o'chadi.
 - Eshiklar smart kalit bilan qulfdan ochilganda, eshiklar ochilmaguncha xarita chirog'i va salon chiroqi taxminan 30 soniya davomida yonadi.
 - Eshik ENGINE START/STOP tugmasi ACC yoki OFF holatida ochilsa, xarita chirog'i va salon chirog'i taxminan 10 daqiqa yonib turadi.
 - Eshik ENGINE START/STOP tugmasi ON holatida ochilsa, xarita chirog'i va xona chirog'i doimiy ravishda yonib turadi.
 - ENGINE START/STOP tugmasi ON holatiga o'zgartirilsa yoki barcha eshiklar qulflangan bo'lsa, xarita chirog'i va salon chirog'i darhol o'chadi.
 - ESHIK rejimini o'chirish uchun DOOR tugmasini (2) yana bir marta bosong (bosilmaydi).
-  (3): Old va orqa salon chirog'ini yoqish va o'chirish uchun ushbu tugmani bosong.

* ESLATMA

ESHIK rejimi va SALON rejimini bir vaqtning o'zida tanlab bo'lmaydi.

Salon chirog'i (mavjud bo'lsa)




Salon chirog'ini yoqish va o'chirish uchun tugmani bosong.

Shaxsiy chiroq (mavjud bo'lsa)



Salon chirog'ini yoqish va o'chirish uchun tugmani bosong.

Yukxona chirog'i



Yukxona eshigi ochilganda yukxona chirog'i yonadi.

⚠ DIQQAT

Yukxona eshigi ochiq tursa yukxona chirog'i yonib turadi. Quvvatning keraksiz sarfiga yo'l qo'ymaslik uchun yukxonadan foydalangandan so'ng yukxonani mahkam yoping.

Yo'lovchi ko'zgusi chirog'i



Yo'lovchi ko'zgusi qopqog'ini ochish avtomatik ravishda ko'zgu chirog'ini yoqadi.

* ESLATMA

Quvvatning keraksiz sarfiga yo'l qo'ymaslik uchun uchun ko'zgudan foydalangandan so'ng, ko'zgu qopqog'ini yoping.

Bo'lmacha chirog'i



Bo'lmacha eshikchasi ochilganida bo'lmacha chirog'i yonadi.

* ESLATMA

Quvvatning keraksiz sarfiga yo'l qo'ymaslik uchun bo'lmachadan foydalangandan so'ng bo'lmacha eshigini mahkam yoping.

Oyoq tarafdagi chiroq



Eshik ochilganda oyoq tarafdagi chiroq yonadi.

Eshik ochilganda yonuvchi chiroq



OGL3041096

Avtotransportga kirish yoki chiqishda yordam berish uchun eshik ochilganda eshik chirog'i yonadi. Shuningdek, u o'tib ketayotgan transport vositalariga avtomobil eshigi ochiq ekanligi haqida ogohlantirish sifatida xizmat qiladi.

Iqlim nazorati tizimi

Iqlim nazorati tizimi avtomobil ichida yoqimli iqlim muhitni saqlashga yordam berish uchun sovitish va isitish funksiyalaridan foydalanadi.

Tizimni ishlatish

Ventilyatsiya

1. Rejimni () holatga o'rnatish.
2. Havo olishni boshqarish tashqi (toza) havo holatiga o'rnatish.
3. Harorat boshqaruvini kerakli holatga o'rnatish.
4. Ventilyator tezligini kerakli tezlikka o'rnatish.

Isitish

1. Rejimni () holatga o'rnatish.
2. Havo olishni boshqarish tashqi (toza) havo holatiga o'rnatish.
3. Harorat boshqaruvini kerakli holatga o'rnatish.
4. Ventilyator tezligini kerakli tezlikka o'rnatish.
5. Agar namsizlantiruvchi isitish kerak bo'lsa, konditsioner tizimini yoqing.
 - Agar old oyna terlasa, rejimni () yoki () holatiga sozlang.

Ishlatishga oid maslahatlar

- Ventilyatsiya tizimi orqali chang yoki yoqimsiz tutunlarning avtomobilga kirishiga yo'l qo'ymaslik uchun havo olishni boshqarishni vaqtincha havoni qayta sirkulyatsiyalash holatiga o'rnatish. Avtomobilda toza havo ta'minlash uchun yoqimsiz tashqi havo o'tib ketgandan keyin boshqaruvni toza havo holatiga qaytarishni unutmang.

Bu haydovchini hushyor va qulay saqlashga yordam beradi.

- Isitish/sovitish tizimi uchun havo faqat old oynaning pastki qismida joylashgan panjaralar orqali ichkariga olinadi. Ularni barglar, qor, muz yoki boshqa narsalar to'sib qo'ymasligiga e'tibor berish kerak.
- Old oynaning ichki qismida terlash paydo bo'lishining oldini olish uchun:
 - Havo olish boshqarishni toza havo holatiga va ventilyator tezligini kerakli holatga o'rnatish.
 - Konditsioner tizimini yoqing va harorat sozlagichini kerakli haroratga sozlang.

Konditsioner (A/C)

Barcha Kia konditsioner tizimlari R-134a sovitish moddasi bilan to'ldirilgan.

1. Avtomobilni ishga tushiring. A/C tugmasini bosing.
2. Rejimni () holatga o'rnatish.
3. Havo olishni boshqarishni tashqi havo yoki havoni qayta sirkulyatsiyalash holatiga o'rnatish.
4. Maksimal qulaylikni ta'minlash uchun ventilyatsiya tezligini va harorat boshqaruvini sozlang.

⚠ DIQQAT

Konditsionerdan haddan tashqari ko'p foydalanish

Konditsioner tizimidan foydalanayotganda, tepaliklarda harakatlanayotganda yoki tashqari havo harorati baland bo'lsa, katta tirbandlikda harorat datchigini diqqat bilan kuzatib boring. Konditsioner tizimining ishlashi avtomobilning haddan tashqari qizib ketishiga olib kelishi mumkin. Harorat datchigi avtomobilning haddan tashqari

qizib ketganini ko'rsatsa, ventilyatordan foydalanishda davom eting, lekin konditsioner tizimini o'chiring.

⚠ DIQQAT

Konditsioner tizimidan faqat derazalar va lyuk yopiq holda foydalanish kerak, aks holda avtomobil ichida elektr qismlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan kondensatsiya paydo bo'lishini oldini oladi.

Konditsioner tizimini ishlatish bo'yicha maslahatlar

- Issiq ob-havoda avtomobil to'g'ridan-to'g'ri oftob ostida parkovka qilinsa, avtomobil ichidagi issiq havo chiqishi uchun derazalarni qisqa vaqtga oching.
- Yomg'irli yoki nam kunlarda oyna ichidagi namlikni kamaytirishga yordam berish uchun konditsioner tizimini ishga tushirish orqali avtomobil ichidagi namlikni kamaytiring.
- Konditsioner tizimining ishlashi paytida siz vaqti-vaqti bilan konditsioner kompressorining aylanishi bilan avtomobil tezligining ozgina o'zgarishini sezishingiz mumkin. Bu tizim ishlashining odatiy xususiyatidir.
- Tizimning maksimal ishlashini ta'minlash uchun konditsioner tizimi har oy bir necha daqiqa ishlatish kerak.
- Konditsioner tizimidan foydalanganda siz avtomobilning yo'lovchi tomonidagi polga suv tomayotganini (hatto ko'lmakni) sezishingiz mumkin. Bu tizim ishlashining odatiy xususiyatidir.
- Konditsioner tizimini havoni qayta sirkulyatsiyalash holatida ishlatish maksimal sovitishni ta'minlaydi; ammo, bu rejimda uzluksiz ishlatish avtomobil

salonidagi havoning eskirishiga olib kelishi mumkin.

- Sovitish paytida tezkor sovitish va tashqaridan nam havo olish tufayli siz vaqti-vaqti bilan nam havo oqimini sezishingiz mumkin. Bu tizim ishlashining odatiy xususiyatidir.

Iqlim nazorati havo filtri

Iqlim nazorati havo filtri avtomobilga tashqaridan kiradigan chang va boshqa ifloslantiruvchi moddalarni olib tashlaydi. Agar vaqt o'tishi bilan filtrda chang yoki boshqa ifloslantiruvchi moddalar to'planib qolsa, havo teshiklaridan chiquvchi havo oqimi kamayishi mumkin. Bu toza havo holati tanlangan bo'lsa ham, old oynaning ichki qismida namlik to'planishiga olib keladi.

Bu vaqtda iqlim nazorati filtrini almashtiring. Agar buni o'zingiz qila olmasangiz, iqlim nazorati filtrini professional ustaxonaga almashtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi. Iqlim nazorati havo filtrini qanday almashtirish haqida batafsil ma'lumot uchun qarang "Iqlim nazorati havo filtri", 8-25-sahifa.

⚠️ DIQQAT

Iqlim nazorati havo filtrini texnik xizmat jadvaliga muvofiq almashtiring. Iqlim nazorati havo filtrini muntazam ravishda almashtirmaslik havo oqimining pasayishiga, isitish va sovutish samaradorligining pasayishiga va yoqimsiz hidlarga olib kelishi mumkin.

* ESLATMA

Ventilyatsiya teshigidan keluvchi havo oqimi tezligi to'satdan pasayganida, tizimni professional ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat

hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

Konditsioner uchun sovitish moddasi yorlig'i

Masalan



* Avtomobildagi konditsioner sovitish moddasining yorlig'i amalda rasmdagidan farq qilishi mumkin.

Konditsioner sovitish moddasi yorlig'idagi har bir belgi va spetsifikatsiya quyida ko'rsatilgan:

- 1 Diqqat
- 2 Sovitish moddasi tasnifi
- 3 Kompresor moylagichi tasnifi
- 4 Xizmat ko'rsatish qo'llanmasi
- 5 Sovitish moddasi miqdori

Avtomobilingizga qaysi konditsioner sovitish moddasi ishlatilishini dvigatel bo'linmasi ichidagi yorliqdan bilib olishingiz mumkin.

Qarang: "Sovituvchi modda yorlig'i", 9-13-sahifakonditsioner sovutish moddasi yorlig'ining joylashuvi haqida batafsil ma'lumot uchun.

Konditsioner sovitish moddasi va kompressor moylagichi miqdori tekshirish

Sovitish moddasi miqdori kam bo'lsa, konditsioner ishlar samaradorligi kamayadi. Haddan tashqari ko'p to'ldirish ham konditsioner tizimiga salbiy ta'sir qiladi.

Shuning uchun, agar nosoz ishlashi aniqlansa, tizimni professional ustaxonada tekshirib ko'ring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

OGOHLANTIRISH

R-134a sovitish moddasi solingan avtomobillar



Sovitish moddasi juda yuqori bosim ostida bo'lishi sababli, konditsioner tizimiga faqat o'qitilgan va sertifikatlangan texniklar xizmat ko'rsatishi kerak. Moy va sovitish moddasining turi va miqdori to'g'ri bo'lishi muhimdir.

Aks holda, bu avtomobilga zarar yetkazishi va tan jarohatlarga olib kelishi mumkin.

DIQQAT

Konditsionerni ta'mirlash


Moy va sovitish moddasining to'g'ri turi va miqdori ishlatilishi muhim, aks holda avtomobil shikastlanishi mumkin.

Shikastlanishning oldini olish uchun avtomobilingizdagi konditsioner tizimiga faqat Kia ning o'qitilgan va sertifikatlangan texnik xodimlari xizmat ko'rsatishi kerak.


Avtomatik iqlim nazorati tizimi

Avtomatik iqlim nazorati tizimi avtomobil ichida yoqimli muhitni saqlashga yordam berish uchun sovitish va isitishdan foydalanadi.

Old o'rindiqlar



Orqa o'rindiqlar



- | | |
|--|---|
| <p>1 Haydovchi uchun haroratni boshqarish murvati
ON/OFF tugmasi</p> <p>2 Old oynani muzdan eritish tugmasi</p> <p>3 Orqa oynani muzdan eritish tugmasi</p> <p>4 Axborot-ko'ngilochar/iqlim nazorati rejimi tugmasi</p> <p>5 Konditsioner (A/C) tugmasi</p> <p>6 Rejim tanlash tugmasi</p> <p>7 Old oyna isitkich tugmasi</p> <p>8 SYNC tugmasi</p> <p>9 Yo'lovchi uchun haroratni boshqarish murvati</p> <p>10 AUTO (avtomatik boshqaruv) tugmasi</p> | <p>11 Havo olishni boshqarish tugmasi</p> <p>12 Ventilyator tezligini boshqarish tugmasi</p> <p>13 Orqa tarafdagi haroratni boshqarish tugmasi</p> |
|--|---|

* ESLATMA

ENGINE START/STOP tugmasi ON holatida bo'lganida ventilyatorni ishlatish batareyaning quvvatsizlanishiga olib kelishi mumkin. Dvigatel ishlayotgan paytda ventilyatorni ishlatish.

Axborot-ko'ngilochar/iqlim nazorati o'zgaruvchi kontrolleridan foydalanish



Axborot-ko'ngilochar tizim yoki iqlim nazorati paneli o'rtasida almashish uchun o'zgaruvchi kontrollerdagi tugmani bosib.

Orqani ko'rish monitori (RVM).....	6-83
• Orqani ko'rish monitori sozlamalari	6-83
• Orqani ko'rish monitorining ishlashi	6-84
• Orqani ko'rish monitori nosozligi va cheklovlari	6-86
Aylanma ko'rinish monitori (SVM)	6-87
• Aylanma ko'rinish monitori sozlamalari	6-87
• Aylanma ko'rinish monitori ishlashi	6-89
• Aylanma ko'rinish monitori nosozligi va cheklovlari.....	6-92
Ko'ndalang yo'nalishda orqaga yurib yo'lga chiqishda to'qnashuvni oldini olish yordami (RCCA).....	6-93
• Orqadan kesishma to'qnashuvning oldini olish yordami sozlamalari	6-94

- Ko'ndalang yo'nalishda orqaga yurib yo'lga chiqishda to'qnashuvni oldini olish yordami ishlashi.....6-95
- Ko'ndalang yo'nalishda orqaga yurib yo'lga chiqishda to'qnashuvni oldini olish yordami funksiyasining nosozliklari va cheklovlari6-98

Oldinga/teskari parkovka masofasi ogohlantirishi (PDW) 6-102

- Oldinga/orqaga yurib parkovka qilishda masofa ogohlantirishi funksiyasi sozlamalari..... 6-102
- Oldinga/teskari parkovka masofasi ogohlantirishi funksiyasi ishlashi..... 6-103
- Oldinga/orqaga parkovka masofasi ogohlantirishi nosozligi va ehtiyot choralari 6-105

Old/yon/orqa bilan parkovkada masofa haqida ogohlantirish (PDW)..... 6-107

- Old/yon/orqa bilan parkovkada masofa haqida ogohlantirishi sozlamalari..... 6-108
- Old/yon/orqa bilan parkovkada masofa haqida ogohlantirishning ishlashi 6-109
- Oldinga/yon/orqaga parkovka masofasi ogohlantirishi nosozligi va ehtiyot choralari 6-111

Orqaga yurib parkovka qilishda to'qnashuvni oldini olish yordami (PCA)..... 6-114

- Ortga yurib parkovka qilishda to'qnashuvni oldini olish yordamchisi sozlamalari..... 6-114
- Ortga yurib parkovka qilishda to'qnashuvni oldini olish yordamchisi ishlashi..... 6-115
- Ortga yurib parkovka qilishda to'qnashuvning oldini olish bo'yicha yordamchi nosozliklari va cheklovlari 6-116

Masofaviy smart parkovka yordami (RSPA) 6-121

- Masofadan smart parkovka yordami sozlamalari 6-122
- Masofadan smart parkovka yordami ishlashi 6-123
- Masofaviy Smart Parking Yordamchi ishlamay qolishi va cheklovlari 6-128

Muvofiqlik deklaratsiyasi..... 6-132

Haydovchiga yordam tizimi

* AXBOROT

Ekranda ko'rsatiladigan haydovchiga yordam tizimining tavsifi axborot-ko'ngilochar dasturiy ta'minot versiyasiga qarab foydalanuvchi qo'llanmasi mazmunidan farq qilishi mumkin. Axborot-ko'ngilochar tizimi (asl Kia qismlari) alohida o'rnatilgan bo'lsa, axborot-ko'ngilochar tizimida taqdim etilgan qo'llanmaga qarang va sozlash bo'yicha ko'rsatmalarga rioya qiling.

Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami (FCA) (Datchiklar majmuasi) (mavjud bo'lsa)

Asosiyl funktsiya



Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami yo'lda oldinda turgan avtomobil, ikki g'ildirakli transport vositasi, piyoda yoki velosipedchini aniqlaydi va asboblardagi ogohlantirish xabari va ogohlantirish ovozi bilan sizni yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'qnashuv haqida ogohlantirishi mumkin. Bundan tashqari, Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami to'qnashuv tezligini kamaytirish yoki to'qnashuvning oldini olish uchun avtomobilingizni tormozlashga yordam berishi mumkin.

Olddan to'qnashuvning oldini olish yordamchisi oldindagi va yondosh qatorlarni yuqori tezliklarda aniqlaydi. Agar haydovchi bunday tezliklarda qatorni

o'zgartirsa, transportingiz to'qnashuvning oldini olish yoki saqlanish uchun favqulodda tormozlashni amalga oshiradi. (jihozlangan bo'lsa)

Kesishmada burilish funktsiyasi



Kesishmada burilish funktsiyasi burilish ishora chirog'ini yoqqan holda chorrahada chap yoki o'ngga burilish chog'ida favqulodda tormozni qo'llash orqali qo'shni qatordan qarama-qarshi kelayotgan avtomobil, ikki g'ildirakli elektrotransport va velosipedchi bilan to'qnashuvning oldini olishga yordam beradi.

Kesishmani kesib o'tish funktsiyasi (mavjud bo'lsa)



Kesishmani kesib o'tish funktsiyasi favqulodda tormozlash orqali chorrahani kesib o'tishda chap yoki o'ng tomonda kelayotgan avtomobillar bilan to'qnashuvning oldini olishga yordam beradi.

Qarama-qarshi kelayotgan avtomobil funksiyasi



- 1 Qarama-qarshi tomondan yaqinlashib kelayotgan avtomobil

Qarama-qarshi kelayotgan avtomobil funksiyasi avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasi qarama-qarshi tomondan yaqinlashib kelayotgani aniqlanganida, to'qnashuvda tezlikni kamaytirishga yordam beradi.


Qatorni o'zgartirishga tayyorlanish funksiyasi (mavjud bo'lsa)



- 1 Qarama-qarshi tomondan yaqinlashib kelayotgan avtomobil

Qarama-qarshi tomondan yaqinlashayotganda qatorni o'zgartirish funksiyasi haydovchiga rulni boshqarishga yordam berish orqali qatorni o'zgartirganda, qarshi tomondan kelayotgan avtomobillar yoki ikki g'ildirakli transport vositalarini bilan to'qnashuvning oldini olishga yordam beradi.


Qatorni o'zgartirish yon funksiyasi (mavjud bo'lsa)



- 1 Mashina yon tomondan yaqinlashmoqda

Qatorni o'zgartirish yon funksiyasi haydovchiga rulni boshqarishga yordam berish orqali qatorni o'zgartirganda keyingi qatordagi avtomobillar yoki ikki g'ildirakli transport vositalari bilan to'qnashuvning oldini olishga yordam beradi.


Qochirish rul manyovri yordamchisi funksiyasi (mavjud bo'lsa)



- Haydovchiga rul boshqaruvi yordami

Oldindagi transport vositasi, piyodalar, velosipedchilar va ikki g'ildirakli elektrotransport bilan to'qnashuv aniqlansa va haydovchi to'qnashuvning oldini olish uchun rulni boshqarsa, Qochirish rul manyovri yordamchisi haydovchiga rulni boshqarishda yordam beradi.

- Qochirish rul manyovri yordamchisi Qochirish rul manyovri yordamchisi funksiyasi bir qatorda oldinda ketayotgan avtomobil, piyoda velosipedchi yoki ikki g'ildirakli transport vositasi bilan to'qnashuvning oldini olishga yordam beradi. To'qnashuv xavfi aniqlanganida, Qochirish rul manyovri yordamchisi funksiyasi haydovchini ogohlantiradi va haydovchi rulni harakatlantirsa, rulni boshqarishga yordam beradi. Qochirish rul manyovri yordamchisi funksiyasi avtomobilingiz va oldinda aniqlangan piyoda yoki velosipedchi o'rtasida to'qnashuv xavfi va yetarlicha harakat hududi mavjud bo'lganida ishga tushadi.



[A]: Qochirish rul manyovri yordamchisi funksiyasining ishlaydigan hudud

Aniqlovchi datchik

Old kamera



Old radar



Old burchak radari (agar mavjud bo'lsa)



Orqa Old burchak radari (agar mavjud bo'lsa)



Aniqlovchi datchiklarning batafsil joylashuv joyi haqida ma'lumot uchun yuqoridagi rasimga qarang.

⚠️ DIQQAT

- Hech qachon aniqlovchi datchik yoki datchiklar majmuasini qismlarga ajratmang yoki unga shikast yetkazmang.

- Aniqlash datchiklari almashtirilgan yoki ta'mirlangan bo'lsa, avtomobilni professional ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat ko'rsatish hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.
 - Agar radar yoki radar atrofiga zarba berilsa, klasterda ogohlantirish xabari ko'rsatilmasa ham, Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami to'g'ri ishlamasligi mumkin. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat ko'rsatish hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.
 - Old oynaga hech qanday aksessuar yoki stikerlar o'rnatmang yoki old oynani qoraytirmang.
 - Oldni ko'rish kamerasini quruq holda saqlashga alohida e'tiborli bo'ling.
 - Asboblar paneli ustiga hech qanday akslantiruvchi narsalar (masalan, oq qog'oz, oyna) qo'ymang.
 - Old oyna yoniga hech qanday buyumlar qo'ymang yoki old oynaga aksessuarlar o'rnatmang. Bu iqlim nazorati tizimining terni tozalash va muzdan tushirish funksiyasining ishlashiga ta'sir qilishi, bu esa Haydovchiga yordam tizimlarining ishlashiga to'siqlik qilishi mumkin.
 - Old radar qopqog'i yaqinida davlat raqami tablichkasi yoki bampers stikeri, plyonka yoki bampers himoyalagichi kabi narsalarni qo'ymang.
 - Har doim old radar va uning qopqog'ini toza tuting hamda uni kir va qoldiqlardan tozalang.
- Avtomobilni yuvish uchun faqat yumshoq matodan foydalaning. Datchik yoki datchik qopqog'iga bosim ostida to'g'ridan-to'g'ri suv sepmang.
- Asl Kia old/old burchak/orqa burchak radar datchigii qopqoqlari yaxshi sifati va ishlash ko'rsatkichlari ta'minlangan

detallardir. Agar qopqog' o'zboshimchalik bilan bo'ysa yoki almashtirilsa, to'qnashuvning oldini olish yordami to'g'ri ishlamasligi mumkin.

Radar datchigii qopqog'ini ta'mirlash yoki almashtirish uchun faqat Kia asl qismlari yoki shunga teng sifati va ishlashi tasdiqlangan qismlardan foydalaning.

- Bampers almashtirilganda, old burchak yoki orqa burchak radarining atrofi shikastlanganda yoki bo'yoq qo'llanilganda funksiya to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Agar tirkama, tashuvchi va boshqalar o'rnatilgan bo'lsa, u Olddan to'qnashuvning oldini olish yordamining ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- Aniqlash datchigii yoki uning atrofiga o'zboshimchalik bilan buyumlarni (aksessuarlar, qoliplar, stikerlar, plyonkalar, qadoqlash materiallari va boshqalar) taqamang yoki bamperni bo'yamang.

Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami sozlamalari

Old tomon xavfsizligi



1 Haydovchiga yordam

2 Haydash xavfsizligi

3 Old tomon xavfsizligi

Avtomobil yoqilgan holda axborot-ko'ngilochar tizimida **Sozlamalar** →

Avtomobil → Haydovchiga yordam → Haydash xavfsizligi bandini tanlang.

Olddan to'qnashuvning oldini olish yordamining dastlabki ogohlantirish faollashuv vaqtini o'zgartirish mumkin.

- **Old tomon xavfsizligi:** To'qnashuv haqida ogohlantirish yoki favqulodda tormozlash to'qnashuv muqarrar bo'lgan vaziyatda ishga tushadi. Bu sozlamani bekor qilsangiz, Old tomon xavfsizligi funksiyasi o'chadi va klasterda Old tomon xavfsizligi ogohlantirish chirog'i (🚦) paydo bo'ladi.

⚠ OGOHLANTIRISH

Avtomobil qayta ishga tushirilganida, to'qnashuvning oldini olish yordami funksiyasi har doim yonadi. Biroq, agar funksiya tanlanmagan bo'lsa, haydovchi har doim yon-atrofdan xabardor bo'lishi va avtomobilni xavfsiz haydashi kerak.

⚠ DIQQAT

Old tomon xavfsizligi sozlamalariga "Asosiy funksiya", "Ulama buriishi funksiyasi" va "Qarama-qarshi harakat funksiyasi" kiradi.

Old tomon xavfsizligi ogohlantirish vaqti



1 Haydovchiga yordam

2 Haydash xavfsizligi

3 Old tomon xavfsizligi ogohlantirish vaqti

Olddan to'qnashuvning oldini olish yordamining dastlabki ogohlantirish faollashuv vaqtini o'zgartirish uchun, avtomobil yoniqligida axborot-

ko'ngilochar tizimida **Sozlamalar →**

Avtomobil → Haydovchiga yordam →

Haydash xavfsizligi → Old tomon

xavfsizligi ogohlantirish vaqti bandini tanlang.

- Normal haydash sharoitida **Standart** holatidan foydalaning. Ogohlantirish vaqti juda sezgir bo'lib tuyulsa, uni **Kech** rejimiga o'zgartiring.
- Agar **Kech** rejimi tanlangan bo'lsa, Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami haydovchini sekinroq ogohlantiradi.

⚠ DIQQAT

- Ogohlantirish vaqti **Standart** deb tanlangan bo'lsa ham, oldindagi avtomobil to'satdan to'xtab qolsa, ogohlantirish kech tuyulishi mumkin.
- Yo'l tirbandligida va haydash tezligi sekin bo'lganda Old tomon xavfsizligi ogohlantirish vaqtini **Kech** qilib sozlang.

* AXBOROT

Agar avtomobil qayta ishga tushirilsa, **Old tomon xavfsizligi ogohlantirish vaqti** oxirgi sozlamani saqlab qoladi.

Ogohlantirish usuli



1 Haydovchiga yordam

2 Ogohlantirish usuli

Ogohlantirish usuli avtomobil yoniq holatda o'rnatilishi mumkin. Quyidagi sozlamalarni o'zgartirish uchun axborot-ko'ngilochar tizimidagi sozlamalar menyusidan **Sozlash → Avtomobil → Haydovchiga yordam → Ogohlantirish usuli** bandini tanlang:

- **Ogohlantirish tovushi balandligi:** Ogohlantirish tovushining balandligini sozlaydi. Agar siz **Ogohlantirish tovushi balandligini** o'chirib qo'ysangiz xavfsizligingizni ta'minlash maqsadida funksiya sizni past tovushda ogohlantirishi mumkin.
- **Vibratsiyali ogohlantirish:** Rul chamberagi tebranib ogohlantirishini faollashtiring. (jihozlangan bo'lsa)
- **Haydash xavfsizligi ustuvorligi:** Haydash xavfsizligi tizimining ogohlantirishi eshitilganida, boshqa barcha tovushlarning balandligini pasaytiradi.

* AXBOROT

- Ogohlantirish usulini o'zgartirsangiz, u haydovchiga yordam tizimining har bir funksiyasiga qo'llanilishi mumkin. Uni har bir funksiyada tekshiring va o'zgartiring.
- Agar avtomobil qayta ishga tushirilsa, ogohlantirish usuli oxirgi sozlamani saqlab qoladi.
- Sozlamalar menyusida avtomobil xususiyatiga ko'ra mavjud bo'lmasligi mumkin.
- **Ogohlantirish tovushi balandligi** va **Vibratsiyali ogohlantirish** bir vaqtning o'zida o'chirib bo'lmaydi. Ogohlantirishlarning biri o'chirilganda ikkinchisi faollashadi.

Olddan to'qnashuvning oldini olish yordamining ishlashi

Asosiy funksiya

Olddan to'qnashuvning oldini olish yordamining asosiy funksiyasi quyidagi tarzda ogohlantiriladi va boshqariladi.

- To'qnashuv haqida ogohlantirish
- Favqulodda tormozlash
- Avtomobilni to'xtatish va tormozni boshqarishni yakunlash

To'qnashuv haqida ogohlantirish



A: To'qnashuv haqida ogohlantirish

To'qnashuv haqida ogohlantirish haydovchini Old tomon xavfsizligi ogohlantirish chirog'ining miltillashi (🔔), ogohlantirish xabari, tovushli signal va rul chamberagining tebranishi bilan ogohlantiradi. (mavjud bo'lsa)

To'qnashuv haqida ogohlantirish oldinda ketayotgan avtomobilga qarab quyidagi avtomobil tezligi sharoitida ishlaydi.

- Avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasi: 10 km/soat~200 km/soat (6~124 mil/soat)
- Piyoda yoki velosipedchi: 10~85 km/soat (6~53 mil/soat)

Favqulodda tormozlash



A: Favqulodda tormozlash

Favqulodda tormozlash haydovchini Old tomon xavfsizligi ogohlantirish chirog'ining miltillashi (⚡), ogohlantirish xabari, tovushli signal va rul chamberagining tebranishi bilan ogohlantiradi.

Tormozlashda yordam funksiyasi avtomobil, piyoda, velosipedchi va ikki g'ildirakli transport vositasi bilan to'qnashuvning oldini olish uchun faollashtiriladi.

- Avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasi:

	Harakatlanayotgan nishon	To'xtatilgan nishon
Kam tormozlanish kuchi	10~200 km/soat (6~124 mil/soat)	
Kuchli tormozlash	10~130 km/soat (6~80 mil/soat)	10~65 km/soat (6~53 mil/soat) (10~100 km/soat (6~62 mil/soat))*


*: Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami hatto haydash qatori o'zgarganida ham to'qnashuvdan saqlanish qiyin deb baholasa. Funksiyaning ishlash diapazoni avtomobilning atrofidagi holat tufayli kamayishi mumkin.

- Piyoda yoki velosipedchi: 10~65 km/soat (6~40 mil/soat)

⚠️ DIQQAT

- Bu funksiyaning ishlash diapazoni oldindagi yo'l harakati holati yoki avtomobilning atrofidagi holat tufayli kamayishi mumkin.
- Kechasi haydashda ikki g'ildirakli transport vositasini tanib olish unumdorligi pasayadi, shuning uchun Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami vaqtincha cheklangan bo'lishi yoki ishlamasligi mumkin.

Avtomobilni to'xtatish va tormozni boshqarishni yakunlash



A: Ehtiyotkorlik bilan haydang

Favqulodda tormozlanish tufayli avtomobil to'xtatilganda, klasterda ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.

Xavfsizligingiz uchun haydovchi darhol tormoz pedalini bosib, atrofni tekshirishi kerak.

- Tormozni boshqarish avtomobil taxminan 2 soniya davomida favqulodda tormozlash orqali to'xtatilgandan so'ng tugaydi.

* ESLATMA

To'qnashuv haqida ogohlantirish va favqulodda tormozlash paytida ogohlantirish tovushi avariya ishorasi tugmasini bosish orqali o'chirilishi mumkin.

Kesishmada burilish funksiyasi

Kesishmada burilish funksiyasi quyidagi tarzda ogohlantiriladi va boshqariladi.

- To'qnashuv haqida ogohlantirish
- Favqulodda tormozlash
- Avtomobilni to'xtatish va tormozni boshqarishni yakunlash

To'qnashuv haqida ogohlantirish




A: To'qnashuv haqida ogohlantirish

To'qnashuv haqida ogohlantirish haydovchini Old tomon xavfsizligi ogohlantirish chirog'ining miltillashi (⚡), ogohlantirish xabari, tovushli signal va rul chamberagining tebranishi bilan oghlantiradi.

To'qnashuv haqida ogohlantirish quyidagi sharoitlarda faollashadi;

- Sizning haydash tezligingiz: Taxminan 10–30 km/soat (6–19 mil/soat)
- Oldindan kelayotgan avtomobil tezligi: Taxminan 30–70 km/soat (19–44 mil/soat)
- Ikki g'ildirakli elektrotransport yoki velosipedchining tezligi: Taxminan 15–70 km/soat (9–44 mil/soat)

Favqulodda tormozlash




A: Favqulodda tormozlash

Favqulodda tormozlash haydovchini Old tomon xavfsizligi ogohlantirish chirog'ining miltillashi (⚡), ogohlantirish xabari, tovushli signal va rul chamberagining tebranishi bilan ogohlantiradi. Tormoz yordami ishga tushadi va yaqinlashib kelayotgan avtomobil bilan to'qnashuvning oldini olishga yordam beradi.

Favqulodda tormozlash quyidagi sharoitlarda faollashadi.

- Sizning haydash tezligingiz: 10–30 km/soat (6–19 mil/soat)
- Oldindan kelayotgan avtomobil tezligi: Taxminan 30–70 km/soat (19–44 mil/soat)
- Ikki g'ildirakli elektrotransport yoki velosipedchining tezligi: Taxminan 15–70 km/soat (9–44 mil/soat)

Avtomobilni to'xtatish va tormozni boshqarishni yakunlash



A: Ehtiyotkorlik bilan haydang

Favqulodda tormozlanish tufayli avtomobil to'xtatilganda, klasterda ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.

Xavfsizligingiz uchun haydovchi darhol tormoz pedalini bosib, atrofni tekshirishi kerak.

- Tormozni boshqarish avtomobil taxminan 2 soniya davomida favqulodda tormozlash orqali to'xtatilgandan so'ng tugaydi.

* ESLATMA

To'qnashuv haqida ogohlantirish va favqulodda tormozlash paytida ogohlantirish tovushi avariya ishorasi tugmasini bosish orqali o'chirilishi mumkin.

* AXBOROT

Chorrahadan o'ngga yoki chapga burilganda, ikki g'ildirakli elektrotransport yoki velosipedchi bilan to'qnashuv xavfi mavjud bo'lsa, to'qnashuvni kamaytirish yoki oldini olish uchun tormozlashga yordam beriladi.

Kesishmani kesib o'tish funksiyasi (mavjud bo'lsa)

Kesishmani kesib o'tish funksiyasi quyidagi daraja orqali ogohlantiriladi va boshqariladi.

- To'qnashuv haqida ogohlantirish
- Favqulodda tormozlash
- Avtomobilni to'xtatish va tormozni boshqarishni yakunlash

To'qnashuv haqida ogohlantirish



A: To'qnashuv haqida ogohlantirish

To'qnashuv haqida ogohlantirish haydovchini Old tomon xavfsizligi ogohlantirish chirog'ining miltillashi (⚡), ogohlantirish xabari, tovushli signal va rul chamberagining tebranishi bilan ogohlantiradi.

Olddan to'qnashuv haqida ogohlantirish quyidagi sharoitlarda faollashadi.

- Sizning haydash tezligingiz: Taxminan 10–55 km/soat (6–34 mil/soat)
- Kesib o'tuvchi avtomobil tezligi: Taxminan 10-60 km/soat (6-34 mil/soat)

Favqulodda tormozlash



A: Favqulodda tormozlash

Favqulodda tormozlash yordamining berilishi haqida Old tomon xavfsizligi ogohlantirish chirog'ining miltillashi (⚡), ogohlantirish xabari, tovushli signal va rulning tebranishi ogohlantiradi. Tormoz yordami ishga tushadi va avtomobil, piyoda, velosipedchi yoki dvigatelli ikki g'ildirakli transport vositasi bilan to'qnashuvning oldini olishga yordam beradi.

Favqulodda tormozlash quyidagi sharoitlarda faollashadi.

- Sizning haydash tezligingiz: Taxminan 10–55 km/soat (6–34 mil/soat)
- Kesib o'tuvchi avtomobil tezligi: Taxminan 10-40 km/soat (6-34 mil/soat)

Avtomobilni to'xtatish va tormozni boshqarishni yakunlash



A: Ehtiyotkorlik bilan haydang

Favqulodda tormozlanish tufayli avtomobil to'xtatilganda, klasterda ogohlantirish xabari paydo bo'ladi. Xavfsizligingiz uchun haydovchi darhol tormoz pedalini bosib, atrofni tekshirishi kerak.

- Tormozni boshqarish avtomobil taxminan 2 soniya davomida favqulodda tormozlash orqali to'xtatilgandan so'ng tugaydi.

⚠ DIQQAT

Agar kesib o'tuvchi transport vositasi bilan to'qnashuv burchagi ma'lum diapazondan ortiq bo'lsa, keshishmani kesib o'tish ogohlantirishi va boshqaruvi kechikishi yoki umuman ishlamasligi mumkin.

* ESLATMA

To'qnashuv haqida ogohlantirish va favqulodda tormozlash paytida ogohlantirish tovushi avariya ishorasi tugmasini bosish orqali o'chirilishi mumkin.

Qarama-qarshi kelayotgan avtomobil funksiyasi

Qarama-qarshi kelayotgan avtomobil funksiyasi quyidagi tarzda ogohlantiriladi va boshqariladi.

- To'qnashuv haqida ogohlantirish
- Favqulodda tormozlash
- Avtomobilni to'xtatish va tormozni boshqarishni yakunlash

To'qnashuv haqida ogohlantirish



A: To'qnashuv haqida ogohlantirish

To'qnashuv haqida ogohlantirish haydovchini Old tomon xavfsizligi ogohlantirish chirog'ining miltillashi (🔊), ogohlantirish xabari, tovushli signal va rul chambaragining tebranishi bilan ogohlantiradi.

To'qnashuv haqida ogohlantirish quyidagi holatlarda faollashadi.

- Sizning haydash tezligingiz: Taxminan 10–130 km/soat (6–80 mil/soat)
- Qarama-qarshi kelayotgan avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasi tezligi: Taxminan 10 km/soatdan yuqori (6 mil/soat)

Favqulodda tormozlash



A: Favqulodda tormozlash

Favqulodda tormozlash haydovchini Old tomon xavfsizligi ogohlantirish chirog'i (🔊) miltillashi, ogohlantirish xabari, tovushli signal va rul g'ildiragining tebranishi bilan ogohlantiradi.

Favqulodda tormozlash quyidagi holatlarda faollashadi.

- Sizning haydash tezligingiz: Taxminan 10–130 km/soat (6–80 mil/soat)
- Qarama-qarshi kelayotgan avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasi tezligi: Taxminan 10 km/soatdan yuqori (6 mil/soat)

Avtomobilni to'xtatish va tormozni boshqarishni yakunlash



A: Ehtiyotkorlik bilan haydang

Favqulodda tormozlanish tufayli avtomobil to'xtatilganda, klasterda ogohlantirish xabari paydo bo'ladi. Xavfsizligingiz uchun haydovchi darhol tormoz pedalini bosib, atrofni tekshirishi kerak.

- Tormozni boshqarish avtomobil taxminan 2 soniya davomida favqulodda tormozlash orqali to'xtatilgandan so'ng tugaydi

⚠️ DIQQAT

- Agar sizning avtomobilingiz yoki yaqinlashib kelayotgan transport vositasi to'g'ri harakatlanmasa, Oldindan kelayotgan avtomobil funksiyasining ogohlantirishi va boshqaruvi kechikishi yoki ishlamasligi mumkin.
- Kechasi haydashda ikki g'ildirakli transport vositasini tanib olish unumdorligi pasayadi, shuning uchun Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami vaqtincha cheklangan bo'lishi yoki ishlamasligi mumkin.

* ESLATMA

To'qnashuv haqida ogohlantirish va favqulodda tormozlash paytida ogohlantirish tovushi avariya ishorasi tugmasini bosish orqali o'chirilishi mumkin.

Qatorni o'zgartirishga tayyorlanish funksiyasi (mavjud bo'lsa)

Qatorni o'zgartirishga tayyorlanish funksiyasi quyidagi tarzda ogohlantiriladi va boshqariladi.

- To'qnashuv haqida ogohlantirish
- Favqulodda rul boshqaruvi

To'qnashuv haqida ogohlantirish



A: To'qnashuv haqida ogohlantirish

To'qnashuv haqida ogohlantirish haydovchini favqulodda rul boshqaruvi ogohlantirish chirog'ining (⚡) miltillashi, ogohlantirish xabari, tovushli signal va rulning tebranishi bilan ogohlantiradi.

To'qnashuv haqida ogohlantirish quyidagi sharoitlarda faollashadi.

- Sizning haydash tezligingiz: Taxminan 40–145 km/soat (25–90 mil/soat)
- Qarama-qarshi kelayotgan avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasi tezligi: Taxminan 10 km/soatdan yuqori (6 mil/soat)
- Nisbiy tezlik: Taxminan 200 km/soatdan past (124 mil/soat)

Favqulodda rul boshqaruvi



A: Favqulodda rul boshqaruvi

Favqulodda rul boshqaruvi haydovchini favqulodda rul boshqaruvining ogohlantirish chirog'i (🚨) miltillashi, ogohlantirish xabari, tovushli signal va rulning tebranishi bilan ogohlantiradi. Rul yordami yaqinlashib kelayotgan avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasi bilan to'qnashuvning oldini olish uchun faollashtiriladi.

Favqulodda rul boshqaruvi quyidagi sharoitlarda faollashadi.

- Sizning haydash tezligingiz: Taxminan 40–145 km/soat (25–90 mil/soat)
- Qarama-qarshi kelayotgan avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasi tezligi: Taxminan 10 km/soatdan yuqori (6 mil/soat)
- Nisbiy tezlik: Taxminan 200 km/soatdan past (124 mil/soat)

Qatorni o'zgartirish yon funksiyasi (mavjud bo'lsa)

Qatorni o'zgartirish yon funksiyasi quyidagi tarzda ogohlantiriladi va boshqariladi.

- To'qnashuv haqida ogohlantirish
- Favqulodda rul boshqaruvi

To'qnashuv haqida ogohlantirish




A: To'qnashuv haqida ogohlantirish

To'qnashuv haqida ogohlantirish haydovchini favqulodda rul boshqaruvi ogohlantirish chirog'ining (🚨) miltillashi, ogohlantirish xabari, tovushli signal va rulning tebranishi bilan ogohlantiradi. Ogohlantirish chirog'i orqa o'ng yoki chap qatorda avtomobil aniqlanganida tashqi orqani ko'rish ko'zgusida paydo bo'ladi. To'qnashuv haqida ogohlantirish quyidagi holatlarda faollashadi.

- Sizning haydash tezligingiz: Taxminan 40–145 km/soat (25–90 mil/soat)

Favqulodda rul boshqaruvi



A: Favqulodda rul boshqaruvi

Haydovchini favqulodda rul boshqaruvi yordami berilishi haqida ogohlantirish uchun favqulodda rul boshqaruvi ogohlantirish chirog'i (🚨) miltillaydi, klasterda ogohlantirish xabari paydo bo'ladi, tovushli signal eshutiladi va rul tebranadi.

Orqa tomondan har ikki qatorda avtomobil aniqlanganida tashqi orqani ko'rish ko'zgusida ogohlantirish chirog'i yonadi. To'qnashuvning oldini olish uchun rul boshqaruviga yordam beriladi.

Favqulodda rul boshqaruvi quyidagi sharoitlarda faollashadi.

- Sizning haydash tezligingiz: Taxminan 40–145 km/soat (25–90 mil/soat)
- Qatorni o'zgartirayotgan avtomobil yoki ikki g'ildirakli elektrotransport tezligi

⚠ OGOHLANTIRISH

- Yon qatorni almashtirish funksiyasi, agar qatorni almashtiruvchi avtomobil yoki ikki g'ildirakli elektrotransport to'xtatilgan bo'lsa, ishlamaydi.
- Old va orqa burchak radarlarining aniqlash diapazoni oddiy yo'llarning standart yo'l kengligiga asoslanadi. Tor yo'llarda ogohlantirishlar keyingi qatorda harakatlanayotgan avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasi sababli ishlab ketishi mumkin. Aksincha, keng yo'llarda radarlar keyingi qatorda harakatlanayotgan avtomobilni yoki ikki g'ildirakli transport vositasini taniy olmasligi va ogohlantirish bermasligi mumkin.
- Yon tomonga yaqinlashayotgan avtomobilga javob qaytarish funksiyasi quyidagi hollarda o'chiriladi:
 - Keyingi qatorga ma'lum masofadan uzoqroq masofa bosib o'tsangiz
 - To'qnashuv xavfi mavjud yo'nalishdan uzoqlashsangiz
 - Rul tez aylantirilsa
 - Tormoz pedalini bossangiz
 - Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami faollashtirilgan bo'lsa
- Yon tomonga yaqinlashayotgan avtomobilning javob funksiyasi ishga tushirilgandan so'ng yoki yo'lni almashtirgandan so'ng, qatorning o'trasiga o'tishni unutmang. Agar siz qatorning markaziga o'tmasdan harakatlanishda davom etsangiz, yon tomonga yaqinlashayotgan avtomobilning javob berish funksiyasi o'chiriladi.

*** ESLATMA**

- Favqulodda rul boshqaruvi tufayli qo'shimcha avariya ehtimoli bo'lsa, xavf

haqida xabar berish uchun faqat to'qnashuv haqidagi ogohlantirish beriladi.

- Agar haydovchi o'rindig'i chap tomonda bo'lsa, chapga burilishda to'qnashuv haqida ogohlantirish berilishi mumkin; agar haydovchi o'rindig'i o'ng tomonda bo'lsa, o'ngga burilganda to'qnashuv haqida ogohlantirish berilishi mumkin.

Qochirish rul manyovri yordamchisi funksiyasi (mavjud bo'lsa)

Qochirish rul manyovri yordamchisi funksiyasi quyidagi tarzda ogohlantiriladi va boshqariladi.

- Favqulodda rul boshqaruvi

Favqulodda rul boshqaruvi (Haydovchiga yordam)**A: Favqulodda rul boshqaruvi**

Favqulodda rul boshqaruvi haydovchini favqulodda rul boshqaruvining ogohlantirish chirog'i (🚨) miltillashi, ogohlantirish xabari, tovushli signal va rulling tebranishi bilan ogohlantiradi.

Oldinda transport vositasi, piyoda, velosipedchi yoki ikki g'ildirakli elektrotransport bilan to'qnashuv xavfi mavjud bo'lsa, haydovchi to'qnashuvning oldini olish uchun rulni burganida rul boshqaruvi yordami ishga tushiriladi.

Favqulodda rul boshqaruvi quyidagi sharoitlarda faollashadi.

- Sizning haydash tezligingiz: Taxminan 40–85 km/soat (25–53 mil/soat)

Favqulodda rul boshqaruvi (Qochirish rul manyovri yordamchisi)



A: Favqulodda rul boshqaruvi

Favqulodda rul boshqaruvi haydovchini favqulodda rul boshqaruvining ogohlantirish chirog'i (🚨) miltillashi, ogohlantirish xabari, tovushli signal va rulning tebranishi bilan ogohlantiradi.

Oldinda piyoda, velosipedchi yoki ikki g'ildirakli transport vositasi bilan to'qnashuv xavfi mavjud bo'lsa va sizning avtomobilingiz favqulodda tormozlash tezligi chegarasidan oshib ketgan bo'lsa, haydovchi rulni boshqarayotganda to'qnashuvning oldini olish uchun rul boshqaruviga yordam beriladi.

Favqulodda rul boshqaruvi quyidagi sharoitlarda faollashadi.

- Sizning haydash tezligingiz: Taxminan 65–75 km/soat (40–47 mil/soat)

Aniqlangan piyoda yoki velosipedchi avtomobilingiz bilan bir yo'nalishda yoki teskari yo'nalishda harakatlansa. Bunga qo'shimcha ravishda, avtomobilingiz qochishi uchun yetarli joy mavjud bo'lsa. Biroq, bu funktsiya gorizontaal yo'nalishda harakatlanayotgan piyodalar yoki velosipedchilar uchun ishlamasligi mumkin.

⚠️ DIQQAT

- Favqulodda rul boshqaruvi ishlayotganda rul avtomatik ravishda aylanishi mumkin.

- Xavf omillari yo'qolganida, Favqulodda rul boshqaruvi avtomatik ravishda bekor qilinadi. Zarur bo'lsa, haydovchi transport vositasini o'zi boshqarishi kerak.
- Rul qattiq ushlab turilsa yoki qarama-qarshi tomonga burilsa, favqulodda rul boshqaruvi funktsiyasi ishlamasligi yoki bekor qilinishi mumkin.
- Avtomobil, piyoda va velosipedchi bilan to'qnashuvning oldini olish uchun rul boshqaruvi yordami funktsiyasi ishga tushsa, boshqa obyektlar (avtomobil, ikki g'ildirakli transport vositasi, piyodalar yoki velosipedchilar) bilan to'qnashuv kutilgan holatda qochirish rul manyovri yordami bekor qilinadi.
- Avtomobil ketayotgan qatorda to'qnashuvning oldini olish uchun bo'sh joy yetarli bo'lmasa, qochirish rul manyovri funktsiyasi ishlamasligi mumkin.
- Kechasi haydashda ikki g'ildirakli transport vositasini tanib olish unumdorligi pasayadi, shuning uchun Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami vaqtincha cheklangan bo'lishi yoki ishlamasligi mumkin.

* ESLATMA

Batafsil ma'lumot uchun qarang: "To'qnashuv haqida ogohlantirish", 6-10-sahifa.

⚠️ OGOHLANTIRISH

- Xavfsizligingiz uchun avtomobilni xavfsiz joyga qo'yganingizdan so'ng Sozlamalarni o'zgartiring.
- Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami barcha holatlarda ishlamaydi yoki barcha to'qnashuvlarning oldini ololmaydi.

- Haydovchi transport vositasini boshqarish uchun mas'ul bo'lishi lozim. Faqat Olddan to'qnashuvning oldini olish yordamiga tayanib qolmang. Aksincha, xavfsiz tormozlash masofasini saqlang va agar kerak bo'lsa, haydash tezligini kamaytirish yoki avtomobilni to'xtatish uchun tormoz pedalini bosing.
- Hech qachon Olddan to'qnashuvning oldini olish yordamini odamlar, buyumlar va hokazolarga ataylab ishlatmang. Bu jiddiy shikastlanish yoki o'limga olib kelishi mumkin.
- Agar haydovchi to'qnashuvning oldini olish uchun tormoz pedalini bossa, Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami ishlamasligi mumkin.
- Yo'l va haydash sharoitlariga qarab, Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami haydovchini kech ogohlantirishi yoki umuman ogohlantirmasligi mumkin.
- Olddan to'qnashuvning oldini olishga yordam berish paytida avtomobil to'satdan to'xtab, yo'lovchilarni jarohatlashi va bo'sh predmetlarni siljitishi mumkin. Har doim xavfsizlik kamarini taqing va bo'sh predmetlarni mahkamlang.
- Agar biron-bir boshqa funksiyaning ogohlantirish xabari ko'rsatilsa yoki tovushli signal yaratilsa, to'qnashuvning oldini olish yordami ogohlantirish xabari ko'rsatilmasligi va tovushli signal yaratilmasligi mumkin.
- Agar atrof shovqinli bo'lsa, Olddan to'qnashuvning oldini olish yordamining ogohlantirish ovozi eshitmasligingiz mumkin.
- Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami yo'l sharoitlari va atrof-muhitga qarab o'chib qolishi, to'g'ri

ishlamasligi yoki kerak bo'lmaganda ishlashi mumkin.

- Olddan to'qnashuvning oldini olish yordamida muammo bo'lsa ham, avtomobilning asosiy tormozlash funksiyasi to'g'ri ishlaydi.
- Favqulodda tormozlash paytida, haydovchi gaz pedalini haddan ortiq bosganida yoki rulni keskin burganida Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami tomonidan tormozlashni boshqarish avtomatik ravishda bekor qilinadi.

DIQQAT

- Atrofdagilar va piyodalar, velosipedchilar va oldinda harakatlanayotgan ikki g'ildirakli yoki boshqa transport vositalari Olddan to'qnashuvning oldini olish yordamini ishlatish tezligiga yoki aniqlash diapazoniga ta'sir qilishi mumkin, natijada Oldinga to'qnashuvni oldini olish yordamchisi vaqtincha cheklanadi yoki o'chiriladi.
- Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami xavf darajasini baholash uchun yaqinlashib kelayotgan avtomobil, ikki g'ildirakli transport vositasi va velosipedchi holatini, haydash yo'nalishini, tezligini va atrof-muhitni hisobga olgan holda muayyan sharoitlarda ishlaydi.
- Bu funksiya haydash tezligi haddan tashqari yuqori bo'lgan yoki avtomobil va kelayotgan ikki g'ildirakli transport vositasi yoki velosipedchilar tezligi o'rtasida sezilarli farq mavjud bo'lgan hollarda cheklanishi yoki o'chirilishi mumkin.
- Atrofdagi avtomobil bilan to'qnashuv xavfi mavjud bo'lsa, qarama-qarshi tomondan avtomobil kelayotganda


qatorni o'zgartirish, yon tomondan avtomobil kelayotganda qatorni o'zgartirish va qochirish rul manyovri yordami funksiyalari haydovchini faqat ogohlantiradi. (mavjud bo'lsa)

* ESLATMA

- To'qnashuv muqarrar bo'lib qolganda, to'qnashuvning oldini olish yordami haydovchi avtomobilni yetarlicha tormozlay olmasa, haydovchiga tormozlashda yordam berishi mumkin.
- Tasvirlar yoki ranglar asboblari klasteri yoki mavzuning texnik xususiyatlariga qarab boshqacha ko'rinishi mumkin.

Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami nosozliklari va cheklovlari


Olddan to'qnashuvning oldini olish yordamining noto'g'ri ishlashi



A: Haydovchiga yordam tizimini tekshiring

Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami to'g'ri ishlamas, ogohlantirish xabari paydo bo'ladi va klasterda Old tomon xavfsizligi ogohlantirish chirog'i (🚦), Favqulodda rul boshqaruvinogohlantirish chirog'i (🚦) va Asosiy ogohlantirish chirog'i (⚠️) yonadi. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat ko'rsatish hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami o'chirilgan



A: Haydovchiga yordam tizimi cheklangan. Kamera xiralashgan.



A: Haydovchiga yordam tizimi cheklangan. Radar to'silgan.

Oldni ko'rish kamerasi joylashgan old oyna, old radar qopqog'i, bampor yoki datchik qor yoki yomg'ir kabi begona narsalar bilan qoplangan bo'lsa, u aniqlash unumdorligini pasaytirishi va Olddan to'qnashuvning oldini olish yordamini vaqtincha cheklashi yoki o'chirib qo'yishi mumkin.

Agar shunday bo'lsa, klasterda ogohlantirish xabari va Old tomon xavfsizligi ogohlantirish chirog'i (🚦), Favqulodda rul boshqaruvinogohlantirish chirog'i (🚦) va Asosiy ogohlantirish chirog'i (⚠️) paydo bo'ladi.

Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami qor, yomg'ir yoki begona narsalar olib tashlanganida to'g'ri ishlaydi.

To'qnashuvning oldini olish yordami to'siq (qor, yomg'ir yoki begona moddalar) olib tashlanganidan keyin (jumladan, orqa bampordan tirkama, tashuvchi va hokazolar) to'g'ri ishlamas, Kia vakolatli

Kia dileri/xizmat ko'rsatish hamkoriga tashrif buyurishingizni tavsiya qiladi.

OGOHLANTIRISH

- Ogohlantirish xabari yoki ogohlantirish chirog'i klasterda ko'rinmasa ham, Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami aniqlanadigan hech narsa bo'lmagan joyda (masalan, ochiq joyda) soz ishlamasligi mumkin yoki aniqlovchi datchik avtomobil yoqilganidan so'ng begona moddalar bilan qoplangan bo'lishi mumkin.
- Avtomobilni qayta ishga tushirgandan keyin ham to'qnashuv yoki nosozlik holati saqlanib qolsa, Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami to'g'ri ishlamasligi mumkin.

ESLATMA

Buni klasterni ko'rsatish oynasining xizmat ma'lumotlarini ko'rish tasviridagi xizmat xabarida tekshirishingiz mumkin.

Olddan to'qnashuvning oldini olish yordamining cheklavlari

Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami quyidagi holatlarda normal ishlamasligi yoki kutilmaganda ishlab ketishi mumkin:

- Aniqlash datchigi yoki uning atrofi ifloslangan yoki shikastlangan bo'lsa
- Atrofdagi muhit tufayli oldni ko'rish kamerasi atrofidagi harorat yuqori yoki past bo'lsa
- Kamera linzalari rangli, plyonkali yoki qoplangan old oyna, shikastlangan shisha yoki shishadagi yopishqoq begona moddalar (stiker, hasharot va boshqalar) tufayli ifloslangan bo'lsa.
- Old oynadan namlik yoki muz qoldiqlari artib tashlanmagan bo'lsa
- Oyna yuvish suyuqligi doimiy ravishda sepilgan yoki oyna artgich yoqilgan bo'lsa
- Kuchli yomg'ir yoki qor yoki qalin tumanda haydaganda
- Oldni ko'rish kamerasining ko'rish maydoniga quyosh nurlari to'sqinlik qilsa
- Ko'cha chirog'i yoki kelayotgan transport vositalarining yorug'ligi nam yo'l yuzasida, masalan, yo'ldagi ko'lmakda aks qaytarsa
- Asboblar paneliga biror narsa qo'yilsa
- Avtomobilingiz shatakka olingan bo'lsa
- Atrof juda yorqin yoki juda qorong'i bo'lsa, masalan, tunnelda va hokazo.
- Yorqinlik to'satdan o'zgarganda, masalan, tunnelga kirish yoki chiqishda
- Tashqarida yorug'lik past, faralar yoqilmagan bo'lsa yoki yorqin yoritmasa
- Avtomobil, ikki g'ildirakli transport vositasi, piyoda yoki velosipedchining faqat bir qismi aniqlanganida
- Oldindagi avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasi – avtobus, og'ir yuk mashinasi, g'ayrioddiy shaklga ega yuk mashinasi, treyler va h.k. bo'lsa
- Oldindagi avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasida orqa chiroqlar yo'q, orqa chiroqlar g'ayrioddiy joylashgan va h.k. bo'lsa
- Tashqarida yorug'lik past bo'lsa, orqa chiroqlar yoqilmagan bo'lsa yoki yaxshi yoritmasa
- Oldindagi avtomobilning orqa qismi kichik bo'lsa yoki transport vositasi normal ko'rinmasa, masalan, transport vositasi egilgan, ag'darilgan yoki

avtomobilning yon tomonigina ko'rinsa va hokazo.

- Oldindagi avtomobilning yerdan balandligi (klirensi) past yoki baland bo'lsa
- Avtomobil, ikki g'ildirakli transport vositasi, piyoda yoki velosipedchi to'satdan old tomondan kesib o'tsa
- Old radar atrofidagi bampar zarb yegan, shikastlangan yoki oldingi radar o'z joyida joylashmagan bo'lsa
- Old radar atrofidagi harorat yuqori yoki past bo'lsa
- Tunnel yoki temir ko'priq orqali haydash
- Avtotransport vositalari yoki inshootlar kam bo'lgan keng hududlarda (masalan, cho'l, o'tloq, qishloq va boshqalar) haydaganda
- Metall moddalar bo'lgan joylar, masalan, qurilish zonasi, temir yo'l va hokazolar yaqinida haydaganda
- Old radarda juda yaxshi aks qaytaradigan material yaqinida haydaganda, masalan, panjara, yaqin atrofdagi transport vositasi va boshqalar.
- Oldindagi velosipedchi old radarda aks qaytarmaydigan materialdan yasalgan velosipedda bo'lsa
- Oldindagi avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasi kech aniqlansa
- Oldindagi avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasi kutilmaganda to'siq bilan berkilib qolsa
- Oldindagi avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasi to'satdan qatorni o'zgartirsa yoki tezlikni keskin pasaytirsa
- Oldindagi avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasining shakli buzilgan bo'lsa
- Oldindagi mashina qor bilan qoplangan bo'lsa
- Qatorni tark etayotganingizda yoki qatorga qaytayotganingizda
- Beqaror haydaganda
- Siz aylanma yo'lda bo'lganingizda va oldingizdagi avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasi aniqlanmaganida
- Siz uzluksiz ravishda aylana bo'ylab harakatlanganingizda
- Oldindagi avtomobil yoki ikki g'ildirakli elektrotransport g'ayrioddiy shaklda bo'lsa
- Oldindagi transport vositasi yoki ikki g'ildirakli elektrotransport tepaga yoki pastga qarab harakatlanayotgan bo'lsa
- Piyoda yoki velosipedchi to'liq aniqlanmaganda, masalan, agar piyoda egilib turgan bo'lsa yoki to'liq tik holatda yurmayotgan bo'lsa



Yuqoridagi rasmda oldni ko'rish kamerasi va old radar avtomobil, ikki g'ildirakli elektrotransport, piyoda va velosipedchi sifatida aniqlay oladigan tasvirlar ko'rsatilgan.

- Piyoda yoki velosipedchi aniqlash qiyin kiyim-kechak yoki anjom kiygan bo'lsa
- Oldindagi piyoda yoki velosipedchi juda tez harakatlanmoqda
- Oldindagi piyoda yoki velosipedchi sekin yoki past holatda
- Oldinda ketayotgan piyoda yoki velosipedchining harakatchanligi

buzilgan yoki harakatlanish yo'nalishi bilan kesishgan

- Oldinda bir guruh piyodalar, velosipedchilar yoki katta olomon bor
- Piyoda yoki velosipedchi orqa fonga osongina mos tushadigan kiyim kiygan bo'lsa, zero bu ularni aniqlashni qiyinlashtiradi.
- Piyoda yoki velosipedchini atrofdagi o'xshash shakldagi tuzilishdan ajratish qiyin
- Siz chorrahaga yaqin joyda piyoda, velosipedchi, yo'l belgilari, inshootlar va boshqalar tomonidan boshqaryapsiz.
- Quyidagi joylarda haydashda
 - Bug', tutun yoki soya joyda haydaganda
 - Tunnel yoki temir ko'priklar orqali haydash
 - Avtotransport vositalari yoki inshootlar kam bo'lgan katta hududlarda (masalan, cho'l, o'tloq, shahar atrofi va boshqalar) haydash.
 - Avtoturargohda haydash
 - Pulli yo'l, qurilish maydonchalari, qisman asfaltlangan yo'llar, notekis yo'llar, sun'iy notekisliklar va hokazolar ustidan haydash.
 - Metall moddalar bo'lgan joylar, masalan, qurilish zonasi, temir yo'l va hokazolar yaqinida haydaganda
 - Nishabli yo'lda, egri yo'lda va hokazolarda haydaganda
 - Daraxtlar yoki ko'cha chiroqlari bo'lgan yo'l chetidan haydash
 - Daraxtlar yoki o'tlar o'sib chiqqan tor yo'lda haydash
 - Elektromagnit to'lqinlarning shovqini bor, masalan, kuchli radio to'lqinlari yoki elektr shovqinlari bo'lgan joyda haydash

- Noqulay yo'l sharoitlari haydash paytida avtomobilning haddan tashqari tebranishiga olib keladi
- Avtomobilingizning balandligi og'ir yuk g'ildiraklardagi normal bo'lmagan bosim va boshqalar tufayli past yoki baland bo'lsa
- Avtomobilga qorda sirpanishdan himoyalovchi zanjir, xaxira shina yoki boshqacha o'lchamdagi g'ildirak o'rnatilgan bo'lsa.

Chorrahani kesib o'tish, qatorni qarama-qarshi yo'lga o'tkazish, qochirish rul manyovri yordamchi funksiyasi (mavjud bo'lsa)

- Old burchak radari yoki orqa burchak radari atrofidagi harorat yuqori yoki past bo'lsa
- Orqa burchakli radar atrofida tirkama yoki telejka o'rnatilgan bo'lsa
- Old burchak radari yoki orqa burchak radari qor, yomg'ir, kir va boshqalar bilan qoplangan bo'lsa.
- Old burchak radarining yoki orqa burchak radarining atrofidagi bampere stikeri, bampere himoyalagichi, velosiped tokchasi va boshqalar kabi narsalar bilan to'silgan bo'lsa.
- Old burchak yoki orqa burchak radar atrofidagi bampere zarba yegan, shikastlangan yoki o'z joyida joylashmagan bo'lsa
- Old burchak yoki orqa burchak radarlarini boshqa transport vositalari, devorlar yoki ustunlar to'sib qo'ygan bo'lsa
- Avtomagistralda (yoki katta avtomobil yo'li) kirish va chiqish joyida haydaganda

- Yo'l panjarasi yoki devori qo'shaloq konstruksiyali bo'lgan yo'lda haydaganda
- Boshqa avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasi sizning mashinangiz orqasidan juda yaqin yurib kelayotganda yoki boshqa transport vositasi sizning mashinangiz yonidan juda yaqin o'tib ketayotganida
- Boshqa avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasining tezligi juda yuqori bo'lib, u qisqa vaqt ichida sizning avtomobilingizdan o'tib ketganida
- Avtomobilingiz boshqa mashina yoki ikki g'ildirakli transport vositasi yonidan o'tib ketganida
- Avtomobilingiz yoningizdagi mashina yoki ikki g'ildirakli transport vositasi bilan bir vaqtda ishga tushib, tezlashganida
- Keyingi qatordagi avtomobil yoki ikki g'ildirakli transport vositasi sizdan ikki qatorga uzoqlashganida yoki ikki qator uzoqdagi avtomobil sizdan keyingi qatorga o'tganida
- Mototsikl yoki velosiped aniqlanganida
- Platforma-tirkama kabi transport vositasi aniqlanganida
- Avtobus yoki yuk mashinasi kabi katta transport vositasi aniqlanganida
- Piyoda, hayvon, xarid aravachasi yoki bolalar kolyaskasi kabi kichik harakatlanayotgan to'siq aniqlanganida
- Sport avtomobili kabi past balandlikdagi transport vositasi aniqlanganida
- Qatorni yomg'ir, qor, chang, qum, moy va suv ko'lmagi kabi begona moddalar tufayli ko'rish qiyin bo'lganida
- Qator belgisining rangi yo'l rangidan farq qilmaydigan holatda bo'lsa

- Yo'lda qatoq yaqinida belgilar mavjud bo'lsa yoki yo'lda chizilgan belgilar qatordagi belgilariga o'xshash bo'lsa
- O'rtadagi ajratkich chiziq, daraxtlar, panjaralar, shovqin to'suvchi to'siqlar va boshqalar tufayli qator belgilariga soya tushganida.
- Qatorlar soni oshganida yoki kamayganida yoki qator belgilari kesishganida
- Yo'lda ikkitadan ortiq qator belgilar mavjud bo'lsa
- Qator belgilari murakkab yoki qurilish maydonchasi kabi chiziqlar o'rnini bosadigan tuzilma bo'lsa
- Zigzag qatorlar, piyodalar o'tish joylari belgilari kabi yo'l belgilari mavjud
- Qator birdan yo'qolganda, masalan, chorrahada
- Qator juda keng yoki tor bo'lsa
- Chiziq bilan belgilanmagan bordyur yoki yo'l chetlari mavjud bo'lsa
- Oldinda ketayotgan avtomobil bir tomoni qator chiziq belgisi ustida harakatlanayotganda
- Oldindagi avtomobilgacha bo'lgan masofa o'ta qisqa bo'lsa

* ESLATMA

Orqa burchakdagi transport vositalarini aniqlashdagi cheklavl va orqa burchak datchigi bilan bog'liq ogohlantirishlar haqida batafsil ma'lumot uchun qarang: "Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami (BCA) (mavjud bo'lsa)", 6-34-sahifa.


Qochirish rul manyovri yordamchisining cheklavlari

Qochirish rul manyovri yordamchisi funksiyasi quyidagi holatlarda to'g'ri ishlamasligi mumkin:


- Piyodalar yoki velosipedchilar ish maydonidan tashqarida turibdi.



- Piyodalar yoki velosipedchilar yondan harakatlanmoqda.



- Piyodalar yoki velosipedchilar ish maydoni ichida joylashgan, ammo rulni chetlab o'tish uchun yetarli joy yo'q.



OGOHLANTIRISH

- Egri chiziq bo'ylab yo'nalgan yo'lda haydaganda



Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami egri yo'nalgan yo'llarda oldingizda turgan boshqa avtomobillar yoki ikki g'ildirakli transport vositalari, piyodalar yoki velosipedchilarni aniqlamasligi mumkin, zero bunday datchiklarning ishlashiga salbiy ta'sir qiladi. Bu zarurat tug'ilganda hogohlantirish berish, tormozlash yordami yoki rul manyovri yordamining (agar mavjud bo'lsa) ishga tushmasligiga olib kelishi mumkin.

Egri yo'nalgan yo'lda harakatlanayotganda siz xavfsiz tormoz masofasini saqlashingiz kerak, agar kerak bo'lsa, xavfsiz masofani saqlash uchun haydash tezligini kamaytirish maqsadida rulni boshqarish va tormoz pedalini bosishingiz kerak.

Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami egri yo'nalgan yo'lda harakatlanayotganda keyingi qatorda yoki qatordan tashqarida avtomobil, ikki g'ildirakli transport vositasi, piyoda yoki velosipedchini aniqlashi mumkin.

Agar bu sodir bo'lsa, olddan to'qnashuvning oldini olish yordami haydovchini keraksiz ogohlantirishi va tormozlashi yoki rulni (agar mavjud bo'lsa) boshqarishi mumkin. Har doim avtomobil atrofidagi harakat sharoitlarini tekshiring.

- Nishab yo'lda haydash




Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami tepaga yoki pastga harakatlanayotganda oldingizda turgan boshqa avtomobillar yoki ikki g'ildirakli transport vositalari, piyodalar yoki velosipedchilarni aniqlamasligi mumkin va bu datchiklarning ishlashiga salbiy ta'sir qiladi.

Bu keraksiz ogohlantirish, tormozlash yordami yoki rul boshqaruvi yordamchi (agar mavjud bo'lsa) ishga tushishiga yoki hech qanday ogohlantirish, tormozlash yordami, rul boshqaruvi yordami (agar mavjud bo'lsa) ishga tushmasligiga olib kelishi mumkin.

Oldindagi avtomobil, ikki g'ildirakli transport vositasi, piyoda yoki velosipedchi to'satdan aniqlanganida, avtomobil tezligi keskin pasayishi mumkin.

Tepaga yoki pastlikka harakatlanib ketayotganda doimo ko'zingizni yo'lda tuting va agar kerak bo'lsa, xavfsiz masofani saqlash uchun haydash tezligini kamaytirish uchun rulni boshqaring va tormoz pedalini bosing.

- Qatorlarni o'zgartirish



1. Sizning avtomobilingiz
 2. Qatorni o'zgartirayotgan avtomobil
 3. Ayni qatordagi avtomobil
- Avtomobil (2) qo'shni qatordan sizning qatoringizga o'tganda, u datchikning aniqlash diapazoniga kirmaguncha datchik uni aniqlay olmaydi.

Olddan to'qnashuvning oldini olish bo'yicha yordamchi avtomobil keskin tarzda qatorni o'zgartirganida, avtomobilni darhol aniqlay olmasligi mumkin. Bunday holda, siz xavfsiz tormoz masofasini saqlashingiz kerak, agar kerak bo'lsa, xavfsiz masofani saqlash uchun haydash tezligini kamaytirish maqsadida rulni boshqarish tormoz pedalini bosishingiz kerak.

Oldingizdagi avtomobil (2) qatordan chiqib ketsa, olddan to'qnashuvning

oldini olish bo'yicha yordamchi hozirda oldingizda ketayotgan transport vositasini (3) darhol aniqlamasligi mumkin. Bunday holda, siz xavfsiz tormoz masofasini saqlashingiz kerak, agar kerak bo'lsa, xavfsiz masofani saqlash uchun haydash tezligini kamaytirish maqsadida rulni boshqarish tormoz pedalini bosishingiz kerak.

- Avtomobilni aniqlash



Agar oldingizdagi transport vositasida kabinadan orqasigacha cho'zilgan yuk bo'lsa yoki oldingizdagi transport vositasining klirensi balandroq bo'lsa, qo'shimcha alohida e'tibor talab etiladi. Olddan to'qnashuvning oldini olish bo'yicha yordamchi transport vositasidan chiqib turgan yukni aniqlay olmasligi mumkin. Bunday hollarda, siz u avtomobilning eng orqa chetidagi obyektдан xavfsiz tormozlash masofasini saqlashingiz kerak va agar kerak bo'lsa, masofani saqlash uchun rulni boshqaring va haydash tezligini kamaytirish uchun tormoz pedalini bosing.

- Tirkama yoki boshqa transport vositasini tortib borayotganingizda, xavfsizlik nuqtai nazaridan olddan to'qnashuvning oldini olish bo'yicha

yordamchini o'chirib qo'yishni tavsiya qilamiz.

- Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami avtomobillaer, ikki g'ildirakli transport vositalari, piyodalar va velosipedchilarga shakli yoki xususiyatlari o'xshash obyektlar aniqlansa ishlab ketishi mumkin.
- Olddan to'qnashuvning oldini olish bo'yicha yordamchi velosiped, mototsikl yoki bagaj sumkalari, xarid aravalari yoki bolalar aravachalari kabi kichikroq g'ildirakli narsalarga nisbatan ishlamaydi.
- Olddan to'qnashuvning oldini olish bo'yicha yordamchi kuchli elektromagnit to'lqinlar shovqini tufayli normal ishlamasligi mumkin.
- Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami avtomobil ishga tushirilgandan yoki old ko'rish kamerasi ishga tushirilgandan keyin 15 soniya davomida ishlamasligi mumkin.

* AXBOROT

Orqa burchakdagi transport vositalarini aniqlashdagi cheklovlar va orqa burchak datchigi bilan bog'liq ogohlantirishlar haqida batafsil ma'lumot uchun qarang: "Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami (BCA) (mavjud bo'lsa)", 6-34-sahifa

Qatorni saqlashda yordam (LKA) (mavjud bo'lsa)

Muayyan tezlikda harakatlanayotganda, qatorni saqlashda yordam chiziq belgilarini (yoki yo'l chetlarini) aniqlaydi va avtomobilingiz burilish signalidan foydalanmasdan qatordan chiqib ketsa, ogohlantirishi va avtomobilingiz harakatlanish qatoridan chiqib ketishining oldini olish uchun rulni boshqarishda yordam berishi mumkin.

Aniqlovchi datchik

Old kamera



Oldni ko'rish kamerasi qator belgilarini (yoki yo'l chetlarini) aniqlash uchun aniqlovchi datchik sifatida ishlatiladi.

⚠️ DIQQAT

Oldni ko'rish kamerasiga oid ehtiyot choralari haqida batafsil ma'lumot olish uchun qarang: "Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami (FCA) (Datchiklar majmuasi) (mavjud bo'lsa)", 6-5-sahifa.

Qatorni saqlashda yordam sozlamalari

Qator xavfsizligi



1 Haydovchiga yordam

2 Haydash xavfsizligi

3 Qator xavfsizligi

Avtomobil yoqilgan holda axborot-ko'ngillochar tizimida **Sozlamalar** →

Avtomobil → **Haydovchiga yordam** → **Haydash xavfsizligi** bandini tanlang.

- **Qator xavfsizligi:** Qatordan chiqib ketish aniqlanganda, tizim qatordan chiqib ketishning oldini olish uchun rul boshqaruviga yordam beradi va agar qatordan chiqib ketish sodir bo'lsa, u haydovchini tovushli signal bilan ogohlantiradi. Qator xavfsizligi tanlovi olib tashlansa, asboblار panelida sariq indikator chirog'i (🚗) yonadi.

⚠️ OGOHLANTIRISH

- Mashina qatorning o'rtasida harakatlanayotganida qatorni saqlashda yordam funksiyasi rulni boshqarmaydi.
- **Qatorxavfsizligi** tanlanmagan bo'lsa, haydovchi doim atrofдан xabardor bo'lishi va rulni o'zi boshqarishi kerak.

* ESLATMA

Qatorda haydash yordami tugmasini (🚗) bosib turish orqali qatorni ushlab yordami o'chadi va u qator xavfsizligi funksiyasini o'chiradi.

Ogohlantirish usuli



1 Haydovchiga yordam

2 Ogohlantirish usuli

Ogohlantirish usuli avtomobil yoqilgan holda o'rnatilishi mumkin. Quyidagi sozlamalarni o'zgartirish uchun axborot-ko'ngilochar tizimidagi sozlamalar menyusidan **Sozlash → Avtomobil → Haydovchiga yordam → Ogohlantirish usuli** bandini tanlang:

- **Ogohlantirish tovushi balandligi:** Ogohlantirish tovushining balandligini sozlaydi.
- **Vibratsiyali ogohlantirish:** Rul chambaragi tebranib ogohlantirishini faollashtiring. (mavjud bo'lsa)
- **Qator xavfsizligi ovoqli ogohlantirishi o'chgan:** Hatto ogohlantirish tovushi va sensorli ogohlantirish yoniqligida ham Yo'l harakati xavfsizligi ovoqli ogohlantirishini faolsizlantiradi.
- **Haydash xavfsizligi ustuvorligi:** Haydash xavfsizligi tizimining ogohlantirishi eshitilganida, boshqa barcha tovushlarning balandligini pasaytiradi.

* AXBOROT

- Ogohlantirish usulini o'zgartirsangiz, u haydovchiga yordam tizimining har bir funksiyasiga qo'llanilishi mumkin. Uni har bir funksiyada tekshiring va o'zgartiring.
- Agar avtomobil qayta ishga tushirilsa, ogohlantirish usuli oxirgi sozlamani saqlab qoladi.
- Sozlamalar menyusida avtomobil xususiyatiga ko'ra mavjud bo'lmasligi mumkin.
- Ogohlantirish tovushi va Vibratsiyali ogohlantirish balandligi bir vaqtning o'zida o'chirib bo'lmaydi.

Ogohlantirishlarning biri o'chirilganda ikkinchisi faollashadi.

Qatorni saqlashda yordam tizimining ishlashi

Qatorni saqlashda yordamni yoqish/o'chirish



[Yevropadan tashqari]

Avtomobil yoqilgan holda, qatorni saqlash yordamini yoqish va o'chirish uchun rulda joylashgan qatorni saqlashda yordam

() tugmasini bosib ushlab turing.

Asboblardagi kulrang yoki yashil indikator () qatorni saqlash yordamini yoqsangiz yonadi.

Qatorni saqlash yordami funksiyasini o'chirmoqchi bo'lsangiz, qatorda harakatlanishda yordam tugmasini () bosib turing. Qatorni saqlashda yordam funksiyasini o'chirsangiz, indikator chirog'i sariq rangda yonadi.

* ESLATMA

- Qatorni saqlash yordami kutish rejimida bo'lsa, asboblardagi kulrang indikator () yonadi.
- Qatorni saqlash yordami ishlashga tayyor bo'lsa, asboblardagi yashil indikator () yonadi.

Ogohlantirish va boshqarish

Qatorni saqlash yordami funksiyasi quyidagi tarzda ogohlantiriladi va boshqariladi.

- Qatorni tark etish haqida ogohlantirish
- Qatorni saqlashda yordam

Qatorni tark etish haqida ogohlantirish
(chap tomon)



Qatorni tark etish haqida ogohlantirish
(o'ng tomon)



Qatorni tark etish haqida ogohlantirish

Qatorni tark etish haqida ogohlantirish asboblari panelida yashil indikator chirog'i, siz ketayotgan yo'nalishda miltillovchi indikator, ogohlantirish tovushi orqali chiqariladi.

Qatorni tark etish haqida ogohlantirish quyidagi sharoitlarda faollashadi.

- Qatorni aniqlash holatida harakatlanish tezligingiz: Taxminan 45~200 km/soat (28~120 mil/soat)
- Yo'l chegarasini aniqlash holatida harakatlanish tezligingiz: Taxminan 60~200 km/soat (40~120 mil/soat)

Qatorni saqlashda yordam


Asboblari panelida yashil () indikator chirog'i miltillaydi va rul chambaragi

avtomobilni qator ichida saqlash uchun rostdashni amalga oshiradi.

Qatorni saqlashda yordam quyidagi sharoitlarda faollashadi.

- Qatorni aniqlash holatida harakatlanish tezligingiz: Taxminan 45~200 km/soat (28~120 mil/soat)
- Yo'l chegarasini aniqlash holatida harakatlanish tezligingiz: Taxminan 60~200 km/soat (40~120 mil/soat)

Qo'l ruldagi uzilganligi haqida ogohlantirish



A: Qo'llaringizni rulda ushlab turing

Agar haydovchi bir necha soniya davomida qo'llarini ruldagi ushlab turing bo'lsa, asboblari panelida ogohlantirish xabari paydo bo'ladi va bosqichma-bosqich tovushli ogohlantirish signali eshitiladi.

OGHOHLANTIRISH

- Rul juda qattiq ushlab turilsa yoki rul ma'lum darajadan ortiq burilsa, rul boshqaruvi yordami berilmasligi mumkin.
- Qatorni saqlashda yordam har doim ham ishlamaydi. Haydovchi avtomobilni xavfsiz boshqarish va avtomobilni o'z qatorida saqlab haydash uchun javobgardir.
- Yo'ldagi sharoitlarga qarab, qo'l ruldagi uzilganligi haqidagi ogohlantirish xabari kechroq paydo bo'lishi mumkin. Haydash paytida har doim qo'llaringiz bilan rulni ushlab oling.
- Agar rul juda sust ushlab turilgan bo'lsa, qo'l ruldagi uzilganligi haqida

ogohlantirish xabari paydo bo'lishi mumkin, chunki qatorni saqlashda yordami funksiyasi haydovchining qo'llari rulda ekanligini aniqlamasligi mumkin.

- Agar siz rul chambaragiga predmetlarni biriktirsangiz, qo'l ruldagi uzilgani haqida ogohlantirish funksiyasi to'g'ri ishlamasligi mumkin.

* ESLATMA

- Qatorni saqlashda yordami rul boshqaruviga yordam bersa ham, haydovchi rulni o'zi boshqarishi mumkin.
- Qatorni saqlashda yordam rul boshqaruviga yordam berayotganida rul haydovchiga og'irroq yoki engilroq tuyulishi mumkin.
- Avtomobil qator belgilarini aniqlasa, kulrang rangli chiziqlar asboblar panelida oq rangga aylanadi.

Qator aniqlanmadi



Qator aniqlandi




- Asboblar panelidagi tasvirlar va ranglar panel turiga yoki sozlamalar menyusidan tanlangan mavzuga qarab farq qilishi mumkin.

- Asboblar panelini sozlash bo'yicha batafsil ma'lumot uchun quyida qarang: "Asboblar klasteri", 4-55-sahifa.

Qatorni saqlashda yordam funksiyasi nosozligi va cheklovlari

Qatorni saqlashda yordam funksiyasi nosozligi




A: Haydovchiga yordam tizimini tekshiring.

Qatorni saqlashdan yordam funksiyasi nosoz bo'lsa, ogohlantirish xabari paydo bo'ladi va asboblar panelida sariq (🚗) indikator chirog'i yonadi.

Bunday holda, avtomobilni professional ustaxonada tekshirish kerak. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat ko'rsatish hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

Qatorni saqlashda yordami o'chirilgan



A: Haydovchiga yordam tizimi cheklangan. Kamera xiralashgan.

Qor yoki yomg'ir kabi begona materiallar old ko'rish kamerasi joylashgan datchiklar yoki old oynani to'sib qo'ysa, aniqlash unumdorligi kamayishi mumkin, natijada qatorni saqlash yordami vaqtincha cheklanadi yoki o'chiriladi.

Bunday holda, asboblarning panelida asosiy ogohlantirish chirog'i (▲) va sariq chiziqli xavfsizlik ogohlantirish chiroqlari (▲) bilan ogohlantirish xabari ko'rsatiladi. Bu oddiy ish jarayoni.

Qatorni saqlashda yordam funksiyasi qor, yomg'ir yoki begona materiallardan tozalanganidan keyin to'g'ri ishlaydi. Uni har doim toza tuting.

Qatorni saqlashda yordam funksiyasi begona materiallarni (qor, yomg'ir, va hokazo) tozalash yoki to'siqlarni (jumladan, orqa bampordan tirkama, tirkama-platforma va hokazo) olib tashlaganidan keyin ham to'g'ri ishlamas, avtomobilni Kia vakolatli dileri/xizmat ko'rsatish hamkori tomonidan tekshirib ko'ring.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Ogohlantirish xabari yoki ogohlantirish chirog'i asboblarning panelida ko'rinmasa ham, qatorni saqlashda yordam funksiyasi to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Avtomobilni qayta ishga tushirgandan keyin ham, to'siq yoki nosozlik holati saqlanib qolsa, qatorni saqlashda yordam funksiyasi to'g'ri ishlamasligi mumkin.

* ESLATMA

Buni asboblarning panelini ko'rsatish oynasining xizmat ma'lumotlarini ko'rish tasviridagi asosiy ogohlantirish rejimida tekshirishingiz mumkin.

Qatorni saqlashda yordam cheklovlari

Qatorni saqlashda yordam quyidagi hollarda to'g'ri ishlamasligi yoki kutilmaganda ishga tushib ketishi mumkin:

- Qator ifloslangan yoki aniqlash qiyin bo'lsa, chunki:
 - Qator chizig'i belgilari (yoki yo'l cheti) yomg'ir, qor, kir, moy va hokazolar bilan qoplangan bo'lsa.
 - Qator chizig'i belgisi (yoki yo'l cheti) rangini yo'ldan ajratib bo'lmaydigan darajada bo'lsa
 - Yo'lda qatorga yaqin joyda belgilar (yoki yo'l chetlari) mavjud yoki yo'ldagi belgilar (yoki yo'l chetlari) qator belgilariga (yoki yo'l chetlariga) o'xshash bo'lsa.
 - Qator chizig'i belgisi (yoki yo'l chetlari) noaniq yoki shikastlangan bo'lsa
 - Yo'l atrofidagi narsalarning soyasi (markaziy ajratuvchi qism, to'qnashuv to'sig'i, shovqin to'sig'i, atrofdagi butalar va boshqalar) yoki avtomobilning soyasi chiziqni qoplaganida.
- Qatorlar soni ortganda yoki kamayganda yoki qator belgilari (yoki yo'l chetlari) kesishganda
- Yo'lda ikkitadan ortiq qator belgilari (yoki yo'l chetlari) mavjud
- Qator belgilari (yoki yo'l chetlari) murakkab yoki qurilish maydonchasi kabi chiziqlar o'rnini bosadigan tuzilmalar bo'lsa.
- Zigzag qatorlar, piyodalar o'tish joylari belgilari kabi yo'l belgilari mavjud
- Qator birdan yo'qolganda, masalan, chorrahada
- Qator (yoki yo'l hoshiyasi) juda keng yoki tor bo'lsa
- Qatorsiz yo'l hoshiyasi bo'lsa
- Yo'lning qatnov qismida chegara tuzilmasi mavjud, masalan, shlagbaum, poyodalar yo'lagi, bordyur va hokazolar.

- Oldindagi avtomobilgacha bo'lgan masofa juda qisqa yoki oldindagi avtomobil qator chizig'ini (yoki hoshiyasini) to'sib olgan bo'lsa.

* ESLATMA

Old ko'rish kamerasiga oid cheklovlar haqida batafsil ma'lumot olish uchun qarang "Olddan to'qnashuvning oldini olish yordami (FCA) (Datchiklar majmuasi) (mavjud bo'lsa)", 6-5-sahifa.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Haydovchi avtomobilni xavfsiz boshqarish va nazorat qilish uchun javobgar bo'lishi kerak. Qatorni saqlashda yordam funksiyasiga butunlay ishonib qolmanf va xavfli tarzda haydamang.
- Yo'l sharoitiga va atrofdagi vaziyatga qarab, qatorni saqlashda yordam funksiyasi ishlashi bekor qilinishi yoki to'g'ri ishlamasligi mumkin. Haydash paytida doimo ehtiyot bo'ling.
- Yo'l sharoitiga va atrofdagi vaziyatga qarab, qatorni (jumladan, yo'l chetini) aniqlash qiyin bo'lgan vaziyatlarda qatorni saqlashda yordam funksiyasi ishlashi bekor qilinishi yoki to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Agar qator to'g'ri aniqlanmasa, quyidagiga qarang: "Qatorni saqlashda yordam funksiyasi nosozligi va cheklovlari", 6-31-sahifa.
- Tirkama yoki boshqa transport vositasini tortib borayotganingizda, xavfsizlik nuqtai nazaridan qatorni saqlashda yordam funksiyasini o'chirib qo'ying.
- Agar avtomobil yuqori tezlikda boshqarilsa, rul chambaragi boshqarilmaydi. Qatorni saqlashda yordam funksiyasidan foydalanganda haydovchi har doim tezlik chekloviga rioya qilishi kerak.
- Agar boshqa funksiyaning ogohlantirish xabari ko'rsatilsa yoki tovushli ogohlantirish berilsa, qatorni saqlashda yordam ogohlantirish xabari ko'rsatilmaslgi va tovushli ogohlantirish berilmasligi mumkin.
- Atrof shovqinli bo'lsa, siz qatorni saqlashda yordam funksiyasining ogohlantirish tovushini eshitmasligingiz mumkin. Avtomobil tovushini o'rta darajada sozlang va har doim atrofga e'tibor bering.
- Agar siz rul chambaragiga predmetlar biriktirsangiz, rul boshqaruvi yordami to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Qatorni saqlashda yordam funksiyasi avtomobil ishga tushirilgandan yoki old ko'rish kamerasi ishga tushirilgandan keyin taxminan 15 soniya davomida ishlamasligi mumkin.
- Qatorni saqlashda yordam quyidagi hollarda ishlamaydi:
 - Buriqlish signalini yoqilganida yoki o'chirilgandan keyin ma'lum vaqt ichida
 - Qatorni saqlashda yordam funksiyasi yoqilganida yoki qatorni almashtirgandan so'ng o'ng avtomobil qatorning markazida haydalmaganida.
 - ESC (Elektron barqarorlik nazorati) yoki VSM (Avtomobil barqarorligini boshqarish) faollashtirilganida.
 - Avtomobil egri yo'lda tez burilganida.
 - Avtomobil tezligi qatordan chiqish haqida ogohlantirish tizimining ish tezligi diapazonidan 5 km/soatdan (3 mil/soat) past yoki 10 km/soatdan (6 mil/soat) yuqori.
 - Avtomobil qatorni keskin almashtirganida.

- Avtomobil to'satdan tormozlanganida.
- Yuk vazni maksimal cheklovdan og'ir bo'lsa yoki faqat bitta yuk joyiga qo'yilgan bo'lsa, turg'un harakatlanish yomonlashishi mumkin. Bundan tashqari, u qatorni ushlab turish yordami samarasini kamaytirishi mumkin.

Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami (BCA) (mavjud bo'lsa)

Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami haydovchiga ko'rinmaydigan hududda yaqinlashib kelayotgan transport vositalarini aniqlaydi va ogohlantirish chirog'i va tovushli signali bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'qnashuv haqida ogohlantiradi. Parallel turargohdan chiqishda to'qnashuv xavfi mavjud bo'lsa, to'qnashuvning oldini olish uchun ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordamchisi avtomobilingizni tormozlashga yordam beradi.



Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami haydovchiga ko'rinmas hududda avtomobil borligini aniqlashga va uni xabardor qilishga yordam beradi.

⚠️ DIQQAT

Aniqlash diapazoni avtomobilingiz tezligiga qarab farq qilishi mumkin. Biroq ko'rinmas hududda transport vositasi bo'lsa ham, yuqori tezlikda o'tayotganingizda ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami sizni ogohlantirmasligi mumkin.



Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami haydovchiga ko'rinmas hududda avtomobil yuqori tezlikda yaqinlashayotganini aniqlashga va xabardor qilishga yordam beradi.

⚠️ DIQQAT

Ogohlantirish vaqti yuqori tezlikda yaqinlashayotgan avtomobil tezligiga qarab farq qilishi mumkin.



Parkovka joyidan oldinga qarab harakatlanayotganda, ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami ko'rinmas hududda yaqinlashib kelayotgan avtomobil bilan to'qnashuv xavfi borligini aniqlasa, tormozni bosib to'qnashuvning oldini olishga yordam berishi mumkin.

Aniqlovchi datchik

Orqa burchak radari



⚠️ DIQQAT

- Hech qachon aniqlovchi datchiklar majmuasini qismlarga ajratmang yoki unga hech qanday shikast yetkazmang.
- Agar asboblarning panelida ogohlantirish xabari ko'rinmasa ham, aniqlovchi

datchik yoki yaqinidagi datchik shikastlangan yoki biron-bir tarzda zarba olgan bo'lsa, ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami to'g'ri ishlamasligi mumkin. Tizimni professional ustaxonaga tekshirishga olib boring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat ko'rsatish hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

- Aniqlash datchiklari almashtirilgan yoki ta'mirlangan bo'lsa, avtomobilni professional ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat ko'rsatish hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.
- Orqa burchak radar datchiklari o'rnatiladigan asl Kia orqa bampirlari sifati va ishlash samadorligi ta'minlangan detallardir. Agar bampirga o'zboshimchalik bilan bo'yoq qo'llanilsa yoki o'zgartirilsa, ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami to'g'ri ishlamasligi mumkin. Bampirni ta'mirlash yoki almashtirish uchun faqat asl Kia ehtiyot qismlaridan yoki shunga teng sifat va unumdorlik bilan tasdiqlangan qismlardan foydalaning.
- Bampir almashtirilgan yoki orqa burchak radarining atrofi shikastlangan yoki bo'yoq qo'llangan bo'lsa, ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Orqa burchak radar yaqinida davlat raqami tablichkasi ramkasi yoki bampir stikeri, plyonka yoki bampir himoyalagichi kabi narsalarni qo'ymang.
- Agar tirkama, tirkamplatforma va boshqalar o'rnatilgan bo'lsa, u orqa burchak radarining ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi yoki ko'rinmas

hududda to'qnashuvning oldini olish yordami ishlamasligi mumkin.

Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami sozlamalari

Ko'rinmas hudud xavfsizligi



1 Haydovchiga yordam

2 Haydash xavfsizligi

3 Ko'rinmas hudud xavfsizligi

Avtomobil yoqilgan holda axborot-ko'ngilochar tizimida **Sozlamalar** → **Avtomobil** → **Haydovchiga yordam** → **Haydash xavfsizligi** bandini tanlang.

- **Ko'rinmas hudud xavfsizligi:** Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami to'qnashuv xavfi darajasiga qarab ogohlantiradi va tormozlash yordami qo'llaniladi.



A: Ko'rinmas hudud xavfsizligi tizimi o'chirilgan

Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami faollashtirilganda yoki avtomobil ushbu funktsiya yoqilgan holda qayta ishga tushirilganda, tashqi orqani ko'rish ko'zglasidagi ogohlantirish chirog'i taxminan 3 soniya yonib turadi.

Avtomobil ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami nafaol holda qayta ishga tushirilganida, klasterda ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.

⚠ OGOHLANTIRISH

Agar **Ko'rinmas hudud xavfsizligi** tanlanmagan bo'lsa, haydovchi doimo atrofdan xabardor bo'lishi va xavfsiz haydashi kerak.

* ESLATMA

Agar avtomobil qayta ishga tushirilsa, Ko'rinmas hududda avariyaning oldini olish yordami oxirgi sozlamani saqlab qoladi.

Ogohlantirish usuli



1 Haydovchiga yordam

2 Ogohlantirish usuli

Ogohlantirish usuli avtomobil yoqilgan holda o'rnatilishi mumkin. Quyidagi sozlamalarni o'zgartirish uchun axborot-ko'ngilochar tizimidagi sozlamalar menyusidan **Sozlash** → **Avtomobil** → **Haydovchiga yordam** → **Ogohlantirish usuli** bandini tanlang:

- **Ogohlantirish tovushi balandligi:** Ogohlantirish tovushining balandligini sozlaydi.
- **Vibratsiyali ogohlantirish:** Rul chamberagi tebranib ogohlantirishini faollashtiring. (mavjud bo'lsa)

- **Haydash xavfsizligi ustuvorligi:** Haydash xavfsizligi tizimining ogohlantirishi eshitilganida, boshqa barcha tovushlarning balandligini pasaytiradi.

* AXBOROT

- Siz o'rnatgan **Ogohlantirish usuli** boshqa haydovchiga yordam tizimlarining **Ogohlantirish usuli** uchun qo'llanilishi mumkinligiga ishonch hosil qiling.
- **Ogohlantirish usuli** avtomobil qayta ishga tushirilganda ham oxirgi sozlamasini saqlab qoladi.
- Sozlamalar menyusi avtomobil funksiyalari va texnik xususiyatlariga qarab avtomobilingiz uchun mavjud bo'lmasligi mumkin.
- **Ogohlantirish tovushi balandligi** va **Vibratsiyali ogohlantirish** bir vaqtning o'zida o'chirib bo'lmaydi. Ogohlantirishlarning biri o'chirilganda ikkinchisi faollashadi.


Ko'rinmas hududda avariyaning oldini olish yordamining ishlashi

Ko'rinmas hududda avariyaning oldini olish yordami quyidagi tarzda ogohlantiradi va nazorat qiladi.

- To'qnashuv haqida ogohlantirish
- To'qnashuvning oldini olish yordami (harakatni boshlash vaqtida)

To'qnashuv haqida ogohlantirish (haydash paytida)

Birinci ogohlantirish (chap/o'ng)



Klasterdagi ogohlantirish chirog'i, tashqi orqani ko'rish ko'zgusi va old oynadagi displey (agar mavjud bo'lsa) ikkala qatordagi avtomobil orqa tomondan aniqlanganda paydo bo'ladi.

Avtomobil quyidagi sharoitlarda aniqlanadi.

- Sizning haydash tezligingiz: 20 km/soatdan yuqori (12 mil/soat)
- Ko'rinmas hududda avtomobil tezligi: 10 km/soatdan yuqori (6 mil/soat)

Avtomobilni aniqlash holati bilan to'qnashuv haqida ogohlantirish haydovchini ko'rinmas maydon hududida qo'shni avtomobil bilan qatorni almashtirish uchun burilish signali yoqilganida ogohlantiradi.

- To'qnashuv haqida ogohlantirish haydovchini klasterdagi, tashqi orqani ko'rish ko'zgusi va old oynadagi displeyda chiqadigan ogohlantirish chirog'i (agar mavjud bo'lsa) va tovushli signal bilan ogohlantiradi.
- Burilish signali o'chirilganda yoki siz qatordan uzoqlashsangiz, to'qnashuv haqida ogohlantirish bekor qilinadi va

funksiya Avtomobilni aniqlash holatiga qaytadi.

To'qnashuv haqida ogohlantirish quyidagi sharoitlarda ishlaydi.

- Sizning haydash tezligingiz: 40 km/soatdan yuqori (25 mil/soat)
- Ko'rinmas hududda avtomobil tezligi: 10 km/soatdan yuqori (6 mil/soat)

⚠ OGOHLANTIRISH

- Orqa burchak radarining aniqlash diapazoni standart yo'l kengligi bilan belgilanadi, shuning uchun tor yo'lda ko'rinmas hududda avariyaning oldini olish yordami ikki qator naridagi boshqa transport vositalarini aniqlab, sizni ogohlantirishi mumkin. Aksincha, keng yo'lda ko'rinmas hududda avariyaning oldini olish tizimi keyingi qatorda ketayotgan transport vositasini aniqlay olmasligi va sizni ogohlantirmasligi mumkin.
- Xavf haqida ogohlantirish chirog'i yoqilgan bo'lsa, burilish signali yoqilganida to'qnashuv haqida ogohlantirish ishlamaydi.

* ESLATMA

- Agar haydovchi o'rindig'i chap tomonda bo'lsa, chapga burilgach, to'qnashuv haqida ogohlantirish paydo bo'lishi mumkin. Haydovchi o'rindig'i o'ng tomonda bo'lsa, o'ngga burilganda to'qnashuv haqida ogohlantirish paydo bo'lishi mumkin.

Qatordagi transport vositalari bilan kerakli masofani saqlang.

- Asboblarning panelining texnik xususiyatlariga yoki mavzuga qarab tasvirlar yoki ranglar turlicha ko'rsatilishi mumkin.

- Asboblarning klasteri haqida ko'proq ma'lumot olish uchun qarang "Asboblarning klasteri", 4-55-sahifa.

To'qnashuvning oldini olish yordami (harakatni boshlash vaqtida)




A: Favqulodda tormozlash

Tashqi orqani ko'rish ko'zglasidagi ogohlantirish chirog'i, old oynadagi displey (agar mavjud bo'lsa) va tovushli signal haydovchini to'qnashuv haqida ogohlantiradi. U ko'rinmas maydon hududidan yaqinlashib kelayotgan avtomobil bilan to'qnashuvning oldini olish uchun tormozlashni boshqarishga yordam beradi.

To'qnashuvning oldini olish yordami quyidagi sharoitlarda faollashadi.

- Sizning haydash tezligingiz: 3 km/soatdan past (2 mil/soat)
- Ko'rinmas hududdagi avtomobil tezligi: 5 km/soatdan yuqori (3 mil/soat)



A: Ehtiyotkorlik bilan haydang

Favqulodda tormozlanish tufayli avtomobil to'xtatilganda, klasterda ogohlantirish xabari paydo bo'ladi. Xavfsizligingiz uchun haydovchi darhol tormoz pedalini bosib, atrofni tekshirishi kerak.

- Tormozni boshqarish avtomobil taxminan 2 soniya davomida favqulodda tormozlash orqali to'xtatilgandan so'ng tugaydi.

OGOHLANTIRISH

- Xavfsizligingiz uchun avtomobilni xavfsiz joyga qo'yganingizdan so'ng Sozlamalarni o'zgartiring.
- Agar biron-bir boshqa funksiyaning ogohlantirish xabari ko'rsatilsa yoki tovushli signal chiqsa, ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordamining ogohlantirish xabari ko'rsatilmagligi va tovushli signal chiqmasligi mumkin.
- Atrof shovqinli bo'lsa, siz ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordamining ogohlantirish ovozi eshitmasligingiz mumkin. Doim diqqatli bo'ling va avtomobil tovushi balandligini o'rta darajada saqlang.
- Agar haydovchi to'qnashuvning oldini olish uchun tormoz pedalini bosgan bo'lsa, Ko'rinmas hududda avariyaning oldini olish yordami ishlamasligi mumkin.
- Ko'rinmas hududda avariyaning oldini olish yordami ishlayotganida, haydovchi gaz pedalini haddan ortiq bosganda yoki rul keskin burganida funksiya tomonidan tormozlashni boshqarish avtomatik ravishda bekor qilinadi.
- Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami ishlayotganida avtomobil to'satdan to'xtab, yo'lovchilarni jarohatlashi va bo'sh narsalarni silkitib yuborishi mumkin. Har doim xavfsizlik kamarini taqing va bo'sh predmetlarni mahkamlang.
- Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olishda muammo bo'lsa ham,

avtomobilning asosiy tormozlash funksiyasi normal ishlayveradi.

- Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami barcha holatlarda ishlamasligi mumkin va u ishlayotgan bo'lsa ham, to'qnashuvlardan qochib qutulish imkonsiz bo'lishi mumkin.
- Ko'rinmas hududda avariyaning oldini olish yordami yo'l va haydash sharoitlariga qarab haydovchini kech ogohlantirishi yoki ogohlantirmasligi mumkin.
- Avtomobilning ishlashi uchun javobgarlik haydovchiga yuklanadi. Haydash vaqtida faqat ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordamiga tayanib qolmang va doim atrofdagi sharoitlarni bevosita tekshirib, xavfsiz haydang.
- Hech qachon ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordamini odamlar, hayvonlar, narsalar va hokazolarda ishlatmang. Bu jiddiy shikastlanish yoki o'limga olib kelishi mumkin.

OGOHLANTIRISH


Tormoz boshqaruvi ESC (Elektron barqarorlikni nazorati) holatiga qarab to'g'ri ishlamasligi mumkin.

Faqat quyidagi hollarda ogohlantirish bo'ladi:

- ESC (Elektron barqarorlik nazorati) ogohlantirish chirog'i yoniq
- ESC (Elektron barqarorlik nazorati) boshqa funksiyada jalb qilingan bo'lsa

Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami nosozliklari va cheklovlari

Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordam nosozligi



A: Haydovchiga yordam tizimini tekshiring.

Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami to'g'ri ishlamasa, ogohlantirish xabari asboblari panelida bir necha soniya davomida paydo bo'ladi va paneldagi asosiy ogohlantirish chirog'i (⚠) yonadi.

Shunday holat yuz bersa, ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordamini professional ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat ko'rsatish hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.




A: Tashqi oynaning ogohlantirish belgisini tekshiring

Tashqi ortni ko'rish ko'zgusining ogohlantirish chirog'i to'g'ri ishlamasa, ogohlantirish xabari panelda bir necha soniya davomida paydo bo'ladi va paneldagi asosiy ogohlantirish chirog'i (⚠) yonadi. Shunday holat yuz bersa,

ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordamini professional ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat ko'rsatish hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami o'chirilgan



A: Haydovchiga yordam tizimi cheklangan. Radar to'silgan.

Orqa burchakdagi radar yoki datchik atrofidagi orqa bamporni qor yoki yomg'ir kabi begona materiallar bilan qoplash yoki tirkama yoki tirkama-platforma o'rnatish aniqlash immoniyatini pasaytirishi mumkin, natijada ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami vaqtincha cheklanadi yoki o'chadi.

Bu vaqtda asboblari paneli displeyida ogohlantirish xabari va asosiy ogohlantirish chirog'i (⚠) yonadi, ammo bu ko'rinmas hududda to'qnashuvining oldini olish yordami nosoz ishlashini bildirmaydi.

Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami bunday begona moddalar yoki tirkama va hokazolar olib tashlangandan so'ng va avtomobil qayta ishga tushirilganda to'g'ri ishlaydi.

Agar ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami bu narsalar olib tashlanganidan keyin to'g'ri ishlamasa, ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordamini professional ustaxonada tekshirib ko'ring. Kia vakolatli Kia dileri/

xizmat ko'rsatish hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Ogohlantirish xabari klasterda ko'rinmas ham, ko'rinmas hududda to'qnashuvining oldini olish yordamchisi to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Ko'rinmas hududda to'qnashuvni oldini olish yordami avtomobil yoqilgandan so'ng hech qanday ob'ekt aniqlanmagan hududda (masalan, ochiq joylarda) yoki aniqlovchi datchik avtomobil yoqilishi bilan begona moddalar bilan to'silganida to'g'ri ishlamasligi mumkin.

⚠ DIQQAT

Tirkama, tirkama-platforma yoki boshqa birliktirmani ulash yoki olib tashlash uchun ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordamini o'chiring. Yakunlangach, ko'rinmas hududda to'qnashuvining oldini olish yordamini yoqing.

Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordamining cheklavlari

Ko'rinmas hududda to'qnashuvining oldini olish yordami quyidagi holatlarda to'g'ri ishlamasligi yoki kutilmaganda ishga tushib ketishi mumkin:

- Kuchli qor va kuchli yomg'ir kabi noqulay ob-havoda
- Aniqlash datchigi qor, yomg'ir, kir va boshqalar bilan qoplangan bo'lsa.
- Tashqi muhit tufayli aniqlash datchigi atrofidagi harorat yuqori yoki past bo'lsa
- Aniqlash datchigi avtomobil, ustun yoki devor yaqinida harakatlanayotganda bloklanadi.

- Magistralda (yoki avtotrassada) haydalganda yoki pullik shlagbaumdan o'tilganda
- Yo'l qoplamasi (yoki periferik tuproq) g'ayritabiiy metall qismlarga ega (masalan, metro qurilishi tufayli)
- Avtotransport vositasi yaqinida qo'zg'almas obyekt mavjud, masalan, tovush to'siqlari, panjaralar, markaziy ajratgichlar, kirish to'siqlari, ko'cha chiroqlari, belgilar, tunnellar, devorlar va boshqalar (jumladan, qo'sh konstruksiyalar).
- Daraxtlar yoki o'tlar o'sib chiqqan tor yo'lda haydash
- Avtotransport vositalari yoki inshootlar kam bo'lgan keng hududlarda (masalan, cho'l, o'tloq, qishloq va boshqalar) haydaganda
- Ho'l yo'l yuzasida haydalganda, masalan, yo'dagi ko'lmak ustidan
- Boshqa transport vositasi sizning mashinangiz orqasida juda yaqin yurib kelayotganda yoki boshqa transport vositasi sizning mashinangiz yonidan o'tib ketayotganda
- Boshqa transport vositasining tezligi juda yuqori va u qisqa vaqt ichida sizning avtomobilingizdan o'tib ketganda
- Sizning mashinangiz boshqa transport vositasidan yonidan o'tib ketganda
- Avtomobilingiz qatorni o'zgartirganda
- Avtomobilingiz yoningizdagi avtomobil bilan bir vaqtda ishga tushib tezlashganda
- Keyingi qatordagi transport vositasi sizdan ikki qator uzoqlashganda yoki ikki qator uzoqdagi avtomobil sizdan keyingi qatorga o'tganda
- Orqa burchakli radar atrofida tirkama yoki telejka o'rnatilgan bo'lsa


- Orqa burchak radarining atrofidagi bampەر stikeri, velosiped tokchasi va hokazo narsalar bilan to'silgan bo'lsa.
- Orqa burchak radar atrofidagi bampەر zarb yegan, shikastlangan yoki radar joyida joylashmagan bo'lsa
- Avtomobilingizning balandligi og'ir yuk g'ildiraklardagi normal bo'lmagan bosim va boshqalar tufayli past yoki baland bo'lsa
- Quyidagi obyektlar aniqlanganda:
 - Mototsikl yoki velosiped aniqlanganida
 - Yuksiz tirkamalar kabi yassi transport vositalari
 - Avtobus yoki yuk mashinasi kabi katta transport vositasi aniqlanganida
 - Piyoda, hayvon, xarid aravachasi yoki bolalar aravachasi kabi harakatlanuvchi to'siq aniqlanganda
 - Sport avtomobili kabi past balandlikdagi transport vositasi aniqlanganida

E'tiborli bo'ling Tormoz boshqaruvi quyidagi sharoitlarda ishlamasligi mumkin:

- O'nqir-cho'nqir yo'l, notekis yo'l yoki beton yo'l yamog'i ustida harakatlanish vaqtida avtomobil qattiq tebranganida
- Qor, ko'lmak, muz va hokazolar tufayli sirpanchiq yo'l da haydaganda
- Shina bosimi past yoki shina shikastlangan bo'lsa
- Tormoz tizimi modifikatsiya qilingan bo'lsa
- Shoshilinch ravishda boshqarayotganda

⚠ OGOHLANTIRISH

- Egri chiziq bo'ylab yo'nalgan yo'l da haydaganda




Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami egri yo'l da harakatlanayotganda to'g'ri ishlamasligi mumkin. ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami keyingi qatordagi avtomobilni aniqlamasligi mumkin.

Haydash paytida har doim yo'l va haydash sharoitlariga e'tibor bering. Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami egri yo'l da harakatlanayotganda to'g'ri ishlamasligi mumkin. Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami ayni qatordagi avtomobilni aniqlashi mumkin.

Haydash paytida har doim yo'l va haydash sharoitlariga e'tibor bering.

- Nishab yo'lda haydash



Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami nishab yo'lda harakatlanayotganda to'g'ri ishlamasligi mumkin. Bu funksiya keyingi qatordagi avtomobilni aniqlamasligi yoki yerni yoki konstruksiyani noto'g'ri aniqlashi mumkin.

Haydash paytida har doim yo'l va haydash sharoitlariga e'tibor bering.

- Yo'lining birlashgan / bo'lingan qismlarida haydalganda



Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami yo'l birlashib yoki bo'linib ketadigan qismlarida harakatlanayotganda to'g'ri ishlamasligi mumkin. Bu funksiya keyingi qatordagi avtomobilni aniqlamasligi mumkin.

Haydash paytida har doim yo'l va haydash sharoitlariga e'tibor bering.

- Qatorlarning balandligi har xil bo'lgan joyda haydash



Haydash paytida har doim yo'l va haydash sharoitlariga e'tibor bering. Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami qator balandligi har xil bo'lgan joyda harakatlanayotganda to'g'ri ishlamasligi mumkin. Funksiya avtomobilni turli balandlikdagi yo'lda (yer osti o'tkazgichining birikish qismi, daraja bilan ajratilgan chorrahalar va boshqalar) bo'lgan yo'lda aniqlamasligi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Tirkama yoki boshqa transport vositasini tortib borayotganingizda, ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordamini o'chirib qo'yganingizga ishonch hosil qiling.
- Agar kuchli elektromagnit to'liqlar xalal bersa, ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami avtomobil ishga tushirilgandan yoki oldni ko'rish kamerasi yoki orqa burchak radarlari ishga tushirilgandan keyin taxminan 3 soniya davomida ishlamasligi mumkin.

Xavfsiz chiqish haqida ogohlantirish (SEW) (mavjud bo'lsa)



Avtomobilingiz to'xtatilganda va agar Xavfsiz chiqish ogohlantirishi avtomobilingizning orqa burchagiga yaqinlashayotgan transport vositasini aniqlasa va yo'lovchi eshikni ochsa, Xavfsiz chiqish ogohlantirishi to'qnashuvning oldini olish uchun sizni ogohlantirish xabari va tovushli signal bilan ogohlantirishi mumkin.

⚠️ DIQQAT

Ogohlantirish vaqti yaqinlashib kelayotgan avtomobil tezligiga qarab farq qilishi mumkin.

Aniqllovchi datchik

Orqa burchak radari



⚠️ DIQQAT

Orqa burchak radarlariga oid ehtiyot choralari haqida batafsil ma'lumot olish uchun qarang: "Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami (BCA) (mavjud bo'lsa)", 6-34-sahifa.

Xavfsiz chiqish haqida ogohlantirish sozlamalari

Xavfsiz chiqish



1 Haydovchiga yordam

2 Haydash xavfsizligi

3 Xavfsiz chiqish

Avtomobil yoniq holatda, axborot-ko'ngilochar tizimida **Sozlash** →

Avtomobil → **Haydovchiga yordam** →

Haydash xavfsizligi → **Xavfsiz chiqish** bandini tanlang.

⚠️ OGOHLANTIRISH

Agar **Xavfsiz chiqish** tanlanmagan bo'lsa, xavfsiz chiqish ogohlantirishi sizni ogohlantira olmaydi. Haydovchi doim kutilmagan va to'satdan bo'ladigan vaziyatlardan xabardor bo'lishi kerak.

* ESLATMA

Agar avtomobil qayta ishga tushirilsa, xavfsiz chiqish haqida ogohlantirishi oxirgi sozlamani saqlab qoladi.

Ogohlantirish usuli



1 Haydovchiga yordam

2 Ogohlantirish usuli

Ogohlantirish usuli avtomobil yoqilgan holda o'rnatilishi mumkin. Quyidagi sozlamalarni o'zgartirish uchun axborot-kongilochar tizimidagi sozlamalar menyusidan **Sozlash → Avtomobil → Haydovchiga yordam → Ogohlantirish usuli** bandini tanlang:

- **Ogohlantirish tovushi balandligi:** Ogohlantirish tovushining balandligini sozlaydi. Agar siz **Ogohlantirish tovushi balandligini** o'chirib qo'ysangiz xavfsizligingizni ta'minlash maqsadida funksiya sizni past tovushda ogohlantirishi mumkin.
- **Haydash xavfsizligi ustuvorligi:** Haydash xavfsizligi tizimining ogohlantirishi eshitilganida, boshqa barcha tovushlarning balandligini pasaytiradi.

* AXBOROT

- Siz o'rnatgan **Ogohlantirish usuli** boshqa haydovchiga yordam tizimlarining **Ogohlantirish usuli** uchun qo'llanilishi mumkinligiga ishonch hosil qiling.
- **Ogohlantirish usuli** avtomobil qayta ishga tushirilganda ham oxirgi sozlamasini saqlab qoladi.
- Sozlamalar menyusini avtomobil funksiyalari va texnik xususiyatlariga qarab avtomobilingiz uchun mavjud bo'lmasligi mumkin.


Xavfsiz chiqish haqida ogohlantirish ishlashi

Ogohlantirish

Xavfsiz chiqish haqida ogohlantirish quyidagi harakatlar haqida ogohlantiradi.

- Avtomobildan chiqishda to'qnashuv haqida ogohlantirish

Avtomobildan chiqishda to'qnashuv haqida ogohlantirish



A: To'qnashuv haqida ogohlantirish

Tashqi orqani ko'rish ko'zgusidagi ogohlantirish chirog'i miltilaydi va asboblar panelida ogohlantirish xabari paydo bo'ladi va tovushli signal eshitiladi.

- Xavfsiz chiqish haqida ogohlantirish quyidagi holatlarda ogohlantiradi:
 - Avtomobil tezligi 3 km/soat (2 mil/soat) dan past bo'lsa.
 - Orqadan kelayotgan avtomobilning tezligi: 6 km/soatdan (4 mil/soat) yuqori bo'lsa

⚠ OGOHLANTIRISH


- Xavfsizligingiz uchun avtomobilni xavfsiz joyga qo'yganingizdan so'ng sozlamalarni o'zgartiring.
- Agar boshqa funksiyaning ogohlantirish xabari ko'rsatilsa yoki tovushli ogohlantirish berilsa, xavfsiz chiqish haqida ogohlantirish xabari ko'rsatilmagligi va tovushli signal berilmagligi mumkin.
- Atrof shovqin bo'lsa, siz xavfsiz chiqish haqida ogohlantirishining ogohlantirish tovushini eshitmasligingiz mumkin. Avtomobildagi tovush balandligini to'g'ri sozlang va doimo diqqatli bo'ling.
- Xavfsiz chiqish haqida ogohlantirish barcha holatlarda ishlamasligi yoki barcha to'qnashuvlarning oldini ololmasligi mumkin.
- Xavfsiz chiqish haqida ogohlantirish haydovchini kech ogohlantirishi yoki avtomobil va haydash sharoitlariga qarab ogohlantirmasligi mumkin. Har doim avtomobilning atrofni tekshiring.
- Transport vositasidan chiqish paytida sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar uchun haydovchi va yo'lovchilar javobgardir. Avtomobildan chiqishdan oldin har doim atrofni tekshiring.

* ESLATMA

- Avtomobil o'chirilgandan so'ng, xavfsiz chiqish haqida ogohlantirish taxminan 3 daqiqa ishlaydi, lekin eshiklar qulflangan bo'lsa, darhol o'chadi.
- Asboblar panelining texnik xususiyatlariga yoki mavzuga qarab tasvirlar yoki ranglar turlicha ko'rsatilishi mumkin.

Xavfsiz chiqish haqida ogohlantirish nosozliklari va cheklovlari

Xavfsiz chiqish haqida ogohlantirishining nosozliklari



A: Haydovchiga yordam tizimini tekshiring.

Xavfsiz chiqish haqida ogohlantirish to'g'ri ishlamasa, asboblar panelida ogohlantirish xabari paydo bo'ladi va ma'lum vaqt davomida asboblar panelida asosiy ogohlantirish chirog'i (⚠) yonadi.

Xavfsiz chiqish haqida ogohlantirish tizimini professional ustaxonada tekshirib ko'ring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat ko'rsatish hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.




A: Tashqi ko'rish ko'zgusining ogohlantirish belgisini tekshiring

Tashqi orqani ko'rish ko'zgusining ogohlantirish chirog'i to'g'ri ishlamasa, ogohlantirish xabari ma'lum vaqt davomida asboblar panelida yonadi va asboblar panelida asosiy ogohlantirish chirog'i (⚠) yonadi.

Xavfsiz chiqish haqida ogohlantirish tizimini professional ustaxonada tekshirib ko'ring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat

ko'rsatish hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

Xavfsiz chiqish haqida ogohlantirish o'chirilgan



A: Haydovchiga yordam tizimi cheklangan. Radar to'silgan.

Orqa burchak radar yoki datchik atrofidagi orqa bampor qor yoki yomg'ir kabi begona moddalar bilan qoplangan bo'lsa yoki tirkama yoki telejka o'rnatilgan bo'lsa, u aniqlash imkoniyatini pasaytiradi va xavfsiz chiqish ogohlantirishi funksiyasini vaqtincha cheklaydi yoki uni o'chiradi.

Bu vaqtda panel displeyida ogohlantirish xabarlar va asosiy ogohlantirish chiroqlari (A) yonadi, ammo bu xavfsiz chiqish yordami ishlamay qolganligini bildirmaydi.

Xavfsiz chiqish ogohlantirishi bunday begona materiallar yoki tirkama olib tashlangandan so'ng avtomobil qayta ishga tushirilganda normal ishlay boshlaydi.

Agar u olib tashlanganidan keyin xavfsiz chiqish haqida ogohlantirishi normal ishlamasa, Kia vakolatli Kia dileri/xizmat ko'rsatish hamkoriga tashrif buyurishingizni tavsiya qiladi.

A OGOHLANTIRISH

- Ogohlantirish xabari priborlar panelida ko'rinmasa ham, xavfsiz chiqish ogohlantirishi to'g'ri ishlamasligi mumkin.

- Xavfsiz chiqish ogohlantirishi avtomobil yoqilgandan so'ng biror-modda aniqlanmagan hududda (masalan, ochiq joylarda) to'g'ri ishlamasligi mumkin yoki aniqlovchi datchiki avtomobil yoqilgandan so'ng darhol begona moddalar bilan to'silgan bo'lishi mumkin.

A DIQQAT

Yuk javonlari yoki boshqa jihozlardan foydalanganda xavfsiz chiqish haqida ogohlantirishini o'chiring. Xavfsiz chiqish haqida ogohlantirishidan foydalanish uchun yuk javonlarini yoki boshqa jihozlarni olib tashlang.

Xavfsiz chiqish haqida ogohlantirish cheklovlari

Quyidagi holatlarda xavfsiz chiqish ogohlantirishi normal ishlamasligi mumkin yoki xavfsiz chiqish ogohlantirishi kutilmaganda ishga tushishi mumkin.

- Daraxtlar yoki o'tlar o'sgan joyda transport vositasidan chiqqanda
- Yo'l ho'l bo'lgan joyda transport vositasidan chiqqanda
- Yaqinlashib kelayotgan avtomobil tezligi juda yuqori yoki juda pastn bo'lsa

*** ESLATMA**

Orqa burchak radarlariga oid ehtiyot choralari haqida batafsil ma'lumot olish uchun qarang: "Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami (BCA) (mavjud bo'lsa)", 6-34-sahifa.

A OGOHLANTIRISH

- Xavfsiz chiqish ogohlantirishi kuchli elektromagnit to'lqinlar shovqini tufayli normal ishlamasligi mumkin.

- Xavfsiz chiqish ogohlantirishi avtomobil qayta ishga tushirilgandan yoki orqa burchak radarlari ishga tushirilgandan keyin taxminan 3 soniya davomida ishlamasligi mumkin.
- Avtomobilni qayta ishga tushirgandan keyin ham, to'siq yoki nosozlik holati davom etsa, xavfsiz chiqish ogohlantirishi to'g'ri ishlamaydi.

Xavfsiz chiqish yordami (SEA) (mavjud bo'lsa)



Avtomobilingiz to'xtatilganda va agar Xavfsiz chiqish ogohlantirishi avtomobilingizning orqa burchagiga yaqinlashayotgan transport vositasini aniqlasa va yo'lovchi eshikni ochsa, Xavfsiz chiqish ogohlantirishi to'qnashuvning oldini olish uchun sizni ogohlantirish xabari va tovushli signal bilan ogohlantirishi mumkin.



Bolalar xavfsizligi elektron qulfi tugmasi LOCK holatida bo'lganida va orqa tomondan yaqinlashib kelayotgan avtomobil aniqlanganda, haydovchi orqa eshiklarining ochilishiga yo'l qo'ymaslik uchun tugmani bosgan taqdirda ham bolalar xavfsizligi elektron qulfi (🔒) tugmasi qulfdan chiqmaydi.

⚠️ DIQQAT

Ogohlantirish vaqti yaqinlashib kelayotgan avtomobil tezligiga qarab farq qilishi mumkin.

Aniqllovchi datchik

Orqa burchak radari



OGL3054007

⚠️ DIQQAT

Orqa burchak radarlariga oid ehtiyot choralari haqida batafsil ma'lumot olish uchun qarang: "Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish yordami (BCA) (mavjud bo'lsa)", 6-34-sahifa.

Xavfsiz chiqish yordami sozlamalari

Xavfsiz chiqish



OGL3054221L

1 Haydovchiga yordam

2 Haydash xavfsizligi

3 Xavfsiz chiqish

Avtomobil yoniq holatda, axborot-ko'ngilochar tizimida **Sozlash → Avtomobil → Haydovchiga yordam → Haydash xavfsizligi → Xavfsiz chiqish** bandini tanlang.

⚠️ OGOHLANTIRISH

Haydovchi doimo yon-atrofidan xabardor bo'lib turishi kerak. Agar **Xavfsiz chiqish** funksiyasi tashlanmagan bo'lsa, xavfsiz

chiqish yordami sizga yordam bera olmaydi.

* ESLATMA

Avtomobil qayta ishga tushirilsa, xavfsiz chiqish yordami oxirgi sozlamani saqlab qoladi.

Ogohlantirish usuli



OGL3054197L

1 Haydovchiga yordam

2 Ogohlantirish usuli

Ogohlantirish usuli avtomobil yoqilgan holda o'rnatilishi mumkin. Quyidagi sozlamalarni o'zgartirish uchun axborot-ko'ngilochar tizimidagi sozlamalar menyusidan **Sozlash → Avtomobil → Haydovchiga yordam → Ogohlantirish usuli** bandini tanlang:

- **Ogohlantirish tovushi balandligi:** Ogohlantirish tovushining balandligini sozlaydi. Agar siz **Ogohlantirish tovushi balandligini** o'chirib qo'ysangiz xavfsizligingizni ta'minlash maqsadida funksiya sizni past tovushda ogohlantirishi mumkin.
- **Haydash xavfsizligi ustuvorligi:** Haydash xavfsizligi tizimining ogohlantirishi eshitilganida, boshqa barcha tovushlarning balandligini pasaytiradi.

* AXBOROT

- Siz o'rnatgan **Ogohlantirish usuli** boshqa haydovchiga yordam tizimlarining **Ogohlantirish usuli**

uchun qo'llanilishi mumkinligiga ishonch hosil qiling.

- **Ogohlantirish usuli** avtomobil qayta ishga tushirilganda ham oxirgi sozlamasini saqlab qoladi.
- Sozlamalar menyusi avtomobil funksiyalari va texnik xususiyatlariga qarab avtomobilingiz uchun mavjud bo'lmasligi mumkin.


Xavfsiz chiqish yordamining ishlashi

Ogohlantirish va boshqarish

Xavfsiz chiqish yordami quyidagi harakatlar haqida ogohlantiradi.

- Avtomobildan chiqishda to'qnashuv haqida ogohlantirish
- Xavfsiz chiqish yordami elektron bolalar xavfsizligi qulfi bilan bog'langan bo'lsa

Avtomobildan chiqishda to'qnashuv haqida ogohlantirish




A: To'qnashuv haqida ogohlantirish

Tashqi orqani ko'rish ko'zgusidagi ogohlantirish chirog'i miltillaydi va asboblari panelida ogohlantirish xabari paydo bo'ladi va tovushli signal eshitiladi.

- Avtotransport vositasidan chiqayotganda to'qnashuv haqida ogohlantirish quyidagi hollarda ishlaydi:
 - Avtomobil tezligi 3 km/soat (2 mil/soat) dan past bo'lsa.
 - Orqadan kelayotgan avtomobilning tezligi: 6 km/soatdan (4 mil/soat) yuqori bo'lsa

Xavfsiz chiqish yordami elektron bolalar xavfsizligi qulfi bilan bog'langan bo'lsa



A: Ko'rinmas hududda tirbandlikni tekshiring, keyin qayta urining

Tashqi orqani ko'rish ko'zgusidagi ogohlantirish chirog'i miltillaydi va klasterda ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.

- Elektron bolalar xavfsizligi qulfiga ulangan xavfsiz chiqish yordami quyidagi sharoitlarda ishlaydi:
 - Avtomobil tezligi 3 km/soat (2 mil/soat) dan past bo'lsa.

- Orqadan kelayotgan avtomobilning tezligi: 6 km/soatdan (4 mil/soat) yuqori bo'lsa

* ESLATMA

Bolalar xavfsizligi elektr qulfi tugmasi haqida batafsil ma'lumot olish uchun qarang "Bolalar xavfsizligi elektron qulfi tizimi (mavjud bo'lsa)", 4-19-sahifa.

! OGOHLANTIRISH

Agar haydovchi ogohlantirish xabari paydo bo'lgandan keyin 10 soniya ichida bolalar xavfsizligi elektron qulfini yopish tugmasini yana bossa, xavfsiz chiqish yordami haydovchi orqadagi holatni hisobga olgan holda eshiklarni ochgan deb baholaydi. Elektron bolalar xavfsizligi qulfi o'chadi (tugma indikator O'CHIQ) va orqa eshiklar qulfdan chiqariladi. Elektron bolalar xavfsizligi qulfi tugmasini o'chirishdan oldin har doim atrofni tekshiring.

* ESLATMA

Agar orqa eshik tashqaridan ochilsa, u xavfsiz chiqish yordami ishlayotganidan qat'i nazar ochiladi.

! OGOHLANTIRISH

- Xavfsizligingiz uchun avtomobilni xavfsiz joyga qo'yganingizdan so'ng Sozlamalarni o'zgartiring.
- Har qanday boshqa funksiyaning ogohlantirish xabari ko'rsatilsa yoki tovushli signal chiqsa, Xavfsiz chiqish yordami ogohlantirish xabari ko'rsatilmagligi va tovushli signal chiqmasligi mumkin.
- Agar atrof shovqinli bo'lsa, xavfsiz chiqish yordamining ogohlantirish ovozini eshitmasligingiz mumkin.

Avtomobildagi tovush balandligini to'g'ri sozlang va doimo diqqatli bo'ling.


- Xavfsiz chiqish yordami barcha holatlarda ishlamaydi yoki barcha to'qnashuvlarning oldini olmaydi.
- Xavfsiz chiqish yordami yo'l va haydash sharoitlariga qarab haydovchini kech ogohlantirishi yoki umuman ogohlantirmasligi mumkin. Har doim avtomobilning atrofni tekshiring.
- Transport vositasidan chiqish paytida sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar uchun haydovchi va yo'lovchilar javobgardir. Avtomobildan chiqishdan oldin har doim atrofni tekshiring.
- Hech qachon Xavfsiz chiqish yordamini ataylab ishlatmang. Bunday qilish jiddiy jarohat yoki o'limga olib kelishi mumkin.

* ESLATMA

- Avtomobil o'chirilgandan so'ng, Xavfsiz chiqish yordami taxminan 3 daqiqa ishlaydi, lekin eshiklar qulflangan bo'lsa, darhol o'chadi.
- Asboblarning panelidagi tasvirlar va ranglar panel turiga yoki sozlamalar menyusidan tanlangan mavzuga qarab farq qilishi mumkin.

Xavfsiz chiqish yordami nosozliklari va cheklovlari


Xavfsiz chiqish yordamining nosozliklari



A: Haydovchiga yordam tizimini tekshiring.

Xavfsiz chiqish ogohlantirishi to'g'ri ishlamayotgan bo'lsa, panelda bir necha soniya davomida ogohlantirish xabari paydo bo'ladi va paneldagi asosiy ogohlantirish chirog' (A) yonadi. Xavfsiz


Xavfsiz chiqish yordami funksiyasini professional ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat ko'rsatish hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.



Xavfsiz chiqish yordami funksiyasini professional ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat ko'rsatish hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

Xavfsiz chiqish yordami o'chirilgan

Orqa burchak radari yoki datchik atrofidagi orqa bampor qor yoki yomg'ir kabi begona moddalar bilan qoplangan bo'lsa yoki treyler yoki tirkama o'rnatilgan bo'lsa, bu aniqlash imkoniyatini pasaytiradi va Xavfsiz chiqish yordamini vaqtincha cheklaydi yoki o'chiradi.



A: Haydovchiga yordam tizimi cheklangan. Radar to'silgan.

Bu vaqtda klaster displeyida ogohlantirish xabari va asosiy ogohlantirish chirog'i (A) ko'rsatiladi, ammo bu Xavfsiz chiqish yordami ishlamay qolganligini bildirmaydi.

Xavfsiz chiqish yordami bunday begona moddalar yoki tirkama va hokazolar olib

chiqish yordamida nosozlik kuzatilsa, muayyan vaqt davomida asboblari paneli displeyida ogohlantirish xabari ko'rsatiladi va bosh ogohlantirish chirog'i (A) yonadi. Agar u to'g'ri ishlamayotgan bo'lsa, vakolatli Kia dileri/xizmat ko'rsatish hamkoriga borishingizni tavsiya qilamiz.

A: Tashqi ko'rish ko'zgusining ogohlantirish belgisini tekshiring

Tashqi ortni ko'rish ko'zgusining ogohlantirish chirog'i to'g'ri ishlamasa, ogohlantirish xabari panelda bir necha soniya davomida paydo bo'ladi va paneldagi asosiy ogohlantirish chirog'i (A) yonadi.

tashlanganidan keyin avtomobil qayta ishga tushirilganida normal ishlay boshlaydi.

Agar Xavfsiz chiqish yordami ular olib tashlanganidan keyin to'g'ri ishlamasa, Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishingizni tavsiya qiladi.

A OGOHLANTIRISH

- Klasterda ogohlantirish xabari ko'rinmasa ham, Xavfsiz chiqish yordami to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Xavfsiz chiqish yordami avtomobil yoqilishi bilan hech qanday obyekt aniqlanmagan hududda (masalan, ochiq joylarda) yoki aniqlovchi datchik avtomobil yoqilishi bilan begona moddalar bilan to'silganida to'g'ri ishlamasligi mumkin.

*** ESLATMA**

Buni asboblari panelini ko'rsatish oynasining xizmat ma'lumotlarini ko'rish tasviridagi asosiy ogohlantirish rejimida tekshirishingiz mumkin.

⚠ DIQQAT

Tirkama, tashuvchi yoki boshqa biriktirma o'rnatish yoki olib tashlash uchun Xavfsiz chiqish yordami funksiyasini o'chiring. Yakunlangach, xavfsiz chiqish yordamini yoqing.

- Spirтли ichimliklar ta'sirida bo'lganingizda Masofadan smart parkovka yordamidan foydalanmang.
- Bolalarga yoki boshqa odamlarga aqlli kalitdan foydalanishiga yo'l qo'ymang.
- Agar Masofadan smart parkovka yordami uzoq vaqt davomida davomli ravishda ishlatilsa, bu Masofadan smart parkovka yordami ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- Masofadan smart parkovka yordami, agar avtomobil g'ildirak tekisligini sozlash kerak bo'lsa, masalan, avtomobil bir tomonga egilsa, normal ishlamasligi mumkin. Avtomobilni Kia vakolatli dileri/xizmat ko'rsatish sherigida tekshirishni tavsiya qilamiz.
- Remote Smart Parking Yordamchi tomonidan tormozlash sodir bo'lganda yoki haydovchi tomonidan tormoz pedalini bosganda shovqin eshilitilishi mumkin.
- Masofadan smart parkovka yordami to'qnashuvning oldini olish uchun to'satdan tormozni bosishi mumkin.
- Masofadan smart parkovka yordamidan faqat avtomobil xavfsiz harakatlanishi uchun yetarlicha katta bo'lgan parkovka joyi bo'lsagina foydalaning.
- Masofaviy smart parkovka yordami to'g'ri ishlamasa, avtomobilni Kia vakolatli dileriga tekshirtiring.

* ESLATMA

- Agar Masofadan smart parkovka yordami ishlayotgan vaqtda oldinga/ orqaga yurib parkovka qilganda masofa haqida ogohlantirishning 3-bosqich ogohlantirishi (uzluksiz ovozli signal) eshiltilsa, bu aniqlangan to'siq avtomobilingizga yaqin ekanligini bildiradi. Ayni paytda Masofadan smart

parkovka yordami vaqtincha ishlashdan to'xtaydi. Avtomobilingiz atrofida piyodalar, hayvonlar yoki narsalar yo'qligiga ishonch hosil qiling.

- Tormozning ishlashiga bog'liq holda, avtomobil harakatlanayotganda stop chiroqlar yonishi mumkin.
- Agar uzoq vaqt sovuq havoda parkovka qilingan avtomobil masofadan ishga tushirilsa, Masofadan smart parkovka funksiyasi ishlashi avtomobil holatiga qarab kechikishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Muvofiqlik deklaratsiyasi

Radiochastota komponentlari (old radar) quyidagilarga mos keladi (o'rnatilgan bo'lsa):

Yevropa va CE sertifikatiga ega mamlakatlar uchun



Model : MRR-30

Hereby MRR-30 has been so constructed that it can be operated in at least one Member State without infringing applicable requirements of use of radio spectrum. (RED article 10.2)

Hereby, HL Klemove Corp declares that the radio equipment type MRR-30 is in compliance with Directive 2014/53/EU.

The full text of the EU declaration of conformity is available at the following as next page. (Case 1 : Include DoC in manual)

Case 2 : <https://hiklemove.com/solutions.html>

OSG2EV052185L

Koreya uchun



기자재의 명칭 : 특정소출력 무선기기

모델명 : MRR-30

인증번호 : R-C-MF3-MRR-30

OSG2EV052186L

Birlashgan Qirollik uchun



<https://hiklemove.com/solutions.html>

OSG2EV052187L


Yaponiya uchun



R 217-210200

OSG2EV052188L

Ummon uchun



OSG2EV052189L

Iordaniya uchun

TRC/31/9731/2022

OSG2EV052190L

O'zbekiston uchun



OSG2EV052191L

BAA uchun



OSG2EV052192L

Isroil uchun

תורשקתה דרשם סעטמ המאתה רושיא רפסמ : 55-11766
ויתונות תא תונשל ידכ ןהב שיש רישכמב תולועפ עצלל רושיא לח
הז ללכבו, רישכמה לש תויטוחלאה
רוביחל תורשפא תפסוה וא תירוקמ הנטנא תפלחה, הנכות ייגוש
רושיא תלבק אלכ, תינוציח הנטנאל
תויטוחלא תוערפהל ששחה לשב, תורשקתה דרשם

OSG2EV052193L

Tailand uchun



OSG2EV052194L

Paraguay uchun



NR : 2021-03-I-0138

OSG2EV052196L

Tayvan uchun



電信法第 4B 條, 低功率電波輻射性電機管理辦法
第十二條

經型式認證合格之低功率射頻電機, 非經許可, 公司、商號或使用者均不得擅自變更頻率、加大功率或變更原設計之特性及功能。

第十四條

低功率射頻電機之使用不得影響飛航安全及干擾合法通信; 經發現有干擾現象時, 應立即停用, 並改善至無干擾時方得繼續使用。

前項合法通信, 指依電信法規定作業之無線電通信。低功率射頻電機須忍受合法通信或工業、科學及醫療用電波輻射性電機設備之干擾。

Article 12

Without permission, any company, firm or user shall not alter the frequency, increase the power, or change the characteristics and functions of the original design of the certified lower power frequency electric machinery.

Article 14

The application of low power frequency electric machineries shall not affect the navigation safety nor interface a legal communication, if an interference is found, the service will be suspended until improvement is made and the interference no longer exist.

OSG2EV052195L

Singapur uchun

Complies with
IMDA Standards
N1589-22

OSG2EV052197L

Indoneziya uchun



83751/SDPPI/2022
13085



OSG2EV052201L

Filippin uchun



NTC

Type Approved

No. ESD-RCE-2229515

OSG2EV052198L

Meksika uchun

IFT : RCPHLMR22-2323

OSG2EV052199L

Braziliya uchun



08153-19-10153

OSG2EV052200L

Xitoy uchun

CMIIT : 2022LJ8532

前碰撞防止辅助系统不是所有工况下都启动的, 安装情况有可能无法避开碰撞。车辆的操作责任在驾驶员, 随之, 不得依赖前碰撞防止辅助系统而驾驶, 应时刻确保安全距离并注视前方, 应遵守驾驶员义务驾驶

OSG2EV052202L

Janubiy Afrika uchun



TA-2021/3156

APPROVED

OSG2EV052203L

Qo'shma Shtatlar va Qo'shma Shtatlar hududlari uchun

FCC ID
: 2A302-MRR30

This device complies with Part 15 of the FCC Rules. Operation is subject to the following two conditions:

- (1) this device may not cause harmful interference, and
- (2) this device must accept any interference received, including interference that may cause undesired operation.

CAUTION TO USERS

Changes or modifications not expressly approved by the party responsible for compliance could void the user's authority to operate the equipment.

OSG2EV052204L

Kanada uchun

Model: MRR-30
IC: 27992-MRR30

This device complies with Industry Canada licence-exempt RSS standard(s). Operation is subject to the following two conditions:
(1) this device may not cause interference, and

(2) this device must accept any interference, including interference that may cause undesired operation of the device.

Le présent appareil est conforme aux CNR d'Industrie Canada applicables aux appareils radio exempts de licence. L'exploitation est autorisée aux deux conditions suivantes:

- (1) l'appareil ne doit pas produire de brouillage, et
- (2) l'utilisateur de l'appareil doit accepter tout brouillage radioélectrique subi, même si le brouillage est susceptible d'en compromettre le fonctionnement.

OSG2EV052205L

Radiochastota komponentlari (old burchak radari/orqa burchak radari) quyidagilarga mos keladi: (jihozlangan bo'lsa)

6

Qo'shma Shtatlar va Qo'shma Shtatlar hududlari uchun



OCV051263N

FCC ID : LTQ2H5TR

This device complies with Part 15 of the FCC Rules.
Operation is subject to the following two conditions:
(1) this device may not cause harmful interference,
and

(2) this device must accept any interference
received, including interference that may cause
undesired operation.

CAUTION TO USERS

Changes or modifications not expressly approved by
the party responsible for compliance could void the
user's authority to operate the equipment.

ONQ5P052042N

Singapur uchun

Complies with
IMDA Standards
DA 103787

ONQ5052046L

Malayziya uchun



ONQ5052070L

Yaponiya uchun

This device is granted pursuant to the Japanese
Radio Law
under the grant ID n° : 203-JN1244
This device should not be modified (otherwise the
granted designation number will become invalid)

本製品は、電波法に基づく特定無線設備の技術基準適合証明
などを受けております。 認証番号: 203-JN1053
本製品の改造は禁止されています。(適合証明番号などが無
□となります。)

ONQ5052163L

Yevropa va CE sertifikatiga ega
mamlakatlar uchun

Declaration of Conformity
Radiocontrolled Vehicle components



Hereby, APTIV, 42367 Wuppertal declares that this
2H5TR is in compliance with the essential
requirements and other relevant provisions of
Directive 2014/53/EU (RED).

The original declaration of conformity can be
accessed at the following link :
www.aptiv.com/automotive-homologation

frequency band 76-77 GHz
Maximum Output Power 30 dBm (1.0 W)

ONQ5052158L

Birlashgan Qirollik uchun



Hereby, APTIV, 42367 Wuppertal declares that this
2H5TR is in compliance with the essential
requirements and other relevant provisions of
Directive Radio Equipment Regulations 2017.

frequency band 76-77 GHz
Maximum Output Power 30 dBm (1.0 W)

ONQ5052160L

Avstraliya uchun



ONQ5EP051153L

Nigeriya uchun

Connection and use of this communications equipment is permitted by the Nigerian Communications Commission

ONQ5052064L

Serbiya uchun



ONQ5052161L

Meksika uchun

IFETEL: RCPAP2H22-1601

"La operación de este equipo está sujeta a las siguientes dos condiciones:

(1) es posible que este equipo o dispositivo no cause interferencia perjudicial y (2) este equipo o dispositivo debe aceptar cualquier interferencia, incluyendo la que pueda causar su operación no deseada."

ONQ5052078L

Marokash uchun

AGREE PAR L'ANRT MAROC
Numéro d'agrément : MR00032369ANRT2022
Date d'agrément : 22/03/2022

ONQ5E052155L

Braziliya uchun



04905-22-10187

ONQ5052173L

Este equipamento opera em caráter secundário, isto é, não tem direito à proteção contra interferência prejudicial, mesmo de estações do mesmo tipo, e não pode causar interferência a sistemas operando em caráter primário.

ONQ5052172L

Janubiy Afrika Respublikasi uchun



ONQ5052060L

Paragvay uchun



NR: 2022-02-I-0095

ONQ5052079L

Zambiya uchun



ZMB/ZICTA/TA/2022/3/16

ONQ5052063L

Ummon uchun

Oman – TRA

D172299

TRA/TA-R/13542/22

ONQ5052069L

Gana uchun

NCA approved: 7E6-M1-X63-SRD

ONQ5052157L

Pokiston uchun



ONQ5052082L

Senegal uchun

AGREE PAR ARTP SENEGAL

Numéro d'agrément : 072229/AG/ER

ONQ5052159L

Indoneziya uchun

83300/SDPPI/2022

10976




ONQ5052045L

Iordaniya uchun

TRC/31/9883/2022

ONQ5052054L

Tayvan uchun



電信法第 4B 條, 低功率電波輻射性電機管理辦法
第十二條

經型式認證合格之低功率射頻電機, 非經許可, 公司、商號或使用者均不得擅自變更頻率、加大功率或變更原設計之特性及功能。

第十四條

低功率射頻電機之使用不得影響飛航安全及干擾合法通信; 經發現有干擾現象時, 應立即停用, 並改善至無干擾時方得繼續使用。

前項合法通信, 指依電信法規定作業之無線電通信。低功率射頻電機須忍受合法通信或工業、科學及醫療用電波輻射性電機設備之干擾。

Article 12

Without permission, any company, firm or user shall not alter the frequency, increase the power, or change the characteristics and functions of the original design of the certified lower power frequency electric machinery.

Article 14

The application of low power frequency electric machineries shall not affect the navigation safety nor interface a legal communication, if an interference is found, the service will be suspended until improvement is made and the interference no longer exist.

ONQ5052162L

Isroil uchun


14. **חובות היצרן והמכשיר**
לצר היצרן ידאג להכנת שילת אריות חובות של המכשיר וידבק מדבקת, בה ייתר רשום כי:
א. היצרן מכשיר רשום על בסיס "מספר" ומספר מרשיון הפעלה אלוטרי.
ב. לא מוגן מהפרעות ולא הפרעה למערכות אחרות הפועלות כדן.
ג. רק "בעלות בוק" לשימוש עצמי של הקולק בלבד, הוציא מספר מרשיון הפעלה אלוטרי.
ד. "שירות בוק" לבדו מרשיון מיוחד במספר התקשורת.
ה. מספר המכשיר את האנטנה התקשורת של המכשיר, ולא לשנות בו כל שינוי מספר אחר.

תקן מספר: 63-66570

א. השימוש במכשיר הרג על בסיס "מספר" ומספר מרשיון הפעלה אלוטרי.
ב. לא מוגן מהפרעות ולא הפרעה למערכות אחרות הפועלות כדן.
ג. רק "בעלות בוק" לשימוש עצמי של הקולק בלבד, הוציא מספר מרשיון הפעלה אלוטרי.
ד. "שירות בוק" לבדו מרשיון מיוחד במספר התקשורת.
ה. מספר המכשיר את האנטנה התקשורת של המכשיר, ולא לשנות בו כל שינוי מספר אחר.
ד. האישור תכל תקף אך ורק עבור ציוד אלוטרי, "operating frequencies of the device".
הפעל בתחום הדורים של.
הפעל הציוד של את עולה על "output power of the device".

ONQ5052094L

Tailand uchun



- 1) เครื่องโทรคมนาคมและอุปกรณ์นี้ มีความสอดคล้องตามมาตรฐานหรือข้อกำหนดของ กสทช.
- 2) เครื่องวิทยุคมนาคมนี้มีระดับการแผ่คลื่นแม่เหล็กไฟฟ้าสอดคล้องตามมาตรฐานความปลอดภัยต่อสุขภาพของมนุษย์จากการใช้เครื่องวิทยุคมนาคมที่คณะกรรมการกิจการโทรคมนาคมแห่งชาติประกาศกำหนด

ONQ5052044L

Filippin uchun



NTC

Type Approved
No. ESD-RCE-2229725

ONQ5052165L

BAA uchun



TDRA – United Arab Emirates
Dossier ID: DA096349711
TA REF: E060574-22
Model: 2H5TR
Product Type: Vehicle Radar



ONQ5052156L

Ukraina uchun



UA RF: 1APTIV 2HTR

OGL3053266L

справним (найменування виробника) заявляє, що тип радіобладнання (позначення типу радіобладнання) відповідає Технічному регламенту радіобладнання:

повний текст декларації про відповідність доступний на веб-сайті за такою адресою:
www.aptiv.com/automotive-homologation

OGL3053267L

Xitoy uchun

车辆驾驶辅助雷达系统型号：2H5TR
执行标准：汽车雷达无线电管理暂行规定 2021 181号文
频率范围：76~77 GHz
发射功率：等效全向辐射功率(EIRP) 30dBm
天线类型：印刷阵列天线
用户控制：不可
使用温度：-40°C~+85°C
电压：DC 12.0V
QM/IT ID：2022LJ18795

不得擅自更改发射频率、发射功率（包括额外加装射频功率放大器），不得擅自外接天线或改用其它发射天线

使用时不得对各种合法的无线电通信业务产生有害干扰；一旦发现有害干扰现象时，应立即停止使用，并采取措施消除干扰后方可继续使用

使用微功率无线电设备，必须耐受各种无线电业务的干扰或工业、科学及医疗应用设备的辐射干扰

机场等的电磁环境保护区域内使用微功率设备，应当遵守电磁环境保护及相关行业主管部门的规定

OGL3053268L

Favqulodda holatlarda nima qilish kerak

Yo'lda ogohlantirish	7-3
• Avariya ishorasi uchquni.....	7-3
Haydash vaqtida favqulodda holat yuzaga kelsa	7-4
• Haydash vaqtida avtomobil o'chib qolsa	7-4
• Dvigatel chorraha yoki kesib o'tish joyida o'chib qolsa	7-4
• Haydash vaqtida shinaning dami chiqib ketsa	7-4
Dvigatel ishga tushmasa	7-5
• Dvigatel aylanmasa yoki sekin aylansa	7-5
• Dvigatel odatdagidek aylansa, lekin ishga tushmasa	7-5
Favqulodda ishga tushirish	7-6
• Tashqi manba yordamida ishga tushirish.....	7-6
• Itarib ishga tushirish	7-7
Dvigatel haddan ortiq qizib ketsa	7-8
Shina bosimi nazorati tizimi (TPMS)	7-10
• Past shina bosimi ko'rsatkichi	7-11
• Shina bosimi nazorati tizimining (TPMS) nosozlik indikatorini	7-12
• TPMS yordamida shinani almashtirish	7-13
Shinaning dami chiqib ketsa (zaxira shina bilan)	7-15
• Domkrat va asboblar	7-15
• Zaxira shinani yechib olish va saqlash.....	7-16
• Shinalarni almashtirish	7-16
• Domkrat yorlig'i	7-20
• Domkrat uchun muvofiqlik deklaratsiyasi.....	7-22
Tortish	7-24
• Tortish xizmati.....	7-24
• Yechiladigan shatak ilgagi	7-25
• Favqulodda tortish.....	7-25
Favqulodda holat vositasi.....	7-28
• O't o'chirgich.....	7-28
• Tibbiy yordam qutisi	7-28

Favqulodda holatlarda nima qilish kerak

- Uchburchak reflektor 7-28
- BAA Favqulodda chaqiruv tizimi 7-28**
- Avtomobildagi favqulodda chaqiruv tizimi tavsifi 7-29
- Ma'lumotlarni qayta ishlash haqida 7-29
- ERA-GLONASS favqulodda chaqiruvi 7-34**
- ERA-GLONASS tizimi 7-35

Favqulodda holatlarda nima qilish kerak

Yo'lda ogohlantirish

Avtomobil boshqarish vaqtida favqulodda holat yuzaga kelsa yoki harakatlanish qismi chetida to'xtab turganingizda, yaqinlashib kelayotgan yoki o'tib ketayotgan transport vosiyatali ehtiyotkorlik bilan harakatlanishi uchun ularni ogohlantirishingiz kerak. Buning uchun avariya ishorasi chiroqlaridan foydalanishingiz kerak.

Avariya ishorasi uchquni

Avariya ishorasi uchquni boshqa haydovchilar uchun avtomobilingizga yaqinlashayotgan, uni quvib o'tayotgan yoki uning yonidan o'tayotgan vaqtda nihoyatda ehtiyorlik bo'lishi kerakligi haqida ogohlantirish vazifasini o'taydi.



Undan favqulodda ta'mirlash ishlari olib borilayotganda yoki avtomobil harakatlanish qismi chetiga yaqin joyda to'xtatilganda foydalanish kerak.

Uchqun kalitini ENGINE START/STOP tugmasini bosib turish orqali istalgan holatda bosing. Bu uchqun kaliti markaziy asboblarning panelida joylashgan. Barcha burilish signali chiroqlari bir vaqtda miltiraydi.

- Avariya ishorasi uchquni avtomobil harakatlanayotgani yoki harakatsiz turganidan qat'i nazar ishlaydi.
- Avariya ishorasi uchquni yoniq bo'lganida burilish signallari ishlaymaydi.

- Avtomobil tortib ketilayotgan vaqtda avariya ishorasi uchqunidan foydalanishda ehtiyot bo'lish lozim.

Haydash vaqtida favqulodda holat yuzaga kelsa

Agar avtomobil boshqarish vaqtida favqulodda holat yuz bersa, xotirjamlikni saqlang va quyidagi harakatlarni bajaring.

Haydash vaqtida avtomobil o'chib qolsa

1. To'g'ri harakatlanish orqali asta-sekin tezlikni pasaytiring.
2. Yo'l tashqaridagi xavfsiz joyga ehtiyotkorlik bilan o'ting.
3. Avariya ishorasi uchqunini yoqing.
4. Avtomobilni qayta ishga tushirishga urining. Avtomobilingiz ishga tushmasa, ixtisoslashgan ustaxonaga murojaat qiling yoki boshqa malakali yordam so'rang. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga murojaat qilishni tavsiya qiladi.

Dvigatel chorraha yoki kesib o'tish joyida o'chib qolsa

- Agar dvigatel chorraha yoki kesib o'tish joyida o'chib qolsa, uzatmalar murvatiini N (Neytral) holatiga sozlang va keyin avtomobilni itarib, xavfsiz joyga olib boring.

Haydash vaqtida shinning dami chiqib ketsa

1. Oyog'ingizni gaz pedalidan oling va avtomobilning oldinga to'g'ri harakatlangan holda sekinlashishiga qo'yib bering.
Darhol tormozni bosmang yoki yo'l chetiga chiqishga urinmang, chunki bu nazoratni yo'qotishga sabab bo'lishi mumkin.
2. Avtomobil bunday harakatlarni bajarish uchun xavfsiz darajada sekinlashganidan keyin ehtiyotkorlik bilan tormozni bosing va yo'l chetiga chiqing.

3. Iloji boricha yo'ldan uzoqroqqa haydang va qattiq tekislikda to'xtab turing.
Agar siz bo'lingan katta ko'chada bo'lsangiz, ikkita tomonlama harakat chizig'i orasidagi o'rta hududda to'xtamang.
4. Avtomobil to'xtagach, avariya ishorasi uchqunlarini yoqing va to'xtab turish tormozini sozlab, transmissiyani P holatiga qo'ying.
5. Barcha yo'lovchilarni avtomobildan tushiring. Ularning barchasi avtomobilning yo'lining qatnov qismidan narida bo'lgan tomonidan tushishi lozim.
6. Dami chiqqan shinani almashtirishda keyinroq bu bo'limda berilgan ko'rsatmalarga amal qiling;

Dvigatel ishga tushmasa

Dvigatel ishga tushmasa, dastlab qancha yonilg'i borligi va batareya quvvati tugab qolmaganini tekshiring.

Dvigatel aylanmasa yoki sekin aylanasa

1. Uzatma N (neytral) yoki P (parkovka) holatida ekaniga va favqulodda tormoz sozlanganiga ishonch hosil qiling.
2. Batareya ulamalari toza va mahkam ulanganiga ishonch hosil qilish uchun ularni tekshiring.
3. Salon chirog'ini yoqing. Agar starterni yoqqaningizda chiroq xiralashsa yoki o'chib qolsa, demak batareya quvvati tugagan bo'ladi.
4. Starter ulanishlari mustahkam mahkamlanganiga ishonch hosil qilish uchun ularni tekshiring.

Avtomobilni ishga tushirish maqsadida uni itarmang yoki tortmang. Bu avtomobilingizga zarar yetkazishi mumkin. Qarang: "Tashqi manba yordamida ishga tushirish", 7-6-sahifa.

OGOHLANTIRISH

Agar dvigatel ishga tushmasa, uni ishga tushirish maqsadida avtomobilni itarmang yoki tortmang. Bu to'qnashuv yoki boshqacha tarzda shikastlanishga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, itarish yoki tortish orqali dvigatelni ishga tushirish katalitik konverterda haddan ortiq yuklanishga sabab bo'lishi va yong'in xavfini keltirib chiqarishi mumkin.

Dvigatel odatdagidek aylansa, lekin ishga tushmasa

1. Yonilg'i darajasini tekshiring va agar kerak bo'lsa yonilg'i qo'shing.
2. DVGATELNI ISHGA TUSHIRISH/ TO'XTATISH tugmasini OFF (O'CHIQ) holatiga sozlagan holda, barcha o't oldirish g'altaklari va o't oldirish svechalaridagi barcha konnektorlarni tekshiring. Agar birortasi uzilgan yoki solqi bo'lsa, uni qayta ulang.
3. Dvigatel bo'linmasida yonilg'i sathini tekshiring.
4. Dvigatel bariir ishga tushmasa, ixtisoslashgan ustaxonaga telefon qiling yoki boshqa malakali yordam so'rang. Kia vakolatli Kia dileri/texnik xizmat hamkoriga telefon qilishni tavsiya qiladi.

Favqulodda ishga tushirish

Batareya quvvati kamligi sababli avtomobil ishga tushmasa, uni tashqi manba yordamida ishga tushirish kerak bo'lishi mumkin.

Tashqi manba yordamida ishga tushirish

Kabellarni raqamli tartibda ulang va teskari tartibda uzing.



Agar noto'g'ri bajarilsa, tashqi manba yordamida ishga tushirish xavfli bo'lishi mumkin. Shu sababli, o'zingiz yoki avtomobil yoxud batareyaga shikast yetkazmaslik uchun tashqi manba yordamida ishga tushirish tartib-qoidalariga rioya qiling. Agar ikkilansangiz, avtomobilni tashqi manba yordamida ishga tushirish uchun malakali texnik mutaxassis yoki tortish xizmatiga murojaat qilish qat'iy tavsiya etiladi.

⚠️ DIQQAT

Faqat 12 voltli o'tkazgich tizimidan foydalaning. 24 voltli quvvat manbasidan foydalansangiz (ikkita 12 voltli batareya yoki 24 voltli dvigatel-generator), 12 voltli starter, o't oldirish tizimi va boshqa elektr qismlarni ta'mirlab ta'limdigan darajada shikastlashingiz mumkin.

⚠️ OGOHLANTIRISH

Batareya

Hech qachon batareyaning elektrolitlar darajasini tekshirishga urinmang, chunki bu batareyaning yorilishi yoki portlashi va

jiddiy shikastlanishga sabab bo'lishi mumkin.

⚠️ OGOHLANTIRISH

Batareya

- Batariyani har qanday olov yoki uchqundan narida saqlang. Batareya olov yoki uchqun ta'sirida portlashi mumkin bo'lgan vodorod gazini ishlab chiqaradi.

Agar bu ko'rsatmalarga aniq rioya qilinmasa, jiddiy tan jarohatlari olinishi va avtomobilga shikast yetkazilishi mumkin! Agar bu protsedurani to'g'ri bajara olishingizga ishonchingiz komil bo'lmasa, malakali yordam xizmatiga murojaat qiling. Avtomobilning batareyalarida sulfat kislotasi mavjud. U zaharli va nihoyatda yemiruvchidir. Tashqi manba yordamida ishga tushirish vaqtida himoya ko'zoynagini taqing va o'zingiz, kiyimlaringiz yoki avtomobilga kislotaga tegmasligi uchun ehtiyot bo'ling.

- Agar quvvati tugagan batareya muzlab qolgan yoki elektrolit darajasi past bo'lsa, avtomobilni tashqi manba yordamida ishga tushirishga urinmang; batareya yorilishi yoki portlashi mumkin.
- (+) va (-) o'tkazgich kabellarining bir-biriga tegmasligi lozim. Bu chaqnashni yuzaga keltirishi mumkin.
- Quvvati kam yoki muzlagan batareya bilan tashqi manba yordamida ishga tushursangiz, batareya yorilishi yoki portlashi mumkin.

Tashqi manba yordamida ishga tushirish

1. Kuch beruvchi batareya 12 voltli ekani va uning manfiy terminali yerlatib uzatilganiga ishonch hosil qiling.

Agar kuch beruvchi batareya boshqa avtomobilda bo'lsa, avtomobillar bir-biriga tegishiga yo'l qo'ymang.

2. Barcha keraksiz elektr yuklamalarini o'chiring.
3. O'tkazgich kablarni aynan illustratsiyada ko'rsatilgan ketma-ketlikda ulang.
 - 1) O'tkazgich kabelning bir uchini quvati tugagan batareyanig musbat klemmasiga ulaing (4).
 - 2) Ikkinchi uchini esa kuch beruvchi batareyaning musbat klemmasiga ulang (1).
 - 3) Ikkinchi o'tkazgich kabelning bir uchini kuch beruvchi batareyaning manfiy klemmasiga (2), ikkinchi uchini esa batareyadan uzoqda joylashgan mustahkam, harakatsiz metal nuqtaga (masalan, dvigatelni ko'taruvchi kronshteynga) ulang (3). O'tkazgich kablarni, tegishli batareya terminalari yoki tegishli yerdan tashqari, boshqa hech narsa bilan kontaktga kirishishiga yo'l qo'ymang. Ulanishlarni amalga oshirish vaqtida batareya ustiga egilmang.
4. Agar akkumulyator boshqa avtomobilga ulangan bo'lsa, avval avtomobilni kuchaytiruvchi akkumulyator bilan ishga tushiring va uni bir necha daqiqa davomida 2000 rpm tezlikda ishga tushiring.
5. Avtomobilni quvvatsizlangan batareya bilan ishga tushiring.

6. Dvigatel ishga tushsa, kuchaytirgich batareyasining (2) manfiy klemmasining bir uchini, keyin kuchaytirgich batareyasining (1) musbat klemmasining ikkinchi uchini va quvvatsizlangan batareyani (4) ajratib oling.

Agar batareyaning quvati tugab qolgani sababi noaniq bo'lsa, avtomobilingizni ixtisoslashgan ustaxonada tekshirtirishingiz kerak. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

*** ESLATMA**

Batareya kablari

Kuch beruvchi batareyaning manfiy terminalidan chiquvchi o'tkazgich kabelni quvati tugagan batareyaning manfiy terminaliga ulamang. Bu quvati tugagan batareyaning haddan ortiq qizib ketishi va yorilishi, natijada batareya kislotasining oqishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'tkazgich kabelning bir uchini kuch beruvchi batareyaning manfiy klemmasiga va ikkinchi uchini batareyadan uzoq bo'lgan metal nuqtaga ulang.

Itarib ishga tushirish

Avtomatik transmissiya bilan jihozlangan avtomobillarni bir marta o't oldirish orqali ishga tushirish mumkin emas va faqat tashqi manbani qo'llash mumkin.

Quyidagi bo'limdagi ko'rsatmalarni bajaring: "Tashqi manba yordamida ishga tushirish", 7-6-sahifa.

⚠ OGOHLANTIRISH

Avtomobilni tortib ishga tushirish

Avtomobilni ishga tushirish uchun hech qachon shatakka olmang.

Dvigatel ishga tushganda, avtomobil to'satdan oldinga siljishi va tortuvchi avtomobil bilan to'qnashuvga olib kelishi mumkin.

Dvigatel haddan ortiq qizib ketsa

Agar harorat o'lchagich ortiqcha qizishni ko'rsatsa, mashina quvvati tugaydi yoki baland taqillash shovqinini eshitasiz, bunda dvigatel qizib ketgan bo'lishi mumkin.

Bu holatda quyidagi harakatlarni bajarishingiz kerak:

1. Yo'l chetiga o'ting va xavfsiz bo'lishi bilan to'xtang.
2. Uzatmalar murvatini P holatga oling va to'xtab turish tormozini sozlang.
3. Konditsioner yoniq bo'lsa, uni o'chiring.
4. Agar dvigatel sovitish suyuqligi avtomobil tagidan oqayotgan bo'lsa yoki kapot tagidan bug' chiqayotgan bo'lsa, dvigatelni o'chiring. Sovitish suyuqligi oqishi yoki bug' chiqishi to'xtaguncha kapotni ochmang.
5. Agar dvigatel sovitish suyuqligi oqishi kuzatilmasa yoki bug' chiqmayotgan bo'lsa, dvigatelni yoniq holda qoldiring va dvigatelni sovitish parragi ishlayotganiga ishonch hosil qilish uchun uni tekshiring.
 - 1) Agar parrak ishlamayotgan bo'lsa, dvigatelni o'chiring.
6. Suv nasosining harakatlantiruvchi kamari mavjud ekanini tekshiring.
 - 1) Agar mavjud bo'lsa, u tarang tortilganini tekshiring.
 - 2) Agar harakatlantiruvchi kamar holati qoniqarli bo'lsa, radiator, shlanglar yoki avtomobil tagidan sovitish suyuqligi sizib chiqmayotganini tekshiring. (Konditsioner ishlab turgan bo'lsa, uni to'xtatganingizda undan sovuq suvning oqib chiqish normal holatdir).

⚠ OGOHLANTIRISH**Kapot ostida**

Dvigatel ishlab turganida jarohat yetishining oldini olish uchun soch, qo'l va kiyimlaringizni ventilyator va xavfsizlik kamari kabi harakatlanayotgan qismlardan narida saqlang.

7. Agar suv nasosi harakatlantiruvchi kamari ishdan chiqqan yoki dvigatel sovitish suyuqligi sizib chiqayotgan bo'lsa, darhol dvigatelni to'xtating va eng yaqin ixtisoslashtirilgan ustaxonaga telefon qiling. Kia vakolatli Kia dileri/teknik xizmat hamkoriga telefon qilishni tavsiya qiladi.
8. Agar haddan ortiq qizib ketish sababini aniqlay olmasangiz, dvigatel harorati normal darajaga qaytguncha kuting. Agar sovitish suyuqligi yo'qotilgan bo'lsa, suyuqlik darajasini idishning yarmidagi belgigacha yetkazish uchun idishga sovitish suyuqligini ehtiyotkorlik bilan quyung.
9. Haddan ortiq qizib tekishning keyingi belgilariga e'tibor qilgan holda ehtiyotkorlik bilan harakatlanishda davom eting. Agar qizib ketish yana sodir bo'lsa, yordam uchun ixtisoslashgan ustaxonaga telefon qiling. Kia vakolatli Kia dileri/teknik xizmat hamkoriga telefon qilishni tavsiya qiladi.


⚠ OGOHLANTIRISH**Radiator qopqog'i**

Dvigatel issiq bo'lgan vaqtda radiator qopqog'ini ochmang. Bu sovitish suyuqligining tirqishdan sachrab chiqishiga sabab bo'lishi va jiddiy kuyishga olib kelishi mumkin.

⚠ DIQQAT

- Sovitish suyuqligining jiddiy yo'qotilishi sovitish tizimida sizish mavjudligini ko'rsatadi va buni imkon qadar tezroq ixtisoslashgan ustaxonada tekshirish kerak. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.
- Sovitish suyuqligi kamligi sababli dvigatel ortiqcha qizib ketganida to'satdan sovitish suyuqligini quyish dvigatelda yoriqlar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shikast yetishining oldini olish uchun dvigatel sovitish suyuqligini oz-ozdan quyung.

Shina bosimi nazorati tizimi (TPMS)



1. Past shina bosimi signali / TPMS nosozlik indikatorini
2. Shina bosimi past holat ko'rsatkichi (LCD displayda ko'rsatiladi)

Shina bosimini tekshirish

- Shina bosimini asboblarni klasteridagi yordam rejimida tekshirishingiz mumkin.
 - Qarang: "Xizmat ma'lumotlari ko'rinishi", 4-72-sahifa.
- Shinalar bosimi haydashdan keyin 1~2 daqiqa o'tib ko'rsatiladi.
- Agar avtomobil to'xtaganida shinalar bosimi ko'rsatilmasa, "Ko'rsatilishi uchun haydang" degan xabar chiqadi. Haydagandan keyin shinalar bosimini tekshiring.
- Shinalar bosimi o'lchov birligini asboblarni klasteridagi foydalanuvchi sozlamalari rejimida o'zgartirishingiz mumkin.
 - psi, kPa, bar (qarang: "Xizmat ma'lumotlari ko'rinishi", 4-72-sahifa).

Har bir shina, jumladan, zaxira shinani (agar mavjud bo'lsa) har oy sovuq holatda va transport varaqasi yoki shinani

shishirish bosimi yorlig'ida aks etgan ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilgan bosimgacha shishirish orqali tekshirish kerak.

(Agar avtomobilingiz shinalari o'lchami avtomobil varaqasi yoki shinani shishirish bosimi yorlig'ida ko'rsatilgan o'lchamdan farq qilsa, bunday shinalar uchun tegishli shishirish bosimini aniqlashingiz kerak).

Qo'shimcha xavfsizlik xususiyatida sifatida, avtomobilingiz shina bosimi nazorati tizimi (TPMS) bilan jihozlangan, ushbu tizim bir yoki bir nechta shinaning xavosi sezilarli darajada chiqib ketganida past shina bosimi signali paydo bo'ladi. O'z navbatida, past shina bosimi signali paydo bo'lganida imkon qadar tez to'xtab, shinalaringizni tekshirishingiz hamda ularni tegishli bosimga qadar damlashingiz kerak. Dami sezilarli darajada chiqib ketgan shina bilan harakatlanish shinaning haddan ortiq qizib ketishiga sabab bo'ladi, bu esa shinaning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, yetarli bo'lmagan bosim yonilg'i samaradorligi va shina protektorining xizmat muddatini kamaytiradi, shuningdek, avtomobilni boshqarish va to'xtatish imkoniyatiga ham ta'sir qilishi mumkin.

Yodda tuting: TPMS shinaga tegihli tartibda xizmat ko'rsatish o'rnini bosa olmaydi va tegishli shina bosimini saqlash uchun haydovchi mas'uldir (hatto yetishmayotgan bosim TPMS past shina bosimi signali faollashtiradigan darajaga yetmagan bo'lsa ham).

Qolaversa, avtomobilingiz TPMS tizimi munosib tarzda ishlamayotganini ko'rsatish uchun TPMS nosozlik indikatorini bilan ham jihozlangan. TPMS nosozlik indikatorini past shina bosimi signali bilan birlashtirilgan. Tizim nosozlikni aniqlaganida bu ko'rsatkich taxminan 1

daqiqa davomida miltillaydi, keyin uzluksiz yoniq holda qoladi. Nosozlik bartaraf etilmaguncha, bu ketma-ketlik har safar avtomobil ishga tushirganda davom etadi. TPMS nosozlik indikatorini taxminan 1 daqiqa miltillagandan keyin yoniq holda qolgach, tizim shinalardagi past bosimni aniqlolmasligi yoki ular haqida kutilganidek xabar berolmasligi mumkin. TPMS nosozliklari turli sabablarga ko'ra, jumladan, avtomobilga shina yoki g'ildiraklarni TPMS tizimining munosib tarzda ishlashi uchun to'sqinlik qiladigan tarzda o'rnatish yoki almashtirish sababli yuzaga kelishi mumkin. Muqobil shina va g'ildiraklarni o'rnatish yoki almashtirish TPMS tizimining munosib tarzda ishlashda davom etishiga imkon berishini ta'minlash uchun avtomobilning bir yoki bir nechta shina yoki g'ildiragini almashtirgandan keyin har doim TPMS nosozlik signalini tekshiring.


* ESLATMA

Agar quyidagilardan birortasi sodir bo'lsa, ixtisoslashgan ustaxonada tizimni tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

1. O't oldirish kaliti yoki ENGINE START/ STOP tugmasi ON (YOQIQ) holatida bo'lsa yoki dvigatel ishlab turgan bo'lsa, past shina bosimi signali/TPMS nosozlik indikatorini 3 soniya davomida signal bermaydi.
2. TPMS nosozlik indikatorini taxminan 1 daqiqa davomida miltillaganidan keyin yoniq holatda qoladi.
3. Past shina bosimi holatini ko'rsatkichi yoniq holda qoladi.

Past shina bosimi ko'rsatkichi (!)

Shinalardagi past bosim holati ko'rsatkichi



A : Shina bosimi

Shina bosimi nazorati tizimining ogohlantirish indikatorlari paydo bo'lsa va asboblar klasteri LCD displeyida ogohlantirish xabari chiqsa, bitta yoki bir nechta shinangiz dami sezilarli darajada chiqib ketgan bo'ladi. Shinalardagi past bosim holati ko'rsatkichi chirog'i tegishli holat chirog'ini yoritish orqali qaysi shinada dam sezilarli darajada chiqib ketganini ko'rsatadi.

Bu ko'rsatkichlardan istalgan biri paydo bo'lsa, darhol tezlikni kamaytiring va keskin burilishlardan saqlaning hamda uzoqroq masofasida to'xtashni ko'zda kuting. Imkon qadar tezroq to'xtab, shinalarni tekshirishingiz kerak. Shinalarni haydovchi tomondagi markaziy tirgak tashqi panelida joylashgan shina bosimi yorlig'i yoki avtomobil varaqasida ko'rsatilgan tegishli bosimgacha shishiring. Agar texnik xizmat shoxobchasiga yeta olmasangiz yoki shina solingan damni tutib tura olmasa, bosimi past shinani zaxira shinaga almashtiring.

Agar bosimi past shinani zaxira shinaga almashtirgandan keyin 25 km/st dan yuqori tezlikda taxminan 10 daqiqa haydasangiz, quyidagilardan biri sodir bo'ladi:

- Zaxira g'ildirakka TPMS datchigi o'rnatilmagani sababli, TPMS nosozlik indikatorini taxminan 1 daqiqa davomida miltillab, keyin uzluksiz yoniq holda qolishi mumkin. (datchik bilan jihozlangan almashtirilgan shina avtomobilda emas)
- Zaxira g'ildirakka TPMS datchigi o'rnatilmagani sababli, haydash davomida TPMS nosozlik indikatorini uzluksiz yoniq holda qoladi. (avtomobildagi datchik bilan jihozlangan shina almashtirildi)

⚠️ DIQQAT

- Qishda yoki sovuq havoda shinalardagi bosim iliq havodagi tavsiya etilgan shina bosimiga sozlanganida past shina bosimi ko'rsatkichi paydo bo'lishi mumkin. Bu TPMS nosoz ekanini anglatmaydi, chunki past harorat shinalardagi bosimning pasayishi sabab bo'ladi.
- Avtomobilni iliq hududdan sovuq hududga yoki sovuq hududdan iliq hududga haydayotganda yoxud tashqaridagi harorat nisbatan yuqori yoki past bo'lsa, shinalardagi bosimni tekshirish va uni tavsiya etilgan shina bosimiga moslashingiz kerak.
- Shinalarga dam solishda past shina bosimi signalini o'chirish shartlari bajarilmasligi mumkin. Chunki shina nasosi ishlashda xatolik chegarasiga ega. Agar shina bosimi tavsiya etilgan shina bosimidan yuqori bo'lsa, past shina bosimi signali o'chadi.

⚠️ OGOHLANTIRISH

Bosim pastligi zarar yetkazishi mumkin

Shinalardagi bosimning sezilarli darajada pastligi avtomobil beqarorligiga sabab

bo'ladi va avtomobil nazoratining yo'qotilishi hamda tormozlash masofasining oshishiga olib kelishi mumkin.

Past bosimli shinalarda harakatlanishda davom etish shinalarning haddan ortiq qizib ketishi va ishdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shina bosimi nazorati tizimining (TPMS) nosozlik indikatorini (!)

Shina bosimi nazorati tizimida muammo bo'lsa, TPMS nosozlik indikatorini paydo bo'ladi, u paydo bo'lishdan oldin taxminan bir daqiqa davomida miltillab turadi.

Bu holatda, muammo sababini aniqlash uchun ixtisoslashgan ustaxonada tizimni tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

* ESLATMA

Agar TPMS bilan bog'liq nosozlik mavjud bo'lsa, hatto avtomobil shinalaridan birining bosimi yetarlicha bo'lmasa ham, shinalardagi past bosim holatini bildiruvchi signal chiqmaydi.

⚠️ DIQQAT

- Agar avtomobil elektr ta'minoti kabellari yoki radio masofaviy kaliti, masalan, politsiya bo'limlari, hukumat va davlat idoralari, translatiya stansiyalari, harbiy inshootlar, aeroportlar yoki uzatish minoralari va h.k. atrofida harakatlanayotgan bo'lsa, TPMS nosozlik indikatorini taxminan 1 daqiqa davomida miltirab, keyin uzluksiz yoniq holda qolishi mumkin. Bu shina bosimi nazorati tizimi (TPMS) normal ishlashiga xalaqit berishi mumkin.

- Agar avtomobilda qor zanjirlari yoki noutbuk, mobil quvvatlash qurilmasi, masofaviy starter yoki navigatsiya kabi ayrim alohida elektron qurilmalar ishlatilayotgan bo'lsa, TPMS nosozlik indikatorini taxminan 1 daqiqa davomida miltillab, keyin uzluksiz yoniq holda qolishi mumkin.

Bu shina bosimi nazorati tizimining (TPMS) normal ishlashiga xalaqit berishi mumkin.

TPMS yordamida shinani almashtirish

Agar biror shinaning dami chiqib ketsa, past shina bosimi va holati signallari paydo bo'ladi. Bu holatda ixtisoslashgan ustaxonada tizimni tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

⚠️ DIQQAT

Kia tomonidan tasdiqlangan germetikdan foydalanish tavsiya etiladi.

Shinani yangisi bilan almashtirsangiz, shina bosimi datchigi va g'ildirakdagi germetik olib tashlanadi.

Har bir g'ildirak shina bosimi sensori bilan jihozlangan. Bu sensor shina ichida klapan sterjeni orqasiga o'rnatilgan. Siz maxsus TPMS g'ildiraklaridan foydalanishingiz kerak. Shinalaringizga xizmat ko'rsatilishi uchun ixtisoslashgan ustaxonaga boring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

Agar bosimi past shinani zaxira shinaga almashtirgandan keyin 25 km/st dan yuqori tezlikda taxminan 10 daqiqa haydasangiz, quyidagilardan biri sodir bo'ladi:

- Zaxira g'ildirakka TPMS datchigi o'rnatilmagani sababli, TPMS nosozlik indikatorini taxminan 1 daqiqa davomi miltillab, keyin uzluksiz yoniq holda qolishi mumkin. (datchik bilan jihozlangan almashtirilgan shina avtomobilda emas)
- Zaxira g'ildirakka TPMS datchigi o'rnatilmagani sababli, haydash davomida TPMS nosozlik indikatorini uzluksiz yoniq holda qoladi. (avtomobildagi datchik bilan jihozlangan shina almashtirildi)

Shina bosimi pastligini, shunchaki, unga qarash orqali aniqlay olmasligingiz mumkin. Shina bosimini o'lchash uchun har doim yaxshi sifatli shina manometridan foydalaning. Yodda tuting, issiq (haydashdan qizigan) shinadagi bosim ko'rsatkichi sovuq (kamida 3 soat davomida harakatsiz turgan va 3 soatlik vaqt davomida 1,6 km (1 mil) dan kam masofani bosib o'tgan) shinadagi bosim ko'rsatkichidan yuqori bo'ladi. Shinadagi bosimni o'lchashdan oldin shinaning sovishini kuting. Har doim tavsiya etilgan bosimga qadar dam solishdan avval shina sovuq ekaniga ishonch hosil qiling.

Sovuq shina avtomobilning kamida 3 soat davomida harakatsiz turgani va 3 soatlik vaqt davomida 1,6 km (1 mil) dan kam masofani bosib o'tganini anglatadi.

⚠️ DIQQAT

Agar avtomobilingiz shina bosimi nazorati tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, Kia tomonidan tasdiqlangan germetikdan foydalanishni tavsiya qilamiz. Suyuq germetik shina bosimi sensorlarini shikastlashi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH**TPMS**

- TPMS mixlar yoki yo'ldagi qoldiqlar kabi tashqi omillar natijasida bexosdan yetkazilgan va jiddiy shikastlar haqida ogohlantira olmaydi.
- Agar avtomobil harakatida beqarorlikni payqasanhgiz, darhol oyog'ingizni gaz pedalidan olib, asta-sekin va yengil kuch bilan tormozni bosing hamda sekinlik bilan yo'ldan tashqaridagi biror xavfsiz joyga o'ting.

⚠ OGOHLANTIRISH**TPMS himoyasi**

Shina bosimi nazorati tizimining (TPMS) komponentlarini buzish, o'zgartirish yoki faolsizlantirish ushbu tizimning haydovchini shinalardagi bosim pasaygani va/yoki TPMS nosozliklari haqida ogohlantirish qobiliyatiga xalaqit qilishi mumkin. Shina bosimi nazorati tizimining (TPMS) komponentlarini buzish, o'zgartirish yoki faolsizlantirish avtomobilning ushbu qismi uchun kafolatni bekor qilishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH**YEVROPA uchun**

- Avtomobilni o'zgartirmang, u TPMS funksiyasiga xalaqit berishi mumkin.
- Bozordagi g'ildiraklarda TPMS sensori yo'q. Xavfsizligingiz uchun ixtisoslashgan ustaxonadan olingan almashtirish qismlaridan foydalaning. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.
- Agar bozordagi g'ildiraklardan foydalansangiz, Kia vakolatli dileri tomonidan tasdiqlangan TPMS datchigidan foydalaning.

Agar avtomobilingiz TPMS datchigi bilan jihozlanmagan bo'lsa yoki TPMS to'g'ri ishlamasa, mamlakatingizda o'tkaziladigan avtomobilni davriy tekshiruvdan o'tkazolmasligingiz mumkin.

- YEVROPA bozorida quyidagi muddatlarda sotiladigan barcha avtomobillar TPMS bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

- Yangi rusumdagi avtomobil: 2012-yil 1-noyabr ~

- Hozirgi rusumdagi avtomobil: 2014-yil 1-noyabr~(Avtomobil ro'yxatga olinishi asosida)

Shinaning dami chiqib ketsa (zaxira shina bilan)

Domkrat va asboblari



Domkrat va gayka kaliti yukxona bo'lmisida saqlanadi.

Bu jihozni olish uchun yukxona qutisi qopqog'ini ko'taring.

1. Domkrat dastagi
2. Domkrat
3. Gayka kaliti

Domkratdan foydalanish ko'rsatmalari

Bu domkrat faqat favqulodda holatda shinani almashtirish uchun taqdim etilgan.

Avtomobil harakatlanayotganda domkrat zirillashining oldini olish uchun uni tegishli tarzda saqlang.

Tan jarohatlari ehtimolini pasaytirish uchun domkratdan foydalanish ko'rsatmalariga rioya qiling.

⚠ OGOHLANTIRISH

Ehtiyot bo'ling, chunki asl shinani zaxira shinaga almashtirgach, avtomobilning pastki qismida saqlaganingizda, minimal yergacha masofa pasayadi.

Xususan, tezlikni keskin pasaytirgan joyda va tepaga/pastga/notekis yo'lda harakatlanayotganda 30 km/st (18 mil/st) dan past tezlikda harakatlaning.

⚠ OGOHLANTIRISH

Shinalarni almashtirish

- Hech qachon umumiy foydalanishdagi yo'l yoki magistral yo'lning qatnov qatorlarida avtomobilni ta'mirlashga urinmang.
- Shinani almashtirishga urinishdan oldin har doim avtomobilni butunlay yo'ldan tashqariga olib o'ting. Domkratdan qattiq va tekis yuza ustida foydalanish lozim. Agar yo'lsiz joyda qattiq, tekis joy topa olmasangiz, yordam olish uchun tortish xizmati kompaniyasiga telefon qiling.
- Avtomobildagi tegishli old va orqa domkrat o'rnatish joylaridan foydalaning; domkratni hech qachon bampelerlar yoki avtomobilning boshqa qismlariga tayab o'rnatmang.
- Avtomobil osongina domkratdan sirg'alib ketishi, bu esa jiddiy jarohat yoki o'limga sabab bo'lishi mumkin.
- Domkratga tayanib turgan avtomobil tagiga kirmang.
- Avtomobil domkratda turganida dvigatelni ishga tushirmang yoki ishlatmang.
- Avtomobil domkratda turganida uning ichida biror kishi qolishiga yo'l qo'ymang.
- Agar bolalar bo'lsa, ularning yo'ldan va domkrat bilan ko'tariladigan avtomobildan naridagi xavfsiz joyda ekaniga ishonch hosil qiling.

Zaxira shinani yechib olish va saqlash



Zaxira shinalar yukxonaning pastki qismida joylashgan. Zaxira shinani olib tashlash uchun shinani ushlab turuvchi qanot boltini bo'shating. Zaxira shinani o'rnatish uchun olib tashlash bosqichlarini teskari bajaring. (Shinani ushlab turuvchi qanot boltini ishlatganda darhol mahkamlashga urinmang. Avval bir oz joyiga mahkamlang, keyin mahkamlashdan oldin eng yaxshi sozlash uchun shina g'ildiragini silkiting.)

⚠️ DIQQAT

Shinani ushlab turuvchi qanot bolti shinalar g'ildiragi o'rtasiga mahkamlanganini tekshiring. Agar shinani ushlab turuvchi qanot murvati mahkam o'rnatilmagan bo'lsa, shina haydash paytida harakatlanishi va shovqin chiqishi mumkin.

Shinalarni almashtirish

1. Avtomobilni tekis joyga to'xtating va to'xtab turish tormozini mahkam o'tnating.
2. Uzatmani P (parkovka) holatiga o'tkazing, to'xtash tormozini bosing va dvigatelni o'chiring.
3. Avariya ishorasi uchqunini faollashtiring.
4. Avtomobildan gayka kaliti, domkrat va zaxira shinani oling.

5. Domkratdan qarama-qarshi tomondagi old va orqa qildirakni tagiga diagonal tarzda nimadir qo'yish orqali bloklang.



⚠️ OGOHLANTIRISH

Shinani almashtirish


- Avtomobil harakatlanishining oldini olish uchun har doim to'xtab turish tormozini to'liq o'rnatang va har doim almashtirilayotgan g'ildirakning qarshi tomonidagi g'ildirakni tagiga diagonal tarzda qo'yish orqali bloklang.
- Avtomobil g'ildiraklarini pona, yog'och bo'laklari kabi vosita yordamida to'sib qo'yish va domkrat bilan ishlash vaqtida avtomobilda hech kim bo'lmasligi tavsiya etiladi.

6. G'ildirak gaykalarini soat miliga teskari ravishda burash orqali bo'shating, lekin shina yerdan ko'tarilmaguncha hech bir gaykani yechib olmang.



7. Domkratni almashtirilayotgan shinaga eng yaqin bo'lgan old (1) yoki orqa (2)

domkrat o'rnatish joyiga o'rnatish.
Domkratni avtomobil ramasi ostidagi belgilangan joylarga o'rnatish.
Domkrat joylari – bu ikkita tirgak va domkratni ifodalovchi bo'rtma nuqta bilan ramkaga payvandlangan plitalardir.



⚠ OGOHLANTIRISH

Domkrat joylashuvi

Tan jarohatlarining oldini olish uchun faqat avtomobil bilan birga taqdim etilgan domkratdan va tegishli domkrat joyidan foydalaning; domkratni hech qachon avtomobilning boshqa qismida tayab o'rnatmang.

- Domkrat dastagini domkratga kiriting va soat mili yo'nalishi bo'yicha burab,

avtomobilni shina yerdan uzilgunicha ko'taring. Bu o'lchov taxminan 30 mm (1,2 duym) bo'ladi. G'ildirak gaykalarini yechib olishdan oldin avtomobil barqaror ekani va harakatlanish yoki sirpanish ehtimoli yo'qligiga ishonch hosil qiling.



- Barmoqlaringiz bilan g'ildirak gaykalarini bo'shatib, yechib oling. G'ildirakni surib, vintlardan chiqarib oling va dumalab ketmasligi uchun uni yotqizib qo'ying. G'ildirakni vtulkaga joylashtirish uchun zaxira shinani oling va undagi teshiklarni vintlarga moslab, g'ildirakni itarib kiriting.

Agar bu qiyin bo'lsa, g'ildirakni biroz eginib, g'ildirak tepasidagi teshikni eng yuqoridagi vint bilan moslang. G'ildirak siljib, boshqa vintlarga kirgunicha uni orqaga va oldingiz silkiting.

⚠ OGOHLANTIRISH

G'ildiraklarning gardishi o'tkir bo'lishi mumkin. Ehtimoliy jiddiy jarohatlarning oldini olish uchun ular bilan ishlashda ehtiyot bo'ling. G'ildirakni vtulkaga joylashtirishdan avval vtulka yoki g'ildirakda g'ildirakning vtulkaga mahkam joylashishiga xalaqit beruvchi hech narsa (loy, qatron, tosh va h.k.) yo'qligiga ishonch hosil qiling.

Agar bor bo'lsa, tozalab tashlang. Agar g'ildirak va vtulka orasidagi o'rnatish yuzasida kontakt yaxshi bo'lmasa, g'ildirak gaykalari bo'shashi va g'ildirakning chiqib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. G'ildirakning chiqib ketishi avtomobil

nazoratining yo'qotilishiga sabab bo'ladi. Bu jiddiy jarohat yoki o'limga olib kelishi mumkin.

10. G'ildirakni qayta o'rnatish uchun uni vintlar ustida tutib turing, vintlarga gaykalarni qo'ying va ularni qo'lingiz bilan burab mahkamlang. Shina to'liq joylashganiga ishonch hosil qilish uchun uni silkiting, keyin gaykalarni qo'lingiz bilan imkon qadar mahkam qotiring.



11. Domkrat dastasini soat miliga teskari aylantirgan holda avtomobilni yerga tushiring.

Keyin kalitni chizmada ko'rsatilgani kabi joylashtiring va g'ildirak gaykalarini mahkamlang. Kalit og'zi gayka to'liq joylashganiga ishonch hosil qiling. Kalit dastagi ustida turmang yoki kalit dastagiga uzaytirish quvurini ulab foydalanmang. Har bir gaykani to mustahkam tortilgunicha burab mahkamlang. Keyin har bir qaykaning mahkam buralganini qaytadan tekshiring. G'ildiraklarni almashtirgandan keyin ixtisoslashgan ustaxonada tizimni tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

G'ildirak gaykasini tortish momenti:

Po'lat g'ildirak va alyuminiy qotishma g'ildirak

11~13kgf·m (79~94lbf·ft)

Agar sizda shina manometri bo'lsa, klapan qopqog'ini yechib, shinadagi bosimni tekshiring. Agar bosim tavsiya etilgan

darajadan past bo'lsa, eng yaqin xizmat ko'rsatish shoxobchasigacha sekin haydab boring va shinaga undagi bosim tegishli darajaga yetgunicha dam soling. Bosim juda yuqori bo'lsa, uni tegishli darajaga moslang. Bosimni tekshirgandan yoki moslagandan keyin har doim klapan qopqog'ini qayta mahkamlang. Agar qopqog' joyiga qo'yilmasa, shinadan havo sizib chiqishi mumkin. Agar klapan qopqog'i mahkam joylashmasa, imkon qadar tez boshqasini sotib oling va o'rnatib.

G'ildiraklarni almashtirgach, har doim dami chiqqan shinani o'z joyiga mahkamlang, shuningdek, domkrat va asboblarni yukxonadagi tegishli joyiga qaytarib qo'ying.

⚠️ DIQQAT

Avtomobilingiz g'ildiragi vintlari va gaykalari metrik rezbaga ega. G'ildiraklarni almashtirishda aynan yechib olingan gaykalarni qayta mahkamlang yoki agar gaykalar almashtirilsa, metrik rezbaga ega va rezba qirralari konfiguratsiyasi bir xil bo'lgan gaykalardan foydalaning. Metrik vintga metrik bo'lmagan rezbali gaykani yoki aksincha o'rnatasangiz, g'ildirak gupchakka to'g'ri mahkamlanmaydi, shuningdek, vint shikastlanadi, natijada uni almashtirishga to'g'ri keladi.

E'tibor bering: aksariyat g'ildirak gaykalarning rezbasi metrik bo'lmaydi. Sotib olingan g'ildirak gaykalari yoki g'ildiraklarni o'rnatishdan avval rezba uslubini nihoyatda ehtiyotkorlik bilan tekshiring. Agar ikkilansangiz, aniqlashtirish uchun ixtisoslashgan ustaxonaga murojaat qiling. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkori bilan maslahatlashishni tavsiya qiladi.

⚠ OGOHLANTIRISH**G'ildirak vintlari**

Vintlar shikastlansa, ular qildirakni tutib turish qobiliyatini yo'qotishi mumkin. Bu g'ildirakning chiqib ketishi va to'qnashuvga sabab bo'lishi, buning natijasida esa tjiddiy tan jarohati olish mumkin.


Avtomobil harakatlanayotganda domkrat, domkrat tutqichi, gayka kaliti va zaxira shina zirillashining oldini olish uchun ularni tegishli tarzda saqlang.

⚠ OGOHLANTIRISH**Zaxira shinada qoniqarsiz bosim**


Zaxira shinani o'rnatgandan keyin imkon qadar tez shinadagi bosimni tekshiring. Zarur bo'lsa, uni ko'rsatilgan bosimga sozlang. Qarang:"Shinalar va g'ildiraklar", 9-8-sahifa.

Domkrat yorlig'i

A turi



B turi



C turi



* Avtomobildagi haqiqiy domkrat yorlig'i bu tasvirdan farq qilishi mumkin. Batafsil xususiyatlar uchun domkratga birlashtirilgan yorliqqa qarang.

1. Model nomi
2. Ruxsat etilgan maksimal yuk
3. Domkratdan foydalanishda to'xtab turish tormozini yoqing.
4. Domkratdan foydalanish vaqtida dvigatelni o'chiring.
5. Domkratga tayanib turgan avtomobil tagiga kirmang.
6. Rama ostidagi belgilangan joylar
7. Domkratning asos plitasi avtomobildagi ko'tarish nuqtasiga vertikal tarzda joylashtirilishi lozim.
8. Uzatmalar dastagini P (Parkovka) holatiga o'tkazing.
9. Domkratdan qattiq va tekis yuza ustida foydalanish lozim.
10. Domkrat ishlab chiqaruvchisi
11. Ishlab chiqarish sanasi

12.Kompaniya vakili va manzili

Domkrat uchun muvofiqlik deklaratsiyasi

 CE

CE

EC Declaration of Conformity
according to EC Machinery Directive 2006/42/EC

We, **SAMKI IND. CO., LTD.**
175, Techno saneop-ro 29Beon-gil, Nam-Gu, Ulsan, Korea 44776
declare under our sole responsibility that the product

Product : Jack Assembly
Brand Name : Pantograph Type
Type Designation(s) : Jack Assembly-600kg, Jack Assembly-700kg
Jack Assembly-800kg, Jack Assembly-1000kg
Jack Assembly-1200kg, Jack Assembly-1500kg
Serial No. : N/A (prototype)
Year to Manufacture : 2020

to which this declaration relates is in conformity with the following standard(s) or other normative document(s),

EN ISO12100 Safety of machinery - General principles for design – Risk assessment
(2010) and risk reduction
EN 1494/A1 Mobile or movable jacks and associated lifting equipment
(2008)

following the provisions of Directive(s);

2006/42/EC Directive on the approximation of the laws of Member States relating to
machinery (OJ L157 Jun, 9, 2006)

Ulsan, Korea / 09.03.2020 Byong Suk Choi President 

(Place and date of issue)(name and signature or equivalent making of authorized person)

* T.C.F Compiling Location
- Address: PRIBORSKA 280, 739 42 PRYDEK MISTEK, CHLEBOVICE, CZECH REPUBLIC
- Team: Purchase team
- Company name: HANWITA

OGL3061047L

UKCA



Certificate of Conformity

This is to certify that the non-annex IV machine listed below conforms to the requirements of the

UK Supply of Machinery (Safety) Regulations

SI 2008 No. 1597

Certificate Number

HPIUK-VM1093-054-I-01-00

Date of Issue

13-Aug-2021

Date of Expiry 13/08/2031

Manufacturer

SAMKI IND. CO., LTD.

#175, Techno saneop-ro, 29beon-gil, Nam-gu, Ulsan, Korea
44776

Product Name

JACK ASSEMBLY

Type/Model

Jack Assembly -700 Kg / A,B,C,D

Standards Applied

EN ISO 12100:2010, Safety of machinery - General principles for design, Risk assessment and Risk reduction.
EN 1494/A1:2008, Mobile or movable jacks and associated lifting equipment.

Test Report

SKCE-TCF-001

This certificate is issued on a voluntary basis following an inspection of the submitted Technical Construction File and does not imply assessment of production.



Check this certificate is genuine

Managing Director

Technical Manager

This certificate is the property of HPI-CEproof Ltd. & may not be amended or issued to others.

The manufacturer must inform HPI-CEproof Ltd. of any changes that affect any of the assessed Essential Requirements. Failure to do this will invalidate the Certificate.

UK
CA

UK Approved Body No. 1521

Company registered in England #7217086

© HPI-CEproof Ltd. 2020

Tel +44 1491 822818

Email: enquiries@hpi-ceproof.com


Web www.hpl-pep.org

HPI-CEproof Ltd.
The Manor House
Howbery Park, Wallingford
OX10 8BA, United Kingdom

ONQ5E052167L

Tortish

Tortish xizmati



[1] : aravalar

Favqulodda tortish zarur bo'lib qolsa, Kia vakolatli dileri yoki tijoriy evakuator xizmatidan foydalanishni tavsiya qilamiz. Avtomobilga shikast yetkazilishining oldini olish uchun tegishli tarzda ko'tarish va tortish protseduralariga rioya qilish lozim. G'ildirak tirkamalaridan foydalanish (1) yoki bortga ortib tortish tavsiya etiladi.

Avtomobilni orqa g'ildiraklari yerda (tirkamalarsiz) bo'lgan holatda va old g'ildiraklari yerdan ko'tarilgan holatda shatakka olish mumkin.

Agar yuk tushayotgan g'ildiraklar yoki osma komponentlari shikastlangan bo'lsa yoki avtomobil old g'ildiraklari yerda qo'yilgan holda tortilayotgan bo'lsa, old g'ildiraklarni shatak tirkamasiga qo'yib torting.

Tijoriy evakuator tomonidan tortilganda va g'ildirakli tirkamalar ishlatilmasa, avtomobilning orqa qismini emas, balki har doim old qismini ko'tarish kerak.



⚠ DIQQAT

- Avtomobilni old g'ildiraklari yerga qo'yilgan holda orqa tomonga qarab tortmang, bu avtomobil shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Kanatga o'xshash jihozlar bilan tortmang. G'ildirak ko'taruvchi yoki tekis yotqiziladigan uskunadan foydalaning.

Favqulodda vaziyatda avtomobilni g'ildirakli aravalarsiz tortib olishda:

1. ENGINE START/STOP tugmasini ACC holatiga sozlang.
2. Uzatmani N (Neytral) holatiga oling.
3. To'xtab turish tormozini bo'shating.

⚠ DIQQAT

G'ildirakni N (neytral) holatiga o'tkazmaslik transmissiya ichki shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Yechiladigan shatak ilgagi

1. Yukxonani oching va asboblarni qutisidan shatak ilgagini oling.



OGL3064033

2. Teshik qopqog'ini oching, bu uchun bampardagi qopqoqning pastki qismini bosing.

Old tomon



OGL3064019_2

Orqa tomon



OGL3064020_2

3. Shatak ilgagini teshikka tiqing va uni to'liq mahkamlangunicha soat mili yo'nalishida burang.

4. Ishlatib bo'lgach, shatak ilgagini yechib oling va qopqoqni qayta o'rnatang.

Favqulodda tortish

Old tomon



OGL3064021

Orqa tomon



OGL3064022

Tortish zarur bo'lib qolsa, vakolatli Kia dileri yoki korporativ evakuator xizmatidan foydalanishni tavsiya qilamiz.

Agar favqulodda holatlarda tortish xizmati mavjud bo'lmasa, avtomobilni uning old (yoki orqa) qismidagi favqulodda tortish ilgagiga kabel yoki zanjirni mahkamlash orqali vaqtincha tortish mumkin. Avtomobilni tortishda nihoyatda ehtiyot bo'ling. Avtomobil roli va tormozni boshqarish uchun haydovchi avtomobil ichida bo'lishi lozim.

Bu tarzdgai tortishni faqat qattiq yuzali yo'llarda qisqa masofada va past tezlikda amalga oshirish mumkin. Shuningdek, g'ildiraklar, o'qlar, quvvat uzatmasi, rul va tormozlarning barchasi yaxshi holatda bo'lishi lozim.

- Avtomobilni loydan, qumdan tortib chiqarishda yoki avtomobilni o'z quvvatiga tayanib haydab chiqarish imkonsiz bo'lgan boshqa holatlarda tortish ilgaklaridan foydalanmang.

- Transport vositasini o'zidan yengil avtomobil yordamida tortishdan saqlanang.
- Ikkala avtomobil haydovchilari bir-biri bilan tez-tez muloqot qilib turishi kerak.

⚠️ DIQQAT

- Tortish tasmasini tortish ilgakiga birkirtirang.
 - Tortish uchun tortish ilgaklaridan boshqa avtomobil qismidan foydalanish avtomobil korpusiga shikast yetkazishi mumkin.
 - Faqat avtomobillarni tortish uchun maxsus ishlangan kabel yoki zanjirdan foydalaning. Taqdim etilgan tortish ilgakiga ushbu kabel yoki zanjirni mahkamlang.
 - Avtomobilni ishga tushirish yoki haydash uchun tortish arqoni yoki zanjiridagi taranglikni saqlash vaqtida avtomobilni sekin va astalik bilan tezlatang yoki sekinlatang, aks holda, tortish ilgaklari yoki avtomobil shikastlanishi mumkin.
-
- Favqulodda tortishdan avval ilgak soz va shikastlanmaganini tekshiring.
 - Tortish kabeli yoki zanjirini ilgakka mahkamlang.
 - Ilgakni siltab tortmang. Uni barqaror tarzda va bir muvozanatdagi kuch bilan torting.
 - Ilgak shikastlanishining oldini olish uchun uni yon tomondan yoki vertikal burchak ostida tortmang. Har doim to'g'ri oldinga torting.

⚠️ OGOHLANTIRISH


Avtomobilni tortishda nihoyatda ehtiyot bo'ling.

- Favqulodda tortish ilgagi va tortish kabeli yoki zanjirining haddan tashqari


yuqulanishiga sabab bo'luvchi to'satdan ishga tushirish yoki tartibsiz haydash harakatlaridan saqlanang. Ilgak va tortish kabeli yoki zanjiri ishdan chiqishi/uzilishi va jiddiy jarohat yoki zarar yetkazilishiga sabab bo'lishi mumkin.

- Agar nosoz avtomobilni harakatlantirib bo'lmasa, uni majburan tortishda davom etmang. Yordam olish uchun vakolatli Kia dileri yoki tijoriy tortish xizmatiga murojaat qilish tavsiya etiladi.
- Transport vositasini imkon qadar to'g'ri oldinga qarab torting.
- Tortish davomida avtomobildan uzoqroq masofani saqlang.

Old tomon



Orqa tomon



- Uzunligi 5 metrdan (16 fut) kalta tortish tasmasidan foydalaning. Oson ko'rinishi uchun tasmaning o'rtasiga oq yoki qizil mato (taxminan 30 sm (12 duym) kengligida) birlashtiring.
- Tortish vaqtida tortish tasmasi solqib qolmasligi uchun ehtiyotkorlik bilan haydang.
- Haydovchi tortilayotgan avtomobil ichida bo'lishi hamda avtomobilni boshqarish va tormozlash amallarini bajarishi lozim. Haydovchidan boshqa yo'lovchilarning tortilayotgan avtomobilda bo'lishi taqiqlanadi.

Favqulodda tortishda ehtiyot choralari

- ENGINE START/STOP tugmasini ACC holatiga o'tkazing.
- Uzatmani N (Neytral) holatiga oling.
- To'xtab turish tormozini tushiring.
- Tormoz pedalini odatdagidan kuchliroq bosib, chunki tormozlash samaradorligi pasayadi.
- Rulda boshqarish uchun ko'proq harakat talab etiladi, boshqaruvni kuchaytirish tizimi faolsizlantirilgan bo'ladi.
- Agar uzun qiyalikdan pastga tushayotgan bo'lsangiz, tormozlar haddan tashqari qizib ketishi va tormozlash samaradorligi pasayishi mumkin. Tez-tez to'xtab, tormozlarni soviting.
- Avtomatik transmissiyaga jiddiy shikast yetkazishdan saqlanish uchun avtomobil tezligini 15 km/soatdan (10 mil/soat) oshirmang va tortish vaqtida 1,5 km (1 mil) dan kam masofada haydang.

⚠️ DIQQAT

Avtomatik transmissiya

- Agar avtomobil to'rtala g'ildiragi ham yerga tegib turgan holatda tortilsa, uni faqat orqadan tortish mumkin. Transmissiya neytral holatiga sozlanganiga ishonch hosil qiling. Avtomobilni ACC holatiga qo'ying. Rul va tormozni boshqarish uchun haydovchi avtomobil ichida bo'lishi lozim.
- Tortishdan oldin avtomobil tagidan avtomatik transmissiya suyuqligi oqmayotganini tekshiring. Agar avtomatik transmissiya suyuqligi oqayotgan bo'lsa, bort jihozi yoki shatak tirkamasidan foydalanish lozim.

Favqulodda holat vositasi (mavjud bo'lsa)

Favqulodda holatlarga javoban chora ko'rishingizga yordam berishi uchun avtomobilda ayrim favqulodda holat vositalari mavjud.

O't o'chirgich

Agar kichik yong'in chiqsa va siz o't o'chirgichdan qanday foydalanishni bilsangiz, ehtiyorlik bilan quyidagi harakatlarni bajaring:

1. O't o'chirgichning yuqori qismidagi tutqichni bexosdan bosishdan saqlovchi tiqinni torting.
2. Soploni olov asosiga yo'naltiring.
3. Olovdan taxminan 2,5 m (8 ft) narida turing va o't o'chirish vositasini chiqarish uchun tutqichni siqing. Tutqichni qo'yin yuborsangiz, o't o'chirish vositasining chiqishi to'xtaydi.
4. Soploni olov asosiga qarata oldinga va orqaga harakatlantiring. Olov o'chganidan keyin, uni diqqat bilan kuzatib boring, chunki u qayta alanganishi mumkin.


Tibbiy yordam qutisi

Bu qutida jarohatlangan shaxsga birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish uchun mo'ljallangan ayrim buyumlar, masalan, qaysi, bint, yopishuvchan tasma va boshqalar bor.

Uchburchak reflektor

Favqulodda holatlar vaqtida, masalan, biror muammo sababli avtomobilni yo'l chetiga to'xtatib qo'yganingizda kelayotgan transport vosiyalarini ogohlantirish uchun ushbu uchburchak reflektorni yo'lga qo'ying.

BAA Favqulodda chaqiruv tizimi (mavjud bo'lsa)



- 1 Yo'l-transport hodisasi
- 2 Simsiz tarmoq
- 3 Jamoat xavfsizligi javob berish nuqtasi (PSAP)
- 4 Qutqaruv

Avtomobil favqulodda holatlarda javob beruvchi jamoalar BAA Favqulodda chaqiruv tizimiga ulangan qurilma^{*1} bilan jihozlangan. BAA Favqulodda chaqiruv tizimi – bu Yaqin Sharqdagi yo'llarda yo'l-transport hodisasi va boshqa^{*2} baxtsiz hodisalar sodir bo'lganida avtomatik chaqiruvni amalga oshiruvchi favqulodda xizmatdir. (faqat ushbu tizim tartibga solinadigan mamlakatlarda)

Bu tizim Yaqin Sharq yo'llarida baxtsiz hodisalar yuz berganda yagona navbatchi dispetcherlik xizmati xodimiga murojaat qilish imkonini beradi. (faqat ushbu tizim tartibga solinadigan mamlakatlarda)

Foydalanuvchi qo'llanmasi, shuningdek, Kafolat va xizmat ko'rsatish kitobida keltirilgan shartlar asosidagi Favqulodda chaqiruv tizimi Jamoat xavfsizligi javob berish nuqtasiga (PSAP) muayyan ma'lumotlarni, masalan, avtomobil joylashuvi, turi, VIN (avtomobil


identifikatsiya raqami) kabi axborotlarni uzatadi.

Favqulodda chaqiruv tizimida saqlangan ma'lumotlar tegishli qutqaruv amaliyotlari orqali haydovchi va yo'lovchilarga yordam berilishi uchun qutqaruv markaziga yetkazilganida, qutqaruv amaliyoti yakunlanganidan keyin bu ma'lumotlar o'chirib tashlanadi.

*1. Foydalanuvchi qo'llanmasidagi favqulodda chaqiruv qurilmasi avtomobilga o'rnatilgan va Favqulodda chaqiruv tizimi bilan aloqani ta'minlovchi jihozni anglatadi.

*2. "Boshqa baxtsiz hodisalar" deganda Yaqin Sharqdagi (faqat ushbu tizim tartibga solinadigan mamlakatlarda) yo'llarida yuz beruvchi hamda insonlar tan jarohati oladigan va/yoki yordam ko'rsatish zaruratini yuzaga keltiruvchi har qanday baxtsiz hodisa tushuniladi. Biror baxtsiz hodisa ro'yxatga olingan taqdirda, avtomobilni to'xtatish kerak, SOS tugmasini bosib (tugmaning joylashuvi rasmda ko'rsatilgan: "BAA Favqulodda chaqiruv tizimi", 7-31-sahifa. Chaqiruv qilish vaqtida bu tizim chaqiruv qilingan avtomobil haqidagi ma'lumotlarni to'playdi, shundan keyin favqulodda chaqiruv sababi aytilishi uchun avtomobilni jamoat xavfsizligi javob berish nuqtasi (PSAP) xodimi bilan ularadi.

Avtomobildagi favqulodda chaqiruv tizimi tavsifi



- 1 SOS tugmasi
- 2 Halokat signali

3 Favqulodda holatda chaqiruv tizimi

4 Antenna

5 Mikrofon

6 Karnay

7 LED chiroqlar

Avtomobildagi Favqulodda chaqiruv tizimi, uning ishlash tartibi va funksiyalariga umumiy nazar: ushbu bo'limga qarang. Favqulodda chaqiruv xizmati – bu umumiy manfaatga asoslangan davlat xizmati bo'lib, u bepul taqdim etiladi.

Avtomobil ichidagi Favqulodda chaqiruv tizimi ON (YONIQ) holatidan favqulodda chaqiruvlar uchun uzluksiz monitoringni boshlaydi. Jiddiy baxtsiz hodisa sodir bo'lganida, avtomobildagi sensorlar bu tizimni avtomatik faollashtiradi.

U, shuningdek, avtomobil jiddiy baxtsiz hodisa sodir bo'lganda ishlamaydigan TPS tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, avtomatik ishga tushadi.

Zarur hollarda, avtomobildagi Favqulodda chaqiruv xizmat raqamini mustaqil faollashtirish ham mumkin. Bu tizimni mustaqil faollashtirish haqida ko'rsatmalar: ushbu bo'limga qarang.

Avtomobildagi Favqulodda chaqiruv tizimini faolsizlantiradigan darajadagi keskin tizim nosozligi yuzaga kelsa, avtomobildagi yo'lovchilarga quyidagi ogohlantirish beriladi: ushbu bo'limga qarang.

Ma'lumotlarni qayta ishlash haqida

Avtomobildagi Favqulodda chaqiruv tizimi orqali shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash 95/46/EC (1) Direktivasi va Yevropa Parlamenti va Kengashining 2002/58/EC (2) Direktivasining shaxsiy ma'lumotlar himoyasiga oid qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi, xususan, bunday qayta

ishlash 95/46/EC (3) direktivasi 7(d) moddasiga muvofiq jismoniy shaxslarning eng muhim manfaatlarini himoya qilish zaruratiga asoslanadi.

Buday ma'lumotlarni qayta ishlash Favqulodda chaqiruv yagona raqamiga favqulodda chaqiruv qilish maqsadi bilan qat'iy cheklangan.

Ma'lumotlar turlari va ularni qabul qiluvchilar

Avtomobildagi Favqulodda chaqiruv tizimi faqat quyidagi ma'lumotlarni to'plashi va qayta ishlashi mumkin:

- Avtomobil identifikatsiya raqami
- Avtomobil turi (yengil avtomobil yoki yengil korporativ avtomobil)
- Avtomobilning harakatlanish energiyasini saqlash turi (benzin/dizel/ CNG/LPG/elektr/vodorod)
- Avtomobilning oxirgi joylashuvlari va safar yo'nalishi
- Tizimning avtomatik faollashuv jurnali fayli va uning vaqt belgisi
- Qo'shimcha ma'lumotlar (tegishli hollarda): Aniq emas

Avtomobildagi Favqulodda chaqiruv tizimi tomonidan qayta ishlanadigan ma'lumotlarni qabul qiluvchilar – o'zlari joylashgan mamlakatdagi tegishli davlat organlari tomonidan belgilangan tegishli jamoat xavfsizligi bo'yicha javob berish nuqtalari bo'lib, bu punktlar favqulodda holat yagona raqamiga qilingan Favqulodda chaqiruvlarini birinchi bo'lib qabul qiladi va ular bilan ishlaydi. Qo'shimcha axborot (mavjud bo'lsa): Aniq emas

1. Yevropa Parlamenti va Kengashining 1995-yil, 24-oktabrdagi Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashda jismoniy shaxslar himoyasi va bunday ma'lumotlarning erkin harakati

haqidagi 95/46/EC Direktivasi (OJ L 281, 23.11.1995, 31-bet).

2. Yevropa Parlamenti va Kengashining 2002-yil, 12-iyuldagi Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash va elektron kommunikatsiyalar sektorida maxfiylik himoyasi haqidagi 2002/58/EC Direktivasi (Maxfiylik va elektron kommunikatsiyalar haqida direktiva) (OJ L 201, 31.7.2002, 37-bet).
3. 95/46/EC Direktivasi Yevropa Parlamenti va Kengashining 2016-yil, 27-apreldagi Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashda jismoniy shaxslar himoyasi va bunday ma'lumotlarning erkin harakati haqidagi 2016/679-sonli Reglamenti tomonidan bekor qilingan (Shaxsiy ma'lumotlar himoyasiga oid bosh reglament) (OJ L 119, 4.5.2016, 1-bet). Bu Reglament 2018-yil 25-maydan boshlab tatbiq etiladi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash tartibi

Avtomobildagi Favqulodda chaqiruv tizimi xotirasidagi ma'lumotlar Favqulodda chaqiruv faollashishidan oldin tizimdan tashqariga chiqmaydi. Qo'shimcha izohlar (agar bo'lsa): Aniq emas

Avtomobildagi Favqulodda chaqiruv tizimi shunday ishlab chiqilganki, u qurilmalar yordamida kuzatilmaydi va uni normal ish rejimi holatida muntazam ravishda kuzatib bo'lmaydi. Qo'shimcha izohlar (agar bo'lsa): Aniq emas

Avtomobildagi Favqulodda chaqiruv tizimi tizimning ichki xotirasidagi ma'lumotlar avtomatik va muntazam ravishda o'chirilib tashlanadigan qilib ishlangan.

Avtomobil joylashuvi haqidagi ma'lumotlar tizimning ichki xotirasida doimiy ravishda qayta yoziladi va tizimning normal ishlashi uchun zarur bo'lgan avtomobilning oxirgi uchta joylashuvi saqlanib qoladi.

Avtomobil ichidagi Favqulodda chaqiruv tizimidagi faoliyat ma'lumotlari jurnali favqulodda elektron chaqiruv bilan ishlash maqsadiga erishish uchun zarur bo'lgan vaqtdan ko'p muddat davomida saqlanmaydi va saqlash hech bir holatda favqulodda chaqiruv boshlangan paytdan boshlab 13 soatdan oshmasligi kerak. Qo'shimcha izohlar (agar bo'lsa): Aniq emas

Ma'lumotlar subyekti huquqlarini amalga oshirish shartlari

Ma'lumotlar subyekti (avtomobil egasi) ma'lumotlarga kirish va tegishli hollarda, unga oid ma'lumotlarni tuzatish, o'chirish yoki 95/46/EC Direktivasi shartlariga muvofiq bo'lmagan qayta ishlashni taqiqlashni talab qilish huquqiga ega. Ma'lumotlar oshkor qilingan har qanday uchinchi shaxs, agar bu imkonsiz bo'lmasa yoki nomutanosib harakatlar talab qilinmasa, ushbu Direktivaga muvofiq amalga oshirilgan bunday tuzatish, o'chirish yoki taqiqlash haqida xabardor qilinishi kerak.

Ma'lumotlar subyekti, agar u shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish natijasida o'z huquqlari buzilgan deb hisoblasa, ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha vakolatli organga shikoyat qilish huquqiga ega.

Kirish so'rovlari bilan ishlashga mas'ul xizmatga murojaat qiling (agar mavjud bo'lsa): Aniq emas

BAA Favqulodda chaqiruv tizimi



Yo'lovchi bo'lmasiga o'rnatilgan BAA Favqulodda chaqiruv tizimi elementlari:

- 1** Mikrofon
- 2** SOS tugmasi
- 3** LED

SOS tugmasi: haydovchi yoki yo'lovchi bu tugmani bosish orqali yagona navbatchi dispetcherlik xizmatiga favqulodda chaqiruv qiladi.

LED: ENGINE START/STOP tugmasi ON (YOQIQ) holatiga sozlangan bo'lsa, yashil LED chiroq 3 soniya davomida yonadi. Shundan keyin tizimning normal ishlash vaqtida u o'chadi.

Baxtsiz hodisa haqida avtomatik xabar berish

1. Yo'l-transport hodisasi yuz beganda tizimning ishlashi



2. Jamoat xavfsizligi javob berish nuqtasi (PSAP) bilan ulanish



3. Favqulodda xizmatlar



Avtomobil halokatga uchraganida tegishli qutqaruv amaliyotlari taqdim etilishi uchun BAA Favqulodda chaqiruv tizimi qurilmasi avtomatik Jamoat xavfsizligi bo'yicha javob berish nuqtasiga (PSAP) favqulodda chaqiruv qiladi.

BAA Favqulodda chaqiruv tizimi, tegishli favqulodda xizmatlar va yordam ko'rsatilishi uchun, yo'l-transporti hodisasi aniqlanganida bu hodisa ma'lumotlarini avtomatik Jamoat xavfsizligi bo'yicha javob berish nuqtasiga (PSAP) yuboradi.

Bu holatda favqulodda chaqiruvni SOS tugmasini bosish orqali uzib qo'yish imkonsiz va BAA favqulodda chaqiruvni to chaqiruvni qabul qilgan favqulodda xizmat xodimi uni uzib qo'ymagunicha davom etadi.

Kichik yo'l-transport hodisalari yuz berganida BAA Favqulodda chaqiruv tizimi favqulodda chaqiruvni amalga oshirmasligi mumkin. Biroq SOS tugmasini bosish orqali qolda favqulodda chaqiruv qilish mumkin.

⚠️ DIQQAT

Mobil transmissiya va GPS va Galileo signallari bo'lmasa, bu tizim ishlamaydi.

Baxtsiz hodisa haqida mustaqil xabar berish

1



2



3



Haydovchi yoki yo'lovchi kerakli favqulodda xizmatlarga chaqiruv qilish uchun SOS tugmasini bosish orqali Jamoat xavfsizligi javob berish nuqtasiga (PSAP) qo'lda favqulodda chaqiruv qilishi mumkin.

BAA Favqulodda chaqiruv xizmati orqali favqulodda xizmatlarga qilingan chaqiruvni chaqiruv ulanishidan avval faqat 3 soniya ichida SOS tugmasini qaytadan bosish orqali bekor qilish mumkin.

BAA Favqulodda chaqiruv SOS tugmasini bosish orqali qo'lda faollashtirilganidan keyin (tegishli favqulodda xizmatlar va yordam ko'rsatilishi uchun), Favqulodda chaqiruv tizimi yo'l-transport hodisasi ma'lumotlarini yoki boshqa baxtsiz hodisa ma'lumotlarini avtomatik tarzda Jamoat xavfsizligi bo'yicha javob berish nuqtasi (PSAP) xodimiga yuboradi (favqulodda chaqiruv vaqtida).

Agar haydovchi yoki yo'lovchi SOS tugmasini bexosdan bosib yuborsa, ulanishdan oldin 3 soniya ichida bu tugmani qayta bosish orqali chaqiruvni bekor qilish mumkin. Shundan keyin chaqiruvni bekor qilib bo'lmaydi.

Yo'l-transport hodisasi yoki boshqa hodisa yuz berganida favqulodda chaqiruvni qo'lda faollashtirish uchun quyidagilarni bajarish zarur:

1. O'zingiz va yo'l harakatining boshqa ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash uchun yo'l harakati qoidalariga rioya qilgan holda avtomobilni to'xtating.
2. SOS tugmasini bosing, tugma bosilganda qurilmani simsiz telefon

aloqa tarmoqlarida SOS registratsiyasi amalga oshiriladi, qurilmaning texnik talablariga muvofiq avtomobil va uning joylashuvi haqida minimal ma'lumotlar yig'iladi.

Shundan keyin BAA Favqulodda chaqiruv tizimi xodimi bilan aloqa o'rnatilib, favqulodda chaqiruv sabablari (sharoitlari) aniqlashtiriladi.

3. Favqulodda chaqiruv sabablari aniqlashtirilgach, Jamoat xavfsizligi javob berish nuqtasi (PSAP) xodimii favqulodda xizmatlarni yuboradi va favqulodda chaqiruvni yakunlaydi.

Agar favqulodda chaqiruv yuqorida tasvirlangan protseduraga muvofiq tarzda amalga oshirilmasa, bunday favqulodda chaqiruv xato deb hisoblanadi.

⚠ OGOHLANTIRISH

Batareyadan BAA Favqulodda chaqiruv tizimining favqulodda quvvat ta'minoti

- Favqulodda vaziyatlarda to'qnashuv natijasida avtomobilning asosiy quvvat manbasi uzilib qolganida BAA Favqulodda chaqiruv tizimining batareyasi 1 soat davomida quvvat bilan ta'minlaydi.
- BAA Favqulodda chaqiruv tizimi batareyasini har 4 yilda almashtirish kerak. Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: "Rejali texnik xizmat", 8-8-sahifa.

LED chirog'ining qizil rangda yonishi (tizim nosozligi)

Agar normal haydash sharoitida qizil LED yonsa, bu BAA Favqulodda chaqiruv tizimidagi nosozlikdan darak berishi mumkin. Darhol vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga BAA Favqulodda chaqiruv

tizimini tekshirtiring. Aks holda, avtomobilingizga o'rnatilgan BAA Favqulodda chaqiruv tizimi to'g'ri ishlashi kafolatlanmaydi. Yuqorida tilga olingan shartlarga rioya qilmaslik natijasida kelib chiqqan oqibatlar uchun avtomobil egasi javobgar bo'ladi.

O'zboshimchalik bilan olib tashlash yoki o'zgartirish

BAA Favqulodda chaqiruv tizimi yordam uchun favqulodda xizmatlarga chaqiruv qiladi. Shu sababli, o'zboshimchalik bilan BAA Favqulodda chaqiruv tizimi sozlamalarini olib tashlash yoki o'zgartirish haydash xavfsizligiga ta'sir qilishi mumkin. Shuningdek, u hatto Jamoat xavfsizligi javob berish nuqtasiga (PSAP) xato favqulodda chaqiruv qilishi ham mumkin. Shu sababli, sizdan avtomobilga o'rnatilgan BAA Favqulodda chaqiruv tizimi jihozi sozlamalariga o'zingiz yoki uchinchi shaxslar tomonidan o'zgartirishlar kiritmaslikni so'raymiz.

Favqulodda chaqiruv sertifikatini yorlig'i




* ESLATMA

Uyali aloqa operatorlari dunyoning ko'plab mamlakatlarida 2G va 3G aloqadan voz kechishadi. 2G va/yoki 3G tarmoq texnologiyasidan bosqichma-bosqich voz kechish qarori faqat uyali aloqa operatorlari ixtiyorida va shuning uchun Kia nazoratidan tashqarida.

Tarmoq operatorlari 2G va/yoki 3G aloqani to'xtatish to'g'risidagi qaroriga ko'ra, favqulodda yordam xizmati talab qilinganda avtomatik/mustaqil amalga oshiriladigan Favqulodda chaqiruv endi ishlaymaydi.

ERA-GLONASS favqulodda chaqiruvi (mavjud bo'lsa)



- 1 Yo'l-transport hodisasi
- 2 Simsiz tarmoq
- 3 Yagona navbatchi dispetcherlik xizmati (SDDS)
- 4 Qutqaruv

Avtomobil javob beruvchi jamoalarga favqulodda chaqiruv uchun ERA-GLONASS tizimiga ulangan qurilma^{*1} bilan jihozlangan. ERA-GLONASS – bu Rossiya Federatsiyasidagi yo'llarda yo'l-transport hodisasi va boshqa^{*2} baxtsiz hodisalar sodir bo'lganida avtomatik favqulodda chaqiruv xizmatidir. Bu tizim Rossiya Federatsiyasi yo'llarida baxtsiz hodisalar yuz berganda yagona navbatchi dispetcherlik xizmati xodimiga murojaat qilish imkonini beradi.

Foydalanuvchi qo'llanmasi, shuningdek, Foydalanuvchi Kafolat va xizmat ko'rsatish kitobida keltirilgan shartlar asosidagi ERA-GLONASS tizimi Jamoat xavfsizligi bo'yicha javob berish nuqtasiga (PSAP) muayyan ma'lumotlarni, masalan, avtomobil joylashuvi, turi, VIN (avtomobil identifikatsiya raqami) kabi axborotlarni uzatadi.

ERA-GLONASS tizimida saqlangan ma'lumotlar tegishli qutqaruv amaliyotlari

orqali haydovchi va yo'lovchilarga yordam berilishi uchun qutqaruv markaziga yetkazilganida, qutqaruv amaliyoti yakunlanganidan keyin bu ma'lumotlar o'chirib tashlanadi.

ERA-GLONASS tizimining operatori ("GLONASS" aksiyadorlik kompaniyasi) "ERA-GLONASS davlat avtomatlashtirilgan axborot tizimi to'g'risida" 28.12.2013-yildagi 395-FZ Federal qonuniga muvofiq ERA-GLONASS tizimining barcha tarkibiy qismlari (avtomobilga o'rnatilgan uskunalar bundan mustasno) uchun javobgardir.

1. * Foydalanuvchi qo'llanmasidagi ERA-GLONASS qurilmasi avtomobilga o'rnatilgan va ERA-GLONASS tizimi bilan aloqani ta'minlovchi jihozni anglatadi.
2. * "Boshqa baxtsiz hodisalar" deganda Rossiya Federatsiyasidagi yo'llarda yuz berib, insonlar tan jarohati oladigan va/yoki yordam ko'rsatish zarurati yuzaga keltiruvchi har qanday baxtsiz hodisa tushuniladi. Har qanday baxtsiz hodisa ro'yxatga olingan taqdirda, avtomobilni to'xtatib turish kerak, SOS tugmasini bosib (tugma joylashuvi foydalanuvchi qo'llanmasining "ERA-GLONASS FAVQULODDA CHAQIRUV TIZIMI (JIHOZLANGAN BO'LSA)" bobidagi rasmda ko'rsatilgan). Chaqiruv qilish vaqtida bu tizim chaqiruv qilingan avtomobil haqidagi ma'lumotlarni to'playdi, shundan keyin favqulodda chaqiruv sababi aytilishi uchun avtomobilni jamoat xavfsizligi bo'yicha javob berish nuqtasi (PSAP) xodimi bilan ulaydi.

ERA-GLONASS tizimi



- 1 Mikrofon
- 2 SOS tugmasi
- 3 SOS TEST tugmasi
- 4 LED

SOS tugmasi: haydovchi yoki yo'lovchi bu tugmani bosish orqali yagona navbatchi dispatcherlik xizmatiga favqulodda chaqiruv qiladi.

SOS TEST tugmasi (test): tugma Kia rasmiy dilerida tizim ish qobiliyatini tekshirish uchun mo'ljallangan. "SOS TEST" rejimi qat'iy ravishda Kia vakolatli dileri/xizmat hamkori mutaxassisi tomonidan faollashtirilishi mumkin. Noto'g'ri chaqiruvlarning oldini olish uchun, bu tugmani bosmang va "SOS TEST" rejimini mustaqil faollashtirmang.

LED: O't oldirish kaliti yoki ENGINE START/STOP tugmasi ON (YONIQ) holatiga sozlangan bo'lsa, yashil LED chiroq 3 soniya davomida yonadi. Shundan keyin tizimning normal ishlash vaqtida u o'chadi.

Tizimda ba'zi muammolar mavjud bo'lsa, LED qizil rangda qoladi.

Baxtsiz hodisa haqida avtomatik xabar berish

1. Yo'l-transport hodisasi yuz beganda tizimning ishlashi



OGL3064047L

2. Yagona navbatchi dispatcherlik xizmati bilan ulanish



OCV061027L

3. Favqulodda xizmatlar



OCV061028L

Avtomobil halokatga uchraganida tegishli qutqaruv amaliyotlari taqdim etilishi uchun ERA-GLONASS qurilmasi avtomatik Jamoat xavfsizligi bo'yicha javob berish nuqtasiga (PSAP) favqulodda chaqiruv qiladi.

ERA-GLONASS tizimi, tegishli favqulodda xizmatlar va yordam ko'rsatilishi uchun, yo'l-transporti hodisasi aniqlanganida bu hodisa ma'lumotlarini avtomatik Jamoat xavfsizligi bo'yicha javob berish nuqtasiga (PSAP) yuboradi.

Bu holatda ERA-GLONASS tizimini SOS tugmasini bosish orqali uzib qo'yish imkonsiz va favqulodda chaqiruv to chaqiruvni qabul qilgan favqulodda

xizmat xodimi uni uzib qo'ymagunicha davom etadi.

*** ESLATMA**

Kichik yo'l-harakat hodisalari yuz berganida ERA-GLONASS tizimi favqulodda chaqiruvni amalga oshirmasligi mumkin. Biroq SOS tugmasini bosish orqali qolda favqulodda chaqiruv qilish mumkin.

⚠ DIQQAT

Mobil aloqa va GPS va GLONASS signallari bo'lmasa, bu tizim ishlamaydi.

Baxtsiz hodisa haqida mustaqil xabar berish

1. SOS tugmasini bosing



ONQ5051015L

2. Yagona navbatchi dispatcherlik xizmati bilan ulanish



OCV061027L

3. Favqulodda xizmatlar



OCV061028L

Haydovchi yoki yo'lovchi yagona navbatchi dispetcherlik xizmatida qo'lda favqulodda qo'ng'iroq qilishi mumkin, buning uchun SOS tugmasini bosib, kerakli favqulodda xizmatlarni chaqirishi mumkin.

Favqulodda chaqiruv xizmati orqali ERA-GLONASS xizmatlarga qilingan chaqiruvni faqat chaqiruv ulanishidan avval SOS tugmasini qaytadan bosish orqali bekor qilish mumkin.

Favqulodda chaqiruv SOS tugmasini bosish orqali qo'lda faollashtirilganidan keyin (tegishli favqulodda xizmatlar va yordam ko'rsatilishi uchun), ERA-GLONASS tizimi yo'l-transport hodisasi ma'lumotlarini yoki boshqa baxtsiz hodisa ma'lumotlarini avtomatik tarzda jamoat xavfsizligi javob berish nuqtasi (PSAP) xodimiga yuboradi (favqulodda chaqiruv vaqtida).

Yo'l-transport hodisasi yoki boshqa hodisa yuz berganida favqulodda chaqiruvni qo'lda faollashtirish uchun quyidagilarni bajarish zarur:

1. O'zingiz va yo'l harakatining boshqa ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash uchun yo'l harakati qoidalariga muvofiq avtomobilni to'xtating.
2. SOS tugmasini bosib, tugma bosilganda qurilmani simsiz telefon aloqa tarmoqlarida SOS registratsiyasi amalga oshiriladi, qurilmaning texnik talablariga muvofiq avtomobil va uning joylashuvi haqida minimal ma'lumotlar to'planadi. Shundan keyin ERA-GLONASS tizimi xodimi bilan aloqa o'rnatilib, favqulodda chaqiruv sabablari (sharoitlari) aniqlashtiriladi.
3. Favqulodda chaqiruv sabablari aniqlashtirilgach, jamoat xavfsizligi bo'yicha javob berish nuqtasi (PSAP) xodimi favqulodda xizmatlarni

yuboradi va favqulodda chaqiruvni yakunlaydi.

Agar favqulodda chaqiruv yuqorida tasvirlangan protseduraga muvofiq tarzda amalga oshirilmasa, bunday favqulodda chaqiruv xato deb hisoblanadi.

OGOHLANTIRISH

Batareyadan ERA-GLONASS tizimining favqulodda quvvat ta'minoti

- Favqulodda vaziyatlarda to'qnashuv natijasida avtomobilning asosiy quvvat manbasi uzilib qolganida ERA-GLONASS tizimining batareyasi 1 soat davomida quvvat bilan ta'minlaydi.
- ERA-GLONASS tizimi batareyasini har 4 yilda almashtirish kerak. Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: "Rejali texnik xizmat", 8-8-sahifa.

LED chirog'ining qizil rangda yonishi (tizim nosozligi)

Agar normal haydash sharoitida qizil LED yonsa, bu ERA-GLONASS tizimidagi nosozlikdan darak berishi mumkin. Darhol vakolatli Kia dileriga ERA-GLONASS tizimini tekshirtiring. Aks holda, avtomobilingizga o'rnatilgan ERA-GLONASS tizimi to'g'ri ishlashi kafolatlanmaydi. Yuqorida zikr qilingan shartlarga rioya qilmaslik natijasida yuzaga kelgan oqibatlar uchun avtomobil egasi javobgar bo'ladi.

O'zboshimchalik bilan olib tashlash yoki o'zgartirish

ERA-GLONASS tizimi yordam uchun favqulodda xizmatlarga chaqiruvni amalga oshiradi. Shu sababli, o'zboshimchalik bilan ERA-GLONASS tizimi sozlamalarini olib tashlash yoki o'zgartirish haydash xavfsizligiga ta'sir qilishi mumkin. Shuningdek, u hatto jamoat xavfsizligi bo'yicha javob berish

nuqtasiga xato favqulodda chaqiruv qilishi ham mumkin. Shu sababli, sizdan avtomobilga o'rnatilgan ERA-GLONASS tizimi jihozi sozlamalariga o'zingiz yoki uchinchi shaxslar orqali o'zgartirishlar kiritmaslikni so'raymiz.

Test rejimi



Yo'lovchi bo'lmasiga o'rnatilgan ERA-GLONASS tizimi elementlari:

- 1** Mikrofon
- 2** SOS tugmasi
- 3** SOS TEST tugmasi
- 4** LED

Avtomobilingizga o'rnatilgan ERA-GLONASS qurilmasining ishlash qobiliyatini tekshirish uchun texnik imkoniyat mavjud. Noto'g'ri chaqiruv qilish va qurilmaning noto'g'ri ishlashiga yo'l qo'ymaslik uchun avtomobilingizga o'rnatilgan ERA-GLONASS qurilmasini tekshirish faqat Kia vakolatli dileri/xizmat hamkori mutaxassislari va ularning hududida quyidagi qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi kerak (test rejimini ishga tushirish uchun foydalanuvchi interfeysini qo'llash haqida).

SOS TEST tugmasini bosish orqali ERA-GLONASS test rejimini boshlashingiz mumkin. Test rejimi ERA-GLONASS qurilmasining ishlash qobiliyatini tekshirish uchun ovozi ko'rsatma bilan boshlanadi. ERA-GLONASS qurilmasining ishlash qobiliyatini tekshirish jarayonida qizil va yashil LED yonadi.

Ovozli ko'rsatma paytida test rejimini o'chirish uchun SOS TEST tugmasini yana bir marta bosib.

* ESLATMA

Uyali aloqa operatorlari dunyoning ko'plab mamlakatlarida 2G va 3G aloqadan voz kechishadi. 2G va/yoki 3G tarmoq texnologiyasidan bosqichma-bosqich voz kechish qarori faqat uyali aloqa operatorlari ixtiyorida va shuning uchun Kia nazoratidan tashqarida.

Tarmoq operatorlari 2G va/yoki 3G aloqani to'xtatish to'g'risidagi qaroriga ko'ra, favqulodda yordam xizmati talab qilinganda avtomatik/mustaqil amalga oshiriladigan Favqulodda chaqiruv endi ishlamaydi.

Motor bo'lmasi	8-4
Texnik xizmatlar	8-5
• Foydalanuvchi majburiyati	8-5
• Foydalanuvchi tomonidan texnik xizmat paytidagi ehtiyot choralari	8-5
Foydalanuvchi tomonidan texnik xizmat	8-6
• Foydalanuvchining texnik xizmat jadvali	8-6
Rejali texnik xizmat	8-8
• Odatiy texnik xizmat jadvali	8-9
• og'ir foydalanish sharoitlarida texnik xizmat	8-12
Rejali texnik xizmat obyektlari izohi	8-14
• Motor moyi va filtri	8-14
• Harakatlantiruvchi kamarlar	8-14
• Yonilg'i filtri	8-14
• Yonilg'i liniyalari, yonilg'i shlanglari va ulamaları	8-14
• Bug' shlangi va yonilg'i baki qopqog'i	8-14
• Vakuum karteri ventilyatsiyasi shlanglari	8-14
• Havo tozalagich filtri	8-15
• O't oldirish svechalari	8-15
• Sovitish tizimi	8-15
• Sovitish suyuqligi	8-15
• Avtomatik transmissiya suyuqligi	8-15
• Tormoz shlanglari va liniyalari	8-15
• Tormoz suyuqligi	8-15
• Tormoz diskleri, kolodkalari va vilkalari	8-15
• Osma o'rnatish boltlari	8-16
• Rul mexanizmi qutisi, bo'g'ini va changdonlar/quyi dastak sharigi bo'g'imi	8-16
• Uzatma vallari va changdonlar	8-16
• Konditsioner uchun sovitish moddasi	8-16
• Suyuqlik darajalarini tekshirish	8-16


Motor moyi va filtri	8-17
• Motor moyi darajasini tekshirish	8-17
• Motor moyi va filtrini almashtirish	8-18
Dvigatel sovitish suyuqligi	8-19
• Sovitish suyuqligi darajasini tekshirish	8-19
• Sovitish suyuqligini almashtirish	8-21
Tormoz suyuqligi	8-22
• Tormoz suyuqligi darajasini tekshirish	8-22
Oyna yuvish suyuqligi	8-23
• Oyna yuvish suyuqligini tekshirish	8-23
Havo tozalagich filtri	8-24
• Havo tozalagich filtrini almashtirish	8-24
Iqlim nazorati havo filtri	8-25
• Filtrni tekshirish	8-25
Oynatozalagich cho'tkalari	8-26
• Cho'tkani tekshirish	8-26
• Cho'tkalarni almashtirish	8-27
Batareya	8-28
Shinalar va g'ildiraklar	8-31
• Shinalarni parvarish qilish	8-31
• Tavsiya etilgan sovuq shina bosimlari	8-31
• Shina bosimini tekshirish	8-32
• Shinalar o'rnini almashtirish	8-33
• G'ildiraklarni tekislash va shina muvozanati	8-34
• G'ildirak va shinani o'rnatish	8-34
• Shinani almashtirish	8-35
• G'ildirakni almashtirish	8-36
• Shina tortishi	8-36
• Shinaga texnik xizmat	8-37
• Shina yon devoridagi yorliq	8-37

• Kam nisbatli shinalar	8-40
Saqlagichlar	8-41
• Ichki paneldagi saqlagichni almashtirish	8-42
• Motor bo'lmasi saqlagich paneli	8-43
• Saqlagich/rele paneli tavsifi	8-44
Yoritish lampalari	8-52
• Lampani almashtirishda ehtiyot chorasi	8-52
• Yoritish lampasi holati (old)	8-54
• Yoritish lampasi holati (orqa)	8-54
• Yoritish lampasi holati (yon)	8-54
• Chiroqlarni almashtirish (LED turi)	8-54
• Yuqoriga o'rnatilgan to'xtash lampasini (LED turi) almashtirish	8-54
• Xarita lampasini (LED turi) almashtirish	8-55
• Salon chirog'i lampasini (LED turi) almashtirish	8-55
• Shaxsiy lampani almashtirish (LED turi)	8-55
• Pardozi ko'zgusi lampasini almashtirish (LED turi)	8-56
• Tortma lampasini (lampa turi) almashtirish	8-56
• Yukxona lampasini almashtirish (LED turi)	8-57
Tashqi va ichki ko'rinish parvarishi	8-57
• Tashqi qism parvarishi	8-57
• Salon parvarishi	8-62
Emissiya nazorati tizimi	8-64

Texnik xizmat

Motor bo'limasi

Smartstream G3.5 GDi



OGL3074030

* Avtomobildagi haqiqiy dvigatel bo'limasi bu illustratsiyadagidan farq qilishi mumkin.

1. Dvigatel sovitish suyuqligi idishi
2. Motor moyi baki qopqog'i
3. Tormoz suyuqligi idishi
4. Manfiy batareya klemmasi
5. Old oynatozalagich suyuqligi idishi
6. Motor moyini o'lchash tayoqchasi
7. Musbat batareya klemmasi
8. Havо tozalagich
9. Saqlagich qutisi

Texnik xizmatlar

Texnik xizmat va tekshiruv protseduralarini bajarish vaqtida avtomobil yoki o'zingizga shikast yetishining oldini olish uchun nihoyatda ehtiyot bo'lish lozim.

Qoniqarsiz, to'liqsiz yoki yetarli bo'lmagan texnik xizmat avtomobil ishlashida muammolarni keltirib chiqarishi, bu esa avtomobil shikastlanishi, baxtsiz hodisa yoki tan jarohatiga sabab bo'lishi mumkin.

Foydalanuvchi majburiyati

* ESLATMA

Texnik xizmat ko'rsatilishini ta'minlash va hujjatlarni saqlash majburiyati foydalanuvchi zimmasidadir.

Avtomobilingizga xizmat ko'rsatilishi uchun ixtisoslashgan ustaxonaga boring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

Keyingi sahifalarda ko'rsatilgan rejali texnik xizmat jadvallariga muvofiq avtomobilingizga tegishli texnik xizmat ko'rsatilganini tasdiqlovchi hujjatlarni saqlashingiz kerak.

Bu ma'lumotlar avtomobilingiz kafolatlarining xizmat ko'rsatish va texnik xizmat talablariga muvofiqligini aniqlash uchun kerak bo'ladi.

Kafolat haqida batafsil ma'lumotni Kafolat va texnik xizmat qo'llanmasidan topishz mumkin.

Noto'g'ri texnik xizmat yoki zaruriy texnik xizmat ko'rsatilmaligi sababli talab etiladigan ta'mirlash ishlari va sozlashlar sug'urta qamroviga kirmaydi.

Foydalanuvchi tomonidan texnik xizmat paytidagi ehtiyot choralari

Noto'g'ri yoki to'liqsiz xizmat ko'rsatish muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bu bo'limda faqat bajarish oson bo'lgan texnik xizmat elementlari uchun ko'rsatmalar berilgan.

* ESLATMA

Kafolat muddati davomida foydalanuvchi tomonidan ko'rsatilgan noto'g'ri texnik xizmat kafolat qamroviga ta'sir qilishi mumkin. Tafsilotlar uchun bu avtomobil bilan birga taqdim etilgan alohida Kafolat va texnik xizmat qo'llanmasini o'qib chiqing. Agar biror xizmat ko'rsatish yoki texnik xizmat protsedurasiga ishonchingiz komil bo'lmasa, tizimni ixtisoslashgan ustaxonada ta'mirlatishni tavsiya qilamiz. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

⚠ OGOHLANTIRISH

Texnik xizmat ishlari

- Avtomobil ichida texnik xizmat ko'rsatish xavfli bo'lishi mumkin. Ba'zi texnik xizmat protseduralarini bajarayotganda jiddiy jarohat olishingiz mumkin. Agar sizda yetarli bilim va tajriba yoki ishni bajarish uchun tegishli asbob-uskunalar bo'lmasa, tizimni ixtisoslashgan ustaxonaga xizmat ko'rsatish uchun topshiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.
- Dvigatel ishlayotgan holda kapot ostida ishlash xavflidir. Agar zargarlik buyumlari yoki keng kiyim kiysangiz, bu yanada xavfli bo'ladi. Ular harakatlanuvchi qismlarga o'ralashib qolib, shikastlanishga olib kelishi mumkin.

Bu buyumlar harakatlanuvchi qismlarga o'ralashib qolishi mumkin, agar kapot ostida ishlayotganingizda dvigatelni ishga tushirish lozim bo'lsa,

sovitish tizimiga yaqinlashishdan avval barcha taqinchoqlar (ayniqsa, uzuk, bilakuzuk, qo'l soati va marjonlar), shuningdek, barcha bo'yinbog', sharf va shu kabi boshqa keng kiyim-kechaklarni yechib qo'yish shart.

Foydalanuvchi tomonidan texnik xizmat

Quyidagi ro'yxatlar avtomobilingiz xavfsiz va ishonchli ishlashini ta'minlash uchun ko'rsatilgan chastotalarda o'tkazilishi kerak zarur avtomobil sinov va tekshiruvlaridir.

Har qanday nojo'ya holat haqida imkon qadar tez tegishli dilerga xabar berilishi lozim.

Bu foydalanuvchi tomonidan texnik xizmat tekshiruvlari odatda kafolat qamroviga kirmaydi va qilingan mehnat, ishlatilgan moylash vositalari va ehtiyot qismlari uchun sizdan haq olinishi mumkin.

Foydalanuvchining texnik xizmat jadvali

Yonilg'i uchun to'xtaganingizda:

- Sovitish suyuqligi idishidagi sovitish suyuqligi darajasini tekshiring.
- Old oynatozalagich suyuqligi darajasini tekshiring.
- Past yoki dami yetarlicha bo'lmagan shinalar bor-yo'qligi tekshiring.

OGOHLANTIRISH

Dvigatel issiq vaqtida dvigatel sovitish suyuqligini tekshirishda ehtiyot bo'ling. Qaynoq sovitish suyuqligi yoki bug' bosim ostida otilib chiqishi mumkin. Bu kuyish yoki boshqa jiddiy jarohatlarga olib kelishi mumkin.

Avtomobilni boshqarish vaqtida:

- Avtomobildagi chiqindi gazlari ovozidagi yoki har qanday hiddagi o'zgarishlarga e'tibor bering.
- Rul chambaragida tebranish bor yoki yo'qmasligiga e'tibor qiling. Rul chambaragi bo'shab qolgani yoki uni

boshqarish ko'proq harakat talab qilayotgani yoxud to'g'ri harakatlanayotganda uning holatidagi o'zgarishlarga e'tibor bering.

- Silliq va tekis yo'lda yurish vaqtida avtomobilingizda muntazam ravishda biroz burilish yoki bir tomonga og'ish holatlari kuzatilayotgani yoki kuzatilmayotganiga e'tibor bering.
- To'xtash vaqtida noodatiy tovushlar, bir tomonga og'ish, tormoz pedali harakatlanishi va tormoz pedalini bosish qiyinlashganiga e'tibor qiling va ularni tekshiring.
- Agar transmissiya ishlashida o'zgarishlar yoki sirpanish kuzatilsa, transmissiya suyuqligi darajasini tekshiring.
- To'xtab turish tormozini tekshiring.
- Avtomobilingiz tagidan suyuqlik oqmayotganini tekshiring (konditsionerni ishlatish vaqtida yoki u ishlatilganidan keyin undan suv tomchilashi normal holatdir).

Kamida har oyda bir marta:

- Sovitish suyuqligi idishidagi sovitish suyuqligi darajasini tekshiring.
- Barcha tashqi chiroqlar, jumladan, to'xtash chiroqlari, burilish signallari va avariya ishoralari ishlashini tekshirish.
- Barcha shinalar, jumladan, zaxira shina bosimi, yeyilgani, notekis yeyilgani yoki shikastlanganini tekshiring.
- Bo'shab qolgan g'ildirak gaykalarini tekshiring.

Kamida yiliga ikki marta (masalan, har bahor va kuzda):

- Sizish yoki shikastlanish yo'qligiga ishonch hosil qilish uchun radiator, isitkich va konditsioner shlanglarini tekshiring.

- Old oynatozalagich spreyi va oynatozalagich ishlashini tekshiring. Oynatozalagich cho'tkalarini tozalash yuvish suyuqligi bilan namlangan mato yordamida tozalang.
- Old fara tekisligini tekshiring.
- Glushitel, tutun chiqarish quvurlari, to'siqqlar va qisqichlarni tekshiring.
- Son/yelka kamarlari eskirmagani va ishlashini tekshiring.

Kamida yiliga bir marta:

- Kuzov va eshik drenaj teshiklarini tozalang.
- Eshik sharnirlari va cheklagichlarini moylang va kapot sharnirini tekshiring.
- Eshik va kapot qulflari va lo'kidonlarini moylang.
- Eshik rezina qistirmalarini moylang.
- Konditsioner tizimini tekshiring.
- Avtomatik transmissiya bo'g'ini va boshqaruv elementlarini tekshiring va moylang.
- Batareya va klemmalarni tozalang.
- Tormoz suyuqligi darajasini tekshiring.

Rejali texnik xizmat

Agar avtomobil odatda quyidagi holatlarsiz boshqarilsa, odatiy texnik xizmat jadvaliga rioya qiling. Agar quyidagi shartlardan birortasi mavjud bo'lsa, og'ir foydalanish sharoitida texnik xizmat ko'rsating.

- Noldan past haroratda 16 km (10 mil) dan qisqa yoki normal haroratda 8 km (5 mil) dan qisqa masofalarga tez-tez haydash
- Uzoq masofalarga dvigatelni salt ishlatish yoki past tezlikda haydash
- Notekis, chang, loy, asfaltlanmagan, shag'al yoki tuz sepilgan yo'llarda haydash
- Tuz yoki boshqa yemiruvchi materiallar ishlatiladigan hududlarda yoki nihoyatda sovuq havoda haydash
- Kuchli chang sharoitida haydash
- Tirband yo'l harakati hududida haydash
- Tepalik, pastlik yoki tog' yo'llarida tez-tez haydash
- Shatak yoki kemping uchun foydalanish yoki tomga yuk ortgan holda haydash
- Patrul avtomobili, taksi sifatida yoki avtomobilni tortish shaklidagi boshqa tijoriy maqsadda foydalanish
- Ko'pincha yuqori tezlikda haydash yoki tezkorlik bilan tezlashish/sekinlashish
- Ko'pincha to'xtab-to'xtab haydash
- Tavsiya etilmaydigan motor moyidan foydalanish (mineral, yarim sintetik, past sifatli va h.k.)

Agar avtomobilni yuqorida sanalgan sharoitlardan birida haydasangiz, odatiy texnik xizmat jadvalidan emas, og'ir foydalanishda texnik xizmat jadvalidan foydalangan holda nisbatan tez-tez tekshiruvlarni amalga oshirish, tegishli qismlarni almashtirish va tegishli suyuqliklarni quyish kerak.

Odatiy texnik xizmat jadvali

Qoniqarli emissiya nazorati va samaradorlikni ta'minlash uchun quyidagi texnik xizmatlar ko'rsatilishi lozim. Kafolatni himoya qilish uchun barcha avtomobil emissiyasiga oid xizmatlar kvitansiyalarini saqlang. Ham vaqt, ham bosib o'tiladigan masofa ko'rsatilgan bo'lsa, xizmat ko'rsatish chastotasi birinchi qaysi ko'rsatkichga yetssa, shu ko'rsatkich orqali belgilanadi.

RAQA M	ELEMENT	IZOH
*1	Motor moyi va motor moyi filtri	• Haydash davomida motor moyi sarflanishi odatiy holdir, shu sababli, motor moyi darajasini muntazam tekshirib turish kerak. • Odatiy boshqaruv sharoitlarida motor moyini almashtirish intervali tavsiya etilgan dvigatel xususiyatidan foydalanishda asoslanadi. Agar tavsiya etilgan motor moyi xususiyatidan foydalanilmasa, keskin boshqaruv sharoitlarida motor moyini texnik xizmat jadvali asosida almashtiring. • Hech qachon motor moyiga qo'shimchalar qo'shmang. Motor moyi qo'shimchalari motor moyi xususiyatlarini o'zgartirib, dvigatel jiddiy ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.
*2	Sovitish suyuqligi (dvigatel)	Sovitish suyuqligini quyishda avtomobil uchun faqat ionsizlantirilgan suv yoki yumshoq suvdan foydalaning va zavodda quyilgan sovitish suyuqligiga aslo qattiq suvni aralashtirmang. Noto'g'ri sovitish suyuqligi aralashmasi jiddiy nosozlik va dvigatelga shikast yetishiga sabab bo'lishi mumkin.
*3	Harakatlantiruvchi kamarlar (dvigatel)	• Alternator, suv nasosi va konditsioner (mavjud bo'lsa) harakatlantiruvchi kamarini moslang. Tekshiring va zarur bo'lsa, ta'mirlang yoki almashtiring. • Harakatlanuvchi kamarni taranglatuvchi, taranglatkich va alternator shkivini tekshiring va zarur bo'lsa, tuzating yoki almashtiring.
*4	O't oldirish svechalari	Qulaylikni ta'minlash uchun boshqa qismlarga texnik xizmat vaqtida bu elementni intervaldan oldin almashtirish mumkin.
*5	Yonilg'i qo'shimchalari	Kia sizga OMT (Oktan miqdori bo'yicha tadqiqot) 95/AKI (antidetonnatsiya indeksi) 91 yoki undan yuqori (Yevropa uchun) yoki OMT (Oktan miqdori bo'yicha tadqiqot) 91/AKI (antidetonnatsiya indeksi) 87 yoki undan yuqori (Yevropadan tashqari) qo'rg'oshinsiz benzindan foydalanishni tavsiya qiladi. Sifati yaxshi benzin, jumladan, yonilg'i qo'shimchalaridan muntazam foydalanmaydigan va dvigatelni ishga tushirishga oid muammolarga duch keladigan yoki dvigateli silliq ishlamaydigan mijozlar motor moyini almashtirish vaqtida yonilg'i bakiga bir butilka qo'shimcha qo'shishi kerak. Qo'shimchalar va ulardan qanday foydalanish haqidagi axborotni ixtisoslashgan ustaxonadan olishingiz mumkin. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi. Boshqa qo'shimchalarni aralashtirmang.
*	Transmissiya suyuqligi	Transmissiya suyuqligi suvga botganda o'zgartirilishi kerak.

I: Tekshiring va zarur bo'lsa, sozlang, tuzating, tozalang yoki almashtiring.

R: Almashtiring yoki o'zgartiring

Oylar soni yoki haydash masofasi, qaysi biri birinchi kelsa										
Oylar			12	24	36	48	60	72	84	96
Mil X 1000			10	20	30	40	50	60	70	80
Km X 1000			15	30	45	60	75	90	105	120
Motor moyi va motor moyi filtri* ¹	Smartstream G3.5 GDi	Yaqin Sharq, Hindiston, Liviya, Jazoir, Marokash, Tunis, Sudan, Misr, Eron, Markaziy va Janubiy Amerika, Braziliya, Meksika, Xitoydan tashqari	R	R	R	R	R	R	R	R
		Yaqin Sharq, Hindiston, Liviya, Jazoir, Marokash, Tunis, Sudan, Misr, Eron, Markaziy va Janubiy Amerika, Braziliya uchun	Har 10 000 km (6500 mil) yoki 12 oyda almashtiring							
		Meksika uchun	Har 10 000 km (6500 mil) yoki 6 oyda almashtiring							
		Xitoy uchun	Har 5 000 km (3000 mil) yoki 6 oyda almashtiring							
Sovitish suyuqligi (dvigatel)* ²			Dastlab, 180 000 km (120 000 mil) yoki 120 oyda almashtiring Shundan keyin har 30 000 km (20 000 mil) yoki 24 oyda keyin almashtiring							
Harakatlantiruvchi kamarlar (dvigatel)* ³			-	I	-	I	-	I	-	I
Vakuum shlanglari va karter ventilyatsiyasi shlanglari			-	I	-	I	-	I	-	I
Ot oldirish svechalari* ⁴		Qoʻrgʻoshinsiz benzin	Har 150 000 km (100 000 mil) da almashtiring							
Avtomatik transmissiya (AT) suyuqligi*			Tekshirish yoki xizmat koʻrsatish shart emas							
Uzatma vali va changdonlar			-	I	-	I	-	I	-	I
Yonilgʻi qoʻshimchalari* ⁵	Smartstream G3.5 GDi	Yaqin Sharq, Hindiston, Liviya, Jazoir, Marokash, Tunis, Sudan, Misr, Eron, Markaziy va Janubiy Amerika, Braziliya, Xitoydan tashqari	Har 15000 km (10000 mil) yoki 12 oyda qoʻshing							
		Yaqin Sharq, Hindiston, Liviya, Jazoir, Marokash, Tunis, Sudan, Misr, Eron, Markaziy va Janubiy Amerika, Braziliya uchun	Har 10 000 km (6500 mil) yoki 12 oyda qoʻshing							
		Meksika uchun	Har 10 000 km (6500 mil) yoki 6 oyda qoʻshing							
		Xitoy uchun	Har 5 000 km (3000 mil) yoki 6 oyda qoʻshing							
Yonilgʻi quvurlari, shlanglari va ulamalari			-	-	-	I	-	-	-	I
Yonilgʻi baki havo filtri	Xitoydan tashqari		-	I	-	R	-	I	-	R
	Xitoy uchun		I	I	R	I	I	R	I	I
Yonilgʻi filtri		Xitoy, Braziliya uchun	-	I	-	R	-	I	-	R
Bugʻ shlangi va yonilgʻi baki qopqogʻi			-	-	-	I	-	-	-	I
Havo tozalagich filtri	Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharqdan tashqari		I	I	R	I	I	R	I	I
	Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq uchun		R	R	R	R	R	R	R	R

Oylar soni yoki haydash masofasi, qaysi biri birinchi kelsa									
Oylar		12	24	36	48	60	72	84	96
Mil X 1000		10	20	30	40	50	60	70	80
Km X 1000		15	30	45	60	75	90	105	120
Chiqindi gazlarni chiqarish tizimi		-	I	-	I	-	I	-	I
Sovitish tizimi		I	I	I	I	I	I	I	I
Konditsioner kompressori/sovitish moddasi		I	I	I	I	I	I	I	I
Iqlim nazorati havo filtri	Avstraliya va Yangi Zelandiyadan tashqari	R	R	R	R	R	R	R	R
	Avstraliya va Yangi Zelandiya uchun	I	R	I	R	I	R	I	R
Tormoz diskleri, kolodkalari va vilkalari		-	I	-	I	-	I	-	I
Tormoz liniyalari, shlanglari va ulamalari		-	I	-	I	-	I	-	I
Tormoz suyuqligi	Avstraliya va Yangi Zelandiyadan tashqari	I	I	R	I	I	R	I	I
	Avstraliya va Yangi Zelandiya uchun	I	R	I	R	I	R	I	R
Rul mexanizmi ustuni, bo'g'ini va changdonlar		I	I	I	I	I	I	I	I
Osmo sharikli bog'imlar		I	I	I	I	I	I	I	I
Shina (bosim va protektor eskirishi)		I	I	I	I	I	I	I	I
Batareya holati (12V)	Yaqin Sharqdan tashqari	-	I	-	I	-	I	-	I
	Yaqin Sharq uchun	Har 10 000 km (6500 mil) yoki 6 oyda tekshiring							
BAA Favqulodda chaqiruv tizimi batareyasi (jihozlangan bo'lsa)		Har 4 yilda almashtiring.							

- Yonilg'i filtri (benzinli dvigatel): Yonilg'i filtriga odatda texnik xizmat ko'rsatilmaydi, lekin sifatsiz yonilg'i tufayli yuzaga kelgan sharoitlarni aniqlash uchun rejalashtirilgan texnik xizmat jadvali davomida davriy tekshirish tavsiya etiladi.
- Yonilg'i oqimi cheklanishi, ko'tarilishi, quvvat yo'qolishi, qattiq ishga tushirish muammosi va hokazo kabi xavfsizlik xatarlari mavjud bo'lsa, texnik xizmat jadvalidan qat'i nazar, yonilg'i filtrini darhol almashtirib, batafsil ma'lumot uchun Kia vakolatli dileri/xizmat hamkoriga murojaat qiling.

ogʻir foydalanish sharoitlarida texnik xizmat

Quyidagi elementlarga asosan ogʻir haydash sharoitida boshqariladigan avtomobillarda yanada tez-tez xizmat koʻrsatish kerak. Tegishli texnik xizmat intervallarini quyidagi jadvaldan topasiz.

I: Tekshiring va zarur boʻlsa, sozlang, tuzating, tozalang yoki almashtiring.

R: Almashtiring yoki oʻzgartiring

Texnik xizmat obyekti			Texnik xizmat amaliyoti	Texnik xizmat intervallari	Haydash sharoiti
Motor moyi va motor moyi filtri*1	Smartstream G3.5 GDi	Yaqin Sharq, Hindiston, Liviya, Jazoir, Marokash, Tunis, Sudan, Misr, Eron, Markaziy va Janubiy Amerika, Braziliya, Meksika, Xitoydan tashqari	R	Har 7500 km (5000 mil) yoki 6 oyda	A, B, C, D, E, F, G, H, I, J, K, L
		Yaqin Sharq, Hindiston, Liviya, Jazoir, Marokash, Tunis, Sudan, Misr, Eron, Markaziy va Janubiy Amerika, Braziliya uchun	R	Har 5000 km (3000 mil) yoki 6 oyda	
		Meksika, Xitoy uchun	R	Har 5000 km (3000 mil) yoki 3 oyda	
Havo tozalagich filtri			R	Nisbatan tez-tez	C, E
Ot'oldirish svechalari			R	Nisbatan tez-tez	A, B, F, G, H, I, K
Avtomatik transmissiya (AT) suyuqligi			R	Har 90 000 km (60 000 mil) da	A, C, F, G, H, I, J, K
Tormoz diskari, kolodkalari va vilkalari			I	Nisbatan tez-tez	C, D, E, G, H, I, J, K
Rul mexanizmi ustuni, bog'ini va changdonlar			I	Nisbatan tez-tez	C, D, E, F, G
Osma sharikli bog'imlar			I	Nisbatan tez-tez	C, D, E, G, H, I
Uzatma vali va changdonlar			I	Nisbatan tez-tez	C, D, E, F, G, H, I, J
Iqlim nazorati havo filtri			R	Nisbatan tez-tez	C, E, G

Ogʻir haydash sharoitlari

- A: Noldan past haroratda 16 km (10 mil) dan qisqa yoki normal haroratda 8 km (5 mil) dan qisqa masofalarga tez-tez haydash
- B: Uzoq masofalarga dvigatelni salt ishlatish yoki past tezlikda haydash
- C: Notekis, chang, loy, asfaltlanmagan, shagʻal yoki tuz sepilgan yoʻllarda haydash
- D: Tuz yoki boshqa yemiruvchi materiallar ishlatiladigan hududlarda yoki nihoyatda sovuq havoda haydash
- E: Kuchli chang sharoitida haydash
- F: Tirband yoʻl harakati hududida haydash
- G: Tepalik, pastlik yoki togʻ yoʻllarida tez-tez haydash
- H: Shatak yoki kemping uchun foydalanish yoki tomga yuk ortgan holda haydash
- I: Patrul avtomobili, taksi sifatida yoki avtomobilni tortish shaklidagi boshqa tijoriy maqsadda foydalanish
- J: Koʻpincha yuqori tezlikda haydash yoki tezkorlik bilan tezlashish/sekinlashish
- K: Koʻpincha toʻxtab-toʻxtab haydash

L: Tavsiya etilmaydigan motor moyidan foydalanish (mineral, yarim sintetik, past sifatli va h.k.)

Rejali texnik xizmat obyektlari izohi

Motor moyi va filtri

Motor moyi va filtri texnik xizmat jadvalida ko'rsatilgan intervallarda almashtirilishi kerak. Agar avtomobil keskin sharoitlarda haydalayotgan bo'lsa, moy va filtni yanada tez-tez almashtirib turish talab etiladi.

Harakatlantiruvchi kamarlar

Harakatlantiruvchi kamarlar kesilmagani, yorilmagani, haddan ortiq eskirmagani yoki moyga to'yinganini tekshiring va zarur bo'lsa, ularni almashtiring. Harakatlantiruvchi kamarlar tarangligi talab darajasida ekanini muntazam tekshirish va zarur hollarda, ularni rostlash lozim.

DIQQAT

Kamarni tekshirayotganda ENGINE START/STOP tugmasini OFF (O'CHIQ) yoki ACC holatiga qo'ying.

Yonilg'i filtri

Kia benzinli avtomobillari yonilg'i baki bilan integratsiyalangan butun xizmat davri mobaynida ishlashga yaroqli yonilg'i filtri bilan jihozlangan. Muntazam texnik xizmat yoki almashtirish shart emas, lekin yonilg'i sifatiga bog'liq. Yonilg'i oqimini cheklash, ko'tarilish, quvvat yo'qolishi, qattiq ishga tushirish muammosi va boshqalar kabi muhim xavfsizlik masalalari mavjud bo'lsa, yonilg'i filtrini tekshirish yoki almashtirish kerak.

Yonilg'i filtrini ixtisoslashgan ustaxonaga tekshirish yoki almashtirishga olib boring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

Yonilg'i liniyalari, yonilg'i shlanglari va ulamalari

Sizish yoki shikastlanish holati yo'qligiga ishonch hosil qilish uchun yonilg'i liniyalari, yonilg'i shlanglari va ulamalarini tekshiring. Yonilg'i liniyalari, yonilg'i shlanglari va ulamalarini ixtisoslashgan ustaxonada almashtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

Bug' shlangi va yonilg'i baki qopqog'i

Bug' shlangi va yonilg'i baki qopqog'i texnik xizmat jadvalida ko'rsatilgan intervallarda tekshirilishi lozim. Yangi bug' shlangi va yonilg'i baki qopqog'i to'g'ri o'rnatilishiga ishonch hosil qiling.

Vakuum karteri ventilyatsiyasi shlanglari

Shlanglar yuzasida issiqlik va/yoki mexanik shikastlanish mavjud yoki yo'qligini tekshiring. Qattiq va mo'rt kauchuk, yorilish, teshilish, kesilgan joylar hamda haddan ortiq chirish sifat yomonlashganini ko'rsatadi. Yuqori issiqlik manbalari, masalan, chiqindi gaz kollektoriga eng yaqin shlanglar yuzasini alohida e'tibor bilan tekshirish lozim.

Barcha shlang yo'nalishlarini tekshirib, shlanglar issiqlik manbasi, o'tkir qirra yoki harakatlanuvchi komponentlarga tegmasligiga ishonch hosil qiling, chunki bu issiqlikdan shikastlanish yoki mexanik yeyilishga sabab bo'lishi mumkin. Barcha shlang ulamalari, masalan, qisqichlar va muftalarni tekshirib, mahkam ekani va sizish holatlari yo'qligiga ishonch hosil qiling. Agar eskirish yoki shikastlanish belgilari bo'lsa, shlanglarni darhol almashtirish kerak.

Havo tozalagich filtri

Havo tozalagich filtrini ixtisoslashgan ustaxonada almashtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

O't oldirish svechalari

Tegishli issiqlik diapazonidagi yangi o't oldirish svechalarini o'rnatish.

Qismlarni yig'ishda o't oldirish svechasi izolyatori ifloslanishining oldini olish uchun o't oldirish g'altagi quyi qismi va o't oldirish svechasi izolyatori ichki va tashqi qismini yumshoq mato bilan arting.

⚠ OGOHLANTIRISH

Dvigatel qizib ketganda o't oldirish svechalarini sug'urmang va tekshirmang. Kuyib qolishingiz mumkin.

Sovitish tizimi

Sizish yoki shikastlanish yo'qligiga ishonch hosil qilish uchun radiator, sovitish suyuqligi idishi, shlanglar va ulamalar kabi sovitish tizimi komponentlarini tekshiring. Shikastlangan qismlar bo'lsa, ularni almashtiring.

Sovitish suyuqligi

Sovitish quyuqligi texnik xizmat jadvalida ko'rsatilgan intervallarda almashtirilishi kerak.

Avtomatik transmissiya suyuqligi

Normal sharoitlarida ishlatilsa, avtomatik transmissiya suyuqligini tekshirish shart emas. Avtomatik transmissiya suyuqligini texnik xizmat jadvaliga muvofiq ixtisoslashgan ustaxonada almashtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

* ESLATMA

Avtomatik transmissiya suyuqligi asosan qizil rangga ega.

Avtomobil haydalgani sari, avtomatik transmissiya suyuqligi rangi to'qlasha boshlaydi. Bu odatiy holatdir va rang o'zgarishiga qarab bu suyuqlikni almashtirish kerak degan xayolga bormaslik kerak.

⚠ DIQQAT

Belgilanmagan suyuqlikdan foydalanish transmissiya nuqsonli ishlashi yoki ishdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Faqat belgilangan avtomatik uzatishtransmissiya suyuqligidan foydalaning. (Qarang:"Tavsiya etilgan moylash vositalari va hajmlari", 9-9-sahifa.)

Tormoz shlanglari va liniyalari

To'g'ri o'rnatilgani, ishqalanish holatlari, yoriqlar, deformatsiya yoki sizish holatlarini ko'zdan kechiring. Eskirgan yoki shikastlangan qismlarni darhol almashtiring.

Tormoz suyuqligi

Tormoz suyuqligi idishidagi tormoz suyuqligi darajasini tekshiring. Uning darajasi idish yonidagi "MIN" va "MAX" belgilari orasida bo'lishi kerak. Faqat DOT 4 texnik tavsifiga javob beradigan gidravlik tormoz suyuqligidan foydalaning.

Tormoz diskleri, kolodkalari va vilkalari

Kolodkalar haddan ortiq yeyilmagani, diskler eskirmagani va tugamagani hamda kaliperlardan suyuqlik sizmayotganini tekshiring.

Kolodkalar yoki eskirish chegarasini tekshirish haqida batafsil ma'lumot olish uchun vakolatli Kia veb-saytiga murojaat qilish tavsiya etiladi.

(www.Kia-hotline.com)

Osma o'rnatish boltlari

Osma ulamalari bo'shab qolmagani va shikastlanmaganini tekshiring. Belgilangan momentgacha qayta mahkamlang.

Rul mexanizmi qutisi, bo'g'ini va changdonlar/quyi dastak sharigi bo'gimi

Avtomobilni to'xtatib yoki dvigatelni o'chirgan holda rul chambaragida ortiqcha harakat yo'qligini tekshiring.

Uzatma moslamasi qayrilmagani va shikastlanmaganini tekshiring.

Changdonlar va sharikli bo'g'imlar deformatsiyaga uchramagani, yorilmagani va shikastlanmaganini tekshiring. Shikastlangan qismlar bo'lsa, ularni almashtiring.

Uzatma vallari va changdonlar

Uzatma vallari, changdonlar va qisqichlarda yoriqlar, eskirish va shikastlanish yo'qligini tekshiring. Shikastlangan qismlarni almashtiring va zarur bo'lsa, qayta moylang.

Konditsioner uchun sovitish moddasi

Sizish yoki shikastlanish holati yo'qligiga ishonch hosil qilish uchun konditrioner liniyalari va ulamalarini tekshiring.

Suyuqlik darajalarini tekshirish

Motor moyi, dvigatel sovitish suyuqligi, tormoz suyuqligi va oynatozalagich suyuqligini tekshirish vaqtida har qanday moylash vositasi yoki suyuqlikni tekshirish yoki to'kib tashlashdan oldin quyish tiqini,

oqizish tiqini yoki o'lchash tayoqchasi atrofini, albatta, tozalang. Bu, ayniqsa, chang yoki qumli hududlarda va avtomobil asfaltlanmagan yo'llarda haydalganda muhimdir. Trubka va o'lchash tayoqchasi sohalarini tozalash dvigatel va shikastlanishga moyil boshqa mexanizmlarga kir va qum kirishining oldini oladi.

Motor moyi va filtri

Motor moyi darajasini tekshirish

Motor moyi dvigateldagi turli gidravlik komponentlarni moylash, sovitish va boshqarish uchun ishlatiladi. Haydash vaqtida motor moyining sarflanishi odatiy holdir va motor moyini muntazam tekshirib, to'ldirib turish kerak. Shuningdek, moy samaradorligi tushib ketishing oldini olish uchun tavsiya etilgan texnik xizmat jadvali asosida moy darajasini tekshirib, to'ldirib turing. Motor moyini quyidagi tartibda tekshiring.

Smartstream G3.5 GDi



1. Avtomobil tekis joyda ekaniga ishonch hosil qiling.
2. Dvigatelni ishga tushirib, normal ishlash haroratiga yetishini kuting.
3. Dvigatelni o'chiring, moy idishi qopqog'ini oching va o'lchov tayoqchasini chiqaring. Moy motor tagiga qaytguncha 15 daqiqa kuting.
4. O'lchov tayoqchasini tozalab arting va uni to'liq qayta tiqing.
5. O'lchov tayoqchasini chiqarib oling va moy darajasini tekshiring. Moy darajasi F-L chiziqlari orasida ekanini tekshiring, agar u L chizig'idan pastda bo'lsa, daraja F chizig'iga yetguncha moy quyning.

⚠ OGOHLANTIRISH

Radiator shlangi

Motor moyini tekshirish yoki quyish vaqtida radiator shlangiga teginmaslik

uchun ehtiyot bo'ling, chunki u sizni kuydiradigan darajada issiq bo'lishi mumkin.

⚠ DIQQAT

Motor darajasi datchigini artishda uni toza mato bilan arting. Chiqindilar bilan aralashsa, bu dvigatelga shikast yetkazishi mumkin.

Smartstream G3.5 GDi



Dvigatel qismlariga moy to'kilishining oldini olish uchun voronkadan foydalaning.

Faqat ko'rsatilgan motor moyidan foydalaning. (Qarang: "Tavsiya etilgan moylash vositalari va hajmlari", 9-9-sahifa.)

- Motor moyini quyish yoki almashtirishda u to'kilmaligi kerak. Agar moy to'kilsa, uni darhol artib oling.
- Yangi avtomobilni moslashtirish davrida motor moyi sarfi oshishi mumkin va moy sarfi 6000 km (4000 mil) haydagandan keyin barqarorlashadi.
- Motor moyi sarfiga haydash odatlari, iqlim sharoiti, yo'l harakati sharoiti, moy sifati va boshqalar ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli motor moyi darajasini

muntazam tekshirib turish va zarur hollarda uni to'ldirish tavsiya etiladi.

Motor moyi va filtrini almashtirish

Motor moyi va filtrini ixtisoslashgan ustaxonada almashtirish tavsiya etiladi. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

- Agar motor moyini almashtirishda texnik xizmat jadvalidagi chegaradan kechiksa, motor moyi samaradorligi pasayishi va bu dvigatel holatiga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli, motor moyini texnik xizmat jadvaliga muvofiq tarzda almashtiring.
- Dvigatelni optimal holatda saqlang, tavsiya etilgan motor moyi va filtridan foydalaning. Agar tavsiya etilgan motor moyi yoki filtri ishlatilmayotgan bo'lsa, keskin foydalanish sharoitlarida uni texnik xizmat jadvaliga muvofiq almashtiring.
- Motor moyini almashtirish bo'yicha texnik xizmat jadvalining maqsadi moy yomonlashuvining oldini olishdir va bu moy sarfiga aloqador emas. Motor moyini muntazam tekshirib va to'ldirib turing.

OGOHLANTIRISH

Ishlatilgan motor moyi teriga uzoq muddat davomida tegib tursa, teri qichishi yoki teri saratoniga sabab bo'lishi mumkin. Ishlatilgan motor moyi tarkibidagi kimyoviy moddalar laboratoriya hayvonlarida saratonni keltirib chiqargan. Foydalanilgan motor moyi bilan ishlagandan keyin har doim imkon qadar tezda qo'llaringizni sovun va iliq suv bilan yaxshilab yuvish orqali teringizni himoya qiling. Ishlatilgan motor moyini bolalar qo'li yetadigan joyda qoldirmang.

* ESLATMA

Dvigatel moyi bosimi kamayib ketganda, dvigatel moyi bosimi  haqida ogohlantirish chirog'i paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, dvigatel quvvatini cheklovchi kuchaytirilgan dvigatelni himoya qilish tizimi ishga tushiriladi va avtomobil doimiy shu holatda harakatlanayotganda nosozlik indikator chirog'i  yonadi.

Moy bosimi tiklanganda, dvigatel moyi bosimi ogohlantirish chirog'i o'chadi va dvigatel quvvati boshqa cheklanmaydi.

DIQQAT

Avtomobil yaqindagina haydalgan bo'lsa, motor moyi juda issiq bo'ladi va almashtirish vaqtida kuyishga sabab bo'lishi mumkin. Motor moyini sovganidan keyin almashtiring.

* ESLATMA

Hech qachon motor moyiga qo'shimchalar qo'shmang. Motor moyi qo'shimchalari motor moyi xususiyatlarini o'zgartirib, dvigatel jiddiy ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Dvigatel sovitish suyuqligi

Yuqori bosimli sovitish tizimida yil bo'yi antifrizli sovitish suyuqligiga to'la idish mavjud. Bu idish zavodda to'ldiriladi.


Antifriz himoyasi va sovitish suyuqligini kamida yiliga bir marta – qish fasli boshida, shuningdek, iqlimi sovuq joylarga safar qilishdan oldin tekshiring.

⚠️ DIQQAT

- Sovitish suyuqligi kamligi sababli dvigatel ortiqcha qizib ketganida to'satdan sovitish suyuqligini quyish dvigatelda yoriqlar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shikast yetishining oldini olish uchun dvigatel sovitish suyuqligini oz-ozdan quyung.
- Dvigatelni sovitish suyuqligisiz haydamang. Bu suv nasosi ishlamay qolishi va dvigatel ishdan chiqishi va hokazolarga olib kelishi mumkin.

Sovitish suyuqligi darajasini tekshirish

⚠️ DIQQAT



Dvigatel sovitish suyuqligi idishi qopqog'ini yechish

Dvigatel issiq yoki yoniq vaqti aslo dvigatel

sovitish suyuqligi idishi qopqog'ini ochishga urinmang. Bu sovitish tizimi va dvigatel shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, issiq sovitish suyuqligi yoki bug' jiddiy jarohatlarga olib kelishi mumkin.


Dvigatelni o'chiring va u sovigunicha kuting. Dvigatel sovitish suyuqligi idishi qopqog'ini ochishda nihoyatda ehtiyot bo'ling. Uni qalin sochiq bilan o'rang va birinchi to'xtashgacha soat miliga teskari yo'nalishda burang. Sovitish tizimidan

bosim ostida havo chiqishi vaqtida undan nari turing.

Bosim to'liq chiqib ketganiga ishonch hosil qilgach, qalin sochiq bilan qopqog' ustiga bosung va yechib olish uchun uni soat miliga teskari yo'nalishda burashda davom eting.

Dvigatel ishlamayotgan bo'lsa ham, dvigatel va radiator issiq bo'lganda, dvigatel sovitish suvi idishi qopqog'ini yoki drenaj tiqinini olib tashlamang. Issiq sovitish suyuqligi va bug' bosim ostida hamon chiqib ketishi va jiddiy shikastlanishga olib kelishi mumkin.

⚠️ OGOHLANTIRISH



Elektr motor (sovitish parragi) sovitish suyuqligi harorati, sovituvchi modda bosimi va avtomobil tezligi tomonidan

boshqariladi. Ayrim hollarda u, hatto avtomobil o'chiq bo'lsa ham, ishlashi mumkin. Sovitish tizimi parragi yonida ishlaganda juda ehtiyot bo'ling, shunda aylanuvchi ventilyator parraklari sizni shikastlamaydi. Dvigatel sovitish suyuqligi harorati pasayganda, elektr motor avtomatik o'chadi. Bu normal holat. Elektr dvigateli (sovitish tizimi) siz manfiy batareya kabelini uzib tashlamaguningizcha ishlashi mumkin.

Barcha sovitish tizimi shlanglari va isitkich shlanglari holati hamda ulamalarini tekshiring. Shishgan yoki deformatsiyaga uchragan shlanglarni almashtiring.

Sovitish suyuqligi dvigatel bo'lmasi sovuq paytda suyuqlik idishi yonidagi MAX va MIN (F va L) belgilari orasidagi darajagacha to'ldirilishi kerak.

Agar sovitish suyuqligi darajasi past bo'lsa, yetarli miqdorda distillangan (ionsizlantirilgan) yoki yumshoq suv qo'shing. Darajani MAX (F) belgisigacha yetkazing, lekin undan oshib ketmang.

Agar tez-tez to'ldirish talab etilsa, tizimni ixtisoslashgan ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

* ESLATMA

Sovitish suyuqligini to'ldirgach, sovitish suyuqligi qopqog'i to'g'ri yopilganiga ishonch hosil qiling. Aks holda, dvigatel haydash paytida haddan tashqari qizib ketishi mumkin.

1. Dvigatel sovitish suyuqligi idish qopqog'i yorlig'i shundoqqina old tomonda ekanini tekshiring.



OGL3071042

2. Sovitish suyuqligi qopqog'i ichidagi kichik qabariqlar mahkam o'ralganiga ishonch hosil qiling.



OGL3071008

Tavsiya etilgan dvigatel sovitish suyuqligi

- Sovitish suyuqligini quyishda avtomobil uchun faqat ionsizlantirilgan suv yoki yumshoq suvdan foydalaning va zavodda quyilgan sovitish suyuqligiga aslo qattiq suvni aralashtirmang. Noto'g'ri sovitish suyuqligi aralashmasi jiddiy nosozlik va dvigatelga shikast yetishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Avtomobilingizdagi dvigatel alyuminiy dvigatel qismlariga ega hamda korroziya va muzlashning oldini olish uchun fosfat asosli sovitish suyuqligi bilan etilen-glikol bilan himoyalangan bo'lishi kerak.
- Spirt yoki metanolli sovitish suyuqligini ishlatmang yoki ularni belgilangan sovitish suyuqligi bilan aralashtirmang.
- Tarkibidagi antifriz ulushi 60% dan ko'p yoki 35% dan kam bo'lgan eritmadan foydalanmang, bu suyuqlik samaradorligini pasaytiradi.

Aralashma nisbatini bilish uchun quyidagi jadvalga qarang.

boshqaruvi yo'qotilishi yoki bo'yoq va bezaklar shikastlanishiga sabab bo'ladi.

Atrof-muhit harorati	Aralashmaning foizi (hajmi)	
	Antifriz	Suv
-15°C (5°F)	35	65
-25°C (-13°F)	40	60
-35°C (-31°F)	50	50
-45°C (-49°F)	60	40

⚠ OGOHLANTIRISH



Dvigatel sovitish suyuqligi idishi qopqog'i

Dvigatel va radiator issiq bo'lgan vaqtda

dvigatel sovitish suyuqligi idishining qopqog'ini ochmang. Qizib turgan qaynoq sovitish suyuqligi yoki bug' bosim ostida otilib chiqib, jiddiy jarohatga sabab bo'lishi mumkin.

Sovitish suyuqligini almashtirish

Sovitish suyuqligini ixtisoslashgan ustaxonada almashtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

⚠ DIQQAT

Sovitish suyuqligini quyishdan avval dvigatel sovitish suyuqligi idishi qopqog'i atrofiga qalin mato qo'ying, bu sovitish suyuqligi alternator kabi dvigatel qismlariga toshib ketishining oldini oladi.

⚠ OGOHLANTIRISH


Sovitish suyuqligi

- Oyna yuvish suyuqligi idishida dvigatel sovitish suyuqligi yoki antifrizdan foydalanmang.
- Dvigatel sovitish suyuqligi old oynaga purkalsa, oyna orqali ko'rish imkoniyati keskin yomonlashadi va avtomobil

Tormoz suyuqligi

Tormoz suyuqligi darajasini tekshirish

Idishdagi bu suyuqlik darajasini davriy ravishda tekshirib turing. Bu suyuqlik darajasi idish yonidagi "MIN" va "MAX" belgilari orasida bo'lishi kerak.



1. Idish qopqog'ini ochish va tormoz suyuqligini quyishdan oldin tormoz suyuqligi ifloslanishining oldini olish uchun idish qopqog'i atrofini yaxshilab tozalang.
2. Tormoz suyuqligi idishida bu suyuqlik darajasi MIN va MAX belgilari orasida ekanini vaqti-vaqti bilan tekshirib turing. Bosib o'tilgan masofa uzaygani sari bu daraja ham tushib boradi. Bu tormoz nakladkalari eskirishi bilan bog'liq normal holatdir.
Agar suyuqlik darajasi haddan ortiq past bo'lsa, tizimni ixtisoslashgan ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

Faqat belgilangan tormoz suyuqligidan foydalaning. (Qarang: "Tavsiya etilgan moylash vositalari va hajmlari", 9-9-sahifa.)

Hech qachon turli suyuqliklarni aralashtirmang.

⚠ OGOHLANTIRISH

Tormoz suyuqligining yo'qolishi

Agar tormoz tizimi tez-tez suyuqlik quyishni talab qilsa, bu tizimni ixtisoslashgan ustaxonada tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

⚠ OGOHLANTIRISH

Tormoz suyuqligi

Tormoz suyuqligini almashtirish va quyish vaqtida u bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'ling. U ko'zingizga kirishiga aslo yo'l qo'ymang. Agar tormoz suyuqligi ko'zingizga kirsang, darhol ko'zingizni ko'p miqdordagi toza vodoprovod suvi bilan yuvib tashlang. Ko'zlaringizni imkon qadar tez shifokorga tekshirtiring.

⚠ DIQQAT

Tormoz suyuqligi avtomobil korpusi bo'yog'iga tegishiga yo'l qo'ymang, chunki bu bo'yog'ni shikastlaydi. Uzoq vaqt ochiq havoda qoldirilgan tormoz suyuqligidan aslo foydalanmaslik kerak, chunki bu holatda uning sifatida kafolat berib bo'lmaydi. Uni to'g'ri chiqitga chiqarish kerak. Noto'g'ri suyuqlik quyimgan. Tormoz tizimingizda bir necha tomchi mineral asosli moy, masalan, dvigatel moyi tormoz tizimi qismlariga zarar yetkazishi mumkin.

Oyna yuvish suyuqligi

Oyna yuvish suyuqligini tekshirish

Idish shaffof, shu sababli, ko'zdan kechirish orqali uning darajasini tekshirish mumkin.



- Oyna yuvish suyuqligi idishida suyuqlik darajasini tekshiring va zarur bo'lsa, suyuqlik quyung. Agar oyna yuvish suyuqligi bo'lmasa, oddiy suvdan foydalanish mumkin.

Biroq muzlashdan saqlanish uchun sovuq iqlim sharoitida antifriz xususiyatlariga ega yuvish eritmasidan foydalaning.

OGOHLANTIRISH

Oyna yuvish suyuqligi

- Oyna yuvish suyuqligi idishida dvigatel sovitish suyuqligi yoki antifrizdan foydalanmang.
- Dvigatel sovitish suyuqligi old oynaga purkalsa, oyna orqali ko'rish imkoniyati keskin yomonlashadi va avtomobil boshqaruvi yo'qotilishi yoki bo'yoq va bazaklar shikastlanishiga sabab bo'ladi.
- Old oynatozalagich suyuqligi moddalari muayyan miqdorda spirtni o'z ichiga oladi va muayyan sharoitlarda yonuvchan bo'lishi mumkin. Uchqun yoki alanga oyna yuvish suyuqligi yoki

oyna yuvish suyuqligi idishiga tegishiga yo'l qo'ymang. Avtomobil yoki uning ichidagi yo'lovchilarga shikast yetishi mumkin.

- Old oynatozalagich suyuqligi insonlar va jonivorlar uchun zaharlidir. Old oynatozalagich suyuqligini ichmang va u bilan kontaktga kirishishdan saqlaning. Jiddiy tan jarohati yoki o'lim yuz berishi mumkin

Havo tozalagich filtri

Filtr almashtirilganda biz Kia original qismlari yoki shunga o'xshash standartdagi qismlardan foydalanishni tavsiya qilamiz.

Havo tozalagich filtrini almashtirish

Havo tozalagich filtri zarur hollarda almashtirilishi va yuvilmasligi kerak.



Havo tozalagich bo'lmasini tekshirishda filtrni tozalashingiz mumkin. Bu filtrni siqilgan havo yordamida tozalang.

1. Havo tozalagich qopqog'idagi tutqichni (1) yuqoriga torting va qulfni bo'shating.



2. Havo tozalagich qopqog'ini (2) yuqoriga torting va oching.



3. Filtrdagi mahkamlangan tutqichni aylantiring va qulfni bo'shating.



4. Havo tozalagich filtrini almashtiring.

5. Testkari tartibda yig'ing.

Bu filtrni texnik xizmat jadvaliga muvofiq almashtiring.

* ESLATMA

Agar avtomobil nihoyatda chang yoki qumli hududlarda boshqarilsa, bu elementni tavsiya etilgan odatiy intervallardan tezroq almashtirib turing. (Qarang: "og'ir foydalanish sharoitlarida texnik xizmat", 8-12-sahifa.)

⚠ DIQQAT

Havo filtriga texnik xizmat

- Havo tozalagich filtrini olib tashlagan holda avtomobil haydamang; bu dvigatel nihoyatda eskirishiga sabab bo'ladi.
- Havo tozalagich filtrini yechib olishda chang yoki iflos havo kirmasligi uchun ehtiyot bo'ling, bu shikast yetkazishi mumkin.
- Faqat Kia original qismlaridan yoki unga tenglashtirilgan standart qismlardan foydalaning. Aks holda, bu havo oqimi sensori shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Almashtirish uchun vakolatli Kia dileri/ xizmat hamkoridan olingan ehtiyot qismlarni ishlatish tavsiya etiladi.

Iqlim nazorati havo filtri

Filtrni tekshirish

Iqlim nazorati havo filtri texnik xizmat jadvaliga muvofiq tarzda almashtirilishi kerak. Agar avtomobil uzoq vaqt davomida havosi nihoyatda ifloslangan shaharlar yoki chang notekis yo'llarda boshqarilsa, uni yanada tez-tez tekshirish va ertaroq almashtirish kerak. Iqlim nazorati havo filtrini almashtirganingizda, uni quyidagi protsedurani bajarib almashtiring va boshqa komponentlarga zarar yetkazmaslik uchun ehtiyot bo'ling.


1. Qo'lqop qutisini (tortma) oching va har ikki tomondan qisqichlarni olib tashlang.



2. Qo'lqop qutisi (tortma) ochiq holda, tayanch tasmasini torting.



3. Iqlim nazorati havo filtri qopqog'ini o'ng tomonidan torish orqali uni yechib oling.



4. Iqlim nazorati havo filtrini almashtiring.



5. Qismlarga ajratish tartibiga teskari tartibda yig'ing.

* ESLATMA

Iqlim nazorati havo filtrini almashtirishda uni to'g'ri o'rnatish. Aks holda, u shovqin chiqarishi va filtr samaradorligi pasayishi mumkin.



Oynatozalagich cho'tkalari

Cho'tkani tekshirish



* ESLATMA

Avtomatik avtomobil yuvish vositalarida oddiy issiq mumlarning ishlatilishi old oynani tozalashni qiyinlashtirishi aniqlangan. Avtomobilni maqbul usullar va materiallar yordamida yuvish va boshqarish uchun mijozlar javobgardir.

Old oyna yoki oynatozalagich cho'tkalarining yot unsurlar bilan ifloslanishi old oynatozalagichlar samaradorligini kamaytiradi. Ifloslanishning keng tarqalgan manbalariga hasharotlar, daraxt shirasi va ayrim tijoriy avtoyuvish shoxobchalarida ishlatiladigan issiq parafin bilan ishlov berish kiradi. Agar cho'tkalar tegishli tarzda artmayotgan bo'lsa, ham oyna, ham cho'tkalarni yaxshi tozalovchi yoki kir yuvish vositasi bilan tozalab, toza suv bilan yaxshilab yuvib tashlang.

⚠ DIQQAT

Oyna tozalagich cho'tkalari shikastlanmasligi uchun ular ustida yoki yonida benzin, kerosin, bo'yoq

suyultirgich yoki boshqa erituvchilardan foydalanmang.

Cho'tkalarni almashtirish

Oynatozalagich qoniqarli darajada tozalamayotgan bo'lsa, cho'tkalari eskirgan yoki yorilgan bo'lishi va ularni almashtirish talab qilinishi mumkin.

⚠️ DIQQAT

Oynatozalagich dastalari va boshqa qismlarga shikast yetkazmaslik uchun oynatozalagichlarni qo'lda harakatlantirmang.

⚠️ DIQQAT

Belgilanmagan oynatozalagich cho'tkalaridan foydalanish oynatozalagich nuqsonli ishlashi yoki ishdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Old oynatozalagich cho'tkalari




Sizga qulay bo'lishi uchun oynatozalagich cho'tkalarini quyidagi tarzda xizmat ko'rsatish holatiga o'tkazing;

Dvigatelni o'chirgach, o'chirish tugmasini 20 soniya ichida bitta artish (MIST) holatiga o'tkazing va oynatozalagich cho'tkasi to'liq yuqori holatiga kelguncha tugmasini 2 soniyadan ko'proq ushlab turing.

⚠️ DIQQAT

Oynatozalagich dastasi old oynaga tushib ketishiga yo'l qo'ymang, chunki bu old oyna yorilishi yoki darz ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

1. Oynatozalagich dastasini ko'taring.
2. Oynatozalagich cho'tkasi qisqichini yuqoriga ko'taring. Keyin cho'tka moslamasini pastga tortib, olib tashlang.



3. Yangi cho'tka moslamasini o'rnatning.



4. Oynatozalagich dastasini old oynaga qaytaring.
5. DVIGATELNI YOQISH/O'CHIRISH tugmasini ON holatiga o'tkazing va oynatozalagich dastalari normal ish holatiga qaytadi.

⚠ DIQQAT

Cho'tkani tortib olayotganda oynatozalagich dastasiga juda ko'p kuch tushsa, markaziy qism shikastlanishi mumkin.

⚠ DIQQAT

- Oynatozalagich yuvish suyuqligisiz ishlaganda yoki cho'tkalar muzlab qolganda taxminan 10 soniya davomida ishlay olmaydi. Bu nosozlik emas, bu oynatozalagich motori ichidagi sxema ortiqcha yuklanish pallasida faollashtirilgan oynatozalagichni himoya qilish tizimidir.
- Old oynani suv shlangi bilan tozalash va toza sochiq bilan oynatozalagich cho'tkalari yuqoriga ko'tarilishi kerak. Bundan tashqari, cho'tkalarga moy yoki parafin surtilganda oynatozalagich cho'tkalari tozalanishi kerak.

Batareya

Batareya avtomobilni harakatlantirish uchun dvigatelni, shuningdek, avtomobilga o'rnatilgan turli xil qurilmalarni quvvat bilan ta'minlaydi.

Eng yaxshi batareya xizmati uchun

- Batareya har doim mahkam o'rnatilgan bo'lishi kerak.
- Batareya ustini toza va quruq saqlang.
- Klemma va ulamalarni toza, mahkam va ularni vazelin yoki klemma moyi bilan moylangan holda saqlang.
- Batareyadan to'kilgan elektrolitni darhol suv va iste'mol sodasi eritmasi bilan yuvib tashlang.
- Agar avtomobilidan uzoq muddat davomida foydalanilmasa, batareya kabellarini uzib qo'ying.

*** ESLATMA**

Avtomobildagi batareya texnik xizmat ko'rsatilmaydigan batareya turidir. Agar avtomobildagi batareya yon tomonida LOWER yoki UPPER belgisi bo'lsa, elektrolit darajasini tekshirish mumkin. Elektrolit darajasi LOWER va UPPER belgilari orasida bo'lishi kerak. Agar elektrolitlar darajasi past bo'lsa, unga

distillangan (mineralsizlantirilgan) suv qo'shilishi kerak (Aslo sulfat kislotasi yoki boshqa elektrolit qo'shmang). Distillangan suvni quyish vaqtida batareya va uning atrofidagi komponentlariga sachratmaslik uchun ehtiyot bo'ling. Shuningdek, batareya yacheykalarini ortiqcha to'ldirib yubormang. Bu boshqa qismlarning yemirilishiga sabab bo'lishi mumkin. Yacheyka qopqoqlari mahkamlanganiga ishonch hosil qiling.

Ixtisoslashgan ustaxonaga murojaat qiling. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

OGOHLANTIRISH

Batareyaga oid xavflar



Batareya bilan ishlashda doim quyidagi ko'rsatmalarni o'qib chiqing.



Yoqilgan sigareta va boshqa barcha alanga yoki uchqunlarni batareyadan uzoqda saqlang.



Batareya yacheykalarida doim yonuvchanligi yuqori gaz hisoblanuvchi vodorod bo'ladi va ular o't olsa, portlashi

mumkin.



Batareyalarni bolalar qo'li yetmaydigan joyda saqlang, chunki batareyalar tarkibida yemirish darajasi yuqori bo'lgan

SULFAT KISLOTASI bor. Batareya kislotasi teringiz, ko'zingiz, kiyimingiz yoki bo'yoq qoplamasiga tegishiga yo'l qo'ymang.



Agar ko'zingizga elektrolit kirsang, ko'zingizni kamida 15 daqiqa davomida toza suv bilan yuving va darhol shifokorga murojaat

qiling. Agar elektrolit teringizga tushsa, u tushgan yerni yaxshilab yuving. Agar

og'riq yoki kuyish hissini tuysangiz, darhol shifokorga murojaat qiling.



Batareyani quvvatlash yoki uning yaqinida ishlash vaqtida ko'zni himoyalovchi vosita taqing. Yopiq joyda ishlash vaqtida har doim havo aylanishini ta'minlang.



Noto'g'ri utilizatsiya qilingan batareya atrof-muhit va inson salomatligiga zarar yetkazishi mumkin. Batareyani mahalliy

qonun(lar) yoki qoidalariga muvofiq utilizatsiya qiling.

- Plastik qutlari batareyani ko'targanda qutiga nisbatan ortiqcha bosim batareya kislotasi sizishiga sabab bo'lishi, bu esa tan jarohatini keltirib chiqarishi mumkin. Batareya ko'targich yoki qarama-qarshi burchakdan qo'llaringiz bilan ko'taring.
- Hech qachon batareyani uning kabellari ulangan holda quvvatlamang.
- Elektr o't olish tizimi yuqori kuchlanish bilan ishlaydi. Dvigatel ishlab tugan yoki DVGATELNI ISHGA TUSHIRISH/ TO'XTATISH tugmasi yoniq bo'lsa, bu komponentlarga aslo teginmang.

Yuqoridagi ogohlantirishlarga rioya qilmaslik jiddiy tan jarohati yoki o'limga sabab bo'lishi mumkin.

DIQQAT

Agar ruxsat etilmagan elektron qurilmalardan foydalansangiz, batareya quvvati tugab qolishi mumkin. Ruxsat etilmagan qurilmalardan aslo foydalanmang.

Batareya sig'imi yorlig'i

Masalan



* Avtomobildagi haqiqiy batareya yorlig'i bu illustratsiyadagidan farq qilishi mumkin.

1. CMF80L-DIN: Batareyaning Kia modeli nomi
2. 80Ah (20HR): Nominal sig'im (amper soatda)
3. RC 145: Nominal teskari sig'im (daqiqada)
4. 12v: Nominal kuchlanish
5. CCA 660A (SAE/EN): SAE/EN bo'yicha sovuq-sinov tok oqimi, amperda

Batareyani quvvatlash

Avtomobilingiz texnik xizmat ko'rsatilmaydigan, kalsiy asosli batareya bilan jihozlangan

- Agar batareya qisqa vaqt ichida quvvatsizlansa (masalan, avtomobil ishlatilmaganda faralar yoki ichki chiroqlar yoniq qoldirilgani sababli), uni 10 soat davomida sekin quvvatlash usulidan foydalanib, qayta quvvatlang.
- Agar avtomobildan foydalanish vaqtida yuqori elektr kuchlanish sababli batareya sekin-asta quvvatsizlansa, uni ikki soat davomida 20~30 A bilan qayta quvvatlang.

⚠ OGOHLANTIRISH

Batareyani qayta quvvatlashda quyidagi ehtiyot choralarga rioya qiling:

- Batareyani avtomobildan yechib olish va havo yaxshi aylanadigan joyga qo'yish lozim.
- Sigareta, uchqun yoki olovni batareya yoniga keltirmang.
- Quvvatlash vaqtida batareyani kuzating, agar quyidagi holatlar kuzatilda, quvvatlashni to'xtating yoki kamaytiring:
 1. batareya yacheykalari shiddat bilan gaz chiqarishni (qaynashni) boshlasa
 2. biror yacheykaning elektrolit harorati 49°C (120°F) dan oshib ketsa.
- Quvvatlash vaqtida batareyani tekshirishda ko'zni himoya qiluvchi vosita taqing.
- Batareya quvvatlagichini quyidagi tartibda uzing.
 1. Batareya quvvatlagichining asosiy kalitini o'chiring.
 2. Manfiy qisqichni manfiy batareya klemmasidan yechib oling.
 3. Musbat qisqichni musbat batareya klemmasidan yechib oling.
- Batareyaga texnik xizmat yoki uni quvvatlashdan oldin barcha aksessuarlar va avtomobilni o'chiring.
- Batareyani uzishda manfiy batareya kabeli birinchi bo'lib yechib olinishi va oxirgi bo'lib o'rnatilishi lozim.

⚠ DIQQAT

AGM batareyasi (jihozlangan bo'lsa)

- Nam shimuvchi shisha to'shamali (AGM) batareyalar texnik xizmat talab qilmaydi va ularga ixtisoslashgan ustaxonada xizmat ko'rsatilishi kerak.

Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi. AGM batareyani quvvatlash uchun faqatgina AGM batareyalar uchun maxsus ishlangan to'liq avtomatik batareya quvvatlagichidan foydalaning.

- AGM batareyasini almashtirishda ixtisoslashgan ustaxonadan olingan almashtirish qismlaridan foydalaning. Kia vakolatli Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.
- Batareya ustidagi qopqoqni ochmang yoki yechib olmang. Bu ichki elektrolit sizishi natijasida jiddiy jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Qayta sozlash elementlari

Batareya quvvati tugaganidan yoki batareya uzilganidan keyin quyidagi elementlar qayta sozlanishi kerak.

- Quvvat oynasi (qarang "Oynani ochish va yopish", 4-35-sahifa)
- Panoramali lyuk
- Integratsiyalashgan xotira tizimi
- Bort kompyuteri (qarang: "Xizmat ma'lumotlari ko'rinishi", 4-72-sahifa)
- Iqlim nazorati tizimi (qarang: "Avtomatik iqlim nazorati tizimi", 4-99-sahifa)

Shinalar va g'ildiraklar

Shinalarni parvarish qilish

To'g'ri texnik xizmat, xavfsizlik va maksimal yonilg'i tejamkorligini ta'minlash uchun har doim tavsiya etilgan bosimni saqlashingiz hamda avtomobilingiz uchun yuk limitlari vazn taqsimoti chegaralariga rioya qilishingiz kerak.

Tavsiya etilgan sovuq shina bosimlari

Barcha shinalar (jumladan, zaxira) ular sovganida tekshirilishi kerak. "Sovuq shinalar" deyilganda avtomobilning kamida oxirgi uch soat davomida haydalmagani yoki 1,6 km (bir mil) dan kam masofaga haydalgani tushuniladi.

Eng yaxshi haydash tajribasi, avtomobil boshqaruvini ta'minlash va shina eskirishini kamaytirish uchun tavsiya etilgan bosimni ta'minlash lozim.

Tavsiya etilgan shina bosimi uchun qarang: "Shinalar va g'ildiraklar", 9-8-sahifa.



Barcha xususiyatlarni (o'lchamlar va bosimlar) avtomobilga birlashtirilgan yorliqdan topish mumkin.

OGOHLANTIRISH

Yetarlicha damlamaslik

Kuchli damlash (70 kPa (10 psi) yoki undan ko'p) kuchli issiqlik paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin, bu esa portlashlar, protektorlar ajralishi va boshqa shinalar ishdan chiqishiga, bu esa avtomobil boshqaruvini yo'qotishga olib kelishi

mumkin, bu esa jiddiy jarohat yoki o'limga olib keladi. Issiq kunlarda va uzoq muddat davomida yuqori tezlikda haydash vaqtida bu xavf ehtimoli oshadi.

⚠️ DIQQAT

- Yetarlicha damlamaslik, shuningdek, ortiqcha yeyilish, yomon ishlov berish va yonilg'i tejamkorligini kamaytirishga olib keladi. G'ildirak deformatsiyasi ehtimoli ham mavjud. Shinalaringizdagi bosimni kerakli darajada saqlang. Agar shinani tez-tez damlash talab qilinsa, ixtisoslashgan ustaxonada tizimni tekshirtiring. Kia vakolatli Kia dileri/ xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.
- Ortiqcha damlash qattiq haydash, shinalar protektorining markazida ortiqcha yeyilish va yo'l xavf-xatarlari tufayli ko'proq shikastlanish ehtimolini keltirib chiqaradi.

⚠️ DIQQAT

- Iliq shinalardagi bosim odatda sovuq tavsiya etilgan sovuq shina bosimidan 28-41 kPa (4-6 psi) oshib ketadi. Bosimni moslash uchun iliq shinalardan havoni chiqarmang, bu shinalardan ortiqcha dam chiqib ketishiga sabab bo'ladi.
- Shinalarni shishiradigan klapan qopqoqlarini qayta o'rnatganingizga ishonch hosil qiling. Klapan qopqog'i bo'lmasa, kir yoki namlik klapan yadrosiga kirib, havo sizishiga olib kelishi mumkin. Klapan qopqog'i yo'q bo'lsa, iloji boricha tezroq yangisini o'rnatish.

⚠️ OGOHLANTIRISH

Shinani damlash

Ortiqcha damlash yoki yetarlicha damlamaslik shina umrini kamaytirishi, avtomobil boshqaruviga keskin ta'sir qilishi va shinalar to'satdan ishdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu avtomobil boshqaruvi yo'qotilishi va ehtimoliy tan jarohatiga sabab bo'lishi mumkin.

⚠️ DIQQAT

Shina bosimi

Doim quyidagilarga rioya qiling:

- Shinalardagi bosimni ular sovuq bo'lganida tekshiring. (Avtomobil kamida uch soat to'xtab turganidan keyin yoki ishga tushirilgach 1,6 km (bir mil) dan ortiq haydalmagan bo'lsa.)
- Har safar boshqa shinalardagi bosimni tekshirganda zaxira shinadagi bosimni ham tekshiring.
- Avtomobilga hech qachon ortiqcha yuk yuklamang. Agar avtomobilingizda tomdagi panjarali yukxona mavjud bo'lsa, unga ortiqcha yuk ortmang.
- Eskirgan, eski shinalar baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin. Agar protektoringiz yomon eskirgan bo'lsa yoki shinalaringiz shikastlangan bo'lsa, ularni almashtiring.

Shina bosimini tekshirish

Shinalarni oyiga bir marta yoki ko'proq tekshiring.

Bundan tashqari, zaxira shinaning bosimini tekshiring.

Qanday tekshirish kerak

Shina bosimini tekshirish uchun sifatli datchikdan foydalaning. Shunchaki shinalarga qarash orqali ular mos

ravishda damlangani yoki damlanmaganini ayta olmaysiz. Radial shinalar hatto yetarlicha damlanmagan bo'lsa ham tegishlicha damlangandek ko'rinishi mumkin.

- Shinadagi bosimni shinalar sovuq bo'lganida tekshiring. - "Sovuq" deganda avtomobil kamida uch soat to'xtab turgani yoki ishga tushirilganidan keyin 1,6 km (1 mil) dan ortiq haydalmagani tushuniladi.
- Shina klapan shtokidan klapan qopqog'ini yechib oling. Bosimni o'lchash uchun shina datchigini klapan ustiga mahkam bosing. Agar sovuq shinadagi bosim shina va yuklash axboroti yorlig'idagi tavsiya etilgan bosimga mos bo'lsa, hech qanday moslash harakati talab etilmaydi. Agar bosim past bo'lsa, tavsiya etilgan darajaga yetgunicha dam soling. Shinaga ortiqcha dam solinsa, shina klapani markazidagi metal shtokni bosish orqali damni chiqaring. Shina datchigi yordamida shina bosimini qaytadan tekshiring. Klapan shtoklariga klapan qopqoqlarini qayta o'rnatishni unutmang. Ular kir va namlikdan saqlash orqali sizishning oldini olishga yordam beradi.



OGOHLANTIRISH

- Tegishlicha dam solingani, shuningdek, eskirish va shikastlanganlik holatini aniqlash uchun shinalarni tez-tez tekshirib turing. Har doim shina bosimi datchigidan foydalaning.
- Kam damlangan yoki ortiqcha damlangan shinalar noto'g'ri ishlashga, avtomobil boshqaruvini yo'qotishga va to'satdan shinalar ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin, bu esa baxtsiz hodisalar, jarohatlar va hatto o'limga olib kelishi mumkin. Avtomobilingiz

uchun tavsiya etilgan shina bosimini ushbu qo'llanma va haydovchi tomonidagi markaziy tirgakda joylashgan shina yorlig'idan topishingiz mumkin.

- Eskirgan shinalar baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin. Eskirgan, notekis yeyilgan yoki shikastlangan shinalarni almashtiring.
- Zaxira shinangiz bosimini tekshirishni unutmang. Kia avtomobilingizdagi boshqa shinalar bosimini har tekshirganingizda zaxirani tekshirishni tavsiya qiladi.


Shinalar o'rnini almashtirish

Protektor eskirishini muvozanatga keltirish uchun shinalarni har 10 000 km (6500 mil) masofadan keyin yoki notekis yeyilish yuzaga kelsa, ertaroq shinalar o'rnini almashtirish tavsiya etiladi.


O'rnini almashtirish vaqtida shinalarda to'g'ri muvozanatni tekshiring.

Shinalar o'rnini almashtirishda notekis yeyilish yoki shikastlanganlik holatlarini tekshiring. Anormal yeyilish odatda noto'g'ri shina bosimi, g'ildirakni noto'g'ri tekislash, g'ildiraklar muvozanati buzilishi, qattiq tormozlash yoki qattiq burilish natijasida yuzaga keladi. Shina protektori yoki yon tomonida bo'rtgan yoki qabargan joylar yo'qligini tekshiring. Agar bunday joylar bo'lsa, shinani almashtiring. Agar mato yoki shnur ko'rinsa, shinani almashtiring. O'rnini almashtirgandan keyin old va orqa shinalar bosimini belgilangan darajaga moslang va gaykalar mahkam qotirilganini tekshiring. Qarang: "Shinalar va g'ildiraklar", 9-8-sahifa.


To'liq o'lchamli zaxira shinasini bilan



Zaxira shinasiz



Yo'nalishli shinalar (jihozlangan bo'lsa)



Har safar shinalar o'rni almashtirilganida tormoz kolodkalari eskirmaganini tekshirish lozim.

* ESLATMA

Asimmetrik shaklli protektorga ega shinalar o'rnini faqat old tomondan orqaga almashtiring, o'ngdan chapga almashtirmang.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Shinalarni aylantirish uchun ixcham zaxira shinalardan foydalanmang.
- Hech qachon diagonal qatlamli va radial qatlamli shinalarni aralashtirib ishlatmang. Bu o'limga, og'ir jarohatlarga yoki mulkiy zararga olib kelishi mumkin bo'lgan noodatiy foydalanish xususiyatlariga olib kelishi mumkin.

G'ildiraklarni tekislash va shina muvozanati

Shinaning eng uzoq xizmat muddati va eng yaxshi umumiy samaradorlikni ta'minlash uchun avtomobilingizdagi g'ildiraklar zavodda ehtiyotkorlik bilan tekislangan va muvozanatlangan.

Aksariyat hollarda g'ildiraklarni qayta tekislatish shart bo'lmaydi. Biroq shina noodatiy tarzda eskirishi yoki avtomobil bir tomonga og'ib ketishi kuzatilsa, qayta tekislash talab etilishi mumkin.

Agar silliq yo'lda harakatlanish vaqtida avtomobilingiz tebranayotganini (vibratsiya) sezsangiz, g'ildiraklarni qayta muvozanatga keltirish talab etilishi mumkin.

⚠ DIQQAT

G'ildirak vazni maqbul vazndan farq qilsa, bu avtomobil alyuminiy g'ildiraklarini shikastlashi mumkin. Faqat tasdiqlangan vazndagi g'ildiraklardan foydalaning.

G'ildirak va shinalarni o'rnatish

G'ildirak va shinalarni olib tashlashda vtulka qopqog'ini olib tashlash uchun asbob g'ilofining ichidagi vtulka qopqog'ini olib tashlash uchun asbobdan foydalaning.

Ajratish moslamasini kiritish teshigi vtulka qopqog'ining tepasi yoki qirrasida joylashgan.

Maxsus ajratish moslamasini saqlash holati



1. Asbob g'ilofi
2. Maxsus olib tashlash asbobi

Vtulka qopqog'ini maxsus olib tashlash asbobi yordamida qanday olish mumkin



1. Vtulka qopqog'ini almashtirishda vtulka qopqog'ining maxsus holatga joylanishiga ishonch hosil qiling.
2. Vtulka qopqog'ining belgilangan holati g'ildirak shakliga bog'liq.
3. Vtulka qopqog'ini o'rnatishdan oldin, undagi klapan shtoki (1) teshigini qopqoq emblemasi bilan to'g'rilang.
(1) Vtulka qopqog'i



Shinani almashtirish

Agar shina bir tekis yeyilgan bo'lsa, protektorning eskirish indikatorini

protektor bo'ylab yaxlit chiziqli sifatida paydo bo'ladi.



[A] : Protektorning eskirish indikatorini

Bu shinada 1,6 mm (1/16 in.) dan kamroq protektor qolganini ko'rsatadi. Bunday hollarda shinani almashtiring.

Shinani almashtirishdan avval butun protektor bo'ylab chiziqli paydo bo'lishini kutmang.

* ESLATMA

Shinalarni almashtirishda avtomobilga dastlab o'rnatilgan shinalar bilan bir xil shinalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Bunday qilmaslik haydash samaradorligiga ta'sir qiladi.

⚠ DIQQAT

Shinalarni almashtirayotganda, taxminan 50 km (31 mil) yurgach, g'ildirak gaykalarini qayta tekshiri, qotiring va taxminan 1000 km (620 mil) yurganingizdan keyin tekshiring. Agar haydash paytida rul chayqalsa yoki avtomobil tebransa, shinalar muvozanatdan chiqib ketgan. Shinalar muvozanatini tekislang. Muammo hal bo'lmasa, tizimni ixtisoslashgan ustaxonaga murojaat qiling. Kia vakolatli

Kia dileri/xizmat hamkoriga tashrif buyurishni tavsiya qiladi.

OGOHLANTIRISH

Shinalarni almashtirish

Shinalar ishdan chiqishi yoki avtomobil boshqaruvini yo'qotish oqibatida yuzaga kelgan avariya natijasida jiddiy yoki o'limga olib keladigan jarohatlar ehtimolini kamaytirish uchun:

- Eskirgan, notekis yeyilgan yoki shikastlangan shinalarni almashtiring. Eskirgan shinalar tormozlash samaradorligini, rul boshqaruvini va tortish kuchini yo'qotishiga olib kelishi mumkin.
- Avtomobilingizni shinalaringizga juda kam yoki ortiqcha bosim ostida boshqarmang. Bu notekis yeyilish va shinalar ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.
- Shinalarni almashtirayotganda, aslo bitta mashinada radial va egilgan shinalarni aralashtirmang. Radialdan tekis qatlamli shinalarga o'tayotganda barcha shinalarni (jumladan, zaxira) almashtirishingiz kerak.
- To'rtala shinani bir vaqtda almashtirish tavsiya etiladi. Agar bunga imkoniyat yoki zarurat bo'lmasa, old yoki orqa shinalarni birgalikda almashtiring. Faqat bitta shinani almashtirish avtomobil boshqaruviga jiddiy ta'sir qiladi.
- Tavsiya etilgan o'lchamlardan boshqa shinalar va g'ildiraklardan foydalanish g'ayrioddiy boshqaruv xususiyatlariga va avtomobilni qoniqarsiz boshqarishga, bu esa jiddiy baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin.
- Kia texnik tavsifiga mos kelmaydigan g'ildiraklar yaxshi joylashmasligi va

avtomobil shikastlanishi yoki noodatiy boshqaruv va qoniqarsiz avtomobil boshqaruviga sabab bo'lishi mumkin.

- ABS g'ildiraklarning tezligini taqqoslash orqali ishlaydi. Shina o'lchami g'ildirak tezligiga ta'sir qiladi. Shinalarni almashtirishda 4 ta shinning barchasi avtomobildagi asl shinalar bilan bir xil o'lchamda, turda, strukturada va protektor andozasida bo'lishi lozim. Boshqa o'lchamdagi shinalardan foydalanish ABS (Blokirovkaga qarshi tormoz tizimi) va ESC (Elektron barqarorlikni boshqarish) tartibsiz ishlashiga olib kelishi mumkin.

G'ildirakni almashtirish

